

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ILM SARCHASHMALARI

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

5/2-son (may 2024)

**Ilmiy-nazariy, metodik jurnal
2001-yildan nashr qilina boshlagan**

Urganch – 2024

Bosh muharrir, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent **YO'LDOSHEV Ro'zimboy**

TAHRIR HAY'ATI:

ABDULLAYEV Bahrom, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),
ABDULLAYEV O'tkir, tarix fanlari doktori, professor (UrDU),
ATADJANOV Ilxam, geografiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),
ATAYEV Shokir, yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, (UrDU),
AHMEDOV Oybek Saporbayevich, filologiya fanlari doktori, professor (O'zDJTU),
BERDIMUROTOVA Alima, falsafa fanlari doktori, professor (QDU),
DO'SCHONOV Tangriborgan, iqtisod fanlari doktori, professor (UrDU),
ERMETOVA Jamila, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),
HAJIYEVA Maqsuda, falsafa fanlari doktori, professor (UrDU),
IBRAGIMOV Zafar, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent, (UrDU),
IMOMQULOV Sevdiyor, fizika-matematika fanlari doktori, professor (NavDPI),
JUMANAZAROV Doniyor, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),
JUMANIYOZOV Zohid Otaboyevich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),
KALANDAROV Aybek, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, (Ma'mun universiteti),
KAVALYAUSKAS Vidas, gumanitar fanlar doktori, professor (Litva universiteti),
KURAMBAYEV Sherzod Raimberganovich, texnika fanlari doktori, dotsent (UrDU),
MADRAXIMOVA Feruza Ruzimbayevna, pedagogika fanlari doktori, dotsent (UrDPI),
NAVRUZOV Qurolboy, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),
OTAMURODOV Sa'dulla, falsafa fanlari doktori, professor (Toshkent, Kimyo-texnologiya instituti),
QUTLIYEV Uchqun, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),
RUZMETOV Surojbek, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD, UrDU),
RO'ZIYEV Erkinboy, pedagogika fanlari doktori, professor (UrDU),
SADULLAYEV Azimboy, fizika-matematika fanlari doktori, akademik (O'zZMU),
SADULLAYEVA Nilufar Azimovna, filologiya fanlari doktori (O'zZMU),
SALAYEV San'atbek, iqtisod fanlari doktori, professor (Xorazm viloyati hokimligi),
SATIPOV G'oiqnazar, qishloq xo'jalik fanlari doktori, professor (UrDU),
XODJANIYOZOV Sardor, pedagogika fanlari doktori, dotsent (bosh muharrir o'rinbosari, UrDU),
YOQUBOV Jamoliddin, filologiya fanlari doktori, professor (O'zDJTU),
O'ROZBOYEV Abdulla, filologiya fanlari doktori, dotsent (UrDU),
O'ROZBOYEV G'ayrat, fizika-matematika fanlari doktori, (UrDU),
G'AYIPOV Dilshod, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul kotib, UrDU).

**JURNAL 2001-YILDAN CHIQA BOSHLAGAN•JURNAL
OYDA BIR MARTA NASHR QILINADI• 5/2-son (may 2024)**

MUASSIS: Urganch davlat universiteti •Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-noyabrda ro'yxatdan o'tgan •**GUVOHNOMA № 1131.**

Atanazarova Shoira Erkinovna (O‘zFA V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti kichik ilmiy xodimi, Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi; atanazarova94@gmail.com)

MAXSUS TIPDAGI MOSLANGAN MANBALI MANFIY TARTIBLI YUKLANGAN MODIFITSIRLANGAN KORTEVEG-DE FRIZ TENGLAMASINI INTEGRALLASH

Annatsiya. Ushbu maqolada maxsus tipdagi moslangan manbali manfiy tartibli yuklangan modifitsirlangan Korteveg-de Friz (KdF) tenglamasi “tez kamayuvchi” funksiyalar sinfida qaralgan. Asosiy natija potensiali qaralayotgan masalaning yechimi bo‘lgan Dirak operatorining sochilish berilganlari uchun evolutsion tenglamalarni keltirib chiqarishdan iborat.

Kalit so‘zlar: manfiy tartibli yuklangan modifitsirlangan Korteveg-de Friz tenglamasi, moslangan manba, sochilish nazariyasining berilganlari, xos qiymat, xos funksiya, Laks juftligi, potensial.

Атаназарова Шоира Эркиновна (младший научный сотрудник Института математики имени В.И. Романовского АНРУз, независимый исследователь Ургенчского государственного университета; atanazarova94@gmail.com)

ИНТЕГРИРОВАНИЕ НАГРУЖЕННОГО МОДИФИЦИРОВАННОГО УРАВНЕНИЯ КОРТЕВЕГА-ДЕ ФРИЗА ОТРИЦАТЕЛЬНОГО ПОРЯДКА СО СПЕЦИАЛЬНЫМ ИСТОЧНИКОМ

Аннотация. В данной статье исследуется нагруженное модифицированное уравнение Кортвега-де Фриза (КдФ) отрицательного порядка со специальным источником в классе «быстроубывающих» функций. Основной результат заключается в выводе эволюционных уравнений для данных рассеяния оператора Дирака, потенциал которого является решением рассматриваемой задачи.

Ключевые слова: нагруженное модифицированное уравнение Кортвега-де Фриза отрицательного порядка, самосогласованный источник, данные рассеяния, собственное значение, собственная функция, пара Лакса, потенциал.

Atanazarova Shoira Erkinovna (Junior researcher of the Institute of Mathematics at the Academy of Sciences of Uzbekistan, researcher of Urgench State University; atanazarova94@gmail.com)

INTEGRATION OF THE NEGATIVE ORDER LOADED MODIFIED KORTEVEG-DE VRIES EQUATION WITH A SPECIAL SOURCE

Annotation. In this article, we study the negative order loaded modified Korteweg-de Vries equation with a special source in the class of “rapidly decreasing” functions. The main result is the derivation of evolution equations for the scattering data of the Dirac operator the potential of which is solution of considered problem.

Key words: negative order loaded modified Korteweg-de Vries equation, self-consistent source, scattering data, eigenvalue, eigenfunction, Lax pair, potential.

Taqrizchi Urganch davlat universiteti dotsenti, f.-m.f.d. G‘.O‘.O‘razboyev

Kirish. Solitonlar nazariyasi va nochizikli evolutsion tenglamalar nazariyasi so‘nggi qirq yil ichida juda ko‘p tadqiqotchilarning e‘tiborini jalb qildi. Bu vaqt ichida bunday tenglamalarni integrallashning bir qancha usullari ishlab chiqildi. Bu usullardan biri sochilish nazariyasining teskari masalasi usulidir. Ma‘lumki, Korteveg-de Friz (KdF) tenglamasi integrallanuvchi nochizikli tenglama bo‘lib, nazariy fizika, xusususan, kvant fizikasi, akustika, mexanika va shu kabi ko‘plab sohalarda muhim ahamiyatga ega. Modifitsirlangan KdF tenglamasi KdF tenglamasining kengaytmasidan iborat bo‘lib, garmonik bo‘lmagan panjaralarda akustik to‘lqinni tavsiflovchi asosiy nochizikli to‘lqin tenglamalaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda musbat tartibli nochizikli tenglamalar [1] bilan bir qatorda, manfiy tartibli nochizikli evolutsion tenglamalarni tadqiq qilish sohasi sezilarli darajada kengayib bormoqda. So‘nggi yillarda manfiy tartibli KdF tenglamasini o‘rganish bo‘yicha bir qancha natijalarga erishildi [2–3]. Xususan, G‘.O‘.O‘razboyev, I.I.Baltayeva, M.M.Xasanov, Sh.E.Atanazarovalarning ishlarida moslangan manbali manfiy tartibli KdF va manfiy tartibli modifitsirlangan KdF tenglamalari davriy va “tez kamayuvchi” funksiyalar sinfida o‘rganilgan [4–5]. Manfiy tartibli modifitsirlangan Korteveg-de Friz tenglamasi A.M.Wazwaz va G.Q.Xularning ishlarida rekursiv operatorlar yordamida keltirib chiqarilgan [6]. Ushbu tenglamaning brizer yechimlari Jingqun Wang, Lixin Tian, Yingnan Zhanglar tomonidan bichizikli Xirota usuli yordamida topilgan [7].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur ishda maxsus ko‘rinishdagi moslangan manbali manfiy tartibli yuklangan modifitsirlangan KdF tenglamasi “tez kamayuvchi” funksiyalar sinfida sochilish nazariyasining teskari masalasi usuli yordamida integrallangan.

Tadqiqot vazifalari:

–potensial moslangan manbali manfiy tartibli yuklangan modifitsirlangan Korteveg-de Friz tenglamasining yechimi bo‘lgan Dirak operatorining spektral xarakteristikalarining vaqt bo‘yicha o‘zgarish dinamikasini o‘rganish;

–potensial moslangan manbali yuklangan manfiy tartibli modifitsirlangan Korteveg-de Friz tenglamasining yechimi bo‘lgan Dirak operatori uchun sochilish berilganlarining evolutsiyasini keltirib chiqarish.

Tahlil va natijalar. Ushbu

$$\begin{cases} \rho_{xx} = u^2 \\ u_{xt} + \alpha u + 2\rho_{xt}u = \gamma(t)u_x(0,t)u + \sum_{k=1}^{2N} (f_{k1}g_{k1} + f_{k2}g_{k2}), & \alpha \in \mathbb{R}, \\ Lf_k = \xi_k f_k, & Lg_k = \xi_k g_k, \quad k = 1, 2, \dots, 2N, \end{cases} \quad (1)$$

tenglamalar sistemasini quyidagi

$$u(x, 0) = u_0(x), \quad (2)$$

boshlang‘ich shartda qaraymiz, bu yerda $u = u(x, t)$ –yetarlicha silliq funksiya, ($x \in \mathbb{R}$, $t > 0$), $\gamma(t)$ –ixtiyoriy uzluksiz funksiya bo‘lib, $u_0(x)$ boshlang‘ich funksiya quyidagi shartlarni qanoatlantiradi:

$$1. \quad \int_{-\infty}^{+\infty} (1 + |x|)|u_0(x)|dx < \infty,$$

$$2. \quad L_0 = i \begin{pmatrix} d/dx & -u_0 \\ -u_0 & -d/dx \end{pmatrix} \text{ operator spektral maxsusliklarga ega emas va } 2N \text{ ta}$$

$\xi_1(0), \xi_2(0), \dots, \xi_{2N}(0)$ oddiy xos qiymatlarga ega bo‘lib, bunda $\text{Im } \xi_k(0) > 0$, $k = 1, \dots, N$.

Bundan tashqari, $f_k = (f_{k1}(x, t), f_{k2}(x, t))^T$ funksiya $L(t)$ operatorning ξ_k xos qiymatga mos keluvchi xos vektor-funksiyasi, $g_k = (g_{k1}(x, t), g_{k2}(x, t))^T$ funksiya esa $L(t)g_k = \xi_k g_k$ tenglamasining f_k funksiya bilan chiziqli erkli bo‘lgan yechimi bo‘lib,

$$W\{f_k, g_k\} \equiv f_{k1}g_{k2} - f_{k2}g_{k1} = \omega_k(t), \quad k = 1, 2, \dots, 2N, \quad (3)$$

munosabat o‘rinli, bu yerda $\omega_k(t)$ funksiya ushbu

$$\omega_n(t) = -\omega_k(t), \quad \xi_n = -\xi_k,$$

$$\text{Re} \left\{ \int_0^t \omega_k(\tau) d\tau \right\} < 2 \text{Im} \{ \xi_k(0) \}, \quad k = 1, 2, \dots, 2N, \quad (4)$$

shartlarni qanoatlantiruvchi oldindan berilgan uzluksiz funksiya.

Aytaylik, $u = u(x, t)$ uzluksiz funksiya ushbu

$$\begin{cases} \int_{-\infty}^{+\infty} (1 + |x|)|u(x, t)|dx < \infty, \\ \rho(0, t) = 0, \quad \rho_x(x, t) \rightarrow 1, & x \rightarrow \infty \\ \rho_{xx}(x, t) \rightarrow 0, \quad \rho_{xt}(x, t) \rightarrow 0, \quad u_{xt}(x, t) \rightarrow 0, & x \rightarrow \pm\infty. \end{cases} \quad (5)$$

shartlarni qanoatlantirsin.

Ushbu ishning asosiy maqsadi (1)-(5) masalaning $u(x,t)$, $\rho(x,t)$, $f_k(x,t)$, $g_k(x,t)$ yechimlarini L operator uchun sochilish nazariyasining teskari masalasi usuli yordamida topishdan iborat. (5) shartlarga asosan, ushbu

$$\begin{aligned} y_{1x} &= -i\xi y_1 + u(x)y_2 \\ y_{2x} &= i\xi y_2 - u(x)y_1 \end{aligned} \quad (6)$$

Dirak tenglamalar sistemasi $\varphi(x, \xi, t)$ va $\psi(x, \xi, t)$ Yost yechimlarga ega bo'lib, bu yechimlar quyidagi

$$\left. \begin{aligned} \varphi(x, \xi, t) &\rightarrow \begin{pmatrix} 1 \\ 0 \end{pmatrix} e^{-i\xi x} \\ \bar{\varphi}(x, \xi, t) &\rightarrow \begin{pmatrix} 0 \\ -1 \end{pmatrix} e^{i\xi x} \end{aligned} \right\}, \quad x \rightarrow -\infty \quad \left. \begin{aligned} \psi(x, \xi, t) &\rightarrow \begin{pmatrix} 0 \\ 1 \end{pmatrix} e^{i\xi x} \\ \bar{\psi}(x, \xi, t) &\rightarrow \begin{pmatrix} 1 \\ 0 \end{pmatrix} e^{-i\xi x} \end{aligned} \right\}, \quad x \rightarrow +\infty$$

asimptotikalar yordamida bir qiymatli aniqlanadi.

ξ parametrning haqiqiy qiymatlarida ushbu $\{\psi(x, \xi), \bar{\psi}(x, \xi)\}$ vektor-funksiya (6) sistemaning chiziqli erkli yechimlari juftidan iborat ekanligidan

$$\varphi(x, \xi, t) = a(\xi)\bar{\psi}(x, \xi, t) + b(\xi)\psi(x, \xi, t)$$

munosabat o'rinli, bunda $a(\xi) = W\{\varphi, \psi\} = \varphi_1\psi_2 - \varphi_2\psi_1$.

$a(\xi)$ funksiya $\text{Im } \xi > 0$ yuqori yarim tekislikka analitik davom qiladi va $|\xi| \rightarrow \infty$, $\text{Im } \xi \geq 0$ da ushbu $a(\xi) = 1 + O(1/|\xi|)$ asimptotikaga ega bo'ladi. Bundan tashqari, $a(\xi)$ funksiya $\text{Im } \xi > 0$ yarim tekislikda cheklita $\xi_k, k = 1, 2, \dots, N$ nollarga ega bo'lib, bu nollar L operatorning yuqori yarim tekislikdagi xos qiymatlaridan iborat bo'ladi. Shuning uchun

$$\varphi_k(x, t) = d_k \psi(x, t),$$

tenglik o'rinli, bunda $\varphi_k(x, t) = \varphi(x, \xi_k, t)$, $\psi_k(x, t) = \psi(x, \xi_k, t)$.

Ta'rif. Ushbu $\{r^+(\xi) = b(\xi)/a(\xi), C_k, \xi_k, k = 1, \dots, N\}$ to'plam (6) sistema uchun so-

chilish nazariyasining berilganlari deyiladi, bu yerda $C_k = \frac{d_k}{\dot{a}(\xi_k)}$, $\dot{a}(\xi_k) = \left. \frac{d(a(\xi))}{d\xi} \right|_{\xi=\xi_k}$.

$u(x, t)$ potensial ushbu

$$u(x) = -2K_1(x, x),$$

formula yordamida topilib, $K_1(x, y)$ yadro quyidagi

$$\begin{cases} K_2(x, y) + \int_x^\infty K_1(x, s)F(s+y)ds = 0 \\ -K_1(x, y) + F(x+y) + \int_x^\infty K_2(x, s)F(s+y)ds = 0, \end{cases}$$

$$F(x) = \frac{1}{2\pi} \int_{-\infty}^{+\infty} r(\xi) e^{i\xi x} d\xi - i \sum_{j=1}^N C_j e^{i\xi_j x}.$$

Gelfand-Levitan-Marchenko integral tenglamalar sistemasining yechimidan iborat. Ta'kidlash joizki, ushbu $h_n(x) = \frac{1}{\dot{a}(\xi_n)} \frac{d}{d\xi} (\varphi - d_n \psi) \Big|_{\xi=\xi_n}$, $n=1,2,\dots,N$, funksiyalar ham $Lh_n = \xi_n h_n$ tenglamaning yechimi bo'ladi. Bunda ushbu

$$W\{\varphi_n, h_n\} = \varphi_{n1} h_{n2} - \varphi_{n2} h_{n1} = -d_n, \quad (7)$$

munosabatlar o'rinli bo'lishini ko'rsatish mumkin, bu yerda $\varphi_n \equiv \varphi(x, \xi_n)$, $h_n = h(x, \xi_n)$, $n=1,2,\dots,N$.

Quyidagi

$$\begin{cases} \rho_{xx} = u^2 \\ u_{xt} + \alpha u + 2\rho_{xt} u = G \end{cases}$$

sistamani (2) boshlang'ich shartda qaraymiz, bu yerda $G = G(x, t)$, $t \geq 0$ – yetarlicha silliq funksiya bo'lib, $x \rightarrow \pm\infty$ da ushbu

$$G(x, t) = o(1).$$

xossaga ega.

[1] ishdagi metoddan foydalanib, quyidagi lemmani isbotlash mumkin.

Lemma. Agar $u(x, t)$ va $\rho(x, t)$ funksiyalar (6) sistemaning (5) sinfga tegishli yechimlaridan iborat bo'lsa, u holda (6) sistemaning sochilish berilganlari t vaqt bo'yicha quyidagicha o'zgaradi

$$\frac{dr^+(\xi, t)}{dt} = \frac{i\alpha}{2\xi} r^+(\xi, t) + \frac{i}{2\xi a^2(\xi)} \int_{-\infty}^{+\infty} G(\varphi_1^2 - \varphi_2^2) dx, \quad \text{Im } \xi = 0,$$

$$\frac{dC_n}{dt} = \left(\frac{i\alpha}{2\xi_n} + \frac{i}{2\xi_n} \int_{-\infty}^{\infty} G(h_{n1}\psi_{n1} - h_{n2}\psi_{n2}) dx - \frac{d(\dot{a}(\xi_n))}{\dot{a}(\xi_n)dt} \right) C_n, \quad n=1,2,\dots,N$$

$$\frac{d\xi_n}{dt} = \frac{i}{2\xi_n (\dot{a}(\xi_n))^2} \int_{-\infty}^{\infty} G(\varphi_{n1}^2 - \varphi_{n2}^2) dx.$$

h_n funksiya $Lh_n = \xi_n h_n$ tenglamaning yechimi bo'lgani uchun bu funksiya uchun quyidagi

$$h_n = \frac{\beta_n}{\dot{a}(\xi_n)} \varphi(x, \xi_n) + \alpha_n g_n, \quad n=1,2,\dots,N$$

tasvir o'rinli. (7) tenglikka asosan, $\alpha_n = -\frac{c_n^- d_n}{\omega_n}$ bo'lib, c_n^- son $f_n = c_n^- \varphi_n$ tenglikdan aniqlandi.

Bundan tashqari, (3) shartdan ushbu

$$W\{h_n, g_n\} = \frac{\beta_n \omega_n}{\dot{a}(\xi_n) c_n^-}, \quad n=1,2,\dots,N$$

tenglik o'rinli bo'lishini topamiz.

Yuqorida keltirilgan Lemmani (1)-(5) masalaga qo'llaymiz. $G = G(x, t)$ funksiyani quyidagi

$$G(x, t) = \gamma(t) u_x(0, t) u + 2 \sum_{\substack{k=1, \\ \text{Im } \xi_k > 0}}^N (f_{k1} g_{k1} + f_{k2} g_{k2})$$

ko'rinishda tanlab, ushbu teoreмага kelamiz.

Teorema. Aytaylik, $u(x, t)$, $\rho(x, t)$, $f_k(x, t)$, $g_k(x, t)$, $k=1,2,\dots,N$ - funksiyalar (1) – (5) masalaning yechimi bo'lsin. U holda (6) sistemaning sochilish berilganlari t vaqt bo'yicha quyidagicha o'zgaradi:

$$\frac{dr^+(\xi, t)}{dt} = \left(\frac{i\alpha}{2\xi} - \frac{i\gamma(t)u_x(0, t)}{2\xi} \right) r^+(\xi, t) \quad \text{Im } \xi = 0,$$

$$\frac{dC_n}{dt} = \left(\frac{i\alpha}{2\xi_n} - \frac{i\gamma(t)u_x(0, t)}{4\xi_n} - \frac{\beta_n(t)\omega_n}{2\xi_n} - \frac{d(\dot{\alpha}(\xi_n))}{\dot{\alpha}(\xi_n)dt} \right) C_n, \quad n = 1, 2, \dots, N.$$

$$\frac{d\xi_n(t)}{dt} = -\frac{\omega_n(t)}{2\xi_n(t)}.$$

Xulosa. Hosil qilingan tengliklar $L(t)$ operator sochilish berilganlarining vaqtga bog'liqligini to'la aniqlaydi, bu esa (1)-(5) masalaning sochilish nazariyasining teskari masalasi usuli yordamida yechish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Khasanov A.B., Urazboev G.U. Solution of the general KdV equation in the class of step functions. Journal of Mathematical Sciences, 2006, 136, 3625–3640.
- [2]. Qiao Z., Li J. Negative-order KdV equation with both solitons and kink wave solutions. Europhysics Letters. 2011, Vol. 94, pp. 50003.
- [3]. Qiao Z.J., Fan E.G. Negative-order Korteweg-de Vries equations. Phys. Rev. 2012. Vol. 86, pp. 16601.
- [4]. Уразбоев Г.У., Хасанов М.М., Балтаева И.И. Интегрирование уравнения Кортевега-де Фриза отрицательного порядка с источником специального вида. Известия Иркутского государственного университета. Серия Математика. 2023, т. 44, с. 31 – 43.
- [5]. Urazboev G.U., Baltaeva I.I., Atanazarova Sh.E. Soliton Solutions of the Negative Order Modified Korteweg-de Vries Equation. Известия Иркутского государственного университета. Серия Математика. 2024, т. 47, с. 63 – 77 [6]. Wazwaz A.M., Xu G.Q. Negative order modified KdV equations: multiple soliton and multiple singular soliton solutions. Mathematical methods in the Applied Sciences, 2016, vol. 39.
- [7]. Jingqun Wang, Lixin Tian, Yingnan Zhang. Breather solutions of a negative order modified Korteweg-de Vries equation and its nonlinear stability. Physics Letters A, 2019, vol. 383, pp. 1689 – 1697.

Namozov Jasur Shoqulovich (Toshkent Kimyo-texnologiya instituti “Oliy matematika” kafedrasi tayanch doktoranti; Email: jasurnamozov786@gmail.com)

TO‘G‘RI TO‘RTBURCHAKLI UCH QATLAMTLI QOVUSHOQ-ELASTIK PLASTINKANING ERKIN TEBRANISHI

Annotatsiya. Bu ishda to‘g‘ri to‘rtburchakli uch qatlamli qovushoq-elastik plastinkani erkin tebranishidagi xos chastotalari va tebranishlar formasini topish masalasining qo‘yilishi, echish metodikasi, algoritimi va sonli natijalarni tahlili keltirilgan. Uch qatlamli qovushoq-elastik plastinkani tebranishlar tenglamasi mumkin bo‘lgan kuchish prinsipi bilan olindi. Materiallarni qovushoqligi Bolsman – Volterraning irsiy integrali va Rijanitsin-Koltunovning uch parametirli kuchsiz singulyar yadro orqali hisobga olinadi. Qo‘yilgan masaladan MATLAB dasturiy ta‘minot asosida sonli natijalar olingan. Sonli natijalarni tahlili asosida yumshoq qatlam qalinligi oshib borishi bilan chastotalar (0-0.4) oralig‘ida 20% atrofida kamayib asimtotika qarab intilishi topilgan. Chastotalarning mavhum qismlari esa logarifmik qonun asosida oshib borishi topilgan.

Kalit so‘zlar: chastota, so‘nish koeffitsiyenti, qovushoqlik, plastinka, tebranishlar formasi.

Намозов Джасур Шокулович (Ташкентский Химико-технологический институт, докторант кафедры «Высшая математика»; jasurnamozov786@gmail.com)

СВОБОДНОЕ КОЛЕБАНИЕ ПРЯМОУГОЛЬНОЙ ТРЕХСЛОЙНОЙ ВЯЗКОЭЛАСТИЧНОЙ ПЛАСТИНЫ

Аннотация. В данной работе представлена задача нахождения характерных частот и формы колебаний прямоугольной трехслойной вязкоупругой пластины в условиях свободных колебаний, методика решения, алгоритм и анализ численных результатов. Уравнение колебаний трехслойной вязкоупругой пластины получено по принципу возможной силы. Вязкость материалов рассчитывается с помощью наследственного интеграла Больсмана-Вольтерра и трехпараметрического слабого сингулярного ядра Рияницына-Колтунова. На основе программного обеспечения MATLAB были получены численные результаты решения данной задачи. На основе анализа численных результатов установлено, что с увеличением толщины мягкого слоя асимптотическая тенденция

уменьшается на 20% в диапазоне частот (0-0,4). Было обнаружено, что абстрактные части частот возрастают по логарифмическому закону.

Ключевые слова: частота, коэффициент демпфирования, вязкость, пластина, форма колебаний.

Namozov Jasur Shokulovich (Tashkent Institute of Chemistry and Technology Doctoral student of the "Higher Mathematics" department; Email: jasurnamozov786@gmail.com)

FREE VIBRATION OF A RECTANGULAR THREE-LAYER VISKOELASTIK PLATE

Annotation. In this work, the problem of finding the characteristic frequencies and form of oscillations of a rectangular three-layered visco-elastic plate in free vibration, solution methodology, algorithm and analysis of numerical results are presented. The three-layer visco-elastic plate vibration equation was obtained by the principle of possible force. Viscosity of materials is calculated by Bolsman-Volterra hereditary integral and Rijanitsin-Koltunov three-parameter weak singular kernel. Based on the MATLAB software, numerical results were obtained from the given problem. Based on the analysis of the numerical results, it was found that with the increase in the thickness of the soft layer, the asymptotic tendency decreases by 20% in the range of frequencies (0-0.4). The abstract parts of the frequencies were found to increase according to the logarithmic law.

Key words: frequency, damping coefficient, viscosity, plate, shape of vibrations.

Taqrizchi f-m.f.d., professor Safarov I.I.

Kirish. Jahonda, texnika va harakatlanuvchi transportlarda uchraydigan juda ko'p konstruksiya elementlari ko'p qatlamli plastinka va qobiqlardan tashkil topgan bo'lib, bunday plastinkalar boshqa detallar bilan o'zaro ta'sirlashganda, ularning dinamik holatini tahlil qilish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bu borada ko'pgina xorijiy davlatlarida, jumladan, AQSH, Kanada, Rossiya va boshqa davlatlarda harakatlanuvchi transportdagi vibratsiya va shovqinga qarshi kurashish muommosini yechish uchun uch qatlamli plastinkalardan foydalanish samarali ekanligiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ko'p qatlamli qovushoq-elastik plastinka so'nuvchi tebranishlarini ifodalovchi tenglamasini Donnel nazariyasi va Kirxgof gipotezasiga asoslanib, hamda kompleks elastiklik modulidan foydalanib olinadi [1,2,3]. Chekli elimentlar usulini qo'llab, ko'p qatlamli plastinka tebranishlari masalasini echishda transfer matritsalar usulini (TMU) qo'lash samarali ekanligi [4,5] ishda tadqiqotchilar tomonidan ko'rsatib berilgan. Qovushoq-elastik ko'p qatlamli plastinkalardan tashkil topgan konstruksiya chastotalarini oshirish va energiya dissipatsiyasini maksimumga chiqarish imkonini beradi [6,7]. Bu ishda TMU usuli ko'p qatlamli qovushoq-elastik plastinka uchun qo'lailadi. Shular bilan bir qatorda, qatlamlar soni, har bir qatlamning qalinligi va joylashuvining tebranishlar amplitudasi va energiya dissipatsiyasiga ta'siri muhokama qilinadi. Asosiy maqsad ko'p qatlamli plastinkalar erkin tebranishlar chastotasini samarali ravishda boshqarish (oshirish yoki kamaytirish) va yuqori dissipativlik koeffitsiyentni olishga ko'proq imkon berishini isbotlashdan iboratdir. Misol tariqasida uch qatlamli plastinka olingan [8,9,10]. Bir jinsli dissipativ mexanik sistema uchun dempirlash koeffitsiyenti qatlamlar sonini oshib borishi bilan oshib boradi. Qatlamlarni simmetirik joylashuvi energiya dissipatsiyasini yuqori bo'lishi va unga mos formalarni topish asosiy maqsad xisoblanadi.

Masalani qo'yilishi va yechish metodikasi. To'rtburchakli uch qatlamli plastinkani erkin tebrani-shini ko'rib chiqamiz, unda to'rtta burchaklari qo'zgalmas sharnir bilan mahkamlangan. Plastinkani biror burchaklaridan birida biz OXY dekart koordinatalar sistemasini joylashtiramiz. O'lchamlari OX va OY o'qlari bo'ylab plastinkani, mos ravishda, a va b deb belgilangan tomonlarda yotadi. To'rtburchakli uch qatlamli plastinkani erkin egilishdagi tebranishlarining variatsion tenglamasi ikkinchi bobdan kelib chiqsak, quyidagicha bo'ladi. Normalni buralishini ham hisobga olsak, variatsion tenglama quyidagicha bo'ladi

$$\begin{aligned} & \int_0^a \int_0^b \left[\left(D_{11} \frac{\partial \theta_x}{\partial x} + D_{12} \frac{\partial \theta_y}{\partial y} \right) \delta \left(\frac{\partial \theta_x}{\partial x} \right) + \left(D_{12} \frac{\partial \theta_x}{\partial x} + D_{22} \frac{\partial \theta_y}{\partial y} \right) \delta \left(\frac{\partial \theta_y}{\partial x} \right) \right] dx dy + \\ & + \int_0^a \int_0^b \left[\left(D_{33} \frac{\partial \theta_x}{\partial y} + D_{12} \frac{\partial \theta_y}{\partial x} \right) \delta \left(\frac{\partial \theta_x}{\partial y} \right) + D_{33} \left(\frac{\partial \theta_x}{\partial y} + \frac{\partial \theta_y}{\partial x} \right) \delta \left(\frac{\partial \theta_y}{\partial x} \right) + K_x \left(\theta_x + \frac{\partial w}{\partial x} \right) \delta \theta_x \right] dx dy + \\ & + \int_0^a \int_0^b \left[K_x \left(\theta_x + \frac{\partial w}{\partial x} \right) \delta \left(\frac{\partial w}{\partial x} \right) + K_y \left(\theta_y + \frac{\partial w}{\partial y} \right) \delta \theta_y + K_y \left(\theta_y + \frac{\partial w}{\partial y} \right) \delta \left(\frac{\partial w}{\partial y} \right) - \omega^2 B_p w \delta w \right] dx dy = 0. \end{aligned} \quad (1)$$

Bu yerda: $w = w(x, y, t)$ – plastinka salqiligi; $\theta_x = \theta_x(x, y, t)$, $\theta_y = \theta_y(x, y, t)$ – normalni buralish burchagi; $D_{11}, D_{12}, D_{21}, D_{22}, D_{23}$ – uch qatlamli plastinkani egilishdagi bikirligi; $D_{21} = D_{12}$, K_x, K_y –

uch qatlamli plastinkani siljishdagi bikirligi, B_p – inersial parametr, ω – kompleks chastota. Quyidagi parametrlar w, θ_x, θ_y – uch qatlamli plastinkani egilishdagi tebranishda tebranishlar formasini ifoda qiladi. Agar (1) tenglamada variatsilash amalini bajarsak, quyidagi ko‘rinishda tenglama olamiz:

$$\begin{aligned} \int_0^a \int_0^b L \delta w dx dy - \int_0^b [Q_x \delta w]_0^a dy - \int_0^a [Q_y \delta w]_0^b dx &= 0, \\ \int_0^a \int_0^b L_x \delta \theta_x dx dy - \int_0^b [M_x \delta \theta_x]_0^a dy - \int_0^a [M_{xy} \delta \theta_x]_0^b dx &= 0, \\ \int_0^a \int_0^b L_y \delta \theta_y dx dy - \int_0^b [M_{xy} \delta \theta_y]_0^a dy - \int_0^a [M_y \delta \theta_y]_0^b dx &= 0, \end{aligned} \quad (2)$$

bunda

$$\begin{aligned} L &= K_x \frac{\partial^2 w}{\partial x^2} + K_y \frac{\partial^2 w}{\partial y^2} + K_x \frac{\partial \theta_x}{\partial x} + K_y \frac{\partial \theta_y}{\partial y} + B_p \omega^2 w, \\ L_x &= -K_x \frac{\partial w}{\partial x} + D_{11} \frac{\partial^2 \theta_x}{\partial x^2} + D_{33} \frac{\partial^2 \theta_x}{\partial y^2} - K_x \theta_x + (D_{12} + D_{33}) \frac{\partial^2 \theta_y}{\partial x \partial y}, \\ L_y &= -K_y \frac{\partial w}{\partial y} + D_{22} \frac{\partial^2 \theta_y}{\partial y^2} + D_{33} \frac{\partial^2 \theta_y}{\partial x^2} - K_y \theta_y + (D_{12} + D_{33}) \frac{\partial^2 \theta_x}{\partial x \partial y}, \\ Q_x &= K_x \left(\theta_x + \frac{\partial w}{\partial x} \right), \quad Q_y = K_y \left(\theta_y + \frac{\partial w}{\partial y} \right), \end{aligned}$$

Uch qatlamli plastinkaning asosiy chastotasini aniqlashning samarali usuli Galyorkinning taqribiy usulini qo‘lashdan iborat. Buning uchun salqilik $w(x, y), \theta_x(x, y), \theta_y(x, y)$ – analitik ko‘rinishdagi ifodalar bilan almashtirib olinadi, OX, OY o‘qlari bo‘ylab

$$\begin{aligned} w &= AU_x + BU_y + CU_x U_y, \\ \theta_x &= DV_x + PV_x U_y, \\ \theta_y &= FV_y + TV_x V_y, \end{aligned} \quad (3)$$

bu yerda: A,B,C,D,F,P,T– noma'lum kattaliklar; U_x, V_x, U_y, V_y – approksimatsiya qilingan funksiyalar bo‘lib, quyidagi ko‘rinishlarga ega:

$$\begin{aligned} U_x(x) &= \sin \lambda_1 x, \quad V_x(x) = \cos \lambda_1 x, \quad U_y(y) = \sin \lambda_2 y, \quad V_y(y) = \cos \lambda_2 y, \\ \lambda_1 &= \pi / a, \quad \lambda_2 = \pi / b. \end{aligned}$$

Oxirgi olingan funksiyalar variatsiyasi quyidagicha bo‘ladi:

$$\begin{aligned} \delta w &= U_x \delta A + U_y \delta B + U_x U_y \delta C, \\ \delta \theta_x &= V_x \delta D + V_x U_y \delta P, \\ \delta \theta_y &= V_y \delta F + U_x V_y \delta T, \end{aligned} \quad (4)$$

Ixtiyoriy o‘zgarmlar (3) va (4) dan topiladi. Ular bir jinsli algebraik tenglamalar sistemasini tashkil etadi. Bir jinsli algebraik tenglamalar sistemasi trivial bo‘lmagan yechimga ega bo‘lishi uchun asosiy aniqlovchisi nolga teng bo‘lishi kerak. Bundan quyidagicha kubik tenglamani olamiz $\gamma_3 \Omega^3 + \gamma_2 \Omega^2 + \gamma_1 \Omega + \gamma_0 = 0$. Agar qovushoq-elastic mexanik sistema o‘rganilsa, u holda kubik tenglama hadlari oldidagi koeffitsiyentlar $\gamma_0(\omega_R), \gamma_1(\omega_R), \gamma_2(\omega_R), \gamma_3(\omega_R)$ chastotani haqiqiy qismiga bog‘liq bo‘ladi. Bu yerda $\Omega = \omega^2$, $\omega = 2\pi f$, f – chastota bo‘lib, Gs o‘lchanadi. Bu ishlab chiqilgan metodika bo‘yicha birinchi asosiy chastota topiladi

$$f = \frac{1}{2\pi} \sqrt[3]{\frac{\sqrt[3]{12\gamma_3(3\gamma_1\gamma_2 - 9\gamma_0\gamma_3) + \sqrt{(12\gamma_1^3\gamma_3 - 3\gamma_1^2\gamma_2^2 - 54\gamma_3\gamma_2\gamma_1\gamma_0 - 81\gamma_0^2\gamma_3^2 + 12\gamma_2^3\gamma_0)}} - 8\gamma_2^2}{16\gamma_3(12\gamma_1\gamma_3 + 4\gamma_2^2 - 2\gamma_2)}} - \frac{1}{2\gamma_3}}.$$

Tahlil va natijalar. Uch qatlamli qovushoq-elastik to'rtburchakli turli xil o'lchamdagi va qalinlikdagi plastinkalarni asosiy chastotasini topish bilan shug'ullanamiz. Tashqi qatlamli plastinkalarni parametrlari quyidagicha :

$$E_x = 50 \text{ ГПа}, E_y = 50 \text{ ГПа}, G_{xy} = 21 \text{ ГПа}, G_{xz} = G_{yz} = 4 \text{ ГПа}, \nu_{xy} = \nu_{yx} = 0.30, \rho = 1500 \text{ кг} / \text{м}^3$$

To'ldiruvchini fizik-mexanik xususiyati quyidagicha:

$$G_{xz} = 400 \text{ МПа}, G_{yz} = 220 \text{ МПа}, \rho = 83 \text{ кг} / \text{м}^3.$$

Plastinkaning o'lchamlari quyidagicha: b=1m, a=0.5;1;2 m. Tashqi qatlam qalinligi h quyidagicha 0.001 va 0.002, to'ldiruvchini qalinligi 0.01,0.05,0.1 m. Relaksatsiya yadrosi $R_k(t) = A_k e^{-\beta_k t} / t^{1-\alpha_k}$ ning parametrlari

$A = 0,048, \beta = 0,05$ va $\alpha = 0,1$ ga teng. Olingan sonli natijalar 1 va 2-jadvallarda keltirilgan.

1-jadval

h_0, m	Asosiy chastotani haqiqiy qismining qalinligiga bog'liq o'zgarishi					
	$h_z(a=1, b=2)$	$h_z(a=1, b=2)$	$h_z(a=1, b=2)$	$h_z(a=1, b=2)$	$h_z(a=1, b=2)$	$h_z(a=1, b=2)$
	0.01m	0.05m	0.1m	0.01m	0.05m	0.1m
0.002	35,40323	115,8264	176,7201	29,7564	87,9423	146,0646
0.004	41,46511	150,1305	251,4235	32,8465	114,3162	178,0835

2-jadval

h_0, m	Asosiy chastotani mavhum qismining qalinligiga bog'liq o'zgarishi					
	$h_z(a=1, b=2)$	$h_z(a=1, b=2)$	$h_z(a=1, b=2)$	$h_z(a=1, b=2)$	$h_z(a=1, b=2)$	$h_z(a=1, b=2)$
	0.01m	0.05m	0.1m	0.01m	0.05m	0.1m
0.002	0.1525	1.8275	1.9332	0.1246	0.7719	1.4606
0.004	0.5416	2.5025	3.5452	0.4313	2.1041	3.1708


Bu olingan natijalar MATLAB dasturiy ta'minot asosida olingan. Bunday natijalar ABAQUS dasturiy ta'minoti orqali xam olindi Natijalar 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval


h_0, m	Asosiy chastotani qalinligiga bog'liq o'zgarishi					
	$h_z(a=1, b=2)$	$h_z(a=1, b=2)$	$h_z(a=1, b=2)$	$h_z(a=1, b=2)$	$h_z(a=1, b=2)$	$h_z(a=1, b=2)$
	0.01m	0.05m	0.1m	0.01m	0.05m	0.1m
0.002	34,2917	113,2782	174,5472	27,5475	85,1527	144,9264
0.004	39,2854	147,2374	191,4123	30,7473	112,9231	176,1083

Ko'rinib turibdiki, ikki dasturiy ta'minot asosida olingan chastotalarni haqiqiy qismlari orasidagi farq 15% farq bilan ustma-ust tushar ekan. Bu ABAQUS dasturiy ta'minotini sonli yechish usuliga asoslanganligi bilan izohlanadi. Bu maqolada, asosan, eng kichik kompleks chastotani haqiqiy va mavhum qismlarini topish metodikasi va natijalari keltirildi. Agar dissipativ bir jinsli mexanik sistema ko'rilsa, u holda bu metodika (asosiy chastotani topish) to'liq mexanik sistemani holatini xarakterlab beradi. Agar mexanik sistema dissipativ bir jinsli bo'lmasa, u holda boshqa yuqori chastotalar va ularni mavhum qisimlarini xam tekshirish kerak bo'ladi.


Olingan sonli natijalar 1-, 2- va 3-rasmlarda keltirilgan.



1-rasm. Erkin tebranishlar chastotasining o'rtta yumshoq qatlam qalinligiga bog'liq o'zgarishi.




2-rasm. So'nish koeffitsiyentining o'rtta yumshoq qatlam qalinligiga bog'liq o'zgarishi.




3-rasm. Erkin tebranishlar chastotasining o'rtta yumshoq qatlam qalinligiga bog'liq o'zgarishi.

Bu rasmlarda erkin tebrnishlar chastotasini haqiqiy va mavhum qisimlarini oltititaga tebranish chastotasini haqiqiy va mavhum qismlari topilgan. O'rganiladigan mexanik sistema dissipativ bir jinisli holat uchun olingan. Yumshoq qatlam qalinligi oshib borishi bilan chastotalar (0-0.4) oraligida 20% atrofida kamayib, asimtotika qarab intiladi. Mavhum qismlari esa logarifmik qonun asosida oshib borgan.

Uch qatlamli plastinkaning hisob sxemasi 4-rasmda keltirilgan. Tebranishlar formasi esa 5 va 6-rasmlarda keltirilgan.



4-rasm. Uch qatlamli plastinkaning hisob sxemasi.



5-rasm. Plastinkaning 1-tebranishlar formasi.

Shunday qilib, bu maqolada uch qatlamli plastinkaning erkin tebranishlarini o'rganish metodikasi, algoritimi va sonli natijalari keltirildi.

Xulosa va takliflar. Mumkin bo'lgan ko'chish prinsipidan foydalanib, erkin tebranishlarini ifodalovchi chiziqli xususiy hosilali integro-differensial tenglamalar sistemasi olindi. Ularni qanoatlantiruvchi chegaraviy va boshlang'ich shartlar keltirildi. Masalalarning matematik qo'yilishi, yechish metodikasi va algoritmi ishlab chiqildi. Uch qatlamli va ko'p qatlamli qatlamli plastinka erkin tebranishlarini masalalarni yechilish qovushoqligini hisobga olib o'rganish algoritimi MATLAB dasturiy ta'minoti asosida ishlab chiqildi. Ko'p qatlamli fazoviy plastinkalarda masalani yechish metodikasi va sonli (CHEU) yarim algoritimi ishlab chiqildi va sonli natijalar olindi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Nguyen Ch., Butukuri RR., Chandrashekhara K., Birman V. Dynamics and buckling of sandwich panels with stepped facings. International Journal of Structural Stability and Dynamics. 2011; 11(4), 697–716. DOI: 10.1142/S0219455411004300.
- (2). Nguyen Ch., Chandrashekhara K., Birman V. Enhanced static response of sandwich panels with honeycomb cores through the use of stepped facings. Journal of Sandwich Structures & Materials. 2011;13(2):237–260. DOI:10.1177/1099636210369615.
- (3). Старовойтов Э.И., Поддубный А.А. Изгиб трехслойного стержня со ступенчато-переменной границей, частично опертого на упругое основание. Механика машин, механизмов и материалов. 2011, 1, с. 51–55.

(4). Леоненко Д.В. Упругий изгиб круговой трехслойной пластины ступенчато-переменной толщины. *Механика машин, механизмов и материалов*. 2021;1. 25–29. DOI:10.46864/1995-0470-2020-1-54-25-29.

(5). Парфенова В.С. Деформирование круглой упругой трехслойной пластины со ступенчато-переменной границей. В кн. *Механика. Исследования и инновации*. Выпуск 10. Мечанисс. Ресерчес анд Инноватионс. Вolumes 10. Gomel, 2017, с. 157–163.

(6). Зорич В.А. Математический анализ. Часть 1. 6-е издание. Москва, Издательство МСНМО, 2012, ХВИИИ, 702 с.

(7). Bauchau O.A., Craig J.I. Structural analysis. With applications to aerospace structures. Dordrecht: Springer; 2009. Chapter 16, Kirchhoff plate theory, p. 819–914 (Gladwell GML, editor. Solid mechanics and its applications; volume, 163).

(8). Леоненко Д.В., Маркова М.В. Колебания круговой трехслойной пластины под действием линейной во времени внешней нагрузки. *Журнал Белорусского государственного университета. Математика. Информатика*. 2023, 1, 49–63.

(9). Штамм К., Витте Х. Многослойные конструкции. М., Стройиздат, 1983, с. 300.

(10). Сейтлин А.И., Неустоев Э.А., Пичугин А.А., Сафонов А.А. Разработка конструкции высоконагруженных слоистых резиноталлических виброизоляторов, применяемых для виброзащиты зданий. *Научный журнал строительства и архитектуры*, 2008, № 4, с. 48–52.

**Xujamov Jumanazar Urozmetovich (Urganch davlat universiteti dotsenti; e-mail: xjumanazar@gmail.com),
Iskandarova Zarnigor G'ayrat qizi (Urganch davlat universiteti magistranti;
e-mail: zarnigoriskandarova1009@gmail.com)**

BUTUN KOEFFITSIYENTLI CHIZIQLI TENGLAMANING BUTUN YECHIMI MAVJUDLIGI HAQIDA

Аннотация. Ushbu maqolada koefitsiyentlari butun sonlardan iborat bo'lgan n ta noma'lumli chiziqli tenglamaning butun yechimi mavjudligi ko'rsatilgan. Tenglamaning xususiy yechimi topilib, shu orqali butun yechiminin mavjudligini matematik induksiya metodi yordamida isbotlash keltirilgan. Misollar yordamida yoritib berilgan.

Калит so'zlar: tenglama, tenglamaning butun yechimi, eng katta umumiy bo'luvchi, xususiy yechim, umumiy yechim, matematik induksiya metodi.

**Худжамов Джуманазар Урозметович (доцент Ургенчского государственного университета;
e-mail: xjumanazar@gmail.com),**

**Искандарова Зарнигор (студентка Ургенчского государственного университета;
e-mail: zarnigoriskandarova1009@gmail.com)**

O SUJESTVOVANIJI POLNOGO REJENIJA LINEJNOGO URAVNEIJA S CELYMI KOEFFIJIENIAMI

Аннотация. В данной статье показано, что существует полное решение n неизвестных линейных уравнений с целыми коэффициентами. Находится частное решение уравнения, тем самым методом математической индукции доказывается существование всего решения. Объясняется на примерах.

Ключевые слова: уравнение, целое решение уравнения, наибольший общий делитель, частное решение, общее решение, метод математической индукции.

**Khujamov Jumanazar (associate professor of Urganch State University; e-mail: xjumanazar@gmail.com),
Iskandarova Zarnigor (master's degree student of Urganch State University;
e-mail: zarnigoriskandarova1009@gmail.com)**

THE ENTIRE SOLUTION OF A LINEAR EQUATION WITH ALL THE COEFFICIENTS ABOUT ITS EXISTENCE

Annotation. This paper shows that there is a complete solution of an unknown linear equations with integer coefficients. A particular solution of the equation is found, thereby proving the existence of the entire solution using the method of mathematical induction. It is explained with the help of examples.

Key words: equation, integer solution of the equation, the greatest common divisor, special solution, general solution, mathematical induction method.

Kirish. Ushbu maqolada koefitsiyentlari butun sonlardan iborat bo'lgan n ta noma'lumli chiziqli tenglamaning butun yechimi mavjudligi ko'rsatilgan. Bunday turdagi chiziqli tenglamani hisoblash uchun biz bir nechta qadamdan iborat bo'lgan urinishlarni amalga oshiramiz. Ulardan dastlabkisi induksiya usulidir.

$a_1x_1 + a_2x_2 + \dots + a_nx_n = d$ ko'rinishidagi tenglamani yechishda yana bizga EKUB tushunchasi ham kerak bo'ladi, sababi bu tushuncha orqali biz sonlarning o'zaro tubligini ham ko'zrasatib o'tishimiz kerak. Chunki bunday tipdagi tenglamalarda o'zaro tub sonlar tushunchasi ham juda zarur bo'ladi. Bunday tipdagi tenglamalarni, asosan, o'quvchilar o'rtasidagi viloyat va respublika olimpiadalarida uchratishimiz mumkin. Bu maqola orqali aynan shunday tenglamalar tushganda qanday qilib tez va to'g'ri yechim topish mumkinligi ko'rsatib o'tilgan.

Adabiyotlar tahlili. Ushbu $a_1x_1 + a_2x_2 + \dots + a_nx_n = d$ (1)

ko'rinishdagi tenglamaga n ta noma'lumli chiziqli tenglama deyiladi. Bunda

$a_i \in \mathbb{Z} (i = \overline{1, n}, n \in \mathbb{N}, n \geq 2)$ va $d \in \mathbb{Z}$.

(1) tenglamaning butun yechimi deb,

$$x = (x_1, x_2, x_3, \dots, x_n) \in \mathbb{Z}^n \quad (x_i \in \mathbb{Z}, i = \overline{1, n}, n \in \mathbb{N})$$

vektorga aytiladi. (1) tenglamaning butun yechimining mavjudligini isbotlash va uni topish masalasi matematikaning qiziqarli masalalaridan biridir. Agar $n = 1$ bo'lsa, (1) tenglama butun yechimga ega bo'lishi uchun $d = 0 \pmod{a_1}$ bo'lishi kerak. Shu shart bajarilsa, tenglama yagona yechimga ega bo'ladi. (1) ko'rinishdagi tenglamalar D.Papp, B.Vizvari [1], A.Imomov, Y.Khodjaev [2], T.Andreescu, D.Andrica, I.Cucurezeanu [3], M.Hayitov va M.Mamajanov [4] ishlarida ham o'rganilgan. Ularning barchasida $n = 2$ holatda umumiy butun yechim berilgan va istalgan $n \in \mathbb{N} (n \geq 3)$ holatda umumiy yechimni berishga harakat qilingan. Bu ishda ularning ishidan farqli tomoni $n = 2$ holatda umumiy butun yechimi topiladi va $n \geq 3$ da (1) tenglamaning umumiy butun yechimini mavjudligi ko'rsatiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Faraz qilaylik, (1) tenglama biror butun $x^0 = (x_1^0, x_2^0, \dots, x_n^0)$ – xususi yechimga ega bo'lsin. U holda (1) tenglama

$$a_1(x_1 - x_1^0) + a_2(x_2 - x_2^0) + \dots + a_n(x_n - x_n^0) = 0 \quad (2)$$

ko'rinishiga keladi. Umumiylikka zid ish qilmagan holda, $EKUB(|a_1|, |a_2|, \dots, |a_n|) = 1$ deb qarashimiz mumkin. Aks holda, agar $EKUB(|a_1|, |a_2|, \dots, |a_n|) = r > 1$ bo'lsa, (2) tenglamaning har ikkala tomoni d ga bo'lib, (2) tenglamani yuqorida aytilgan holatga keltirish mumkin.

Agar $|a_1| = |a_2| = \dots = |a_n|$ bo'lsa, (2) tenglama

$x_1 - x_1^0 = \pm(x_2 - x_2^0) \pm(x_3 - x_3^0) \pm \dots \pm(x_n - x_n^0)$ ko'rinishiga keladi. U holda istalgan

$x_i \in t_{i-1} (t_{i-1} \in \mathbb{Z}, i = \overline{2, n})$ uchun $x_i = x_i^0 \pm(t_1 - x_2^0) \pm \dots \pm(t_{n-1} - x_n^0)$ bo'lib, (2)

tenglamaning barcha butun yechimlari $x = \left(x_1^0 + \sum_{i=2}^n (\pm(t_{i-1} - x_i^0)), t_1, t_2, \dots, t_{n-1} \right)$ ko'rinishida bo'ladi.

Aytaylik, shunday $i, j \in \mathbb{N}$ sonlar topilib, $|a_i| \neq |a_j|$ bo'lsin. Umumiylikka zid ish qilmagan holda $|a_1| \neq |a_2|$ deb qarashimiz mumkin. U holda (2) tenglamani

$$a_1(x_1 - x_1^0) + a_2(x_2 - x_2^0) = -\sum_{k=3}^n a_k(x_k - x_k^0) \quad (3)$$

ko'rinishda yozib olamiz. Agar

$x_i(x_i - x_i^0 = EKUB(|a_1|, |a_2|)c_i, c_i \in \mathbb{Z}, i = \overline{3, n})$ ni

fiksirlab, $d = -\sum_{k=3}^n a_k c_k$, $a = \frac{a_1}{EKUB(|a_1|, |a_2|)}$, $b = \frac{a_2}{EKUB(|a_1|, |a_2|)}$ belgilash qil-

sak, (3) tenglama

$$a(x_1 - x_1^0) + b(x_2 - x_2^0) = d \quad (4)$$

ko'rinishiga keladi. (1) tenglamani butun yechimining mavjudligini isbotlash va topish masalasi (4) tenglamani umumiy yechimini topishga keldi.

Tahlil va natijalar. Endi (4) tenglamani yechimi uchun muhim bo'lgan quyidagi masalani qaraymiz. Ushbu

$$ax_1 + bx_2 = 1 \quad (5) \text{ tenglamaning}$$

barcha $x = (x_1, x_2) \in \mathbb{Z}^2, (x_1 \in \mathbb{Z}, x_2 \in \mathbb{Z})$ butun yechimlarini toping. Bunda $a, b \in \mathbb{N}, b \geq a, EKUB(a, b) = 1$.

Yechish. Dastlab, (5) tenglamani bitta xususiy yechimini topish masalasini hal qilamiz. Belgilash kiritamiz:

$$\begin{aligned} \lambda_1 &= \left[\frac{b}{a} \right], & a_1 &= b - \lambda_1 a, & (0 < a_1 \leq a - 1), \\ \lambda_2 &= \left[\frac{a}{a_1} \right], & a_2 &= a - \lambda_2 a_1, & (0 < a_2 \leq a - 2), \\ & \vdots \\ \lambda_k &= \left[\frac{a_{k-2}}{a_{k-1}} \right], & a_k &= a_{k-2} - \lambda_k a_{k-1}, & (0 < a_k \leq a - k). \end{aligned}$$

Bu jarayon $a_k = 1$ bo'lganda to'xtaydi. Agar $a = 1$ bo'lsa, $x_1 = 1 - bx_2$ bo'lib, istalgan $x_2 = t \in \mathbb{Z}$ uchun $x = (1 - bt, t) \in \mathbb{Z}^2$ (5) tenglamaning umumiy yechimi bo'ladi. Agar $a_1 = 1$ bo'lsa, $x_1 = -\lambda_1, x_2 = 1$ (5) tenglamaning xususiy yechimi bo'ladi. Agar $a \neq 1, a_1 \neq 1$ bo'lsa, u holda shunday $k \in \mathbb{N} (k \geq 2)$ son mavjudki, $a_k = 1 (a_1 \neq 1, \dots, a_{k-1} \neq 1)$ bo'ladi. Yana belgilash qilamiz:

$$\alpha_1 = -\lambda_k, \alpha_2 = -\lambda_{(k-1)}\alpha_1 + 1, \dots, \alpha_{(k-1)} = -\lambda_2\alpha_{(k-2)} + \alpha_{(k-3)}, \alpha_k = -\lambda_1\alpha_{(k-1)} + \alpha_{(k-2)}.$$

Endi $x_2 = \alpha_{(k-1)}, x_1 = \alpha_k$ (5) tenglamaning xususiy yechimi bo'lishini isbotlaymiz.

Buning uchun (5) tenglamadan x_1 ni topsak, $x_1 = -\lambda_1 \cdot x_2 + \frac{-a_1 x_2 + 1}{a}$ bo'ladi. Agar $\frac{-a_1 x_2 + 1}{a} = x_3$ deb belgilasak, $x_2 = -\lambda_2 \cdot x_3 + \frac{-a_2 x_3 + 1}{a_1}$ bo'ladi. $\frac{-a_2 x_3 + 1}{a_1} = x_4$ deb belgilash qilsak, $x_3 = -\lambda_3 \cdot x_4 + \frac{-a_3 x_4 + 1}{a_2}$ bo'ladi va hokazo. Bu jarayonni davom qildirsak, $x_{k-1} = -\lambda_{k-1} \cdot x_k + \frac{-a_{k-1} x_k + 1}{a_{k-2}}$. Agar $\frac{-a_{(k-1)} x_k + 1}{a_{(k-2)}} = x_{k+1}$ deb belgilash qilsak, $x_k = -\lambda_k \cdot x_{(k+1)} + \frac{-x_{(k+1)} + 1}{a_{(k-1)}} (a_k = 1)$ bo'ladi. Agar $x_{(k+1)} = 1$ desak,

$$x_k = -\lambda_k \cdot x_{(k+1)} = -\lambda_k = \alpha_1,$$

$$x_{(k-1)} = -\lambda_{(k-1)} \cdot x_k + 1 = -\lambda_{(k-1)} \alpha_1 + 1 = \alpha_2,$$

$$x_{(k-2)} = -\lambda_{(k-2)} \cdot x_{(k-1)} + x_k = -\lambda_{(k-2)} \alpha_2 + \alpha_1 = \alpha_3,$$

⋮

$$x_2 = -\lambda_2 \cdot x_3 + x_2 = -\lambda_2 \alpha_{(k-2)} + \alpha_{(k-3)} = \alpha_{(k-1)},$$

$$x_1 = -\lambda_1 \cdot x_2 + x_3 = -\lambda_1 \alpha_{(k-1)} + \alpha_{(k-2)} = \alpha_k.$$

bo'ladi. Demak, $x^0 = (x_1^0, x_2^0) = (\alpha_k, \alpha_{(k-1)})$ vektor (5) tenglamaning butun xususiy yechimi bo'ladi.

U holda (5) tenglamani

$$a(x_1 - x_1^0) = b(x_2 - x_2^0)$$

ko'rinishida yozib olamiz. Bundan $(x_2 - x_2^0) : a \left((x_1 - x_1^0) : b \right)$ bo'lishi kerak. Agar

$$\frac{x_1 - x_1^0}{b} = t \in \mathbb{Z}, J_1(a, b) = x_1^0, J_2(a, b) = x_2^0 \text{ deb belgilash qilsak,}$$

$$\begin{cases} x_1 = J_1(a, b) + bt \\ x_2 = J_2(a, b) - at, \quad t \in \mathbb{Z} \end{cases}$$

(5) tenglamaning umumiy yechimi bo'ladi. Umumiy yechim a, b, t parametrga bog'liq bo'lgani uchun umumiy yechimni $x_1 = J_1(a, b, t), x_2 = J_2(a, b, t)$ kabi belgilash qilyalik. Bu bizga keyingi jarayonlarda qulaylik tug'diradi.

Endi ushbu

$$ax + by = d \tag{6}$$

tenglamani barcha butun yechimlarini topamiz. Bunda $a, b, d \in \mathbb{N}, EKUB(a, b) = 1$.

Yechish. $x_0 = d \cdot J_1(a, b), y_0 = d \cdot J_2(a, b)$ (6) tenglamaning xususiy yechimi bo'lgani uchun uning umumiy yechimi

$$\begin{cases} x = d \cdot J_1(a, b) + bt \\ y = d \cdot J_2(a, b) - at, \quad t \in \mathbb{Z} \end{cases}$$

bo'ladi.

Izoh. (6) tenglamada agar $EKUB(a, b) = p > 1$ bo'lsa, tenglama yechimga ega bo'lishi uchun $d = 0 \pmod{p}$ bo'lishi kerak. Bu shart bajarilsa, (6) tenglikning har ikkala tomoni p ga bo'linadi va tenglama biz o'rgangan holatga keladi.

Endi yuqoridagi (1) tenglamaning xususiy yechimining mavjudligini ko'rsatamiz. Buning uchun quyidagi masalani yechamiz.

Lemma. Istalgan n ($n \in \mathbb{N}, n \geq 2$) larda

$$a_1 x_1 + a_2 x_2 + \dots + a_n x_n = 1 \tag{7}$$

tenglama butun yechimga ega. Bunda $a_i \in \mathbb{N} \left(i = \overline{1, n} \right)$.

Endi (7) tenglamani butun yechimi mavjudligini matematik induksiya metodi yordamida isbotlaymiz.

1. $n = 2$ da $a_1 x_1 + a_2 x_2 = 1$ tenglama $a_1, a_2 \in \mathbb{N}, EKUB(a_1, a_2) = 1$ shart asosida xususiy butun yechimga egaligini biz yuqorida isbotlab o'tdik.

2. $n = k$ da $a_1 x_1 + a_2 x_2 + \dots + a_k x_k = 1$ tenglama ixtiyoriy $a_i \in \mathbb{N} \left(i = \overline{1, k} \right)$ larda $EKUB(a_1, a_2, \dots, a_k) = 1$ shart asosida xususiy butun yechimga ega deb faraz qilamiz.

3. $n = k + 1$ da $a_1x_1 + a_2x_2 + \dots + a_kx_k + a_{k+1}x_{k+1} = 1$ tenglama istalgan $a_i \in \mathbb{N} (i = \overline{1, k+1})$ larda $EKUB(a_1, a_2, \dots, a_k, a_{k+1}) = 1$ shart asosida xususiy butun yechimga egaligini isbotlaymiz.

Isbot. Belgilash kiritamiz:

$$a_{k+2} = EKUB(a_1, a_2, \dots, a_k), b_i = \frac{a_i}{a_{k+2}} \quad (i = \overline{1, k}), x_{k+2} = \sum_{i=1}^k b_i x_i.$$

U holda (7) tenglama

$$a_{k+2}x_{k+2} + a_{k+1}x_{k+1} = 1 \quad (8)$$

ko'rinishga keladi. $EKUB(a_{k+1}, a_{k+2}) = 1$ bo'lgani uchun (8) tenglama xususiy yechimga ega.

Bundan $x_{k+2} = J_1(a_{k+2}, a_{k+1}) + a_{k+1}t$, $x_{k+1} = J_2(a_{k+2}, a_{k+1}) - a_{k+2}t$ bo'ladi.

Endi

$$b_1x_1 + b_2x_2 + \dots + b_kx_k = J_1(a_{k+1}, a_{k+2}) + a_{k+1}t \quad (9)$$

tenglama xususiy yechimga ega ekanini isbotlaymiz. $EKUB(b_1, b_2, \dots, b_k) = 1$ bo'lgani uchun farazimizga ko'ra, $b_1x_1 + b_2x_2 + \dots + b_kx_k = 1$ tenglama $x^0 = (x_1^0, x_2^0, \dots, x_k^0)$ xususiy yechimga ega.

Bundan esa

$$x = ((J_1(a_{k+2}, a_{k+1}) + a_{k+1}t)x_1^0, \dots, (J_1(a_{k+2}, a_{k+1}) + a_{k+1}t)x_k^0)$$

vektor (9) tenglamaning xususiy butun yechimi bo'ladi. To'la induksiya metodiga asosan, (7) tenglama istalgan n ($n \in \mathbb{N}, n \geq 2$) larda xususiy yechimga ega. Agar (1) tenglamada

$y_i = (\text{sign } a_i) \text{sign } d \cdot x_i$, $b_i = |a_i|$ ($i = \overline{1, n}$) almashtirish bajarsak, (1) tenglama

$$b_1y_1 + b_2y_2 + \dots + b_ny_n = |d| \quad (10)$$

ko'rinishga keladi. Bunda $b_i \in \mathbb{N}$ va $EKUB(b_1, b_2, \dots, b_n) = 1$. Yuqorida isbotlangan lemmaga ko'ra $b_1y_1 + b_2y_2 + \dots + b_ny_n = 1$ tenglama $y = (y_1^0, y_2^0, \dots, y_n^0)$ ($y_i^0 \in \mathbb{Z}, i = \overline{1, n}$) xususiy butun

yechimga ega va $y^* = (|d|y_1^0, |d|y_2^0, \dots, |d|y_n^0)$ – vektor esa (10) tenglamaning butun yechimi bo'ladi.

Bundan esa (1) tenglamaning butun yechimga ega ekanligi kelib chiqadi.

Misol. Ushbu

$$49x_1 + 128x_2 = 2024 \quad (11)$$

tenglamani umumiy yechimini toping.

Yechish. Bu tenglamada $a = 49$, $b = 128$, $d = 2024$. Belgilash kiritamiz:

$$\lambda_1 = \left[\frac{128}{49} \right] = 2, \quad a_1 = 128 - 2 \cdot 49 = 30,$$

$$\lambda_2 = \left[\frac{49}{30} \right] = 1, \quad a_2 = 49 - 1 \cdot 30 = 19,$$

$$\lambda_3 = \left[\frac{30}{19} \right] = 1, \quad a_3 = 30 - 1 \cdot 19 = 11,$$

$$\lambda_4 = \left[\frac{19}{11} \right] = 1, \quad a_4 = 19 - 1 \cdot 11 = 8,$$

$$\lambda_5 = \left[\frac{11}{8} \right] = 1, \quad a_5 = 11 - 1 \cdot 8 = 3,$$

$$\lambda_6 = \left[\frac{8}{3} \right] = 2, \quad a_6 = 8 - 2 \cdot 3 = 2,$$

$$\lambda_7 = \left[\frac{3}{2} \right] = 1, \quad a_7 = 3 - 1 \cdot 2 = 1.$$

$$\alpha_1 = -\lambda_7 = -1$$

$$\alpha_2 = -\lambda_6 \cdot \alpha_1 + 1 = -2 \cdot (-1) + 1 = 3,$$

$$\alpha_3 = -\lambda_5 \cdot \alpha_2 + \alpha_1 = -1 \cdot 3 - 1 = -4,$$

$$\alpha_4 = -\lambda_4 \cdot \alpha_3 + \alpha_2 = -1 \cdot (-4) + 3 = 7,$$

$$\alpha_5 = -\lambda_3 \cdot \alpha_4 + \alpha_3 = -1 \cdot 7 - 4 = -11,$$

$$\alpha_6 = -\lambda_2 \cdot \alpha_5 + \alpha_4 = -1 \cdot (-11) + 7 = 18,$$

$$\alpha_7 = -\lambda_1 \cdot \alpha_6 + \alpha_5 = -2 \cdot 18 - 11 = -47.$$

Demak, $x_1 = -47$, $x_2 = 18$. (11) tenglamani xususiy yechimi

($49 \cdot (-47) + 128 \cdot 18 = 1$). Bundan (11) tenglamaning umumiy yechimi

$x = (x_1, x_2) = (-47 \cdot 2024 + 128t, 18 \cdot 2024 - 49t) (t \in \mathbb{Z})$ bo'ladi.

Key words: enlightenment, “Ilmi Milal va Nihal”, “Ilmi kalam”, “Asor ul-Baqiya”, “Thomism”, Mubad.

Kirish. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan soʻng, Sharq xalqlarining ma’naviy, diniy va falsafiy merosini tadqiq qilishga katta e’tibor berildi. Shu bois jamiyatimiz a’zolarining, xususan, yoshlarning ma’naviy barkamol bo’lishlari davlat ahamiyatiga ega bo’lgan vazifalardan sanaladi. Ana shu bunyodkorlik jarayonining qudratli va hal qiluvchi kuchi, hech shubhasiz, ko’p millatli xalqimizdir. Sharq falsafasining mohiyati bugungi tadqiqotlarning dolzarb masalalaridan biri bo’lib kelayotganligi amalga oshirilgan ish-larning ko’lamidan sezilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Sharq falsafasida ma’rifat va qadriyatlar tal-qini masalasi ko’pgina klassik davr islom mutafakkirlari va zamonaviy tadqiqotchilar tomonidan o’rganil-gan. Jumladan, Ibn Tayfurning “Anvor ul-manaqut” asarida islomiy ma’rifat asoslari, uning turlicha talqin-lari borasida mulohazalar mavjud. Shuningdek, Ibn Tayfurning “Kitobe Bag’dod” nomli asarida keltirilgan arab dunyosidagi ilm-ma’rifat o’choqlarining sababchilari Ma’mun saroyidagi olimlarning olib borgan tad-qiqotlarining xolisalari haqida mulohazalar keltirilgan. Shuningdek, Hakim Sayyid Zillur Rahmonning “Qanun Ibn Sina and its Translation and Commentators” nomli tadqiqot ishida islomiy ma’rifat asoslari, islomiy qadriyatlarining shakllanish tendensiyalariga katta ahamiyat qaratilgan. Mamlakatimizda esa D. Po’latova, J.Sulaymonov kabi tadqiqotchilar o’z tadqiqot ishlarida ma’rifat, madaniyat va qadriyatlar dia-lektikasiga oid fikrlar keltirib o’tganlar.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning obyektivlik, xususiylik usullarida Islom falsafasining shakllanishidagi ma’rifiy va qadriyatlarining tarixiy ildizlari obyektiv ochib berildi. Mantiqiylik tamoyilida esa din va falsafaning qiyosiy tahlili hamda baxt-saodat ma-

salasida ilmning yuqori o'zida ekanligi tadqiq qilindi. Tizimlilik, inson hayoti davomida baxt-saodat uchun intilib yashashi va unga erishishda duch keladigan muammolarni yechishi tizimlilik metodi sifatida talqin etildi. Tahlil va qiyoslash metodi sifatida Sharq va G'arb dunyosida Sharq falsafasining tutgan roli keng tadqiq etildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Mo'taziliylardan bo'lgan Abu Huzayl Allof, rivoyatlariga qaraganda, majusiylar aqidasi rad etishga bag'ishlangan oltmishta risola yozdi. U Milos ismli majusiy bilan dualist olimlar ishtirokida munozara qilib, dalillarining zo'rliigi tufayli uni islomga kiritdi va bu mufassil ilmiy bahsga bag'ishlab "Milos" nomli kitob yozdi. Xalifa Ma'munning o'zi ham ba'zan majusiylar bilan bahsga kirishgan. Ishtirok etganlarning qayd etishlaricha, u Xurosonda noibligidayoq bir majusiyini islomga kiritgan va o'zi bilan bog'dodga olib kelgan. Poytaxtda bo'lgan ilmiy bahslarda xayr va sharf (yaxshi va yomon ishlar) va odamning ixtiyori o'zidami yoki taqdirning qo'lidami kabi masalalar muhokama etilgan. "Avesto" kitobi majmuasiga kirgan Dinkardning uchinchi jildiga musulmonlar bilan zardushtiylar o'rtasidagi bahs yoritilgan. Unda zikr qilinishicha, musulmonlar e'tiqodiga ko'ra, Xudo tomonidan bandalarga nisbatan yuborilgan uqubatlar adolatga xilofdir. Chunki Xudo uqubatga duchor qilgan kishilar, hamma ish yaratganning irodasidan bo'lganligidan boshqacha ish tuta olmas edilar-da. Go'yo bu holatda xudovandning irodasi, uning farmoniga xilof bo'lib chiqqandek tuyuladi. Bundan tashqari, Dinkard kitobida tavhid aqidasi ko'ra (yagona xudo borligiga) qat'iy ravishda e'tiroz bildirilgan. Chunki dunyoni xayr va sharf o'rtasidagi kurashdan iborat va u ikki manba tomonidan yaratilgan degan aqidaga yagonalik aqidasi uncha to'g'ri kelmaydi. Shuning uchun mazdayasnochilar uchun bunday fikr ma'qul bo'lmas edi, chunki ularning fikricha, xayr va sharfning ibtidosi bir-biriga aralashib ketar edi. Shuning uchun ham majusiylar aqidasi tavhid ta'limotiga sira to'g'ri kelmas edi. Bunga qo'shimcha sifatida shuni aytish lozimki, xayrni nurga, sharfni zulmatga taqash islom mutakallimlari nazarida ruhiy holat natijasidir, xolos [1;255-b.].

Har holda majusiylar bilan dualistlar o'rtasida bahsga sabab bo'lgan masala falsafiy va axloqiy masalalar jumlasiga kirar edi. Keyinchalik, garchi bunday bahslar davom etmasa ham, musulmonlar bilan boshqa din ahllari orasida bo'lib o'tgan bunday fikr olishuv munozaralari, ko'pdan ko'p ilmiy asarlar va xilma-xil falsafiy oqimlarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Ana shunday sharoit va muhitdan kelib chiqqan mo'taziliy maktabi ilmiy yo'nalishlarni vujudga keltirdi. Bunday bahslar tufayli kalom ilmi kelib chiqdi. Qizig'i shundaki, keyinchalik, ana shunday ilmiy bahslarda toblangan zardushtiy olimlar yahudiylar, n-soriylar va ba'zida islomni o'ziga nisbatan qilgan xurujlarida islomning kalom ilmida qo'llaniladigan dalillardan foydalana boshladilar. O'rta asrlarda vujudga kelgan pahlaviy tilidagi kitob bo'lgan "Shekand gumonik" va "Chor" kabi kitoblar yahudiylar va nosariylar aqidasi fosh etishga qaratilgan bo'lib, hatto moniylik qarashlariga qarshi kurashda ham yuqoridagi usuldan foydalanganlikka guvohdir. Musulmonlar, keyinchalik, sof falsafiy fikrlar bilan tanishganlaridan keyin ham o'z bahslarida yuqorida zikr etilgan usuldan foydalandilar.

Xalifa Ma'mun davrida musulmonlar shavq va zavq bilan dunyoviy ilmlar bo'lgan geometriya va mantiq bilan shug'ullanishga kirishgan bo'lsalar ham, turli din va mazhablar masalasiga qiziqishni davom etirdilar. Xalifaning o'zi har ikki tomonning dalillarini xolislik bilan tinglar va munozara yurituvchilarning bir-birlarini haqorat qilishlarini oldini olar edi [2;22-23-b.]. Shunday bo'lsa ham, dinsizlarga nisbatan uning munosabati ahli kitob vakillariga (ya'ni yahudiylik va xristianlik dinlari) bo'lganidan ko'ra yomonroq edi. Buning sababi axloqiy masalalarda edi. Chunki o'sha vaqtda shoir va adiblar juda ko'p bo'lib, ular tomonlar aqidasi hajv qilish bilan shug'ullanar va ba'zida haqorat darajasiga olib borar edilar. Dinsiz bo'lgan zindiqlar gohida majusiylar kabi dualistik aqidaga egamiz deb da'vo qilsalar ham, aslida, shariatni inkor qilib, payg'ambarlarga nisbatan haqoratli gaplarni aytib, vahiy kelishini butunlay rad etar va bu esa ularni musulmonlar nazarida butunlay axloqsiz toifaga aylantirgan edi. Keyinchalik, ba'zi so'fiylar ham ular kabi axloqiy tanazzulda ayblandilar. Zindiqlar barcha ahli kitob, ya'ni tavhid aqidasi umumiy dushmani sifatida tanildilar. Shuning uchun ham pahlaviy tilida yozilgan "Shekand gamonik" va "Chor" kitoblarining muallifi isroillik Hakim Muso ibn Maymurt ham ularning aqidasi rad etishga kirishdi.

Zindiqlar haqida Abu Rayhon Beruniy ham o'zining "Hindiston" asarida ma'lumot berib, ular ham braxmanlarga o'xshab payg'ambarlik risolatini rad etadilar va shakllangan rasm-rusumlarga rioyat qilmaslikka chaqiradilar, deb ta'kidlab o'tgan. Bunga ular tomonidan keltirilgan dalillar ham diqqatga sazovordir. Ularning fikrlaricha, payg'ambarlar tomonidan ummatlarga olib kelingan hidoyat yo'li yo aqlga muvofiq kelishi yoki kelmasligi mumkin. Agar muvofiq kelsa, u holda payg'ambarlarga ne hojat? Chunki, barcha aqlli odamlar uni o'zlari ham idrok qila oladilar. Ammo payg'ambar aytgan narsalar aqlga muvofiq kelmasa, ularni qabul qilish joiz emas. Zindiqlarning bunday dalillariga islom mutakallimlari keskin qarshi chiqdilar va shuni isbotladilarki, payg'ambar hidoyatining hikmatini barcha omma ahli o'z-o'zidan tushunib

keta olmaydi, ya'ni ularning aqli barcha ma'qul narsalarni, noma'qulidan ajrata olmaydi. Johiliya davrida arab zindiqlari mavjud bo'lib, barcha ilohiy tushunchalarni rad etar edilar. Islom kirib kelgandan keyingi Ummaviylar davrida Valid bin Yazid va Xolid bin Abdullo Kasriy, Abbosiy xalifalar Mansur va Mahdi davrida Abu Daloma, Bishar bin Burd, Mute' bin Ayo Kenoniy, Xumod Ujard va Yahyo bin Zayyod kabi mashhur zindiqlar moniylik oqimi ichidan chiqqan Solih bin Abdul Quddus, Abdul Karim bin Abil Arjo, hatto Abdullo bin Muqaffa kabi zindiqlardan o'z qarashlarida katta farq qilar edilar. Ularga qarshi kurashda xalifa Mehdiygina emas, xalifa Ma'mun ham, o'z o'zlariga qarshi bo'ldi. Shunday sharoitda musulmonlarning yunon falsafasi bilan oshno bo'lishi, Hindistondagi braxmanlik, moniylik oqimlari ichida paydo bo'lgan dinlarni tan olmaslik kabi aqidalar bilan yaqindan tanishishi, keyinchalik, ovropada nigilizm nomi bilan paydo bo'lgan dunyoqarashga o'xshash qarashlarni tarqalishiga sabab bo'ldi. Natijada narigi dunyoga, oxiratga payg'ambarlikka ishonmaslik kabi qarashlar ham vujudga keldi. Bunday qarashlar Muhammad bin Zakariyo Roziy, Ibn Ravandiy va ba'zan Abu Alo Ma'riy asarlarida o'z aksini topgan. Shunday bo'lsa ham, ilohiy narsaga ishonmaslik, ya'ni, zindqlik barcha dinlarning dushmani bo'lgani uchun unga qarshi kurashda yahudiylar, nasoriylar va musulmonlar hamjihatlikda faoliyat ko'rsatdilar.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib aytganda, islom dini va falsafasi ya'ni axloqiy komillikka intiluvchi tarbiyani vujudga keltirishga intildi. Islomiy tarbiyaning asosi imon va solih amallardan iborat edi. Uning ustidan nazorat qilish shariat qonunlari va sunnatga topshirildi. Aslida, payg'ambar sunnati deb atalgan narsa, barcha musulmonlar uchun ma'naviy ozuqa bo'luvchi ideal axloqdir. Islom o'z axloqiy ta'limot bilan barcha xalqlar va millatlarning jahon miqyosidagi birodarlikka olib boruvchi odob va insofga chaqiradi. U hech bir kishini boshqasining aybi uchun aybdor qilmaydi va har bir kishining mas'uliyatining asosini uning axloqi bilan belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

- (1). Ibn Tayfur. Anvorul manaqut. Tehron, 1355-yil.
- (2). Ibn Tayfur. Kitobe Bag'dod. Tehron, 1360-yil (arab tilida).
- (3). Doktr Abdul Xusayn Zarinkub. Kornomaye islom. Tehron, 1369-yil.
- (4). Shahid mutafakkir ustod Murtazo Mutahariy. Harakat va zamon islom falsafasida. 3-nashr. Tehron, "Hikmat" nashriyoti, hijriy 1998-yil (fors tilida).

Odilov Nodirbek Odil o'g'li (O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti "Maxsus-kasbiy fanlar" kafedrasi katta o'qituvchisi)

MEHNAT HUQUQIGA OID MUNOSABATLARNING IJTIMOY-FALSAFIY TAHLILI

Annotatsiya. Mazkur maqolada mehnat huquqiga oid munosabatlarning ijtimoiy-falsafiy tahlili yoritilgan. Mehnat huquqi falsafiy bilimlarning tarkibiy qismi sifatida rivojlanib kelgan. O'zbekiston Respublikasida mehnat huquqi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar sohasini qamrab oladi. Mehnat huquqining falsafiy asosi jamiyatda inson xatti-harakatining tabiat va uning talablariga mos kelishini ta'minlashdan iboratdir.

Kalit so'zlar: demokratik jamiyat, inson huquqlari, mehnat huquqi, Mehnat kodeksi.

Одиллов Нодирбек Одилевич (Старший преподаватель кафедры специально-профессиональных наук института повышения квалификации МВД Республики Узбекистан)

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ТРУДОВЫХ ПРАВООТНОШЕНИЙ

Аннотация. В данной статье дан социально-философский анализ трудовых правоотношений. Трудовое право сложилось как составная часть философского знания. Трудовое право в Республике Узбекистан охватывает сферу экономических, социальных и культурных прав. Философской основой трудового права является обеспечение соответствия поведения человека в обществе природе и ее требованиям.

Ключевые слова: демократическое общество, права человека, трудовое право, Трудовой кодекс.

Odilov Nodirbek Odil Oglu (Senior teacher of the Department of Special-Professional Sciences of the Higher Education Institute of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan)

SOCIAL PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF LABOR LAW RELATIONS

Annotation. This article describes the socio-philosophical analysis of labor law relations. Labor law has developed as a component of philosophical knowledge. Labor law in the Republic of Uzbekistan covers the sphere of economic, social and cultural rights. The philosophical basis of labor law is to ensure that human behavior in society is in accordance with nature and its requirements.

Key words: democratic society, human rights, labor law, labor code.

Kirish (Introduction). Mustaqillik yillarida mamlakatimizda demokratik-huquqiy davlat, kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish, erkin bozor iqtisodiyotini rivojlantirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmogda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va uning asosida qilingan qonunlar jamiyat va davlat faoliyatining barcha sohalarini isloh qilish uchun mustahkam huquqiy asos yaratildi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida milliy qonunchilik va mehnat huquqiga oid ko‘plab qarorlarning qabul qilinishi, insonning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklariga rioya etilishi monitoringi milliy tizimi shakllantirishga asosiy e‘tibor qaratildi.

Mehnat huquqi masalasi ijtimoiy falsafaning tarkibiy qismi sifatida rivojlanib kelayotgan yo‘nalishdir. Insoniyatning rivojlanishib borishi va tarixiy taraqqiyotning ilk bosqichlaridan boshlab dastlabki mehnat taqsimotining vujudga kelishi va kishilar hayotida mehnat qilish va daromad olish g‘oyalari shakllanib borishini yuzaga keltirdi. Insoniyatning yangi rivojlangan davrga qadam qo‘yishi va demokratik davlat va fuqarolik jamiyatlarining shakllanib borishi mehnat huquqiga ehtiyojning paydo bo‘lishi va rivojlanib borishiga zamin yaratdi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Mehnat huquqi falsafiy bilimlarning tarkibiy qismi sifatida rivojlanib kelar ekan, uning eng dastlabki ko‘rinishlari antik davrlarda shakllangan bo‘lib, qadimgi Yunon faylasuflarining huquq va falsafasiga oid nazariyalari hamda burchga oid falsafiy munosabatlarida o‘z aksini topganligini ko‘rishimiz mumkin. Mehnat huquqi falsafiy asoslariga oid ushbu falsafiy yondashuvlar antik dunyo falsafiy ta‘limotlarining mumtoz g‘oyalari sifatida e‘tirof etiladi [1;177–195-b.].

Qadimgi Turon zaminidagi ilk falsafiy ta‘limotlar va ularda mehnat huquqi masalalarining yoritilishi zardushtiylik diniy-falsafiy ta‘limoti va uning muqaddas yozma manbalaridan bo‘lgan “Avesto”da zikr etilgan. Xususan, “Avesto”da kishilarning ma‘naviy hayoti, mehnat qilishi va farovon turmush, adolatli jamiyatni shakllantirish hamda halollik borasidagi ko‘plab axloqiy qarashlar keltirilgan. Keyinchalik, jamiyat taraqqiyoti va Markaziy Osiyoga islom dinning kirib kelishi jamiyatda mehnat huquqi asoslarining yangicha diniy va dunyoviy nazariya kasb etishiga zamin yaratdi. Natijada IX–XII asrlar Markaziy Osiyo, jumladan, hozirgi O‘zbekiston hududida yangi “Uyg‘onish davri” (Renessans) vujudga keldiki, bu zaminda yashaydigan xalqlar hayotida ijtimoiy-siyosiy va ilmiy o‘zgarishlarni vujudga keltirdi.

O‘rta asrlarda nafaqat Movarounnahr, balki butun dunyoga dong taratgan buyuk mutafakkir olimlarimizdan Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino va Abu Rayhon Beruniy kabi mutafakkirlarimiz Markaziy Osiyoda falsafiy fikrlar taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shganlar. Jumladan, buyuk mutafakkir Abu Nasr o‘zining ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-huquqiy qarashlarida insonlarning fazilatli bo‘lishi, mehnatsevarlik jamoa va shahar aholisining asosiy sifat belgilaridan biri ekanligiga alohida urg‘u bergan [2;45-b.].

Markaziy Osiyoda huquq falsafasiga oid ta‘limotlar ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy jaryonlar bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanib borar ekan, tadqiqotlarda ta‘kidlanganidek, “falsafiy-huquqiy ta‘limotlar sof huquqiy yoki sof falsafiy qarashlar emas, balki ular negizida inson, jamiyat va davlat uchun xizmat qiladigan yagona bo‘lgan ijtimoiy munosabatlar hamda mehnat huquqi maqsadlarini o‘zida mujassamlashtirgan, insonlar hayotini adolatli, baxtli-saodatli, ravon va osoyishta qilishga xizmat qiladigan yondashuvlar, ilmiy-nazariy konsepsiyalar bo‘lgan” [3;28-b.].

Buyuk mutafakkirlardan yana biri Jaloliddin Rumi ham inson hayvonot olamidani ongi, tafakkur qila olishi, nutqi, mehnat qilish va mehnat quollarini yarata olishi bilan ajralib turishini alohida ta‘kidlagan. Inson asl mohiyat bilan ilohiy bo‘lib, shaklan kichik olam bo‘lsa-da, botinan ulug‘ olamga aylanib, kamolotga yetishini e‘tirof etgan.

Jaloliddin Rumiyning shoh asari bo‘lgan “Masnaviy”da insonga berilgan qo‘l mehnat qilish uchun yaratilganligi, mehnat orqali rohat topish mumkinligi keltirilgan. Naqshbandiya tariqatining asoschisi Bahouddin Naqshband ham mazkur tariqat g‘oyasini ishlab chiqishda mehnat konsepsiyasiga alohida urg‘u berib, tariqatidagi “Dast ba kor-u dil ba yor” shiorini ishlab chiqqan [4;26-b.].

Naqshbandiya tariqati g‘oyalari mehnatning ulug‘lanishi Amir Temur va temuriylar davrining asosiy mafkurasiga aylandi va temuriylar saltanatining gullab-yashnashiga zamin yaratdi. Natijada Amir Temur zamonasida shakllangan, keyinchalik, temuriylar davrida rivojlangan Mirzo Ulug‘bek boshchiligidagi ilm-fan taraqqiyoti, Alisher Navoiy boshchiligidagi adabiyotning gullab-yashnashi, Abdulqodir Marog‘iy boshchiligidagi musiqa san‘ati va Kamoliddin Behzod boshchiligidagi naqqoshlik va miniatura maktabining rivojlanib borishiga zamin yaratdi. Aynan, ushbu yo‘nalishlarda inson va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar, insonning mehnatsevarligi, san‘at va kasb-hunarga bo‘lgan muhabbat kabi falsafiy g‘oyalar chuqur ifoda etildi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqotning metodologik asosini mehnat qilish huquqining falsafiy asoslari kabi tushunchalar tashkil etadi. Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy-falsafiy tahlil, umumlashtirish, dialektik va germevntik tahlil kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanildi.

Mehnat qilish huquqini falsafiy mushohada qilganda, u muayyan shaxsni iqtisodiyotdan ajratib qo'yishdan yoki ishsizlarni ijtimoiy yolg'izlanib qolishdan himoya qiladi. Mehnat qilish huquqi boshqa inson huquqlarini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etib, inson qadr-qimmatining ajralmas va o'ziga xos qismini shakllantiradi. Har bir inson o'z qadr-qimmati bilan yashashga imkon beruvchi mehnat qilish huquqiga ega. Mehnat qilish huquqi shaxsning va uning oila a'zolarining yashashi, shuningdek, erkin kasb tanlashi yoki uni qabul qilishi, shaxsning rivojlanishi va jamiyatda e'tirof etilishi uchun hissa qo'shadi.

Mehnat huquqining falsafiy asoslari va uning belgisi mehnat sohasidagi munosabatlarni tartibga solishda hamda markazlashtirilgan usullarining uyg'unlashtirilgan holda qo'llanishida namoyon bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 9-moddasida ta'kidlab o'tilganidek, mehnat sohasidagi davlat boshqaruvini O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi hamda uning hududiy bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladi. Mehnat huquqi mehnat bozori faoliyati natijasida yuzaga keluvchi va huquq sohalarining yetakchi o'rinlaridan biridir. Mehnat huquqi bilan tartibga solinadigan barcha ijtimoiy munosabatlar iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, g'oyaviy-tarbiyaviy vazifalarni bajaradi. Zero, mehnat qonunchiligi O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 2-moddasida nazarda tutilgan "Mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlari xodimlar, ish beruvchilar, davlat manfaatlarini e'tiborga olgan holda, mehnat bozorining samarali amal qilishini, haqqoniy va xavfsiz mehnat shart-sharoitlarini, xodimlarning mehnat huquqlari va sog'lig'i himoya qilinishini ta'minlaydi, mehnat unumdorligining o'sishiga, ish sifati yaxshilanishiga, shu asosda barcha aholining moddiy va madaniy turmush darajasi yuksalishiga ko'maklashadi" deb qayd etilgan [6].

Mehnat huquqining falsafiy asosi jamiyatda inson xatti-harakatining tabiat va uning talablariga mos kelishini ta'minlashdan iboratdir. Mehnat huquqi inson faoliyatidan tashqarida sodir bo'la olmaydi. Mehnat huquqining inson faoliyati doirasida namoyon bo'lishi uni davlat, siyosat, jamiyat bilan mustahkam bog'lab, doimiy muvozanatni ta'minlaydi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Mehnat huquqi ijtimoiy-falsafa yo'nalishida yetakchi o'rinni egallab, ijtimoiy mehnatga oid munosabatlarni tartibga solib turuvchi ijtimoiy-falsafiy va huquqiy normalarni o'z ichiga oladi. Buning amaliy natijasi esa inson kapitali va mehnatni tashkil etish va undan foydalanishda namoyon bo'ladi. Mehnatga oid munosabatlarning falsafiy tahlili muayyan shaxsning ma'lum bir tashkilot, korxon va muassasa tarkibiga qo'shilishi va o'z mehnati bilan korxon jamoasi oldidagi funksional vazifalarni bajarishi kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi. O'z navbatida, ijtimoiy mehnat taqsimotiga muvofiq, muayyan mehnat vazifasini bajaruvchi shaxs yoki xodim majburiyatlarini bajaruvchi obyektga va o'z jamoasi faoliyati bilan uyg'unlashgan, ya'ni mehnat faoliyatini bajaruvchiga aylanadi. Xodimning mehnat faoliyati muayyan tartib-qoidalar asosida amalga oshiriladi. Shuning uchun mehnat faoliyatida belgilangan tartib-intizom va qoidalarga bo'ysunishi mehnat samaradorligi va izchilligini belgilovchi omil sifatida e'tirof etiladi. Zero, mehnatga oid munosabatlar ixtiyoriy xarakterga ega bo'lsa-da, ular bevosita ishlab chiqarish doirasida namoyon bo'lib, muayyan maqsadlarni ko'zlab amalga oshiriladigan ijtimoiy foydali faoliyat funksiyasini bajaradi.

Mehnat huquqining falsafiy asoslarini tahlil etib borar ekanmiz, mehnat huquqining muayyan vazifalarini ham tahlil etishimiz lozim. Mehnatga huquqiy jihatdan ta'sir o'tkazishning asosiy yo'nalishlari uning vazifalarini o'zida mujassamlashtiradi. Umuman olganda, mehnat huquqi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, g'oyaviy-tarbiyaviy vazifalarni bajaradi. Xususan, mehnat huquqining iqtisodiy vazifasi ishlab chiqarishga ta'sir o'tkazish orqali namoyon bo'lsa, siyosiy vazifasi ishlab chiqarish jarayonida xodimlar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda, g'oyaviy-tarbiyaviy vazifasi xodimlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashdagi ijtimoiy vazifasi mehnat qilish huquqining erkinligini ta'minlashda namoyon bo'ladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib aytganda, mehnat huquqining falsafiy asoslari va uning predmeti mehnat shartnomasi bo'yicha faoliyat yuritayotgan barcha xodimlar mehnatining ishlab chiqarishda qo'llanishi tufayli paydo bo'ladigan ijtimoiy mehnatga oid munosabatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Ushbu munosabatlar mehnat huquqining falsafiy asoslarining o'zagi sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Нерсеянц В.С. Хуқуқ фалсафаси. Тошкент, 2003, 177–195-бетлар.
- (2). Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. Nodir va dono fikrlar. T., O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2004, 160-bet.
- (3). F.A.Musayev. Demokratik davlat qurishning falsafiy-huquqiy asoslari. T., 2007.

(4). S.M.Raxmonov. Jaloliddin Rumiy va Bahouddin Naqshband tasavvufiy qarashlarining qiyosiy-falsafiy tahlili. Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati, Samarqand, SamDU, 2023, 65-bet.

(5). O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 03.07.2019-yildagi "Ijtimoiy-mehnat masalalari bo'yicha uch tomonlama komissiyalar to'g'risida"gi 553-qarori.

(6). O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. <https://lex.uz/docs/6257288>

Atabayev Qodirjon Komilovich (IV Malaka oshirish instituti ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha boshlig'i o'rinbosari; atabayev_q@mail.ru)

ICHKI ISHLAR RAHBAR XODIMLARI AXLOQIY MADANIYATINING IJTIMOIIY-FALSAFIY TAVSIFI

Annotatsiya. Mazkur maqolada ichki ishlar rahbar xodimlari axloqiy madaniyatining ijtimoiy-falsafiy tavsifi yoritilgan. Kasbiy-axloqiy madaniyat xususida so'z borar ekan, bunda asosiy e'tiborni uning o'zagi bo'lgan axloq atamasining falsafiy tahliliga qaratmoq lozim. Kasbiy-axloqiy madaniyat bevosita insonning mehnat faoliyatida namoyon bo'luvchi, uning olgan bilim va tajribasiga asoslangan harakatlar mahsulidir.

Kalit so'zlar: kasbiy-axloqiy madaniyat, etiket, xulq, axloq, tarbiya, kodeks.

Атабаев Кадиржон Комилович (Заместитель начальника по духовно-просветительской работе института повышения квалификации МВД Республики Узбекистан; atabayev_q@mail.ru)

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКОЕ ОПИСАНИЕ ЭТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ РУКОВОДИТЕЛЕЙ ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ

Аннотация. В данной статье дано социально-философское описание этической культуры руководителей органов внутренних дел. В данной статье рассмотрены социально-философские аспекты, социально-философское описание этической культуры руководителей органов внутренних дел. Говоря о профессиональной моральной культуре, основное внимание следует уделить философскому анализу термина этика, который составляет ее суть. Профессиональная моральная культура – это продукт действий, основанный на знаниях и опыте, который непосредственно проявляется в деятельности человека.

Ключевые слова: профессионально-этическая культура, этикет, поведение, мораль, воспитание, кодекс.

Atabayev Kadirjon Komilovich (Head of spiritual and educational affairs of the Institute of Higher Education of the Ministry of Internal Affairs; atabayev_q@mail.ru)

THE SOCIO-PHILOSOPHICAL DESCRIPTION OF THE ETHICAL CULTURE OF THE INTERNAL AFFAIRS MANAGERS

Annotation. This article describes the socio-philosophical description of the ethical culture of the internal affairs managers. When talking about professional moral culture, the main attention should be paid to the philosophical analysis of the term ethics, which is its core. Professional moral culture is a product of actions based on the knowledge and experience that is directly manifested in the work of a person.

Key words: professional and ethical culture, etiquette, behavior, morals, education, code.

Kirish (Introduction). Kasbiy-axloqiy madaniyat har bir kasb-hunarga xos axloqiy norma, prinsiplarni o'rganib, hayotga tatbiq etuvchi axloqiy fanlar turkumidagi yo'nalishdir. Jamiyatda mutlaq, abadiy va o'zgarmas axloqiy madaniyatning o'zi yo'q. Axloq tarixan o'zgaruvchan va nisbiy mustaqillikka ega bo'lgan ijtimoiy hodisadir. Zamon o'zgarishi bilan ishlab chiqarish, fan va texnikaning rivojlanishi hamda ijtimoiy mehnat taqsimotining yanada chuqurlashib borishi natijasida har biri muayyan ijtimoiy funksiyani bajaradigan yangidan yangi faoliyat sohalari vujudga kela boshladi. Shunday sohalarda faoliyat yuritadigan kishilarning muayyan ijtimoiy burchlarni bajarishi natijasida mazkur burch va majburiyatlar kasbiy-axloqiy qoidalar va xulq-atvor normalarini o'zida aks ettirilishiga zamin yaratdi. Zero, tadqiqotlarda ta'kidlan-ganidek, kasbiy-axloqiy madaniyatning paydo bo'lish uzluksiz mehnat taqsimotining mahsuli sifatida shakllanib bordi.

Kasbiy-axloqiy madaniyat bevosita insonning mehnat faoliyatida namoyon bo'luvchi, uning olgan bilim va tajribasiga asoslangan harakatlar mahsulidir. Shuningdek, kasbiy-axloqiy madaniyat bilim, mala-ka, ko'nikma, qobiliyat, axloqiy va estetik madaniyatni hamda iste'dod va o'zaro muloqotining usul va o'z ichiga oladi.

Kasbiy-axloqiy madaniyatning predmeti quyidagilardan iborat:

– har bir shaxsning o'z kasbdoshlari o'zaro munosabatlari qoidalari;

– kasbiy axloq turlari, kategoriyalari va ularning sifatli xizmat ko'rsatishdagi ahamiyati;

– tashkilot, korxonalar va muassasalarda kasbiy munosabat qoidalari va soʻzlashish hamda bahslashish etiketi;

– aholiga va sayyohlarga xizmat koʻrsatishdagi oʻziga xos etiket qoidalari;
– davlat boshqaruvidagi rahbar xodimlarning muomala madaniyati etiketi va ularning kasbiy kiyimlariga va kiyinishiga qoʻyiladigan talablar;

– mamlakatimizda kasb etikasining maʼlum sohalari boʻyicha ishlab chiqarilayotgan maxsus huquqiy-meʼyoriy hujjatlar va ularning mazmun mohiyati va boshqalar kiradi.

Kasbiy-axloqiy madaniyatning asosiy vazifasi shaxsning jamoat joylarida, oilasi va oʻz hamkasblari orasida muomala madaniyatiga amal qilishi, oʻz kasbini bajarish uchun munosabat va xatti-harakatlarini nazorat qilishi hamda nazariy bilimlar va amaliy koʻnikmalarga ega boʻlishidan iborat.

Inson jamiyat hayotining harakatlantiruvchi kuchi sifatida faoliyat yuritir ekan, shu jarayon davomida turli xil kishilar va guruhlar bilan aloqada boʻladi va har qanday aloqadorlik insonlarda oʻziga xos majburiyatlarni shakllantiradi. Mazkur majburiyatlarni bajarish kasbiy burchni keltirib chiqaradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Bugun jamiyatdagi har bir soha zamonaviy taraqqiyot shiddatiga moslashib bormoqda. Zamonaviy jamiyat maʼlum tor mutaxassislikka ixtisoslashgan qoidalar va mezonlarga amal qiluvchi kadrlardan umumiy axloq normalari, kasb boʻyicha axloqiy qoidalarga ham rioya etishni talab etmoqda. Axloqiy madaniyat haqida fransuz faylasufi Rene Dekard oʻz tadqiqotida “Mening ham boshqalar singari yaxshi oʻqituvchilarim boʻlgan. Ular menga geografiya, fizikadan ilm berishgan. Lekin hech kim, hech qachon jamiyatda oʻzimni qanday tutishim kerakligini oʻrgatgan emas. Alohqiy tarbiyaga oid qoidalarni oʻrgatmagan” degan soʻzlarni iqtibos keltirir ekan, axloqiy madaniyatning shakllanishi insonning dunyoqarashi va shaxsiy pozitsiyasi bilan bogʻliq ekanligini koʻrsatib bergan [1;17-b.]. Bunda har bir soha xodimi professional axloqqa ega boʻlishi zarurligi eʼtiborga olinganligini koʻrish mumkin.

Axloqiy madaniyatning shakllanishi va rivojlanishida diniy qarashlarning ham ahamiyati kattadir. Masalan, Islom dini va uning muqaddas manbalarida axloqiy qoidalarga alohida eʼtibor berilgan boʻlib, unda insonlarga doim yaxshilik qilish, kechirimli boʻlish, sabr-qanoatli boʻlish, aldamaslik, shirinsuxanlik ota-onasini hurmat qilish, or-nomusli va vataniga sadoqatli boʻlish kabi axloqiy qoidalar keltirilgan.

Tadqiqotlarda kasbiy sohaga yoʻnaltirilgan alohida maxsus standart asosida ish olib boradigan shaxslar hamda ish faoliyatida rahbariyat yoki ayollar bilan uchrashganda birinchi boʻlib qoʻl berish mumkin emasligi, agar ular lozim koʻrib qoʻlini uzatsagina, qoʻl uzatish kerakligini anglagan shaxslar haqiqiy kasbiy axloqiy madaniyatga ega boʻlish mumkinligi eʼtirof etilgan.

Kasbiy-axloqiy madaniyatni yoritishda tadqiqotlarda keltirilgan quyidagi “etiketning oltin qoidalari”ga alohida eʼtibor qaratmoq lozim:

- har doim yaxshi narsalarga qarab intilish;
- xizmat faoliyati davomida jamoa va rahbarlarda yaxshi taassurot uygʻotish;
- ona-Vatanga sadoqat bilan xizmat qilish;
- hamkasblari bilan doʻstona va yaxshi muomalada boʻlish orqali oʻzaro hurmat va ishonch qozonish;
- adolatli boʻlish;
- yaxshi xulq-atvori bilan boshqalarga namuna boʻlish;
- saxiy, koʻngli toza, shaxsiy hayotda xushxulqli va bagʻrikeng boʻlish;
- har qanday axborotni yoki ahamiyatga molik muayyan sirni saqlay bilishi;
- oʻzining yaxshi xulq-atvori va kasbiy mahorati bilan namuna boʻlishi kabi qoidalar oltin qoidalar sirasiga kiritilgan [2;194–212-b.].

Kasbiy axloq falsafa fani bilan ham bevosita bogʻliq boʻlib, axloq falsafasi axloqning kelib chiqish tarixi va uning rivojlanish qonuniyatlarini oʻrgansa, kasbiy-axloq esa uning maʼlum kasbga xoslangan amaliy tomonlarini tahlil qiladi. Falsafa axloqning nazariy masalalari bilan shugʻullansa, kasbiy-axloqiy madaniyat jamiyatda, ishlab chiqarish bilan bogʻliq boʻlgan ijtimoiy munosabatlarda qoʻllaniladigan axloqiy qoida va meʼyorlarni oʻrganadi.

Axloqiy madaniyat xususida soʻz borar ekan, bunda asosiy eʼtiborni uning oʻzagi boʻlgan axloq atamasining falsafiy tahliliga qaratmoq lozim. Axloq ruscha – “moral” yoki lotincha “mores”, “moralis” soʻzlaridan olingan boʻlib, uning maʼnosi “xulq”, “odat” degan maʼnolarni anglatadi. Axloq – ijtimoiy ongning muayyan shakli sifatida, kishilarning ijtimoiy va shaxsiy hayotida bir-birlariga boʻlgan munosabatlarini, yaʼni xatti-harakatlarining yigʻindisidir. Shuningdek, “axloq” atamasi arab tilidagi “xulq” soʻzining koʻplikdagi ifodasidir [3;7-b.].

Etika fani falsafa fani tarkibida bo'lib, axloqiy prinsiplar, normalarni, shuningdek, axloqning manbai va kelib chiqish kategoriyalarini o'rganuvchi fandır.

Axloqning falsafiy tahlili va uning tamoyillarini o'rganuvchi fan "Etika" deb nomlanib, grekcha va yunoncha "ethos" degan so'zlardan olingan va uning ma'nosi ham tarjimada "xulq-odat" degan ma'nolarni o'zida mujassamlashtiradi [4;17-b.].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqotning metodologik asosini ichki ishlar rahbar xodimlarining kasbiy-axloqiy madaniyatini rivajlantirish kabi tushunchalar tashkil etadi. Tadqiqot mavzusini yoritishda mantiqiylik, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, dialektik va germeneytik tahlil kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanildi.

Kasbiy madaniyat nafaqat qadriyatlarga sodiqlikda, balki insonlarning ehtiyojlariga, mos ravishda, ijtimoiy munosabatlarni sifat jihatidan ta'minlashda ham namoyon bo'ladi. Kasbiy madaniyat davlat boshqaruvidagi ichki ishlar xodimlarining kasbiy vazifalarini O'zbekiston Respublikasi qonun normalari orqali tartibga soladi. Inson huquqlarini muhofaza qilish faoliyati kasbiy-axloqiy madaniyat bilan chambarchas bog'liq bo'lib, unda konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarni hurmat qilishga e'tibor qaratish, kasbiy va ijtimoiy o'zaro munosabatlar qoidalarini aniq amalga oshirish, xizmat vazifasida maxsus vositalardan foydalanish bilan bog'liq kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lish, rasmiy intizomga rioya qilish, korrupsiyaga qarshi qonun hujjatlarida belgilangan tamoyillarga amal qilish, insonlarning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish, xushmuomalalik, mulozamat ko'rsatish, jismoniy tayyorgarlik va ijtimoiy-psixologik salomatlikni saqlash kabi qoidalarni o'z ichiga oladi.

Bugungi kunda huquq-tartibot idoralari vakillari faoliyatining yuqori standartlariga davlat tomonidan qaratilayotgan e'tibor nafaqat ularning professionalligini, balki ichki ishlar xodimlarining kasbiy axloqiy madaniyatga oid fazilatlarini ham shakllantirib boradi. Shunday ekan, davlat boshqaruvidagi ichki ishlar xodimlarining kasbiy-axloqiy madaniyatini shakllantirish, bir tomondan, ularning umummadaniy qadriyatlarga bo'lgan hurmati va insoniylik fazilatlarini namoyon etsa, ikkinchi tomondan, ijtimoiy normalar va qoidalarga e'tibor qaratadigan sodiq, jamiyatning ishonchli vakili bo'lishi hamda me'yoriy hujjatlarda ko'rsatilganidek, insonlarning haq-huquqlarini muhofaza qilish yo'lidagi ichki ishlar xodimlari faoliyatining atributiv xususiyatlarini yaqqol namoyon etadi.

Davlat boshqaruvidagi ichki ishlar xodimlarining kasbiy-axloqiy madaniyatini rivajlantirish ichki ishlar organlari faoliyati samaradorligining mezonlaridan biri bo'lib, bu bugungi kunda ichki ishlar xodimlariga nisbatan jamoatchilikning ishonchi va fuqarolarning qo'llab-quvvatlashidan ham namoyon bo'lmoqda. Zero, jamoatchilik fikri ichki ishlar organlari fuqarolar oldidagi obro'-e'tiborini o'zida mujassamlashtiradi.

Yangi O'zbekiston sharoitida davlat boshqaruvidagi ichki ishlar xodimlari yoki, umuman, ichki ishlar xodimlariga nisbatan jamoatchilik fikrining ijobiy bo'lishi ichki ishlar xodimlarining shaxsiyatiga, qolaversa, ularning kasbiy axloqiy madaniyatiga e'tibor qaratishni taqozo etadi [5].

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Jamoatchilik fikrining salbiy bo'lishi jamiyatda uzoq muddatli, murakkab muammolar mavjudligidan dalolat bo'lib, bular, asosan, korrupsiya va mansab mavqeyidan o'z maqsadlari yo'lida foydalanish, mansab vakolatini suiiste'mol qilish kabi muammolarning borligini bildiradi.

Bugungi kunning zamonaviy tadqiqotlarida davlat boshqaruvidagi ichki ishlar xodimlarining kasbiy-axloqiy madaniyatini rivajlantirish yoki nazorat qilib borish turli xildagi sotsiologik so'rovnomalarning o'tkazilishi bilan aniqlab boriladi. Davlat boshqaruvidagi ichki ishlar xodimlarining kasbiy-axloqiy madaniyatining pastligi yoki uning xizmat vazifasiga noloyiqligi fuqarolar bilan muloqot qila olmasligi, muloqot madaniyatining pastligi, so'zlashuvda qo'pol iboralarni qo'llashi va haqoratomuz ohanglarda javob qaytarishida namoyon bo'ladi. Bu esa ichki ishlar xodimlari orasida professionallikning buzilishiga va kasbiy axloqiy madaniyatning deformatsiya holatiga kelib qolishiga zamin yaratadi. Natijada davlat boshqaruvidagi ichki ishlar xodimlarining ijobiy imidji va kasbiy axloqiy madaniyati haqidagi salbiy fikrlarini shakllantirishi olib keladi.

Bunday professionallik deformatsiyalarining vujudga kelmasligi davlat boshqaruvidagi ichki ishlar xodimlarining doimiy ravishda malaka oshirishi va kasbiy tayyorgarlikdan o'tishini taqozo etib, huquqni muhofaza qilish organlari xodimi sifatida kasbiy-axloqiy madaniyatning asosini tashkil etuvchi umuminsoniy qadriyatlarga ijobiy munosabatni shakllantiradi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib aytganda, bugungi rivajlangan jamiyatda har bir shaxs kasb etikasi qoidalaridan tashqari umuminsoniy etiket qoidalarini bilishlari shart. Har qanday kasb egasi o'z qasamyodini buzmasligi va unga sodiq qolgan holda amal qilishi hamda o'z kas-

binning mohir ustasi bo'lmog'i lozim. Kasbiy-axloqiy madaniyat umumkasbiy fanlar yo'nalishidagi tarmoq sifatida kelajakda har tomonlama yetuk mutaxassislarini tayyorlashga xizmat qiladi. Lekin, shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, kasbiy faoliyat jarayonida ichki ishlar xodimlari xizmat vazifasi tufayli umuminsoniy madaniyat tamoyillariga umuman to'g'ri kelmaydigan holatlarga ham duch kelishadi. Ko'p millatli yurtimiz jamiyatida turli madaniyatlarning joylashuvi hamda umummadaniy qadriyatlarini mensimaydigan fuqarolarga duch kelish, ulardagi o'zaro hurmatsizlik, hatti-harakatlari va jinoiy muhitga moyillikning yuqoriligi ichki ishlar xodimlarida kasbiy professionallik va axloqiy komillikni talab etadi. Aynan shuning uchun, davlat boshqaruvidagi ichki ishlar xodimlarining davriy malaka oshirishi ularning kasbiy-axloqiy madaniyatni rivojlantirishdagi samarasi beqiyosdir. Zero, malaka oshirish huquqiy, kasbiy normalar va qoidalar hamda qadriyatlarga asoslangan munosabatni shakllantirib, xodimlarning kasbiy o'sish istiqbollari belgilab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

(1). Декарт Р. Сочинения. Перевод с латинского и французского. Том 2. Сост., ред. и примеч. В.В. Соколова. М., "Мысль", 1994, 346 с.

(2). Р.Г.Апресян. О появлении понятия «золотое правило». Этическая мысль. М., Институт философии РАН, 2008. Вып. № 8, Нормативная и прикладная этика, с. 194–212.

(3). Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uchun darslik. T., O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010, 328 b.

(4). Этическая мысль. Том 15. Отв. ред. А.А.Гусейнов, Москва, ИФ РАН, 2015, 361 с.

(5). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvardagi "Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo'naltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-10-qarori.

Sidikov Sardor Nematullayevich (Toshkent shahar IIBB YHXB bo'linmasi boshlig'i; sidikov_s@mail.ru) YO'L HARAKATI QOIDALARIGA RIOYA QILISHNING AXLOQIY-FALSAFIY ASOSLARI

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada yo'l harakati qoidalariga rioya qilishning falsafiy-huquqiy asoslari yoritilgan. Axloqiy tarbiya jamiyat hayotida va insonlar turmushida faol ta'sir ko'rsatadigan muhim vositadir. Yo'l harakati xavfsizligi madaniyatini tahlil qilishda yo'l harakati ishtirokchilarining faoliyatini nazorat qilish hamda ularning to'g'ri qaror qabul qilishini bo'yicha tushuntirishlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.*

***Kalit so'zlar:** yo'l harakati, xavfsizlik, tahlil, infratuzilma, yo'l harakati xavfsizligi madaniyatini shakllantirish.*

Сидиков Сардор Нематуллаевич (Начальник отделения отдела ГБДД ГУВД города Ташкента: sidikov_s@mail.ru)

ЭТИКО-ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВЫ СОБЛЮДЕНИЯ ПРАВИЛ ДОРОЖНИНГО ДВИЖЕНИЯ

***Аннотация.** В данной статье описаны философско-правовые основы правил дорожного движения. Нравственное воспитание является важным инструментом, оказывающим активное влияние на жизнь общества и людей. При анализе культуры безопасности дорожного движения важно отслеживать деятельность участников дорожного движения и давать разъяснения по поводу правильного принятия ими решений.*

***Ключевые слова:** дорожное движение, безопасность, анализ, инфраструктура, формирование культуры безопасности дорожного движения.*

Sidikov Sardor Nematullayevich (Head of the Department of Internal Affairs of Tashkent City, Department of Road Safety; sidikov_s@mail.ru)

ETHICAL AND PHILOSOPHICAL BASIS OF COMPLIANCE WITH TRAFFIC RULES

***Annotation.** This article describes the philosophical and legal basis of traffic rules. Moral education is an important tool that has an active influence on the life of society and people. In the analysis of traffic safety culture, it is important to monitor the activities of road traffic participants and provide explanations on their correct decision-making.*

***Key words:** traffic, safety, analysis, infrastructure, formation of traffic safety culture.*

Kirish (Introduction). Ilm-fan taraqqiyoti natijasida dunyoning yirik mamlakatlarida transportlar oqimi ko'payishi bevosita yo'l harakati xavfsizligida ham jiddiy muammolarni yuzaga kelmoqda. Bu esa yo'l harakati xavfsizligiga oid turli muammolarni yuzaga keltirmoqda. Avtomobillar soninig keskin oshib borishi jamiyatda ko'plab muammolarni yuzaga keltirishi natijasida har yili dunyo bo'yicha bir yarim mil-

lionsdan ortiq insonlar yo'l-transport hodisalari qurboni bo'lmoqdalar. Ellik milliondan ortiq insonlarning esa umurbod nogiron bo'lib qolishi natijasida nafaqat insonlar jabrlanishiga, balki mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Yurtimiz taraqqiyotga erishayotgan bugungi jamiyatda insonlarning ijtimoiy-falsafiy dunyoqarashi kengayib borishi, turmush tarzining, yaxshilanishi, shu bilan birga, zamonaviy texnika taraqqiyotiga erishi rivojlanib bormoqda. Buning natijasida aholining talablaridan kelib chiqqan holda, ularning shart-sharoitlarini yaxshilash, hududlarda ravon va xavfsiz yo'llar infratuzilmasini shakllantirish va ularni zamon talablariga javob beradigan tarzda qayta rekonstruksiya qilib borish hamda yangilarini barpo etish vazifasi hukumatimiz tomonidan qabul qilinayotgan qonun normalari hamda davlat dasturlariga kiritilib, ustuvor vazifalardan biriga aylanib bormoqda. Zero, bu borada amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning zamidida faqat va faqat inson va uning manfaatlari e'tiborga olingan bo'lib, bu insoniy qadr-qimmat barcha narsalardan ustun ekanligini yana bir bor isbotlaydi.

Mazkur qarorlar va ularga mos ravishda qabul qilingan buyruqlar, farmoyishlar, qonun osti hujjatlar va chora-tadbirlarning asosiy maqsadi xalqimiz farovonligini ta'minlash, barcha hududlardagi yo'llar infratuzilmasining yaxshilanishi va yo'llardan aholining foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan. Biroq, yaratilayotgan ushbu shart-sharoitlar va imkoniyatlar aholiga yengillik yaratishi, qolaversa, ularda minnatdorlik hissini shakllantirishi bilan birga, ba'zi insonlarda mavjud qonunlarga itoat etmaslik, yo'l harakati qoidalarini mensimaslik yoki beparvolik va ko'ngilxushlik tuyg'ularini ham shakllantirmoqdaki, bu o'sib kelayotgan yosh avlodda yo'l harakati xavfsizligi madaniyatini shakllantirish, ularning ongida vatanparvarlik tuyg'usini yuksaltirib borishga o'ziga xos ma'naviy-axloqiy to'siqlarni vujudga keltirmoqda. Aynan shunday tartibsizlik yoki tartibbuzarlikning oldini olish borasida qilinayotgan sa'y-harakatlarning natija bermayotganligi bevosita muammoning ijtimoiy-axloqiy jihatlariga e'tibor qaratish va uni ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilishga zamin yaratmoqda. Zero, ma'naviy axloqiy madaniyat, xususan, yo'l harakati qoidalariga fuqarolarning axloqiy munosabatini ilmiy asosda tahlil qilish va o'rganish, uning yechimlari bo'yicha qabul qilingan xulosa va qarorlarni o'sib kelayotgan yosh avlodning tarbiyasiga singdirib borish zamon talabiga aylangan dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Ma'naviy-axloqiy tarbiya xususida so'z borar ekan, bunda asosiy e'tiborni uning o'zagi bo'lgan axloq atamasining falsafiy tahliliga qaratmoq lozim. Axloq ruscha – "moral" yoki lotincha "mores", "moralis" so'zlaridan olingan bo'lib, uning ma'nosi "xulq", "odat" degan ma'nolarni anglatadi. Axloq – ijtimoiy ongning muayyan shakli sifatida, kishilarning ijtimoiy va shaxsiy hayotida bir-birlariga bo'lgan munosabatlarini, ya'ni xatti-harakatlarining yig'indisidir. Shuningdek, "axloq" atamasi arab tilidagi "xulq" so'zining ko'plikdagi ifodasidir [1;7-b.]. Islom dinida ham axloqiy tarbiya diniy tarbiyaning ajralmas qismi sifatida e'tirof etilib, axloq "irodaning odati" deb ta'riflangan, ya'ni, iroda o'ziga bir narsani odat qilib olsa, o'sha axloqqa aylanishi ta'kidlangan.

Axloqning falsafiy tahlili va uning tamoyillarini o'rganuvchi fan "Etika" deb nomlanib, grekcha va yunoncha "ethos" degan so'zlardan olingan va uning ma'nosi ham tarjimada "xulq-odat" degan ma'nolarni o'zida mujassamlashtiradi [2;17-b.].

Bilamizki, ilm fan nuqtayi nazaridan axloq yoki etika inson hayotining eng muhim tomonlaridan biri hisoblangan axloq-odob masalalarini o'rganuvchi falsafiy fan bo'lib, insonga to'g'ri hayot yo'lini o'rgatadi. Shuning uchun ham etika o'zida inson turmushi nazariyasini o'rganishni va ayni vaqtda farovon hayot, baxt-saodatga erishish yo'llari haqidagi ta'limotni ham qamrab oladi.

Etika antik davrlardan boshlab falsafaning bir bo'lagi sifatida e'tirof etiladi. Arastuning "Etika" darsligi alohida falsafiy yo'nalishdagi fan maqomini olgach, unda nazariya bilan amaliyotning uyg'un ekanligi yaqqol namoyon bo'la boshlagan. Shu sabab qadimgi antik davr donishmandlari falsafani ulkan daraxtga, chinorga qiyoslab uning ildizi tabiat haqidagi ta'limotlar, poyasi – mantiq, mevasi esa etikadir degan xulosaga kelishgan. Darhaqiqat, "bilim – aql bulog'i, axloq esa hayot chirog'idir yoki bilim – xazina, axloq esa fazilatdir" [3;72-b.].

Bugungi kunda jamoat xavfsizligini ta'minlash va huquqbuzarliklarning oldini olish yoki ularning sodir etilishiga sabab bo'lgan shart-sharoitlarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Aynan shu maqsadda yo'l infratuzilmasini takomillashtirish borasida davlatimiz rahbarining qator farmon va qarorlari qabul qilinib masadlaning asl mohiyatini bilish, jamiyatda yuz berayotgan voqea-hodisalarni nafaqat amaliy yechimi, balki ilmiy nazariy yechimini ham tahlil qilishga urg'u berilmoqda [4].

So'nggi yillarda yo'l harakati qatnovlarining sezilarli darajada oshishi va malakatimizdagi iqtisodiy rivojlanish natijasida avtoulavlarning keskin ortib borishi xalqimizga yengillik yaratishi bilan birga, yo'l

harakati xavfsizligi bilan bog'liq bo'lgan qator muammoli vaziyatni ham yuzaga keltirmoqdagi, bu har bir fuqarodan ogohlikni, jamoat transportlaridan foydalanish madaniyatini shakllantirishni, yo'l harakati qoidalariga hamda yo'l harakati nozirlariga nisbatan ijobiy, axloqiy munosabatda bo'lishni taqozo etmoqda. Zero, bugungi zamonaviy yoshlar ong-u tafakkurida yo'l harakati xavfsizligi madaniyatini shakllantirish, uning ijtimoiy-falsafiy va axloqiy mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga egadir.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqotning metodologik asosini yo'l harakati qoidalarining statistik tahliliga ilmiy-falsafiy nuqtayi nazardan yondashish va tadqiq etish tashkil etadi. Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy-falsafiy tahlil, umumlashtirish, dialektik va germenevtik tahlil kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanildi.

Bugungi kunda yo'llarimizda sodir bo'layotgan ba'zi salbiy holatlarning oldini olishda axloqiy munosabatlarning o'rni beqiyosdir. Masalan, birgina farzandlarimizga svetofor chiroqlarining ahamiyati va tartib bilan harakatlanishni o'rgatishimizning o'zi uning yo'llarda harakatlanish bo'yicha yangi tushunchalar va qarashlarni o'zlashtirishiga, kelajakda kamol topishida, jamiyatda qabul qilingan qaror va qonunlarga, so'zsis, amal qilishida, bir so'z bilan aytganda axloqiy tarbiyasi mukammal, komil inson bo'lishida o'rni beqiyosdir. Zero, o'sib kelayotgan yosh avlod navnihol, unga axloqiy tarbiyani mukammal o'rgatish ularning ongida ulkan ijobiy o'zgarishlarni shakllantiradi. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatda yaxshi xulqli, qonunga itoat etuvchi, komil insonlarni shakllantirishi bilan birga, yo'llarda yuzaga keladigan noxush holatlarning va baxtsiz hodisalarning soni kamayishiga, insonlar orasida yo'l harakati xavfsizligi madaniyatining shakllanishiga, qolaversa, yo'l harakati xavfsizligi xodimlari bilan fuqarolar o'rtasidagi ijobiy munosabatlarning shakllanishiga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Yo'l harakati xavfsizligi bo'yicha ijobiy natijalarga erishish uchun avvalambor, barcha hududlarida, yo'llarda harakatlanish xavfsizligi yuzasidan yoshlarda yo'l harakati xavfsizligi madaniyatini shakllantirish, jamiyatda yo'l harakatining bevosita ishtirokchilari bo'lgan fuqarolarimizning huquqiy savodxonligini oshirish eng asosiy vazifalardan biridir.

Bugungi kunda yo'llarimizda sodir bo'layotgan yo'l transport hodisalarning salbiy oqibatlar natijasida ko'plab salbiy oqibatlar, insonlarning halok bo'lishlari yoki tan jarohatlari olishlari, shuningdek, yo'l harakati hodisalari natijasida yetkazilayotgan moddiy zararlarlar, shahar ko'chalari hamda aholi yashaydigan joylardan o'tadigan yo'llar va yo'l kesishmalarida yuqori darajadagi tartibsizlik va shovqinning yuzaga kelishi, ko'chalarning avtomobillar tomonidan to'sib qo'yilishlari, buning natijasida shahar yo'lovchi transportlari harakatlarinin cheklanishi kabi salbiy holatlarni yuzaga keltirmoqda [5].

Jamiyatda insonlarning ijtimoiy-falsafiy qarashlari kengayib borishi jahonda insonlarning turmush tarzi, yashashi, zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishiga olib kelmoqda. Shunday bir sharoitda aholining shart-sharoitlarini yaxshilash, yo'llarning infratuzilmasini zamonaviylashtirib borish davr talabiga aylanib bormoqda. Bugungi zamonaviy yoshlarimiz tarbiyasi barcha narsalardan ustun ekanligini anglagan holda, ularning axloqiy tarbiyasini milliy qadriyatlarimiz asosida shakllantirib borish bilan birga, ularga yo'llardagi harakatlanishning axloqiy qoidalariga doir tushunchalarning ham berib borilishi muhim vazifalarimizdan biriga aylanmog'i lozim.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib aytganda, bugungi jamiyatda sodir bo'layotgan yo'l transport hodisalarining aksariyat qismi qonun qoidalarni bilmaslikda emas, aksincha, belgilangan qonun-qoidalarni mensimaslik, turli axloq qoidalariga zid bo'lgan, ham o'zining va ham o'zgalarning hayotiga xavf soladigan xatti-harakatlarning bajarilishi, yo'l harakati xavfsizligi xodimlarini chalg'itadigan yoki bilib turib, noo'rin, axloqsiz xatti-harakatlarni bajarish, nafaqat yo'l harakati xavfsizligi madaniyatiga, balki, umuman, insoniy axloqqa to'g'ri kelmaydigan xatti-harakatlarni sodir etish natijasida yuzaga kelmoqda desak yanglishmaymiz. Aynan mana shuning uchun ham, yo'l harakati ishtirokchilari bo'lgan barcha yurtdoshlarimizda o'ziga xos yo'l harakati axloqi va madaniyatini shakllantirish, har bir fuqaroning jamiyatda o'z fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uchun darslik, T., O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010, 328 bet.
- (2). Этическая мысль. Том 15. Отв. ред. А.А.Гусейнов. Москва, ИФ РАН, 2015, 361 с.
- (3). Ў.Жалолова, Ў.Рўзматова. Билим ақл – булоғи, ахлоқ – ҳаёт чироғи. Тошкент, “Тафаккур”, 2017, 145 б.
- (4). Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 12 июлдаги “2022 – 2026 йиллар давомида амалга оширилиши мўлжалланган «хавфсиз ва раван йўл» умуммиллий дастурини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПҚ-316-қарори. <https://lex.uz/uz/docs/6106551>
- (5). У.Нуруллаев, И.Умиров, Г.Исоков, Методика определения деталей, критических по надежности автомобилей. Academic research in educational sciences, 2 (5), (2021), с. 679.

Nurmanov Furqat Ismoilovich (NavDPI “O‘zbek tilshunosligi” kafedrasida dotsenti;
E-mail: nurmonov.f@gmail.com)

O‘ZBEK TILI FONETIKASIDA UNLI TOVUSHLAR TASNIFINING TAKOMILLASHISHI

***Annotatsiya.** Tilshunoslik tarixida fonetika bo‘limi va uning tadqiqi uzoq tarixiy taraqqiyot davrini bosib o‘tdi. Nutq tovushlari, ularning tasnifi va tavsifi tilshunoslik tadqiqining ilk davrlaridan asosiy tadqiqot masalalaridan biri sanalgan. Antik davr falsafasida ham, qadimgi hind, yunon hamda arab tilshunosligi haqidagi ilmiy manbalarda ushbu mavzu alohida o‘rganilgan. Bugungi kun jahon hamda o‘zbek tilshunosligida nutq tovushlari yuzasidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar uchun tarixiy manbalardagi ilmiy xulosalar muhim asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Ushbu maqolada nutq tovushlarining anatomik-fiziologik, akustik va lingvistik-funksional jihatlari yuzasidan mavjud tadqiqotlardagi ilmiy-nazariy qarashlar tahlil etilgan.*

***Kalit so‘zlar:** fonetika, nutq tovushlari, unlilar tasnifi, nutq organlari, eksperimental fonetika, subyektiv va obyektiv metod.*

**Нурманов Фуркат Исмоилович (доцент кафедры Узбекского языкознания НавГПИ)
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ КЛАССИФИКАЦИИ ГЛАСНЫХ ЗВУКОВ В ФОНЕТИКЕ
УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА**

***Аннотация.** В истории языкознания отдел фонетики и ее исследования прошли длительный период исторического развития. Звуки речи, их классификация и описание были одним из основных исследовательских вопросов с самого начала лингвистических исследований. Эта тема изучалась отдельно в философии античности, в научных источниках древнеиндийского, греческого и арабского языкознания. Сегодня научные выводы из исторических источников служат важной основой научных исследований звуков речи в мировой и узбекской лингвистике. В данной статье анализируются научно-теоретические взгляды на существующие исследования анатомо-физиологических, акустических и лингвофункциональных аспектов звуков речи.*

***Ключевые слова:** фонетика, звуки речи, классификация гласных, органы речи, экспериментальная фонетика, субъективный и объективный метод.*

**Nurmanov Furqat Ismoilovich (Associate Professor of the Department of Uzbek Linguistics of NavSPI)
IMPROVING THE CLASSIFICATION OF VOWEL SOUNDS IN THE PHONETICS OF
THE UZBEK LANGUAGE**

***Annotation.** In the history of linguistics, the department of phonetics and its research has gone through a long period of historical development. Speech sounds, their classification and description have been one of the main research issues since the beginning of linguistic research. This topic was studied separately in the philosophy of antiquity, and in the scientific sources of ancient Indian, Greek and Arabic linguistics. Today, scientific conclusions from historical sources serve as an important basis for scientific research on speech sounds in world and Uzbek linguistics. This article analyzes the scientific-theoretical views of the existing research on the anatomical-physiological, acoustic and linguistic-functional aspects of speech sounds.*

***Key words:** phonetics, speech sounds, vowel classification, speech organs, experimental phonetics, subjective and objective method.*

Kirish (Introduction). Tilshunoslik tarixida qadimgi hind tilshunoslari birinchilardan bo‘lib unli va undosh tovushlarni farqlaganlar, portlovchi va sirg‘aluvchi, jarangli va jarangsiz tovushlarni, tovush birikmalarini, bo‘g‘in, urg‘u, intonatsiya, cho‘ziqlik va qisqalik kabi fonetik hodisalarni, jarayonlarni bilganlar. Shuningdek, qadimgi hindlar tovushlarning fiziologik – artikulyatsion xususiyatlari, boshqa tovushlar bilan almashinishi, bir tovushning boshqa tovush ta’siri bilan o‘zgarishi (kombinator o‘zgarish) kabi hodisalarni aniqlashga ham e’tibor berganlar. Ular tovushlarning artikulyatsion-fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tasnif qilganlar. Shu asosda, yuqorida aytilganidek, tovushlarni unli va undoshlarga ajratganlar, nutq a’zolarining yaqinlashuvidan unlilar, bir-birlariga ta’siridan, ya’ni tegishidan undoshlar hosil bo‘lishini qayd etganlar [1;11-b.].

Antik davrning buyuk olimi Aristotelning “Poetika” (Poeziya san’ati haqida) [2;39–47-b.] asarida inson nutqi harf, bo‘g‘in, bog‘lovchi, ism, fe’l, a’zo, kelishik va gaplardan tashkil topishi bayon qilinadi.

Harflar, Arastuning fikricha, unli, undosh va unsiz turlarga bo‘linadi. Avvalo, undosh va unsizlar tilning ishtirok etish-etmasligi belgisiga ko‘ra, unilarga qarama-qarshi qo‘yiladi. Undosh va unsizlar talaffuzida til ishtirok etsa, unililar talaffuzida ishtirok etmaydi.

Fonetika masalalariga alohida ahamiyat bergan yunon faylasuflari tovushlarni izohlashda akustik tamoyilga amal qildilar. Ularni unli va undosh tovushlarga bo‘ldilar. Unlilar cho‘ziq va qisqa unililarga ajratildi. Dionisiy cho‘ziq unlilar, diftonglarni ham farqlaydi [3;12-b.].

Nutq tovushlari, ularning artikulatsiya-akustik jihatlari, tasnifi haqida Sharq allomalari: Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sinoning asarlarida asosli ilmiy-nazariy ma’lumotlar keltiriladi. Ularning nutq tovushlari, ularning paydo bo‘lishi haqidagi fikrlari bugungi davr jahon hamda o‘zbek tilshunosligida amaliy fonetika yuzasidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). O‘zbek tili vokalizmi va konsonantizmining anatomik-fiziologik, akustik va lingvistik-funksional jihatlarni tadqiq etishga, shu asosda ularning fiziologik va akustik tasniflarini yaratishga hamda fonologik xarakteristikasini berishga doir A.Mahmudov, F.Abdullayev, S.A‘zamov, S.Otamirzayeva, Sh.Shoabdurahmonov, A.Abduazizov, H.Yo‘ldosheva, A. Ishayev, S.Rizayev kabi tilshunos-fonetistlarning o‘zbek tili unli va undosh tovushlarini, shuningdek, bo‘g‘in strukturasi eksperimental tadqiqiga bag‘ishlangan xarakterli tadqiqotlari yaratildi [4;46-48, 24-28; 41-42-b.].

Ma’lumki, til tovushlar tizimi, uning shakllanishi, tarixiy taraqqiyoti fonetika bo‘limida o‘rganiladi. Tilshunoslikning bu bo‘limi tilni o‘rganishning dastlabki bosqichi sanaladi, shu bilan birga, ma’lum davrlarda tovushlar tizimi qonuniyatlari va ulardagi o‘zgarishlarni to‘g‘ri anglashlashga yordam beradi.

Eksperimental fonetikaning taraqqiyoti, keyinchalik, o‘zbek mumtoz adabiyotining, xususan, o‘zbek aruzini tekshirishda ham samarali natijalar berdi [5;13-21-b.].

Tilshunos olim H.Jamolxonovga ko‘ra, “eksperimental tadqiqotlarning muhim jihatlaridan biri shundaki, ularning natijalari tovush va fonema o‘rtasidagi bog‘lanishlarni, fonemalarning integral va differensial belgilarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi, bular, o‘z navbatida, fonemalarning oppozitsiyalarga birlashishida, oppozitsiyalarning esa korrelyatsiyaga uyushishida hisobga olinadi. Amalda ham shunday bo‘ldi: 60-yillarning oxirrog‘i va 70-yillarning boshlarida o‘zbek tilshunosligida fonologik darajadagi ishlar ancha rivoj topdi” [6;78-79-b.].

Darhaqiqat, yuqorida nomlari zikr etilgan tadqiqotchilarning o‘zbek tilining nazariy fonetikasi va fonologiyasi tadqiqiga bag‘ishlangan qator ishlari, monografiyalari yuzaga keldiki, keyinchalik, ular o‘zbek tilida fonetika va fonologiya munosabati masalalarini yoritishda asos bo‘lib xizmat qildi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tilshunoslikda nutq tovushlarining tasnifi va tavsifiga doir ilmiy qarashlar antik davr faylasuflari asarlarida, shuningdek, tilshunoslik masalalari bilan jiddiy shug‘ullangan qadimgi hind, qadimgi yunon hamda arab tilshunosligi tadqiqotchilari ilmiy merosida ilk qarashlar uchraydi. Ular o‘z davri talablari hamda an‘analari asosida nutq tovushlarini akustik tamoyil asosida tasnif qilishgan. Ayniqsa, Sharq allomalarining bu sohada amalga oshirgan tadqiqotlari nafaqat turkiy tillar tilshunosligi uchun, balki jahon tilshunosligi uchun ham ahamiyatlidir.

Hozirgi davr ta’lim muassasalari o‘quvchi-talabalari, o‘zbek tilini mustaqil o‘rganuvchilar uchun chop ettirilgan o‘quv qo‘llanma hamda darsliklarda o‘zbek adabiy tili unli tovushlari uch jihatiga ko‘ra tasniflanadi. Tasniflashda, asosan, fiziologik va akustik tamoyilga tayanib ish ko‘rilgan.

Zamonaviy tilshunoslikda nutq tovushlari tasnifining eksperimental laboratoriyalarda o‘tkazilishi hamda tajribalar natijasiga asoslangan ilmiy xulosalar bayon qilingan tadqiqotlar yaratildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Til tarixiga oid ilmiy adabiyotlarda qadimgi turkiy tilda 8 ta unli (a, ä, i, ы, o, ö, u, ý), eski turkiy tilda 9 ta (a, ā, ä, e, o, ø, u, ü, ı, i), eski o‘zbek tilida 10 ta (a, ā(o), ä, e, o, ö, u, ü, ı, i) unli bo‘lganligi va ular quyidagi uch belgi asosida tasnif qilinganligi uqtiriladi [7;16-b;45-b;46-b.].

1. Tilning gorizontal (yotiq) harakatiga ko‘ra:

- a) old qator (ingichka) unlilar – ä, i, ö, ý;
- b) orqa qator (yo‘g‘on) unlilar – a, ы, o, u.

2. Tilning vertikal (tik) harakatiga ko‘ra:

- a) quyi keng unlilar – a, ä;
- b) o‘rta keng unlilar – o, ö (ø);
- d) yuqori tor unlilar – ı, ы, ý, u.

3. Lablarning ishtirokiga ko‘ra:

- a) lablangan unlillar: o, ö, u, y;
 b) lablanmagan unlillar: a, ä, i, ы.

Ko'pchilik adabiyotlarda unlilar tasnifi quyidagi jadvallar tarzida beriladi [8;53-b.].

№	Tilning vertikal (tik) harakatiga ko'ra	Tilning gorizontal (yotiq) harakatiga va lablangan ishtirokiga ko'ra	
		Old qator, lablanmagan	Orqa qator, lablangan
1.	Tor unlilar	i	u
2.	O'rta keng unlilar	e	o'
3.	Quyida keng unlilar	a	o

Keyingi yillardagi o'zbek tilshunosligining fonetika va fonologiya masalalarini o'zida keng aks ettirgan tadqiqotlardan biri, shubhasiz, M.Mirtojiyevning "O'zbek tili fonetikasi" monografiyasidir. Darslikda, avval, nutq tovushlari aspektlari tadqiq etilib, nutq tovushlarining ham fizik aspekti, ham bioaspekti har tomonlama tahlil etilgan. Muallifning fikriga ko'ra, nutq tovushining biologik aspekti haqida gap ketganda nutq organlari anatomiyasi, fiziologiyasi va vazifa kechimi bilan birga nutq organlarining defektologiyasi va patologiyasiga e'tibor qaratish lozim. Chunki ular nutq tovushining ravon va to'g'ri talaffuzida muhim ahamiyatga ega. Nutq apparatini tashkil etuvchi har bir nutq organi va ularning faoliyati, mohiyati, nutq tovushini hosil qilishdagi asosiy yoki qo'shimcha vazifa bajarishi kabi jihatlari ilmiy asoslanib, amaliy misollar bilan mustahkamlangan. Har bir nutq organining anatomik tuzilishi, joylashuv o'rni, nutq tovushi hosil qilishdagi o'zaro muvofiq faoliyati hamda fiziologiyasi tavsifidan so'ng nutq tovushlari eksperimental tavsifi va tasnifi bayon qiladi.

Professor B.Mengliyev mazkur darslik haqida shunday yozadi: "Joriy darslik va qo'llanmalarda "unli tovushlar o'pkadan chiqayotgan havoning tovush paychalariga urilishi natijasida hosil bo'lgan ovoz og'iz bo'shlig'ida hech qanday to'siqqa uchramasdan o'tishi natijasida hosil bo'ladi" deyiladi. Professor M. Mirtojiyev agar ovoz og'iz bo'shlig'ida to'siqqa uchramasa, unda hamma unlilar "bir unli" bo'lib qolar edi degan aksiomatik bir fikrni aytdiki, uni kichik bir kashfiyot sifatida baholash mumkin" [9;17-b.].

Demak, ushbu darslikdagi unlilar tasnifi yuzasidan mavjud darslik, ilmiy adabiyotlardagi nazariy fikrga eksprement asosida aniqlik kiritildi yoki o'zbek milliy tilining o'ziga xos fonetik jihatining bir tomonlama – mustamlakachilik siyosatiga mos ravishda o'rganilganligi asoslab berildi.

Tovushlar tizimini maxsus apparatlar yordamida eksperimental tadqiq etgan professr M.Mirtojiyev unli tovushlarni og'izning ochilishiga ko'ra uch tipga ajratadi: 1) tor unlilar; 2) o'rta-keng unlilar; 3) keng unlilar. Ularning har birini alohida-alohida tavsiflaydi [10;63–77-b.].

Darslikda o'zbek tili nutq tovushlarining tasnifi maxsus apparatlar yordamida o'tkazilgan tajribalar xulosasi asosida mukammal bayon qilinganligi bilan mavjud adabiyotlardagi nutq tovushlari tasnifidan farq qiladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Demak, nutq tovushlari, ularning tasnifi va tavsifi tilshunoslik tarixining ilk davrlaridan asosiy tadqiqot masalalaridan biri sifatida antik davr faylasuflari, qadimgi hind, yunon hamda arab tilshunosligi tadqiqotchilari tomonidan o'sha davr tendensiyalari asosida o'rganilgan.

Sharq allomalari arab tilshunosligi fani shakllanishi va rivojlanishi haqidagi ilmiy nazariy qarashlari turkiy til, umuman tilshunoslik tadqiqi, xususan, nutq tovushlari tasnifi uchun qimmatli ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi. Nutq tovushlarning fiziologik-artikulation xususiyatlari, boshqa tovushlar bilan almashinishi, bir tovushning boshqa tovush ta'siri bilan o'zgarishi (kombinator o'zgarish) hamda ularni tasniflashda tarixan fiziologik va akustik tamoyilga tayanib ish ko'rilgan.

Hozirgi davr fonetikasida ikki asosiy metod mavjud: subyektiv va obyektiv metod. Obyektiv metod asosida nutq tovushlarini tasnif etish nutq tovushlarini hosil qiladigan nutq organlari faoliyatini chuqur o'rganish hamda nutq tovushlari akustik belgilarini, ularning sifat va miqdor belgilarini aniqlashtirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

- (1) Расулов Р. Умумий тилшунослик. Тошкент, 2010.
- (2) Аристотел. Поэтика. Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. Тошкент, 1980.
- (3) Нурмонов А. Танланган асарлар. III жилд, Тошкент, "Академнашр", 2012.
- (4) Маҳмудов А. Тилда сингармонизм, урғу ва товуш системасининг ўзаро муносабати. "Ўзбек тили ва адабиёти", 1980, 4-сон; Абдуазизов А. Фоностилистик воситаларнинг ўрганилишига доир. "Ўзбек тили ва адабиёти", 1980, 4-сон.

адабиёти”, 1985, 2-сон; Йўлдошева Х. Интонациянинг темпорал компоненти ҳақида. “Ўзбек тили ва адабиёти”, 1985, 6-сон.

(5). Тўйчиев У. Ўзбек арузини экспреминтал фонетика усули билан текшириш. «Ўзбек тили ва адабиёти», 1993, 4-сон.

(6). Jamolxonov H. O‘zbek tilining nazariy fonetikasi. Toshkent, 2009.

(7). Неъматов Х. Ўзбек тили тарихий фонетикаси. Тошкент “Ўқитувчи”, 1992; Махмудов Қ. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси. Тошкент, “Ижод” нашриёт уйи, 2006; Абдурахмонов Ғ., Шукуров Ш., Махмудов Қ. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2008.

(8). Жамолхонов Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Олий ўқув юртлари учун дарслик, Т., “Талкин”, 2005.

(9). Менглиев Б. Тилшуносликнинг амалий масалалари. Монография, Тошкент, “Globe Edit”, 2020.

(10). Миртожиев М. Ўзбек тили фонетикаси. Тошкент, “Фан”. 2013.

Yakubov Jamoliddin (O‘zbekiston davlat Jahon tillari universiteti professori, filologiya fanlar doktori, Toshkent, O‘zbekiston),

Ruzimetov Xamidjon (Urganch davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi, Urgench, O‘zbekiston)
O‘ZBEK VA FRANSUZ TILLARIDA PARALINGVISTIK MUNOSABATLARNING
IFODALANISHI

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada biz o‘zbek va fransuz tillarida paralingvistik vositalarning qanday yo‘l bilan ifodalanishiga va ularning semantik tasnifiga e‘tiborni qaratdik. Maqolada paralingvistik vositalar yordamida o‘zbek va fransuz yozuvchilarining badiiy adabiyotlardan olingan misollar chuqur tahlil qilindi. Ular semantik tasniflarga va tuzilish xususiyatlariga ko‘ra, turli xil guruhlariga ajratildi.*

***Kalit so‘zlar:** imo-ishoralar, paralingvistika, paratil, verbal va nonverbal vositalar, mimika, bosh, ko‘z, qo‘l.*

Жамолиддин Якубов (профессор Узбекского государственного университета мировых языков, доктор филологических наук, Ташкент, Узбекистан),

Хамиджон Рuzиметов (доцент Ургенчского государственного университета, кандидат филологических наук, Ургенч, Узбекистан)

ВЫРАЖЕНИЕ ПАРАЛИНГВИСТИЧЕСКИХ (НЕВЕРБАЛЬНЫХ) ОТНОШЕНИЙ В
УЗБЕКСКОМ И ФРАНЦУЗСКОМ ЯЗЫКАХ

***Аннотация.** В данной статье мы остановились на том, как выражаются паралингвистические средства в узбекском и французском языках и их семантической классификации. Используя паралингвистический инструментарий, в статье подробно анализируются примеры произведений узбекских и французских писателей из художественной литературы. Они были разделены на различные группы по смысловым классификациям и структурным особенностям.*

***Ключевые слова:** жесты, паралингвистика, параязык, вербальные и невербальные средства, мимика, голова, глаза, руки.*

Jamoliddin Yakubov (Professor of the Uzbekistan State World Languages University, Doctor of Philology, Tashkent, Uzbekistan; E-mail: yakubov1955@mail.ru),

Khamidjon Ruzimetov (Docent of Urgench State University, Candidate of Philological Sciences, Urgench, Uzbekiston; E-mail: ruzmetovxamid8@gmail.com)

EXPRESSION OF PARALINGUISTIC (NON-VERBAL) RELATIONS IN UZBEK AND
FRENCH LANGUAGES

***Annotation.** In this article, we focused on how paralinguistic means are expressed in the Uzbek and French languages and their semantic classification. Using paralinguistic tools, the article analyzes in detail examples of Uzbek and French writers from fiction. They were divided into different groups according to semantic classifications and structural features.*

***Key words:** gestures, paralinguistics, paralanguage, verbal and non-verbal means, facial expressions, head, eyes, hands.*

Kirish. Ma‘lumki, inson yaralibdiki, his-hayajon, turli imo-ishoralar, xatti-harakatlar tabiiy-fiziologik refleks hisoblanadi. Bu reflekslarini yozuvchilar, shoirlar qo‘shiqchilar butun insoniyat tomonidan turlicha qo‘l harakatlari, yuz ifodalari va imo-ishoralar hamda xayoli fikrlar bilan bayon etib kelishmoqda. Shunday ekan, bunday his-hayajonli holatlarni fanda tilshunoslikning paralingvistika bo‘limi o‘rganadi [Abdullayeva Z. 2022; 2–4-b.].

Mazkur maqolaning maqsadi o‘zbek va fransuz tillarida nonverbal vositalarning qanday yo‘llar bilan ifodalanishini ochib berish.

Ishning dolzarbligi. Badiiy matnda somatizmlar va somatik iboralar yordamida aks ettirilgan og‘-

zaki bo‘lmagan muloqotga katta e‘tibor berish kerak – yuz ifodalari, imo-ishoralar, kommunikativ ahamiyatga ega bo‘lgan tana harakatlari va fonatsiya xususiyatlarini yetkazadigan leksik vositalar. Bunday matnlarda muallif kommunikativ vaziyatlar va dialoglarni imkon qadar real holatlarga yaqinlashtirishga harakat qiladi va qahramon nutqiga hamroh bo‘lgan imo-ishoralar, mimika va harakatlarni tasvirlamasdan turib qilolmaydi. Bundan tashqari, matnda muloqot paytida qahramonlarning tashqi xatti-harakatlarini tavsiflash o‘quvchiga ularning psixologik xususiyatlarini to‘liqroq va to‘g‘ri yetkazish, ularning hayoti va faoliyati haqidagi g‘oyalarni qayta qurish, ularning xohish-istaklari, kayfiyati va munosabatlarini tushunishga imkon beradi.

Maqolaning asosiy vazifasi quyidagilar. 1) paralingvistik vositalarni semantik guruhlariga ajratib tahlil qilish; 2) noverbal vositalarni tuzilishiga ko‘ra ikki bosh bo‘lakli gaplarda tahlil qilish. Ushbu maqolani tahlil qilishda quyidagi usullar qo‘llanildi: komponent tahlil, distributiv, funksional.

Ta‘kidlash lozimki, "Paralingvistika" atamasining o‘zi 1940-yillarning oxirida kiritilgan. Amerikalik tilshunos A.Xill va kuzatilgan paralingvistik hodisalarning til bilan bog‘lanishiga e‘tibor qaratgan. Shu bilan birga, bu hodisa tilshunos olim Nikolay Vladimirovich Yushmanning 1930-yillarda o‘zining "G‘ayritabiiy fonetika" asarida e‘tiborini tortdi.

Insonning jamiyatda mavjudligi, eng avvalo, uning muloqot qilish qobiliyati bilan belgilanadi. Til – fikrning bevosita gavdasi, ya‘ni so‘zlovchi ifodalamoqchi bo‘lgan narsadir. Til va tana tili deb ataladigan narsa yordamida inson ma‘lumot almashishi, o‘z xohish-irodasini ifodalashi va hokazo. Til inson his qilgan hamma narsani ifodalashga, uning hayotida sodir bo‘layotgan hamma narsani tasvirlashga qodir, u insonning fikr va his-tuyg‘ularini moddiy shaklga qo‘yadi.

Ko‘rinib turibdiki, til inson fikrini ifodalash vazifasida birinchi o‘rinda turadi. Ammo bu aloqa "faqat tovushli material qobig‘ida" chegaralangan va "aniq aloqa holatini tashkil etuvchi barcha sharoitlardan" ajratilgan degani emas [Kolshanskiy. 2014;4].

Muloqot ma‘lum sharoitlarda sodir bo‘ladi, bu ma‘ruzachi qanday vositadan foydalanishida muhim rol o‘ynaydi. Ushbu fikrga asoslanib, biz og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan muloqot haqida gapirishimiz mumkin. Muloqotning o‘zi keng ma‘noda shaxslarning o‘zaro ta‘siri, o‘zaro ta‘sir qilish jarayoni va uning usullari sodir bo‘ladigan tizimdir [Terin. 2000;197-b.].

Boshqacha qilib aytganda, bu muloqot va odamlarning birgalikdagi faoliyatini tashkil etishdir. Og‘zaki muloqot aloqaning asosiy usuli bo‘lib, til yordamida amalga oshiriladi. Bu og‘zaki yoki yozma bo‘lishi mumkin. Oddiy qilib aytganda, bu bizning kundalik tilimiz: biz gaplashamiz va yozamiz – bu og‘zaki muloqot.

Og‘zaki bo‘lmagan muloqot og‘zaki vositalardan (nutq va til) foydalanishni o‘z ichiga olmaydi. Bu so‘zlarning yordamisiz ma‘lumot almashishdir. Og‘zaki bo‘lmagan muloqot va og‘zaki bo‘lmagan aloqa vositasi inson tanasi va o‘ziga xos vaziyatga aylanadi, chunki odamlar o‘z niyatlarini amalga oshirish jarayonida, "ko‘pincha, paralingvistik yoki paralingvistik birliklarga murojaat qilishadi" [Kreidlin. 2002;26].

Muloqot odamlarning birgalikdagi faoliyatlari ehtiyojlaridan kelib chiqadigan turli faolliklari moyinida bir-birlari bilan o‘zaro munosabatlarga kirishish jarayonidir. Odamlar muloqot jarayonida so‘zlardan tashqari, ya‘ni, verbal vositalardan tashqari turli xil harakatlardan, qiliqlardan holatlardan, kulgu, ohanglar va boshqalardan ham foydalanadilar. Qiliqlar, mimika, ohanglar, to‘xtashlar (pauza), hissiy holatlar, kulgu, yig‘i, ko‘z qarashlar, yuz ifodalari va boshqalar o‘zaro muloqotning nutqsiz vositalari bo‘lib, ular muloqot jarayonini yanada kuchaytirib, uni to‘ldiradi, ba‘zan esa nutqli muloqotning o‘rnini bosadi, bunday vositalarni noverbal vositalar, deyiladi.

Adaviyatlar tahlili va metodologiya. Paralingvistik vositalar muloqotning verbal turidagi kabi dialekt, sleng, vulgarizm, ironiya va boshqalar singari ayrim guruhlar o‘rtasida, aynan bir millat orasida yoki geografik hudud jihatidan qo‘llanishi, haqorat, yoki kesatish ma‘nolarini anglatishi mumkin. Ammo shu kunga qadar deyarli barcha yetakchi lingvist olimlar tomonidan paralingvistik vositalar verbal muloqotning bir bo‘lagi, ya‘ni, e‘rdamchi komponenti sifatida tadqiq qilinib, u paralingvistik vositalar ichiga aralastirib yuborilgan. Masalan, rus tilshunos olimi V.Kolshanskiy o‘zining «Paralingvistika» kitobida quyidagi nazariy fikrlarni ilgari surgan: «Paralingvistik vositalar subyektning verbal (so‘zli) kommunikatsiyasining chala tomonlarini to‘ldiradigan aloqa-aralashuv bo‘limchasidir» [Kolshanskiy G. 1974;54].

Shunday fikr M.Saidxonovning «Aloqa-aralashuv va imo-ishoralar» nomli kitobida ham uchraydi: «Aloqa-aralashuvda xizmat qiluvchi ma‘lum axborotni uzatish vositalaridan bo‘lgan ramzlar, shartli belgilar, morze tili, ishoralar va boshqa bir qancha vositalar borki, ular ichida til tabiiy, shu til sohiblari uchun tushunarli, tayyor holdagi aloqa vositasi sanaladi. Bu ishoralar, mimika, ovozdagi turli holatlar va gavda

harakatlari aloqa-aralashuv vazifasini bajarishdan qat'i nazar, kommunikatsiyada ikkilamchi vosita ekanini bildiradi» [Saidxonov M. 1998;5–8-b.].

Yosh tadqiqonchi F.Narzullayeva dissertatsiyaning “Ingliz hamda o‘zbek tillarida “bosh” va “ko‘z” so‘zlarining polisemantikligi” deb nomlangan ikkinchi bobida inson bosh qismi a‘zolaridan “bosh” va “ko‘z” so‘zlarining ikki noqardosh tildagi umumiy va xususiy, nutqiy ma‘nolari, denotativ va konnotativ ma‘nolarini, turg‘un birikmalardagi semantik qirralari singari lisoniy hodisalarni qanday tarzda ifodalaniishi, polisemantikligi tahlilga tortilgan va ularning o‘xshash va farqli tomonlari aniqlangan.

“Bosh” leksemasi dastlabki ma‘nolari bilan boshqa so‘zlar bilan birikib, erkin qurshovda kelishini bilamiz. “Bosh” xuddi “ko‘z” leksemasi singari erkin qurshovlarda “jonli (tirik) mavjudotning bo‘yindan yuqori qismi” kabi mazmun munosabati bilan ishtirok etadi (Narzullayeva F. 2023;3–5-b.).

Demak, “bosh” leksemasi turli tillarda erkin va bog‘liq qurshovlarda ko‘plab ma‘nolarni ifodalashi mumkin.

Endi esa “bosh” so‘zining leksik ma‘nolarini qiyoslanayotgan tillarda taqqoslaymiz: Masalan. *She shook her head* sadly. U boshi bilan rizolik bildirdi.

Tadqiqotchi “Head” so‘zining 33 xil lug‘aviy ma‘nolarini aniqlagan.

1. Kishi yoki hayvonning bo‘yniga bog‘langan, yuz va miyani o‘z ichiga olgan qismi: head. 2. Biror bir narsani boshqaradigan yoki ustidan hokimlik qiladigan odam: heads of the major. 3. Kishining miyasi: head. 4. Matematika, tijorat yoki investitsiya kabi biror-bir narsani yaxshi qilish kobiliyati: has a head for the business. 5. Kishi, odam: head (15-bet).

Mazkur ishda o‘zbek tilida “bosh” leksemasining iboralardagi 32 ma‘nosi borligi kuzatilgan: 1. Boshi bilan. 2. Boshi bog‘liq. 3. Xotin boshi bilan. 4. Boshi ochiq. 5. Bosh og‘rig‘i (Narzullayeva F. 2023;5–15-b.).

Bundan tashqari, paralingvistika kabi lingvistik belgilarning ham imkoniyatlari cheklanganligini e‘tirof etish lozim. Xususan, tasviriy san‘at, musiqa, raqs san‘ati, turli davlatlarning ramzlarini ifodalovchi bayroq yoki gerblar, morze va semafor alifbolari yordamidagi muloqotlarda berilgan paralingvistik komponentlarni so‘z bilan ifodalab bo‘ladimi!? Masalan, YHXB xodimi (nazoratchi) avtoyo‘lda harakatlanayotgan bir yoki baravariga bir nechta avtoulavlarni aynan noverbal komponent usullari, ya‘ni, hushtak chalish, tayoqchasini yuqoriga ko‘tarish yoki maxsus belgilarni qo‘yish orqali boshqarishning uddasidan chiqishi mumkin-ku! (Aks holda, verbal muloqot orqali nazoratchining bir vaqtning o‘zida haydovchilar bilan kommunikatsiyaga kirish imkoniyati cheklanadi). O‘z navbatida, mantiqiy nuqtayi nazardan qaralganda, yo‘l harakatlarni nazoratga soluvchi belgilar haydovchi tezligini cheklashi, yurish bo‘lgan qatori, qaysi tarafga burilishi, signal chalishini taqiqlashi va boshqa harakatlarning bajarilishini tartibga soladi, bevosita u bilan noverbal muloqotga kirishadi.

Inson suhbatini davomida xo‘rsinish, yo‘talish, yig‘lash, kulish, soat kabi chiqqillash yoki o‘ziga xos ovoz ohangi kabi paralingvistik vositalar yordamida o‘z ruhiy holatini aks ettirishni yoki suhbatga bo‘lgan munosabatini ifoda qilishning uddasidan chiqadi.

Ushbu maqolada biz adabiy matndagi paralingvistik vositalarni ularning paratilning quyidagi turlariga aloqadorligi to‘rtta paralingvistik vosita bilan ifodalash mumkin: fonatsiya; kinesika; imo-ishoralar; kontekst. Tilshunoslikda fonatsiya deganda “tovush hosil bo‘lishi, nutq tovushlarini hosil qilish jarayonida barcha a‘zolarining birgalikdagi faoliyati, nutqning o‘zi tovushi, shuningdek, nutq tovushining sifati tushuniladi. Yuqorida aytib o‘tilgan ovoznining jismoniy ma‘lumotlari (tembr, diksiya, gapirish uslubi, shuningdek, ovoznining kuchi, intonatsiyasi) tinglovchiga notanish bo‘lsa ham, uning nutqiga asoslanib, so‘zlovchi haqida xulosa chiqarishi mumkin bo‘lgan ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi.

Kinesika atamasi ikki ma‘noda qo‘llaniladi: inson tanasining harakatiga ishora qilish va shu sohani o‘rganuvchi fan sohasining nomi sifatida. *Kinesika* – bu tana harakatlarning semiotikasini yoki oddiyroq aytganda, tana tilini o‘rganadigan fan. Ammo shuni yodda tutish kerakki, insonning har qanday holatini ko‘rsatadigan barcha tana harakatlari paralingvistik emas.

Paralingvistika tizimidagi imo-ishoralar muloqot jarayonida katta rol o‘ynaydi. Muloqot jarayonida og‘zaki bayonotni to‘g‘ri talqin qilishga yordam beradigan vositalarga imo-ishoralar va mimikalar ham kiradi. Imo-ishoralarga odamning turli xil tana harakatlari va mimika – uning yuz ifodasi kiradi.

Imo-ishoralar va mimikalar, dastlab, sof biologik hodisa bo‘lgan, ammo vaqt o‘tishi bilan ularning ko‘pchiligi noverbal tizimda mustahkamlanib, tipiklashgan. Ya‘ni, “bu vositalardan ba‘zilarining ma‘lum bir xarakteri o‘sib, paralingvistik hodisaga aylandi” [Kolshanskiy G. 1974, 54].

Amerikalik psixolog Albert Merabian o‘z eksperimental tadqiqotlarida “kishilar muloqot jarayonida axborotning 93 foizini tana harakati va ovoz orqali qabul qilishlarini e‘tirof etadi. Bundan 55 foizi tana ha-

rakati, 33 foizi esa ovozga to'g'ri keladi, axborotning qolgan 7 foizini verbal vositalar tashkil etadi. Shuningdek, kishilar muloqot payti o'z his-tuyg'ularini ifodalaganlarida mimika va ovoz ishtiroki tufayli suhbatdoshlarining ishonchini qozonishlarini va verbal vositalar bu borada eng oxirgi o'rinni egalashini" [<https://www.bl.uk/people/albert-mehrabian>].

Ushbu maqolada quyidigi usullar qo'llandi: qiyosiy, chogishtirma, funktsional, component tahlil, distributiv.

Tahlil va natijalar. Ta'kidlash lozimki, o'zbek va fransuz tillarida paralingvistik munosabatlarning semantik tasnifi va ularning badiiy adabiyotlarda ifodalanish xususiyatlarini quyidagi misollar tahlilida ko'rishimiz mumkin:

1. Bosh harakatining paralingvistik vositalar bilan qo'llanishi:

a) gorizontal tekislikda bir yoki bir nechta bosh harakati (ba'zan diagonal ravishda pastdan yuqoriga) chapdan o'ngga va o'ngdan chapga norozilik, norozilik, g'azab, rad yetish yoki bildirish hayrat, hayrat. Bu motorli tabiatning paralingvistik harakati va slovak tilida optik (boshini silkitmoq, bosh qimirlatmoq) fe'l-lari bilan ifodalanadi;

b) boshning pastdan yuqoriga yoki yuqoridan pastga bir yoki bir nechta harakati pastdan, biz rozilik, qoniqish bildiramiz (tasdiq bilan bosh irg'adi);

d) boshning to'satdan yoki chayqalishi (odatda, yuqoriga va pastga) yoki neytral pozitsiyadan yuqoriga va bir vaqtning o'zida, qiyshiq, chapga, o'ng yoki o'ngdan chapga) kamtarlikni, befarqlikni, befarqlikni, shuningdek, qarshilikni, shiddatli, o'jar qarshilikni, ba'zan, hatto afsus va h.k.;

e) boshning keskin harakatlari (ko'pincha, yuqoriga va pastga yoki neytral holat yuqoriga va bir vaqtning o'zida chapdan o'ngga yoki o'ngdan chapga) yo'nalishni ko'rsatadigan qo'lning harakatini to'ldiradi (boshi bilan nimanidir ko'rsatish).

Boshning gorizontal va vertikal harakatlari jahonning juda ko'p xalqlarida tarqalgan bo'lib, tasdiq va inkor ma'noni ifodalovchi bo'lib xizmat qiladi. Jumladan, o'zbeklarda ham boshning gorizontal harakati "yo'q", vertikal harakati esa "bor" ma'nosini bildiradi. Bu belgilarning tasdiq ma'nosi uchun "bosh irg'amoq" inkor ma'nosi uchun "boshini chayqatmoq", "boshini sarak-sarak qildi" kabi ishlatiladi. Masalan: *Мақола пахта касалликлари, уларнинг олдини олиш ва бартараф этиши ҳақида. Аҳмад тушунарли дегандек бош эгиб қўйди* (Ф.Мусаждонов. "Ҳиммат", 66-бет).

– *Чолим орқага тисарилиб, бошини сарак қилди.*

– *Йўқ! – деди хансираб* (Ў.Ҳошимов. "Икки эшик ораси", 282-бет).

2. Boshda joylashgan organlar:

a) peshona va qoshlar:

1) zeshonadan peshona soch chizig'igacha bo'lgan teri ajinlarining qisqarishi, taranglashishi (qoshlar ko'z teshigidan ko'tariladi) hayratni, shubhani ochib beradi (peshonani ajin qilish, qoshlarni ko'tarish);

2) peshona terisining kengayishi (qoshlar burun tubiga va ko'z bo'shlig'iga yaqinroq) g'azab, kelishmovchilik yoki mulohaza yuritish, meditatsiya, diqqatni jamlash (qoshlarini chimirish);

b) ko'zlar:

1) neytral holatdan boshlab, ko'z atrofida yumshoq qismlarni oching, taqsimlang (odatda, bir vaqtning o'zida qoshlarini chimirib, boshni ko'taring);

qoshlar) hayrat yoki qo'rquvni ifodalash uchun ishlatiladi (ko'zlarni kengaytirish, ko'zlar katta ochish);

2) ko'z atrofidagi yumshoq qismlar muloyimlik bilan qisqarganda (odatda, peshona oldinga surilib, qoshlar va burun ildizi birlashadi), bu shubha va ishonchsizlik yoki qattiyatsizlik, Konsentratsiya (ko'zini ochib-yummoq, qoqmoq, pirliratmoq) ifodasidir);

3) norozilik, g'azab yoki ishonchsizlik yoki kassirning aksini (kingadir pastga qaraydi) ifodalash uchun ko'z olmalarining bir yoki bir nechta keskin harakatlari (bosh qimirlamasdan, ba'zan peshonani cho'zgan holda qovog'ni chimirish (boshdan-oyoq razm solmoq. Ko'z tashlamoq);

4) tezkor, to'satdan qarash, odatda, juda qisqa (bosh odatda qarash yo'nalishi bo'yicha aylanadi) qiziqish, ajablanish, qiziquvchanlik, ishtiyiq, quvonch, hatto g'azabni, g'azabni (ko'zlarni o'ynatish; ko'zlar porlaydi, kingadir nigoh tashlash) ko'rsatadi;

5) ko'z atroflarini pastga aylantirish va ko'z qovoqlarini qisman yoping, hijolat, uyat (ko'zlarini pastga qadamoq);

6) ko'z qovoqlari tezda ko'z atrofini bir necha marta yopadi, to'plam hayrat, xijolat, qo'rquvni, shuningdek, tushunishni, til birlashtirishni, kelishuvni ifodalaydi (ko'z qovoqlari, ko'zlarni miltillashtirmoq).

Masalan: *Раҳмат қулиб Отабекка қаради. Отабек ҳам истехзолик табассум ораси Ҳомидга кўз қирини ташилади [www.ziyouz.com kutubxonasi, 4–39-b.].*

Отабек Раҳматнинг сўзини ихлос билан эшитди ва «сен нима дейсан?» дегандек қилиб Ҳомидга қаради [www.ziyouz.com kutubxonasi, 4–39-b.].

...хаёл сурар экан, унинг кўзлари ихтиёрсиз каби қаришидаги қутидорга қарайдирлар, қутидорнинг кўзи ўзига тушиди дегунча кўзини ундан олиб, дастурхондаги кўнгли тиламаган нарсаларга урина бошлайдир.. (www.ziyouz.com kutubxonasi, 7-бет).

1. *Гапингиз тўғри, ота, –деди, –Отабек хон қизига лойиқ бир йигит экан. Баҳслашиши учун Ҳомидга йўл қолмаган эди. Бир турлик илжайиб ер тегидан Ҳасаналига кўз ташилади [www.ziyouz.com kutubxonasi, 4–39-b.].*

2. *Қушбегининг кўзи ёнди... Манглай эвлари тиришиб, сўл қўл билан соқолини тутамлаб фикрга кетди [www.ziyouz.com kutubxonasi, 4–39-b.].*

3. *Ҳомид исмини эшиткан қўрбоши тасдиқ қилгандек бир ҳаракат ясаб қўйди. Қушбеги қўрбошига ер тегидан кўз юбориб олди-да, давом қилди [www.ziyouz.com kutubxonasi, 4–39-b.].*

d) yuz, yonoqlar. Yonoqlar va yuzlarni shishirib, biz ularning hajmini oshiramiz va ularga egri shakl beramiz, bu haqoratga uchraganimizni, norozilik, g‘azab, kamdan kam hollarda qoniqish his qilishimizni ko‘rsatadi. Masalan: *Отабек ўзига қаттиғ тикилиб турган Ҳасаналидан юзини четка буришга мажбур бўлди. Гўё бу сеҳргар чол ҳамма сирри бетдан ўқуб олар эди. Ҳасаналини ҳамон ўзига тикилиб турганини билиб, манглайини қашиган бўлди: – Хўш, давом этингиз... [www.ziyouz.com kutubxonasi, 4-39].*

e) lablar:

1) og‘iz yopiq holda, lablar bir oz ko‘tarilib, g‘azab yoki istehzoni ifodalaydi (istehzali tabassum);

2) siqilgan, siqilgan lablarini yumaloqlashtirganda va ularni old tomon cho‘zganda, g‘azab, masxara, e‘tiborsizlik, norozilik, g‘azablanishni ifodalash mumkin. Masalan: – *Ёшингиз нечада, бек?*

Отабекнинг лаби қимирламасдан чой қуйиб ўтирган Ҳасанали жавоб берди:

– *Бекка худо умр берса, бу йил ҳамдуна бўлса тўппа-тўғри йигирма тўрт ёшга қадам қўядилар [www.ziyouz.com kutubxonasi (4–39-b.].*

– *Бу бизнинг кишимиз тақсир, Марғилондан келади.*

Азизбек лабини тишлаб қолди [www.ziyouz.com kutubxonasi, 4–39-b.].

Шу вақт икки лаб ўз-ўзидан бир-бирисига қовишди... Кичкина нозик қўллар елка устига, кучли қўллар қўлтиқ остига [www.ziyouz.com kutubxonasi (4–39-b.].

f) burun:

Burunning uchini uning tagiga yaqinlashtirish-jiyirish (lablarni burish) jirkanish, jirkanishni anglatadi; yoki mensimaslik, nafrat, mag‘rurlik yoki norozilik ni ifodalaydi;

A) quloq: – *A-a-a, – деди Ҳасанали ва қайтадан қулогини тирқишга олиб борди. Энди унинг бутун борлиги қулоқ бўлиб айланган, ўзини унутиб, барча диққати хужра ичига оқган эди. [www.ziyouz.com kutubxonasi, 4–39-b.].*

Кумушибиби хомуш эди.(...). Қаришида ўлтурган бувисининг ўткан-кеткандан қилган ҳикояларига эринибгина қулоқ берар ва кўнглини очии учун айтилган қизиқ сўзларга илжайиши билан жавобланар эди [www.ziyouz.com kutubxonasi, 4–39].

Бу кейинги байтка қулоқ солғучи қолмади. Чунки ёнидаги қизга осилиб йиғлай бошлаган. Кумушибибига ҳар ким таажжубда, ҳар кимнинг кўзи, қулоғи шунда эди [www.ziyouz.com kutubxonasi, 4–39].

3. Yuqori oyoq-qo‘llar va ularning tarkibiy qismlari:

a) barmoq:

1) barmoq, odatda, ko‘rsatkich barmog‘i – barmoqlarini bigiz qilish (butun qo‘l biroz ko‘tarilgan, tirsagida bir oz egilgan), bu nimanidir ta‘kidlash, tasdiqlash uchun;

2) ko‘tarilgan barmoq bilan bir necha marta ishora qilish, odatda, ko‘rsatkich barmog‘i (qo‘l tirsagida bir oz egilgan) – ogohlantirish, kimnidir qo‘riqlash;

3) barmog‘ingizni, odatda, ko‘rsatkich barmog‘ingizni – og‘zingizga qo‘yganingizda (qo‘lingizni tirsagingizda egishda) bu kimnidir jim qilish, uni jim qilish (barmog‘ni og‘zga qo‘yish);

4) barmoqni cho‘zishda, odatda, ko‘rsatkich (qo‘l gorizontalk tekislikda cho‘ziladi va biroz ko‘tariladi, ba‘zan tirsaklar ham egiladi) – bu kimnidir yoki nimanidir ko‘rsatish (barmog‘i bilan ko‘rsatish).

Aytish joizki, “Хайр” ma‘nosini ifodalash uchun ruslar kaftini o‘zidan orqaga qilib vertikal holatda takror-takror silkitadi, italyanlar kaftini o‘ziga qarata vertikal holatida silkitadi. Yoki inglizlar mashina to‘x-

tatish uchun bosh barmog'ini tikka qilib, qo'lini musht qiladi. Rus va o'zbeklarda bu kinetik belgi yaxshi degan ma'noni beradi. Masalan: – *Твой народ-же!* – қачон ўзбеклардан сўз очилса, у **бармогини дик-кайтириб** кўрсатади (Ў.Ҳошимов. “Икки эшик ораси”, 84-бет).

Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Har bir xalqning o'z muomala qoidalari mavjud. O'zbek halqi qo'lini ko'ksiga qo'yib, bosh irg'itish harakati “salom” ma'nosini bildiradi. Masalan: – *Фулом-жон ўнг қўлини кўксига қўйиб таъзим қилди* (М.Исмоилов. “Фарғона тонг отгунча”).

b) musht:

1) birovga yoki biror narsaga g'azab, ogohlantirish belgisi bilan musht bilan urish yoki impulsiv suhatga urg'u berish (musht tushirish);

2) qo'lni siqilgan musht bilan bir necha marta silkitish (qo'l ko'tarilgan va tirsagidan bir oz yegilgan) kimnidir ogohlantirish, tahdid qilish, tanbeh berish (musht ko'rsatish) uchun ishlatiladi;

d) bir yoki ikkala yelkangizni yuqoriga ko'taring va biroz oldinroq befarqlik va qat'iyatizlik, nochorlik, dovdirab qolish (elka qisib), hatto e'tiborsizlik, g'azabni ifodalaydi;

d) butun qo'l:

1) butun qo'l bilan bir yoki bir nechta harakatni amalga oshirish (u tirsagida bir oz egilib, bilak egilgan) befarqlik, shubha, ishonchsizlik, umidsizlik, nafrat, kelishmovchilikni ifodalaydi;

2) qo'lni boshidan yuqoriga ko'targan holda bir necha harakatlar qilish (qo'l, odatda, tirsagida bir oz egilib, bilakda egilgan) salomlashish uchun ishlatiladi. Salomlashish yoki u bilan xayrlashish uchun kelgan yoki ketayotgan kishiga nisbatan;

3) qo'llarni siqish (qo'llar, odatda, tirsaklarda bukiladi), barmoqlarni birlashtirish yoki kesishish va kaftlarni siqish, iltimos, qayg'u, og'riq, baxtsizlikni ifodalash uchun ishlatiladi; – *Бўлмаса, табаррук қўлингиз билан битта ошатсангиз.*

Аҳмадхон қўлига сиққунча ош олиб қўрбошига тутти, қўрбоши ихлос билан Аҳмадхоннинг қўлидан ошади. Ул ошинигина эмас, ҳатто Аҳмадхоннинг қўлини ҳам ошайдирган эди [www. Ziyoz.com kutubxonasi, 4–39-b.].

Ba'zi tadqiqotchilar o'z asarlari bilan bir qatorda paralingvistik jarayonlar, inson tilining simbiotik ko'rinishlari mavjudligini eslatib o'tadilar, ular yordamida nutq muallifi muloqot mazmunini yoritadi, ayniqsa, uning so'zlari ifodalilikni talab qiladi.

Ta'kidlash lozimki, fransuz tilida ham paralingvistik vositalar turli lisoniy birliklar bilan ifodalanish xususiyatiga ega. Ushbu maqolamizda frantsuz tilida paralingvistik vositalarning berilishini ikkita holatiga to'htadik: 1) “ko'rish” va “qarash” bilan bog'liq paralingvistik vositalar; 2) paralingvistik vositalarning tuzilish jihatidan ikki bosh bo'lakli – to'liq va to'liqsiz gaplarda qo'llanishiga e'tiborni qaratdik.

Aytish joizki, paralingvistik vositalar o'z tabiatiga ko'ra prozodik, kinesik va aralash (prosodik-kinesik) bo'lishidan kelib chiqib, o'xshash turdagi belgilarni ajratib ko'rsatish mumkin. Biz “ko'rish” va “qarash” bilan bog'liq paralingvistik vositalarni fransuz yozuvchilarining asarlaridan olingan misollar yordamida tahlil qilishga harakat qilamiz. Shunga ko'ra, biz qarashni ko'rsatadigan paralingvistik vositalarni quyidagi semantik turlarini ajratamiz:

1) ko'rish – mimikasi:

Ushbu muallifning mulohazalari qahramonning vizual aloqasi va mimika (yuz holatlari harakati) tavsifini o'z ichiga oladi.

«Raoul et Victor **se regardent avec un sourire**» [Arnaud Berquin «Œuvres complètes de Berquin», c. 16];

2) ko'rish – pantomimik holati:

Bular turli xil tana harakatlari bilan birga keladigan ko'zlarning hodisalarini tasvirlaydigan muallifning mulohazalari.

«Charlotte la suit **des yeux en hochant la tête**» [Eduard Bourdet, «Les temps difficiles», c. 4];

3) ko'rish-ishora belgilari:

Paralingvistik mulohazalarining bu turida nigoh va imo-ishora tavsifini kuzatamiz. «Sur le seuil de la porte, **levant les yeux et les mains** vers le ciel» [Arnaud Berquin. «Œuvres complètes de Berquin», 44-бет].

Yuqoridagi uchta misolda paralingvistikning sof kinesik turlaridir, chunki ular kinesikaning faqat og-zaki elementlarini o'z ichiga oladi, ulardan biri nigoh-qarashdir.

Shunday qilib, paralingvistik belgilar asrlar davomida o'z shakli va mazmunini o'zgartirganini ko'ramiz. Uning tuzilishiga kelsak, qarashni ko'rsatadigan barcha paralingvistik belgilarni quyidagicha tasniflash mumkin:

Izohlarning strukturaviy turlari. unda qarash **ot** soʻz turkumi bilan ifodalanadi.

1. Bir boʻlakli gapni toʻldiring. Substantiv tip: 1) nominativ kichik tip.

«Le **regard étincelant**» [Fransua de Curel, «Théâtre complet», c. 74].

2) Prepozitiv tip:

«**Avec un regard dur**» [Fransua de Curel, «Théâtre complet», p. 110] .3. Toʻliqsiz ikki qismli feʻlsiz gap (feʻl manosi tushib qolgan).

Ushbu turdagi mulohazalarda predikatlar guruhi ifodalangan kichik tiplar ajralib turadi: **Ot** soz turkumi oʻrin holi sifatida predlog yordamida ifodalanishi mumkin:

"**L'œil au ciel**" [Jorj Kurtelin. «Un client sérieux», c. 74];

– **sifatdosh** bilan kelishi:

«**Jetant les yeux** sur le paquet de lettres, qu'il tient» [Charlz Kolle. «Dupuis et Des Ronais», p. 41];

3. Ikki qismli toʻliq gap (sodda), bunda leksemalardan biri ifodalanadi:

a) **otning** subyekt sifatida qollanishi:

"**Tous les yeux** se portent avidement vers la grande porte" [Viktor Gyugo. «Kromvel», c. 410];

e) **otning** mutlaq konstruksiyadagi qollanish holati:

«Les assistans se tiennent en silence, **les yeux baissés**» [Viktor Gyugo, «Kromvel», p. 192].

d) **otning** hol sifatida kelishi:

«Elle le regarde avec **des yeux provocants**» [Marsel Aymé. «Clérambard», c. 105]

Koʻrish va **qarashning** feʻl bilan ifodalangan gap turlarida qoʻllanishi. Masalan:

1. Toliqsiz ikki tarkibli gaplar. Bu holatda noverbal harakat **sifatdosh** va **ravishdosh** orqali beriladi.

"**La regardant en colère**" [Jean Donneau de Vizé, "Le gentilhomme guespin", c. 11].

– gerundiya: «**En considérant** la montre» [Mishel Jean Sédaine, «Le philosophe sans le savoir», c.

20].

2. Ikki boʻlakli toliq soda gaplar.

«Les Girondins **se regardent avec étonnement**» [Francis Ponsard, Charlotte.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, muloqot jaraenida paralingvistik vositalarning ovoz ohangidan foydalanmaslik suhbatdoshning asl maqsadini toʻgʻri ifoda eta olmasligiga, boshqacha qilib aytganda, suhbatdosh tomonidan paralingvistik vositalardan toʻgʻri foydalangan holatdagina, tinglovchiga avval nazarda tutilgan verbal muloqotning asl maʼnosini ifoda etishi hamda noverbal va verbal muloqotlar suhbatdoshning fikrini ifoda etishda bir-birlarini toʻldirib kelishi, baʼzi bir holatlarda esa biri ikkinchisidan oʻz ustunligini namoyon etishi mumkin. Shunga koʻra, mavzuni yanada keng va chuqur tadqiq qilish, undagi nazariy va amaliy tomonlarni ishlash masalaga yetakchi olimlar eʼtiborini tortish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiotlar roʻyxati:

(1). Abdullayeva Z. Til va paralingvistikaning ifodalanishi tendensiyalari. "OʻzMU xabarleri", "Vestnik NUUZ", 1/2/1,2022).

(2). Ганюкова М.И. Использование средств невербальной коммуникации в художественном тексте (на примере романа Е.Чижовой «Время женщин»). Выпускная квалификационная работа бакалавра лингвистики. Санкт-Петербург, 2016.

(3). Дарвин Ч. Собрание сочинений, т. 3, М., 1908.

(4). Electronic resource: <https://www.bl.uk/people/albert-mehrabian#> Albert Mehrabian. Nonverbal Communication Thinker.

(5). Колшанский Г.В. Паралингвистика [текст]. АН СССР, Институт языкознания, М., "Наука", 1974, 81 с.

(6). Колшанский Г.В. Паралингвистика. Изд. 5-е. М., "ЛЕНАНД", 2014, 100 с.

(7). Кондрашев Н.А. Пражский лингвистический кружок. Сборник статей. М., "Прогресс", 1967, 560 с.

(8). Крейдлин Г.Е. Невербальная семиотика. Язык тела и естественный язык. М., "Новое литературное обозрение", 2002, 592 с.

(9). Крейдлин Г.Е. Механизмы взаимодействия невербальных и вербальных единиц в диалоге. Монодиа-полилог в разных языках и культура. Отв. ред. Н.Д.Арутюнова, М., издательство «Индрик», 2010, 472 с.

(10). Крейдлин Г.Е. Невербальная семиотика в языке театральных пьес (проблемы сценической коммуникации). Логический анализ языка. Адресация дискурса. Отв. ред. Н.Д.Арутюнова, М., издательство «Индрик», 2012, 512 с.

(11). Леонтьев А.А. Основы психолингвистики. 3 изд., М., "Смысл", 2003, 287 с.

(12). Лотман Ю.М. Структура художественного текста [текст]. М., "Наука", 1970, 196 с.

(13). Library www.ziyouz.com, pages 4–39.

- (14). Muloqot va shaxslararo munosabatlar. Buxoro davlat universiteti axborot texnologiyalar markazi © 2019 . <https://arxiv.uz> > psixologiya).
- (15). Narzullayeva F.O. Ingliz va o'zbek tillarida inson bosh qismi a'zolarini ifodalovchi lisoniy birliklar semantika. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, Buxoro, 2023.
- (16). Остудина В. Особенности построения характера в романе. Проблема характера в зарубежной литературе. Свердловск, 1992, 45 с.
- (17). Панов Е.Н. Знаки, символы, языки. 2-е изд., доп., М., "Знание", 1983, 248 с.
- (18). Панов Е.Н. Эволюция диалога. Коммуникации в развитии: от микроорганизмов до человека. М., Языки славянской культуры, 2014, 400 с.
- (19). Потапова Р.К., Потапов В.В. Язык, речь, личность. М., Языки славянской культуры, 2006, 496 с.
- (20). Saidxonov M. Aloqa-aralashuv va imo-ishoralar. T., 1998, 5-bet.
- (21). Терин В.П. Массовая коммуникация. М., 2000, с. 197.
- (22). Формановская Н.И. Речевое взаимодействие: коммуникация и прагматика. М., «Икар», 2007, 480 с.
- (23). Томаселло М. Истоки человеческого общения. Пер. с англ. М.В.Фаликман, Е.В.Печенковой, М.В. Симицыной, Анны А.Кибрик, А.И.Карпухиной. М., Языки славянских культур, 2011, 328 с.
- (24). Ярцева В.Н. Лингвистический энциклопедический словарь. Под ред. Ярцевой В.Н. М., "Советская энциклопедия", 1990, 685 с.

Elektron resurslar:

- (25). Е.С. Чижова «Время женщин» <http://book-online.com.ua/read.php?book=5836> (дата последнего обращения 22.05.2016).
- (26). Baverlas J.B. Nonverbal and social aspects of discourse in face-to-face interaction. Text. Berlin (West), 1990.
- (27). Key M.R. Paralanguage and kinesics. Metuchen, N.J., The Scarecrow Press, Inc., 1975.
- (28). Leon P.R. Essai de phonostylistique. "Studia a Phonetica", № 4, Monreal, Paris, 1971.
- (29). Trager G.L. Paralanguage. A first approximation. Studies in linguistics, 1958, 13 p.

Daulanova Xolida Iskandarovna (Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasida o'qituvchisi) MURAKKAB TERMINLARNING SEMANTIK MUNOSABATLARI

***Annotatsiya.** Zamonaviy ingliz tilida yunon va lotin termin-elementlari bilan ifodalangan leksik birliklarni ko'rib chiqishda murakkab so'z va affiksalar so'zlarni farqlash masalasi biroz muammo tug'diradi. Ushbu termin-elementlarning holatini belgilash mazkur so'zlarni aniqlashni taqozo etadi. Shunga ko'ra, mazkur maqolada, avvalo, murakkab so'zlarning kelib chiqishiga e'tibor qaratiladi, so'z yasovchi komponentlarning semantik variantlardagi farqi masalasi oydinlashtiriladi.*

***Kalit so'zlar:** murakkab so'z, termin, ingliz tili, tarkibiy qism, o'zlashma so'z, lotin, yunon, tahlil.*

**Дауланова Холида Искандаровна (Ташкентский Педиатрический медицинский институт,
преподаватель кафедры узбекского языка и литературы)**

СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОТНОШЕНИЯ СЛОЖНЫХ ТЕРМИНОВ

***Аннотация.** В современном английском языке при рассмотрении лексических единиц, представленных греческими и латинскими терминологическими элементами, несколько проблематичным является вопрос о различении сложного слова и слов, образованных аффиксальным путем. Определение статуса этих терминологических элементов требует определения этих слов. Соответственно, в этой статье сначала основное внимание уделяется происхождению сложных слов, уточняется вопрос о различии словообразовательных компонентов в семантических вариантах.*

***Ключевые слова:** сложное слово, термин, английский язык, составная часть, заимствованное слово, латинский, греческий язык, анализ.*

**Daulanova Xolida Iskandarovna (Tashkent Pediatric Medical Institute
The teacher of the department of Uzbek language and literature)**

SEMANTIC RELATIONS OF COMPLEX TERMS

***Annotation.** In modern English, when considering lexical units represented by Greek and Latin term-elements, the question of distinguishing between a compound word and an affixed word is somewhat problematic. Determining the status of these term-elements requires defining these words. Accordingly, this article is firstly focused on the origin of complex words, the issue of the difference between word-forming components in semantic options is clarified.*

***Key words:** compound word, term, English, constituent, possessive word, Latin, Greek, analysis.*

Kirish. Hozirgi zamon ingliz tili soʻz yasash tizimida soʻzlarning oʻzaro birikishi katta oʻrin tutadi. Maʼlumki, soʻzlarning oʻzaro birikishi deganda yangi soʻz kamida ikkita toʻliq maʼnoli asos yoki soʻzni oʻz ichiga olgan soʻz yasash usuli tushuniladi. Soʻzlarning oʻzaro birikishini oʻrganish bilan bogʻliq masalalar sirasida ingliz tilidagi murakkab soʻzlarni aniqlash muammosi anchagina murakkab hisoblanadi. Ushbu muammoning murakkabligi koʻp qirralidir. Birinchidan, analitik tillardagi murakkab soʻzlarning tarkibiy qismlarini ajratish imkonini beruvchi shakliy belgilarini topish qiyinroq, bu belgilarning qoʻllanilishi obyektning oʻziga xosligidan kelib chiqadi. Ikkinchidan, murakkab soʻzga yondashuv turli holatlarda, masalan, soʻz yasash yoki morfologik jihatdan amalga oshirilishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Leksik birlikning murakkab soʻz yasash mezonlari uni aniqlashga qaratilishi lozim. Lingvistik tadqiqotlarda ingliz tilidagi mavjud murakkab soʻzlarga A.I.Smirnitskiy, I.V.Arnold, R.S.Ginzburg, G.Marchand, O.Yespersen, R.Kirk¹ kabi tilshunoslar tomonidan taʼriflar berilgan. Masalan, bu borada O.D.Meshkov, murakkab soʻz – ikki va undan ortiq asosdan qoʻshilib hosil boʻlgan va yaxlitligi asosida ajratib koʻrsatilgan leksik birlikdir, deb taʼkidlagan.² Har bir berilgan birlikni murakkab deb aniqlash uchun A.I.Smirnitskiy tomonidan taklif etilgan yaxlitlik tamoyiliga asoslangan semantik, morfologik, fonetik-orfografik va sintaktik xususiyatlarni hisobga olgan holda mavjud boʻlgan barcha vositalar kiritiladi. Bu borada eng katta qiziqish G.Paul tomonidan ilgari surilgan “maʼno ajratish” tamoyilini hisobga oladigan murakkab soʻzlarni aniqlashning semantik mezoni hisoblanadi.

Ingliz tilida morfologik murakkab soʻz bilan derivatsion murakkab soʻz oʻrtasidagi farq L.Blumfild³ tomonidan amalga oshirilgan, muallif bu yondashuvni bevosita komponentlar tushunchasi bilan bogʻlaydi. Ushbu tahlil soʻz yasash statikasini aks ettirsa-da, u yasama soʻzning derivatsion tarixi muammosini hal qilmaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Terminologiyada murakkab soʻzlar yasashining ikki usuli qoʻllanadi: 1) soʻz birikmalardan; 2) modellar boʻyicha. Birinchi holda G.Paulning yondashuvi klassik yondashuv hisoblanadi. Unga koʻra, soʻz birikmasidan murakkab soʻz yasalganda, maʼno ajralishi deb ataladigan holat yuzaga keladi, buning natijasida murakkab soʻzning maʼnosi u kelib chiqayotgan soʻz birikmasidan farqlanadi. Bu murakkab soʻz va soʻz birikmasi ifodalanishining asosiy mezoni boʻlib xizmat qiladi. Odatda, bunday hollarda grammatik oʻzgarishlar sodir boʻlmaydi. Biroq murakkab soʻzning hosil boʻlish jarayonida semantik oʻzgarishlar bilan birga grammatik oʻzgarishlar ham sodir boʻlishi mumkin.

Murakkab soʻzlarning modellar boʻyicha hosil boʻlishida ikki holatni farqlash lozim: 1) murakkab soʻzning hosil boʻlishi oldindan tayyorlanmaydi va real voqelikning maʼlum hodisasiga nom sifatida yuzaga keladi; 2) murakkab soʻzlar mavjud modelga oʻxshatish yoʻli bilan komponentlarini almashtirish orqali hosil qilinadi. Bunday holatni Y.S.Kubryakova, analoglar va soʻz yasashining korrelatsiya jarayoni sifatida tavsiflagan, bu ham analogiyaga asoslangan, ammo ancha murakkab turdagi analogiya, ekanligini taʼkidlagan. Muallif, semantik nuqtai nazardan murakkab soʻzlarning analoglar boʻyicha hosil boʻlish jarayonlari uning leksik maʼnosini emas, balki motivlashtiruvchi birlikdan olinganligi bilan farqlanadi, deb fikr bildirgan.⁴

Tahlil va natijalar. Murakkab soʻzning semantik tuzilishi obyektlar oʻrtasida mavjud boʻlishi mumkin boʻlgan va murakkab soʻzning tarkibiy qismlari tomonidan belgilanadigan mantiqiy-semantik munosabatlar tuzilishini aks ettiradi. Bu tushunchalar oʻrtasidagi munosabat murakkab soʻzning semantik tuzilishini shakllantirishga asos boʻladi. Bu holat bir qator tilshunoslar tomonidan aniq tushuntirilgan.

Masalan, Y.S.Kubryakova: “Murakkab soʻz har doim belgilangan obyektlar oʻrtasida aloqa mavjudligini va aloqaning tabiati narsalarning tabiiy mantiqqa asoslangan holda baholanishini bildiradi. Yasama soʻz oʻzining maʼnosini qismlarga boʻlib ifodalaydi va bu boʻlinishning namoyon boʻlishi semantik tuzilishning ikki qismliligi boʻlib, u onomasiologik asosning onomasiologik xususiyatga qarama-qarshi qoʻyilishida ham, havola boʻlagining qarshiligida ham oʻz ifodasini topadi”, deb fikr bildiradi. Muallif: “Murakkab soʻz, garchi uning tarkibiy qismlari oʻrtasida ifodalangan munosabatlarni oʻz ichiga olmasa ham, albat-

¹ Смирницкий А.И. Лексикология английского языка. Москва, 1956, 260 с.; Arnold I.V. The English Word. Москва, 1986, 285 p.; Ginzburg R.S. A course in modern English lexicology. Москва, 1966, 274 p.; Marchand H. The categories and types of present-day English word-formation: a synchronic-diachronic approach. München: Verlag C.H.Beck. Second edition, 1969, 545 p.; Jespersen O.A Modern English Grammar on Historical Principles. London: 1st Edition, 1954, 1024 p; Quirk R., Greenbaum S., Leech G. and Svartvik F. A grammar of contemporary English. London, Longman Group Ltd. 1972, 922 p.

² Мешков О.Д. Словообразование в современном английском языке. Москва, 1985, 187 с.

³ Блумфилд Л. Язык. Москва, “Прогресс”, 1968, 607 с.

⁴ Кубрякова Е.С. Типы языковых значений. Семантика производного слова. Москва, 1981, 200 с.

ta, ma'lum ma'noga ega. Bu imkoniyat insonning lingvistik va ekstralingvistik tajribasining uzviy bog'liqligida yotadi", degan xulosaviy fikrga keladi.¹ Demak, bu uzviylikning asosi va qonuniyatlarini aniqlash orqali murakkab so'zning tuzilishi va ma'nolarini shakllantirish masalasini hal qilish mumkin.

Gistologik terminlar affiksatsiya yoki so'zlarning o'zaro qo'shilishi bilan hosil bo'lgan yasama so'zlar hisoblanadi va ularning yasalishi uchun yunon-lotin so'z yasash elementlari faol xizmat qiladi. Ularning tarkibiy va semantik xususiyatlarini o'rganish terminologiyani tartibga keltirish va termin yaratish yo'llarini takomillashtirish uchun muhim ahamiyatga egadir.

Yunon-lotin etimologiyasining so'z yasovchi tarkibiy qismlari bo'lgan lotincha modellari ingliz va boshqa tillardagi turli terminologik tizimlarni, yangi yasama terminlar bilan to'ldirish uchun keng qo'llaniladi va bunday modellarning tuzilishi va semantikasini bilish ko'pchilik Yevropa tillarida shakllangan terminlarni tushunish imkonini beradi.

Ushbu turdagi lotin modellarining turli tillarda keng qo'llanilishi, klassik etimologiyasi morfemalarning juda qulay so'z hosil qiluvchi elementlar ekanligi bilan izohlanadi. Ko'rib chiqilayotgan birliklar o'z etimonlari bilan semantik bog'liqlikni saqlagan holda, semantik jihatdan avvalgisidan ajratiladi, yanada umumlashtiriladi, ayrim hollarda esa ko'proq ixtisoslashgan ma'no kasb etadi va bir vaqtning o'zida yasalishning terminologik xususiyatini ham belgilaydi.

Masalan, bog'langan negiz – *blast-* (yunoncha "kurtak, nihol") har qanday rivojlanayotgan tuzilma (hujayra, hujayralar guruhi, to'qima va boshqalar) ma'nosida qo'llaniladi: *erythroblast*, *blastospore*, *blastocyte*, *blastomycosis*. Xuddi shunga o'xshab, semantik jihatdan o'zining etimonidan ajralgan va yanada umumiy ma'no bilan bog'liq *cyst-* negizi (yunoncha *cystos* "qop"), tibbiy terminologiyada qo'llanadigan har qanday ichi bo'sh yoki sharsimon tuzilmani ifodalash uchun xizmat qiladi: *cystospore*, *cystophore*, *cystidium*, *cystosine*.

Ingliz va boshqa tillar terminologiyasi tizimida yunon-lotin tillaridan kelib chiqqan so'z yasovchi elementlarning yuqori faolligi ushbu morfemalarning yana bir muhim xususiyati, murakkab ilmiy tushunchalarni ifodalash uchun ushbu birliklarni juda oson birlashtirish xususiyatiga egaligi bilan izohlanadi. Yunon-lotin termin-elementlarining yuqorida aytib o'tilgan barcha xususiyatlari ularning har tomonlama o'rganish zarurligini belgilaydi.

Biz yasama terminlarni yaxshiroq anglash va ularning semantik tuzilishini to'g'ri leksikografik ifodalash maqsadida derivatsion onomasiologiya pozitsiyasidan terminning ichki tuzilishida yunon va lotin termin-elementlari o'rtasidagi munosabatlar semantikasini ochib berishga harakat qildik. Tadqiqotimizda so'z yasalish semantikasi (I.S.Uluxanov, T.L.Kandelaki, Y.S.Kubryakova) va derivatsion onomasiologiya sohalariga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlar (Y.S.Kubryakova, G.Marchand, Ch.Fillmor) natijalari hisobga olindi.²

Masalan, tilshunos Y.S.Kubryakovaning ishlarida derivatsion onomasiologiyaning asosiy tamoyillari, xususan, so'zlarning o'zaro birikishining onomasiologik asoslari shakllantirilgan. Uning fikriga ko'ra, murakkab so'zlardagi onomasiologik mexanizm turlicha xususiyatga ega va motivatsiya usullari murakkab va xilma-xildir. Bu to'liq ma'noli birliklarni birlashtirishning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq, chunki bitta so'z ichida birliklarning joylashishi real voqelikda belgilangan obyektlarning turli xil aloqalariga mos kelishi mumkin. Ushbu hodisani aniqlash uchun dastlabki fikrda murakkab so'zning komponentlari va gap bo'laklari o'rtasida parallellik o'tkazishga harakat qilingan. Ushbu urinish G.Marchandga tegishli bo'lib, u hosila tarkibidagi alohida referensial komponentlarni obyekt, subyekt, holat guruhi va boshqalar bilan undovchi gapda bog'laydi. Uning semantik variantlaridan birida gap bo'laklari nazariyasi Ch.Fillmorning sintaktik-semantik holatlari tushunchasi bilan ifodalanadi, bu uning amaliy tabiati tufayli predikat bo'lmagan xususiyatlarning korpusini aniqlash uchun qulaydir. Shuning uchun kompozitlarning ta'riflarida keltirilgan predikat munosabatlarni tahlil qilish asosida, biz holat munosabatlarining, ya'ni birikishning xarakterli va asosiy komponentlari o'rtasidagi nominativ munosabatlar inventarizatsiyasini aniqladik. Murakkab so'z komponentlari o'rtasidagi sintaktik munosabatlar muammosi sintaksis va so'z yasash semantikasining o'zaro munosabati haqida umumiy sinxron tasavvur beruvchi aniq tahlil usuli bilan hal etiladi.

¹ Кубрякова Е.С. Типы языковых значений. Семантика производного слова. Москва, 1981, 200 с.

² Улуханов И.С. Словообразовательная семантика в русском языке. Москва, 1977, 256 с.; Канделаки Т.Л. Семантика и мотивированность терминов. Москва, 1977, 167 с.; Кубрякова Е.С. Типы языковых значений. Семантика производного слова. Москва, 1981, 200 с.; Marchand H. The categories and types of presentday English word-formation: a synchronic-diachronic approach. München, Verlag C.H.Beck. Second edition, 1969, 545 p.; Филлмор Ч. Дело о падеже. Новое в зарубежной лингвистике. Вып. X. Москва, 1981, с. 400–444.

Biz to‘plagan materiallar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bir xil tuzilish modeli bir necha semantik variantlarga ega bo‘lishi mumkin. Birinchi va ikkinchi asoslar *-cyte* (yunoncha *kytos* – hujayra)ni to‘ldirishda asos₁+o+asos₂ tarzidagi misollarni ko‘rib chiqamiz. Agar *cyte-* modelning birinchi komponenti vazifasini bajarsa, uning semantikasi quyidagicha bo‘ladi: *Cytoplasm* = *cyt+o+plasm* – hujayraning yadro bilan plazmatik membrana oralig‘ida joylashgan asosiy tarkibiy qismi;

Cytosol = *cyt+o+sol* – hujayraning suyuq qismi;

Cytokinesis = *cyt+o+kinesis* – hujayraning harakati, fizik holati.

Nominativ nuqtai nazardan, birinchi komponent *cyte-* onomasiologik xususiyat rolini o‘ynaydi va onomasiologik asos bo‘lib, uning semantikasiga mos keladigan individuallashtiruvchi xususiyat *cyte-* yoki boshqa asos sifatida tanlanishi mumkin bo‘lgan ikkinchi asos tomonidan tayinlangan predmet yoki jarayonning individual xususiyatlarini aks ettiradi. Shunga ko‘ra, *cytoplasm* termini bilan birga *protoplasm*, *hyaloplasm* kabi boshqa terminlar ham mavjud.

Agar *-cyte* termin-elementi so‘z yasash modelining ikkinchi asosini to‘ldiradigan bo‘lsa, birlikni nomlashning birinchi asosga tegishli bo‘lgan hujayralarni yoki ularga xos bo‘lgan xususiyatlarni ifodalab keladi. Bunga misol qilib *blastocyte*, *chondrocyte*, *leucocyte*, *gigantocyte*, *granulocyte*, *lymphocyte*, *trombocyte*, *phagocyte*, *erythrocyte*, *histiocyte*, *myocyte*, *neurocyte*, *epitheliocyte*, *anisocytosis* kabi murakkab terminlarni keltirish mumkin. Bunday modellarning semantikasi quyidagicha ifodalanishi mumkin:

blastocyte = *blast+o+cyte* (yunoncha: *blastos* – kurtak), organizmda embrion rivojlanishining dastlabki bosqichi;

chondrocyte = *chondr +o+cyte* (yunoncha: *chondros* – tog‘ay), xondroblastlardan hosil bo‘ladigan tog‘ay to‘qimalarning asosiy hujayrasi;

leucocyte = *leuc+o+cyte* (yunoncha: *leucos* – oq), ya‘ni ko‘mikda hosil bo‘luvchi oq qon tanachalari (hujayralar);

erythrocyte = *erythr+o+cyte* (yunoncha: *erythros* – qizil), ya‘ni qizil qon tanachalari (hujayralar);

lymphocyte = *lymph+o+cyte* (yunoncha: *lympha* – namlik, toza suv, shaffof suv), oq, ya‘ni rangsiz limfoid to‘qimalarda rivojlanadigan qon hujayralar;

neurocyte = *neur+o+cyte*, ya‘ni asab+hujayra. Bunda *-cyte* termin-elementi termin tarkibidagi birinchi asos (yunoncha: *neuron* – asab)ga tegishlilikni anglatib *asab hujayrasi* ma‘nosini bildiradi.

Xulosa. So‘z yasash modelining tarkibida yasash komponentining ikki taraflama roli semantik variantlardagi farqi bilan namoyon bo‘ladi. Yuqorida keltirilgan birgina *cyte-* termin-elementi birinchi asos sifatida kelmoqda yoki shakllantiruvchi sifatida ikkinchi asosda kuzatilmoqda. Shuningdek, predmet va hodisaning individual xususiyatlarini ko‘rsatib, o‘zgaruvchan birlik sifatida yoki predmet va hodisalar sinfining ko‘rsatkichi sifatida o‘rin egallamoqda. Modelning birinchi va ikkinchi asos sifatidagi holatlarini tahlil qilib semantik variantlari taqqoslanganda, birinchi variantlarning semantik komponentlari, asosan, aniq ifodalangan shaffof semantik strukturada farqlanishini ta‘kidlash mumkin. Ikkinchi holatda lug‘at taqlinlaridan tiklangan yashirin semalar ko‘proq ekanligi ko‘rinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Блумфилд Л. Язык. Москва, “Прогресс”, 1968, 607 с.
- (2). Кубрякова Е.С. Типы языковых значений. Семантика производного слова. Москва, 1981, 200 с.
- (3). Мадвалиев А., Махаммов Н., Мирахмедова З., Саиднуьмонов А. Халқаро терминэлементларнинг изохли-иллюстратив лугати. Тошкент, “Donishmand ziyosi” нашриёти, 2020, 280 бет.
- (4). Мешков О.Д. Словообразование в современном английском языке. Москва, 1985, 187 с.
- (5). Палуанова Х.Д. Инглиз, ўзбек, рус ва қорақалпоқ тилларида экологик терминларнинг деривацион-семантик принциплари. Филол. фан. докт. ... дисс., Тошкент, 2016, 232 бет.
- (6). Смирницкий А.И. Лексикология английского языка. Москва, 1956, 260 с.; Arnold I.V. The English Word. Москва, 1986, 285 p.; Ginzburg R.S. A course in modern English lexicology. Москва, 1966, 274 p.; Marchand H. The categories and types of present-day English word-formation: a synchronic-diachronic approach. München: Verlag C.H.Beck. Second edition, 1969, 545 p.; Jespersen O.A. Modern English Grammar on Historical Principles. London, 1st Edition, 1954, 1024 p.; Quirk R., Greenbaum S., Leech G. and Svartvik F. A grammar of contemporary English. London, Longman Group Ltd. 1972, 922 p.
- (7). Улуханов И.С. Словообразовательная семантика в русском языке. Москва, 1977, 256 с.; Канделаки Т.Л. Семантика и мотивированность терминов. Москва, 1977, 167 с.; Кубрякова Е.С. Типы языковых значений. Семантика производного слова. Москва, 1981, 200 с.; Marchand H. The categories and types of present-day English word-formation: a synchronic-diachronic approach. München, Verlag C.H.Beck. Second edition, 1969, 545 p.; Филлмор Ч. Дело о падеже. Новое в зарубежной лингвистике. Вып. X. Москва, 1981, с. 400–444.

(8). Усманходжаев А., Аваков В.Е., Баситханова Э.И. Большой медицинский этимологический словарь (русско-латинско-узбекский). Ташкент, “Ношир”, 2010, 328 с.

(9). Чернявский М.Н. Краткий очерк истории и проблемы упорядочения медицинской терминологии. Энциклопедический словарь медицинских терминов. Москва, 1984, т. 3, с. 411 – 425.

Ibragimova So‘g‘diyona Ikrom qizi (Termiz davlat Pedagogika instituti magistranti;

E-mail: ibragimovasugdiyona3@gmail.com)

EVFEMIZMLARNING PRAGMATIK VAZIFALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada evfemizmlarning pragmatik vazifalariga batafsil e‘tibor qaratiladi. Evfemizmlarning hurmatsizliklarning oldini olishga, ziddiyatlarni yumshatishga va suhbatda samimiylik yaratishga xizmat qilishi tahlil qilinadi. Evfemizmlarning turli sohalaridagi qo‘llanilishi, shuningdek, ularning jamiyatdagi o‘rni va ahamiyati ham ko‘rib chiqiladi. Natijada evfemizmlar nutqimizda muhim pragmatik vazifalarni bajarishi va kommunikatsiyamizni yanada samarali va muloqotliroq qilishi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: evfemizmlar, pragmatika, muloqot, imlo, samimiylik, jiloviylash.

Ибрагимова Сугдиёна Икром кизи (магистрант Термезского государственного педагогического института; E-mail: ibragimovasugdiyona3@gmail.com)

ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ФУНКЦИИ ЭВФЕМИЗМОВ

Аннотация. В статье подробно рассматриваются прагматические задачи эвфемизмов. Анализируется, служат ли эвфемизмы для предотвращения неуважения, смягчения напряженности и создания искренности в разговоре. Рассматривается применение эвфемизмов в различных сферах, а также их место и значение в обществе. В результате было обнаружено, что эвфемизмы выполняют важные прагматические задачи в нашей речи и делают наше общение более эффективным и коммуникативным.

Ключевые слова: эвфемизмы, прагматика, общение, правописание, искренность, сдержанность

Ibragimova So‘g‘diyona Ikrom qizi (Master student of Termez State Pedagogical Institute;

E-mail: ibragimovasugdiyona3@gmail.com)

PRAGMATIC FUNCTIONS OF EUPHEMISMS

Annotation. This article will focus in detail on the pragmatic tasks of euphemisms. It is analyzed that euphemisms serve to prevent disrespect, soften conflicts and create sincerity in conversation. The applications of euphemisms in various fields are also considered, as well as their place and importance in society. As a result, euphemisms have been found to perform important pragmatic tasks in our speech and make our communication more efficient and communicative.

Key words: euphemisms, pragmatics, communication, imitations, sincerity, restraint.

Kirish. Evfemizmlar muloqot jarayonida keng foydalaniladigan so‘z va iboralardir. Ular ta‘sirchan, qo‘pol, noxush va nojo‘ya hisoblangan so‘zlarni yumshoq, xushmuomala va qabul qilingan ekvivalentlari bilan almashtirish uchun ishlatiladi [1;14-b.].

Evfemizmlarning asosiy maqsadi muloqotni yumshatish va tinglovchini xafa qilmaslikdir. Evfemizmlar muloqotni jozibador qilish, uni ba‘zi jihatlarini yashirish yoki kuchaytirish, shuningdek, til stilistikasiga ta‘sir o‘tkazish uchun ham ishlatiladi [2;83-b.].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Dunyo tilshunosligida evfemizmlar mavzusi bilan bir qator olim va tadqiqotchilar shug‘ullangan. Jumladan, K.Burridge tomonidan yozilgan “Euphemism and language change”, H.Halmari tomonidan yozilgan “Political correctness, euphemism, and language change” nomli tadqiqotlar ushbu mavzuni yoritishda muhim manbalar vazifasini bajaradi. Evfemizmlar va ularning pragmatik vazifalarini o‘rganish uchun biz turli xil tadqiqotlarni, ilmiy maqolalar va monografiyalarni tahlil qildik. Asosiy e‘tiborimiz evfemizmlarga oid nazariy adabiyotlarga, shuningdek, ularning amaliy qo‘llanilishini o‘rganuvchi empirik tadqiqotlarga qaratildi [3;19-b.].

Tahlil jarayonida turli sohalaridagi evfemizmlarni, masalan, siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy munosabatlar sohalaridagi evfemizmlarni o‘rgandik. Shuningdek, ularning muloqotdagi turli pragmatik jihatlarini hisobga oldik, jumladan, xushmuomalalik, samimiylashish va ziddiyatlarni kamaytirish [4;75-b.].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Evfemizmlar va ularning pragmatik vazifalarini o‘rganishga bag‘ishlangan ushbu maqolada ilmiy tadqiqotning qiyosiy tahlil, germeneytika, analiz va sintez kab metod-usullaridan samarali foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Tadqiqotimiz natijalariga ko‘ra, evfemizmlar quyidagi asosiy pragmatik vazifalarni bajaradi.

Tabu soʻzlar va taʻqiqlarni yumshatish. Evfemizmlar baʻzi mavzulardagi taʻqiqlarni chetlab oʻtish va atamalar haqida erkin muloqot qilish imkonini beradi [5;104-b.].

Muloqotda hurmatsizliklarning oldini olish. Evfemizmlar tinglovchining his-tuygʻularini hisobga olish va unga hurmat bildirish uchun ishlatiladi [6;51-b.].

Ziddiyatlarni kamaytirish va muloqotni yumshatish. Evfemizmlar muloqot jarayonidagi keskin ziddiyatlarni yumshatish va muhitni yon berishli qilish uchun xizmat qiladi [7; 9 b.].

Suhbat jarayonida samimiylik yaratish. Evfemizmlar muloqotni samimiyroq va doʻstonalik koʻrinishga ega qiladi [8;92-b.].

Evfemizmlarga boʻlgan talabni ularning turli pragmatik vazifalarini bajarish qobiliyati bilan izohlab boʻladi. Imlizmalarga oid taqiqlar turli mavzularda mavjud va muloqot jarayonida evfemizmlardan foydalanish bu taqiqlarni yengillashtirib, erkinroq muloqot qilishga imkon beradi. Shuningdek, evfemizmlar uch-rashuv jarayonidagi salbiy ziddiyatlarni yumshatish, tinglovchiga hurmatni ifoda etish va yon berish vazifalarini bajaradi [9;17-b.]. Bu esa muloqotni samarali qilish hamda unda qatnashuvchilar oʻrtasidagi munosabatlarni mustahkamlaydi.

Evfemizmlarning pragmatik vazifalari ularning ijtimoiy-madaniy kontekstlarga bogʻliq ekanligini taʻkidlash muhimdir. Turli jamiyatlarda tabu soʻzlar va taqiqlarga nisbatan munosabat har xil boʻlishi mumkin. Shuning uchun evfemizmlar ham oʻzgaruvchan tabiati bilan ajralib turadi. Masalan, baʻzi jamiyatlarda oʻlim va sogʻliqqa oid mavzular qatʻiy taqiqlangan boʻlishi mumkin, boshqalarida esa bu mavzular erkinroq muhokama qilinishi mumkin. Shunga koʻra, evfemizmlarning vazifasi va sohasi ham oʻzgaradi.

Shuningdek, evfemizmlar ijtimoiy iyerarxiya va hukmron madaniy meʼyorlarga ham bogʻliq boʻladi. Yuqori mavqedagi shaxslar bilan muloqotda evfemizmlardan koʻproq foydalaniladi, chunki ularga hurmat bildirish zarur. Bu holat boshqaruv sohaslarida, masalan, siyosat va ishbilarmonlikda yaqqol koʻrinadi. Aksincha, kasbiy yoki huquqiy muloqotda evfemizmlardan kamroq foydalaniladi, chunki aniqlik va toʻgʻrilik ustuvor hisoblanadi.

Evfemizmlarning pragmatik vazifalariga jinslar oʻrtasidagi farqlar ham taʻsir koʻrsatishi mumkin. Ayrim tadqiqotlarga koʻra, ayollar erkaklarga qaraganda evfemizmlardan koʻproq foydalanadilar. Bu holat evfemizmlarning xushmuomalalik va samimiylikni taʻminlashdagi rolini yana bir bor tasdiqlaydi.

Bundan tashqari, evfemizmlar til oʻzgarishiga ham taʻsir koʻrsatadi. Koʻpgina evfemizmlar vaqt oʻtishi bilan oʻz tabiiy maʼnolarini yoʻqotib, yangi evfemizmlar bilan almashtiriladi. Bu jarayon evfemik spiralgaga olib keladi. Masalan, “vafot etdi” soʻzi avvaldan evfemizmlar boʻlgan, ammo, keyinchalik, uning oʻrnini “hayotdan koʻz yumdi” evfemizmi egallagan. Evfemizmlarga talab jamiyatdagi oʻzgarishlar bilan ham bogʻliq boʻladi. Bunga yaqqol misol pandemiya davridagi evfemizmlarga qiziqishning ortganidir. Masalan, “COVID-19 bilan ogʻrigan” oʻrniga “unga chalingan” degan evfemik ibora paydo boʻldi. Bu epidemiologik vaziyat bilan bogʻliq boʻlib, ogʻir kasal terminini yumshatish va odamlarning ruhan tinch boʻlishiga yordam berish maqsadida qoʻllanilgan. Shunday qilib, evfemizmlarning pragmatik vazifalari murakkab ijtimoiy-madaniy jarayonlar bilan chambarchas bogʻliq. Ularning qoʻllanilishi jamiyat meʼyorlari, madaniy anʼanalar, ijtimoiy mavqe va jins kabi omillarga bogʻliq.

Xulosa va takliflar (Conclusion /Recommendations). Xulosa qilib aytganda, evfemizmlar muloqot jarayonida muhim pragmatik vazifalarni bajaradi. Ular tabu soʻzlarni va taqiqlarni yumshatish, hurmatsizliklar va ziddiyatlarni kamaytirishga, shuningdek, soʻzlashuv muhitini samimiylashtirishga xizmat qiladi. Evfemizmlarning ushbu xususiyatlari ularni muloqot madaniyatining ajralmas qismiga aylantirgan.

Umumiy olganda, evfemizmlar pragmatik jihatdan juda boy va serqirra hodisadir. Ularning vazifasi nafaqat xushmuomalalik va madaniyatni saqlashdan, balki ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ham muhim ahamiyatga ega. Evfemizmlar jamiyatdagi oʻzgarishlarga moslashib boradi va tez-tez yangari bilan almashtiriladi.

Shunga qaramay, evfemizmlarning baʻzi salbiy jihatlari ham mavjud. Ular ayrim vaziyatlarda aniqlikni yoʻqotishi va chuqur mavhum obrazlarni yaratishi mumkin. Shuning uchun muloqotda evfemizmlardan oqilona foydalanish muhimdir. Kelajakda evfemizmlarni yanada chuqurroq oʻrganish va ularning jamiyatga taʻsirini tahlil qilish zarur boʻladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati (References):

- (1). Fromkin, V., Rodman, R., & Hyams, N. (2018). An introduction to language (11th ed.). Boston, MA: Cengage Learning.
- (2). Allan, K., Burrige, K. (2006). Forbidden words: Taboo and the censoring of language. Cambridge, UK, Cambridge University Press.

- (3). McGlone, M S., & Batchelor, J.A. (2003). The Intersecting Ambiguities of Euphemism and Dysphemism. *Applied Linguistics*, 24(1), p. 94–112. <https://doi.org/10.1093/applin/24.1.94>
- (4). Halmari, H. (2011). Political correctness, euphemism, and language change: The case of ‘people first’. *Journal of Pragmatics*, 43(3), p. 828–840. <https://doi.org/10.1016/j.pragma.2010.09.025>
- (5). Burrige, K. (2012). Euphemism and language change: The sixth and seventh ages. *Lexis*, 7, p. 65–92. <https://doi.org/10.4000/lexis.355>
- (6). Casas Gómez, M. (2009). Towards a new approach to the linguistic definition of euphemism. *Language Sciences*, 31(6), p. 725–739. <https://doi.org/10.1016/j.langsci.2009.05.001>
- (7). Doran, G. (2003). Exploring euphemism in the language of tourism. LORAS Virtual Publishing. Retrieved from <https://www.academia.edu/881522/>
- (8). Jamet, D., & Jobert, M. (2013). Euphemism as a pragmatic strategy in sensitive sociopolitical situations: A relevance-theoretic approach. In R.W.Brisard, A.Östman, & J.Verschueren (Eds.), *Handbook of Pragmatics* (Vol. 16). Amsterdam: John Benjamins Publishing Company.
- (9). Linfoot-Ham, K. (2005). The Linguistics of Euphemism: A Diachronic Study of Euphemism Formation. *Journal of Language and Linguistics*, 4(2), p. 227–263.

**Jo‘raxolova Bahora Qurbonboyevna (O‘zDJTU mustaqil tadqiqotchisi)
KONSEPTUAL METAFORA TURLARINING TASNIFI**

***Annotatsiya.** Konseptual metaforalar inson kognitiv tizimining va muloqotning markaziy qismidir. Ushbu maqolada konseptual metafora turlarining tasnifi nemis va o‘zbek tillaridagi misollar yordamida o‘rganiladi. Ushbu ilmiy tadqiqot ishining bizga beradigan umumiy g‘oyasi shundan iboratki, konseptual metafora kundalik hayotimizning ajralmas qismi bo‘lib, biz ulardan foydalanmasdan normal muloqot qila olmaymiz. Shuningdek, konseptual metafora adabiy metaforaga qaraganda ancha boy, chunki ikkinchisi faqat adabiy asarlar bilan cheklansa ham, birinchisi esa boshqa turli sohalarga daxldordir.*

***Kalit so‘zlar:** konseptual metafora, kognitiv tizim, adabiy metafora, ontologik metafora, striktur metafora, oriyentatsion metafora.*

**Джурахолова Бахора Курбонбоевна (соискатель Узбекского государственного
университета мировых языков)**

КЛАССИФИКАЦИЯ ТИПОВ КОНЦЕПТУАЛЬНОЙ МЕТАФОРЫ

***Аннотация.** Концептуальные метафоры занимают центральное место в человеческой когнитивной системе и коммуникации. В данной статье классификация концептуальных типов метафоры изучается на примере немецкого и узбекского языков. Общая идея данной научно-исследовательской работы заключается в том, что концептуальные метафоры являются неотъемлемой частью нашей повседневной жизни и без их использования мы не можем нормально общаться. Также концептуальная метафора гораздо богаче метафоры литературной, поскольку последняя ограничивается только литературными произведениями, а первая не имеет границ разных областей.*

***Ключевые слова:** концептуальная метафора, когнитивная система, литературная метафора, онтологическая метафора, структурная метафора, ориентационная метафора.*

Juraholova Bahora Kurbonboyevna (Researcher at the Uzbekistan State World Languages)

**CLASSIFICATION OF TYPES OF CONCEPTUAL METAPHOR (EXAMPLE OF GERMAN
AND UZBEK LANGUAGE MATERIALS)**

***Annotation.** Conceptual metaphors are central to the human cognitive system and communication. In this article, the classification of conceptual metaphor types is studied with the help of German and Uzbek examples. The general idea of this scientific research work is that conceptual metaphors are an integral part of our daily life and we cannot communicate normally without using them. Also, conceptual metaphor is much richer than literary metaphor, because the latter is limited only to literary works, while the former has no boundaries of different fields. Finally, the term “conceptual metaphor” can also include idioms, as both require a process of conceptualization to understand their meaning.*

***Key words:** conceptual metaphor, cognitive system, literary metaphor, ontological metaphor, structural metaphor, orientational metaphor.*

***Kirish.** Ko‘pgina tilshunos olimlarning fikricha, metafora bilishning kuchli vositalaridan biri bo‘lib, uni, albatta, inson ongining eng katta g‘alabasi deb atash mumkin. 1980-yilda nashr etilgan J.Lakoff va M. Jonsonning “Biz yashayotgan metaforalar” kitobi kognitiv tilshunoslik tarixidagi klassik kitoblardan biriga aylandi, metafora konseptual vosita sifatidagi modellashtirish rolini tushunishni sezilarli darajada rivojlantirdi. Kognitiv metafora nazariyasi g‘oyasi shundan iboratki, “biz o‘ylaydigan va harakat qiladigan konseptual tizim mohiyatan metaforadir” [7;25-b.]. Ushbu nazariyaga ko‘ra, metafora asosiy kognitiv vosita bo‘-*

lib, bir konsepsiyaning tuzilishini – manba domenini boshqa maqsad domeniga o‘tkazishni o‘z ichiga oladi. Manba domeni allaqachon ongli ravishda tushunilgan bo‘lsa-da, maqsadli domen faqat tushunishga bo‘y-sunadi. Bunday uzatish orqali olingan ta’lim konseptual metafora hisoblanadi.

Kognitiv metafora nazariyasiga kirishda J.Lakoff va M.Jonson konseptual metaforalarning uchta asosiy turini ajratib ko‘rsatishadi: strukturaviy metafora, fazoviy oriyentatsiya va ontologik metafora. Shu o‘rinda shuni ta’kidlash kerakki, bu tasnif butunlay muammosiz emas [201;205-b.]. Masalan, asosiy turlar-ni ta’riflarini har doim ham bir-biridan aniq ajratib bo‘lmaydi [3;146-b.]. Bundan tashqari, tasnif muallif-larning o‘zlari tomonidan aniq qayta ko‘rib chiqilmagan bo‘lsa-da, u keyingi ishlarda qo‘llanilmaydi.

Biroq, ushbu ish kontekstida korpus tahlili paytida, J.Lakoff va M.Jonson tomonidan taklif qilingan tasnifdan, albatta, bu holatda unumli foydalanish mumkinligi ma’lum bo‘ldi. Bu yanada to‘g‘ri, chunki ho-zirda istiqbolli terminologik alternativa mavjud emas. J.Lakoff va M.Jonson bo‘yicha tipologiya quyidagi uchta bo‘limda keltirilgan [7;25-b.].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. 1. Strukturaviy metaforalar. Strukturaviy metafora, konseptual metaforalarning birinchi turi bo‘lib, butun strukturaviy qoliplarni bir konseptual sohadan boshqasiga o‘tkazishdan iborat. L.Lakoff va M.Jonson “strukturaviy metafora”ni “bir tushuncha mavjud bo‘lgan holat-lar boshqasiga nisbatan metaforik tuzilgan” deb ta’riflaydi [7;14-b.]. Mavhum fakt majoziy jihatdan aniqroq tuziladi. Ushbu turdagi metaforalarga *zeit ist geld* – vaqt pul yoki *leben ist reise* – hayot – sayohat degan majoziy tushunchalarni misol qilib keltirish mumkin [2;67-b.].

(1) ZEIT IST GELD – Vaqt puldir [4;14-b.].

Das **kostet** mich **viel** Zeit. – buning uchun mening **ko‘p** vaqtim **ketadi**.

(2) ZEIT IST EINE BEGRENZTE RESSOURCE – vaqt cheklangan resursdir.

Die Zeit **wird knapp** – vaqt **tugayapti** [6;11-b.].

(3) ZEIT IST EIN KOSTBARES GUT – vaqt qimmatbaho narsa (tovar)dir.

Meine Zeit ist **kostbar** – mening vaqtim **qimmatli**.

Wir haben viel Zeit **verloren** – biz ko‘p vaqtni **yo‘qotdik**.

(4) DAS LEBEN IST EINE REISE. EIN WEG – hayot sayohatdir

ZEIT IST EIN WEG vaqt yo‘ldir [12;147-b.].

Ushbu konseptual metafora metaforik iboralarni o‘z ichiga oladi, ular orqali vaqt davrlari yo‘llar yoki sayohatlar sifatida ifodalanadi. Quyidagi jumlada „so‘nggi besh yil“ davri sayohat sifatida konsepsiyalan-gan:

Yuqorida tasvirlangan konseptual metafora ZEIT IST GELD – vaqt – pul – uning pastki kategoriya-lari vaqt – cheklangan resurs va vaqt – qimmatbaho mahsulot kichik kategoriyalari bilan lingvistik iboralar bizning kundalik faoliyatimizni tuzuvchi tushunchalarning metaforik tabiati haqida xulosa chiqarishga im-kon beradi [6;23-b.]. Bizning jamiyatimizda vaqt qimmatli tovar sifatida qaraladi. Ish g‘oyasi zamonaviy sanoat jamiyatlarida ish yuki va unga talab qilinadigan vaqt chambarchas bog‘liq bo‘lgan darajada rivojlan-gan. Shunga ko‘ra, insonning ishi soatiga, oyiga yoki yiliga to‘lanadi va ortiqcha ish uchun bo‘sh vaqt kom-pensatsiyasi deb ataladi. Vaqt aniq miqdoriy hisoblanadi, bu, shuningdek, birlik uchun to‘lanadigan telefon to‘lovlarida, bir kecha uchun mehmonxona narxlarida, kredit muddati uchun to‘lanadigan foizlarda va ho-kazolarda aks etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Vaqtga bunday yondashuv insoniyat tarixida nisbatan yangi bo‘lib, bu shaklda hamma jamiyatlarda ham mavjud emas. Bizning vaqt qimmatli, cheklangan tovardek harakat qili-shimiz, bizning kognitiv jihatdan qanday munosabatda bo‘lganimizga mos keladi. Shuning uchun biz vaqt-ni sarflash, behuda sarflash, hisoblash, yaxshi yoki yomon sarmoya kiritish, yoki tejash mumkin bo‘lgan narsa deb tushunamiz [8;14-b.].

2. Oriyentatsion metaforalar. Ushbu turdagi metafora, ya’ni „oriyentatsion metaforalar konsepsiya-ga fazoviy yo‘nalish beradi“ [8;14-b.]. Odamlar kosmosdagi kundalik jismoniy tajribalariga yo‘naltiriladi va masalan, *oben* – yuqorida, *unten* – pastda, *innen* – ichkarida, *außen* – tashqarida, *vorne* – oldinda, *hin-ten* – orqada, *zentral* – markaziy, *peripher* – periferik kabi fazoviy qarama-qarshiliklarni metafora jarayoni orqali mavhum faktlarga o‘tkazadi [5;67-b.]. J.Lakoff va M.Jonson bu turdagi ko‘plab misollarni keltiradi-lar, ulardan ba’zilar bu yerda misol sifatida keltirilgan [6;23-b.].

(5) MEHR IST OBEN, WENIGER IST UNTEN – Ko‘pchilik yuqorida, ozchilik pastda.

Die Zahl der Bücher, die jedes Jahr gedruckt werden, **steigt** stetig – har yili chop etilayotgan kitoblar soni doimiy ravishda **oshib bormoqda**.

(6) WACH SEIN IST OBEN, SCHLAFEN IST UNTEN – uyg‘oq bo‘lish yuqorida, uylash pastda.

Steh/Wach **auf** – **O‘rningdan** tur/uyg‘on.

(7) GESUND SEIN UND LEBEN SIND OBEN, KRANKHEIT UND TOD SIND UNTEN – sog‘lom bo‘lish va hayot yuqorida, kasallik va o‘lim pastda.

Er ist in **Höchstform** – Er ist in **Höchstform** – U **yuqori** formada [10;73-b.].

Tahlil va natijalar. Ushbu misollardan konseptual metafora to‘g‘ridan to‘g‘ri jismoniy tajribalardan paydo bo‘lishini ko‘rsatish uchun foydalanadi. *mehr ist oben, weniger ist unten – ko‘pchilik yuqorida, ozchilik pastda* konseptual metaforasi, masalan, idishni modda bilan to‘ldirishda yoki narsalarni bir-birining ustiga qo‘yishda daraja yoki miqdorning oshishiga asoslanadi. *wach sein ist oben, schlafen ist unten – uyg‘oq bo‘lish yuqorida, uyquda bo‘lish pastda* ushbu metaforaning jismoniy asosi odamlar va ko‘pchilik sutemizuvchilar yotib uxlashlari va uyg‘onganlarida turishlari bilan bog‘liq [7;17-b.].

3.Ontologik metaforalar. J.Lakoff va M.Jonson mavhum faktlar, hodisalar va g‘oyalarning aniqlovchi konseptualizatsiyasini ontologik metafora sifatida tasvirlaydilar. „Jismoniy obyektlar (ayniqsa, o‘z tanamiz) bilan bo‘lgan tajribamiz juda ko‘p turli xil ontologik metaforalar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi, ya‘ni, voqealar, faoliyat, his-tuyg‘ular, g‘oyalar va boshqalarni obyektlar va substansiyalar sifatida ko‘rish usullariga kiradi“ [8;25-b.].

Kishilarning aniq predmetlar va moddalar bilan kundalik, bevosita tajribalari mavhum g‘oyalarda aks ettiriladi va shu bilan ularga obyektlar yoki moddalarning xususiyatlarini beradi. Bularga teginish qobiliyati, uch o‘lchovlilik, og‘irlik, barqarorlik, chegaralanuvchanlik, ko‘rinish, lokalizatsiya va boshqalar kabi omillar kiradi [3;120-b.].

Gehst Du **zum** Rennen? – Poygaga borasizmi?

Er ist gerade **in** die Diskussion eingetaucht. – U shunchaki munozaraga sho‘ng‘ib ketdi.

Ontologik metaforalarga, shuningdek, mavhum faktlarni (hodisalar, faoliyatlar, his-tuyg‘ular, holatlar va boshqalar) aniq chegaralar, shuningdek, ichki va tashqi ko‘rinish beradigan konteyner yoki idish metaforalari ham kiradi. Quyidagi konseptual metaforalar ushbu toifaga kiradi:

BLICKFELDER SIND BEHÄLTER – ko‘rish maydonlari konteynerlar.

*Das Schiff **kommt** allmählich **in** Sicht – Kema asta-sekin **ko‘zga tashlandi.***

*Ich habe ihn **im** Auge – Ko‘zim **unda** [6;41-b.].*

Bundan tashqari, personifikatsiya ontologik metaforaning alohida holati hisoblanadi, unda mavhum tushunchalar va hodisalarni konseptsiyalash uchun xizmat qiluvchi „konkret obyekt“ inson sifatida metafora qilinadi: „Ehtimol, eng aniq ontologik metafora – bu jismoniy obyekt shaxs sifatida ko‘rsatilgan“ [7;33-b.]. Biz quyidagi lingvistik iboralarda personifikatsiyalarni ko‘raamiz:

*Die Zeit **heilt** alle Wunden – Vaqt hamma narsani **davolaydi.***

*Das Leben hat mich **enttäuscht.** – Hayot meni **xafa qildi (hafsalamni pur qildi).***

Xulosa va takliflar. Ushbu metaforalar yordamida jonli yoki jonsiz mavjudotlar ularga tajriba, inson motivlari, xususiyatlar va faoliyatlarni bog‘lash orqali tushunarli bo‘ladi. Personifikatsiya keng tarqalgan metaforalar asosidagi umumiy kategoriyadir. Bu metaforalarning barchasida umumiylik shundaki, ular ontologik metaforalarning umumiy kengaytmalaridir va ular orqali dunyodagi ayrim hodisalarga insoniy xususiyatlar beriladi va shu bilan tushunarli bo‘ladi. „Bu kabi metaforalar bizning fikrimizda shunchalik tabiiy va shu qadar keng tarqalganki, ular, odatda, aqliy hodisalarning o‘z-o‘zidan ravshan, to‘g‘ridan to‘g‘ri tavsifi sifatida qabul qilinadi. Ularning metafora ekanligi ko‘pchiligimizning xayoliga ham kelmaydi“ [7;33-b.].

Metaforalar bizning kundalik voqelikni tushunishimiz uchun zarurdir. Metaforalar kundalik tajribani tushunarli qilish va ularni oqilona va lingvistik jihatdan tushunish uchun muhim kognitiv vositani shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Baader C. Analyse der Orientierungsmetapher in Franz Kafkas „Der Kübelreiter“. Kiel, 2017.
- (2). Fuhrmann M. Poetik des Aristoteles, Deutsch. Griechisch. Stuttgart, 2001, s. 67.
- (3). Jäkel J., Baldauf Ch. Detaillierte kritische Auseinandersetzungen mit diesem Thema liefern. 1997, p. 146.
- (4). Meinke J. aus Heide. Holstein Die Metaphorisierung von Zeit bei Gabriel García Márquez aus der Sicht der kognitiv-linguistischen Metapherntheorie. Wissenschaftliche Hausarbeit zur Erlangung des akademischen Grades eines Magister Artium der Universität Hamburg. Hamburg, 2003.
- (5). Isakova N. Issues of borrowing in the language and its types, International journal of early childhood special education, doi: 10.9756/INTJESCE/Vol 14, Issue 05, 2022.
- (6). Juraholova B. The Role of metaphors expressing the image of a women with a gender component in proverbs and pemeies of german and uzbek languages. Science and Innovation (INT-JECSE). ISSN: 2181-3337. Vol 3, Issue 03.22.03.2024, p. 11–16.

- (7). Jo'raxolova B. Metaforani tadqiq qilishda semantik-kognitiv yondashuv. European Journal of sciences archives conferences series. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10251531>
- (8). Kafka F. Der K belreiter. Versuch einer Interpretation. GRIN Verlag, 2014, s. 56.
- (9). Lakoff G., Johnson M. Leben in Metaphern. Konstruktion und Gebrauch von Sprachbildern. Heidelberg, Carl-Auer-Systeme Verlag, 1998, s. 23.
- (10). Lakoff G., Johnson M. Leben in Metaphern. Konstruktion und Gebrauch von Sprachbildern. Heidelberg, Carl-Auer-Systeme Verlag, 1998, s. 22.
- (11). Lakoff G., Johnson M. Leben in Metaphern. Konstruktion und Gebrauch von Sprachbildern. Heidelberg: Carl-Auer-Systeme Verlag, 1998, s. 14.
- (12). Lawler J. Kritik an Lakoffs und Johnsons Klassifikation  u ern. Bamberg, 1980, 201, s. 205.
- (13). Meurer R. Franz Kafka. Erzhlungen. Interpretationen. M nchen, R.Oldenbourg Verlag GmbH, 1984, s. 73.
- (14). Tagayeva S.U. The notion of concept "mother" in proverbs. International Journal on integrated education, Volume 2, Issue V, Oct-Nov 2019, 147–148 pp.

**Xolisov Azizbek Shokirjon o'g'li (Andijon Iqtisodiyot va qurilish instituti o'qituvchisi;
Email: azizbekxolisov@mail.ru)**

ARXITEKTURA VA QURILISH TERMINLARINING TIPOLOGIYASI

Annotatsiya. Zamonaviy dunyoni kasb tiliga murojaat qilmasdan tasavvur qilish qiyin, bu yerda globalashuv sharoitida madaniyatlar o'rtasidagi yaqin aloqa va bilim sohalari dinamikasi uzluksiz kasbiy ta'limni rag'batlantiradi. Shunday qilib, ma'lum bir tilni va uning terminologik apparatini maxsus maqsadlarda o'zlashtirish kasbni va uni rivojlantirish imkoniyatlarini chuqurroq va yaxshiroq tushunish sifatida qabul qilinadi.

Kalitli so'zlar: kasbiy, termin, qurilish, ark, kafel, vitraj, qiyoslash, tadqiq qilish.

ТИПОЛОГИЯ АРХИТЕКТУРЫ И СТРОИТЕЛЬСТВА

Аннотация. Трудно представить современный мир без обращения к языку профессии, где тесный контакт культур и динамика областей знаний в условиях глобализации стимулируют непрерывное профессиональное образование. Таким образом, овладение определенным языком и его терминологическим аппаратом для специальных целей воспринимается как более глубокое и лучшее понимание профессии и возможностей ее развития.

Ключевые слова: профессионал, срок, конструкция, арка, плитка, витраж, сравнение, исследование.

TYPOLOGY OF ARCHITECTURE AND CONSTRUCTION TERMS

Annotation. It is difficult to imagine the modern world without referring to the language of profession, where the close contact between cultures and the dynamics of knowledge fields in the context of globalization stimulate continuous professional education. Thus, mastering a certain language and its terminological apparatus for special purposes is perceived as a deeper and better understanding of the profession and its development opportunities.

Key words: professional, term, construction, arch, tile, stained glass, comparison, research.

Taqrizchi filologiya fanlari nomzodi, dotsent Kabilova Zebiniso Muratovna

Kirish. Zamonaviy dunyoni kasb tiliga murojaat qilmasdan tasavvur qilish qiyin, bu yerda globalashuv sharoitida madaniyatlar o'rtasidagi yaqin aloqa va bilim sohalari dinamikasi uzluksiz kasbiy ta'limni rag'batlantiradi. Shunday qilib, ma'lum bir tilni va uning terminologik apparatini maxsus maqsadlarda o'zlashtirish kasbni va uni rivojlantirish imkoniyatlarini chuqurroq va yaxshiroq tushunish sifatida qabul qilinadi.

Mustaqillik davrida mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda, xorijiy til lingvodidaktikasi, tarjima nazariyasi va amaliyoti bo'yicha qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Chet tillarini o'rganishga e'tibor davlat siyosatining ustuvor yo'nalishidan biriga aylandi. Binobarin, "...ingliz va boshqa xorijiy tillarni chuqur o'rganishga katta ahamiyat berishimiz zarurligi, shu asosida iqtidorli yoshlarga ta'lim berish juda muhim" ekanligi bugungi kunda tilshunoslik va xorijiy til ta'limi oldida turgan dolzarb vazifadir. Mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillariga o'qitish sifatini ta'minlash, chet tillarida erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarini tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, ushbu yo'nalishdagi o'quv dasturlarining uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash, chet tillarini bilish darajasini baholashning milliy test tizimini rivojlantirish asosida malaka sertifikatiga ega bo'lgan o'quvchi, talaba va pedagoglarga imtiyozlar berish hamda ularni rag'batlantirishga

alohida e'tibor berilmoqda. Shu boisdan hozirgi ingliz va o'zbek tilida arxitektura va qurilish sohasiga oid terminlarning umumiy hamda farqli jihatlarini tahlil qilish, o'zaro tarjimasidagi muammolar va pragmatik xususiyatlarini aniqlash hamda leksikografik talqini bo'yicha takliflar ishlab chiqish dolzarb sanaladi.

Arxitektura atamasining ma'nosi talqin qilinishi kerak deb yozadi M.Simonenko shunday deydi: "Arxitektura atamasi bilan biz professional nutqda tug'ilgan, individual ravishda yaratilgan va lug'at yozuvida mustahkamlangan, me'morning kognitiv faoliyatini aks ettiruvchi so'z yoki iborani tushunamiz" [Simonenko, 2009, p. 45].

Shuni ham ta'kidlash kerakki, terminologik va ko'p ishlatiladigan lug'at o'zaro bog'liqdir: "Termin mavjud leksik fond doirasida shakllanadi, unda ildiz otadi va ilmiy til birligi maqomiga ega bo'lib, vaqt o'tishi bilan u kundalik lug'at sohasiga qaytishi mumkin. bu yangi konseptual ma'no" nazarda tutilmoqda [Veledinskaya. 2010, 17-bet].

"Umumiy lug'at" iborasi milliy, milliy lug'at bilan sinonimdir. "Milliy til – o'zi mustaqil davlat bo'lib, nafaqat iqtisodiy va siyosiy, balki madaniy va tarixiy jihatdan ham ma'lum birlikka erishgan xalqning tilidir" (Nelyubin. 2007).

Terminologiyani keng tarqalgan ishlatiladigan lug'atdan farqlash muammoli masala va boshqa ko'plab ishlarda qayd etilgan) arxitektura va qurilish sohasiga oid terminlarni o'rganish bo'yicha A.S.Grinev shunday yozadi: "Arxitektura sohasida atamalar va tez-tez ishlatiladigan kundalik so'zlarni ajratish muammosi katta ahamiyatga ega, chunki o'rganilayotgan lug'atning eng muhim va qiziqarli xususiyatlaridan biri uning keng tarqalgan, kundalik tilga yaqinligidir" [Grinev. 2004, p. 26].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Muammoning o'rganilishidagi boshlang'ich davrni mahalliy va xorijiy olimlar (B.N.Golovina, A.A.Denisova, L.N.Rusinova, A.V.Superanskaya, E.S.Kapshutar va boshqalar), iqtisodiy (R.S.Tsagolova, E.A.Konovalova, S.V.Saxnevich, N.Saxnevich, N.Karpux) arxitekturaga oid terminologiya tizimlarini muvaffaqiyatli o'rganib, tahlil qildilar. Y.N.Sidorenko va boshqalar), siyosiy (E.V.Rosen, I.V.Tokareva, T.S.Kogotkova, S.A.Manik, I.N.Fomina) va boshqalar tadqiqod olib borganlar. Jonli qiziqish qiyosiy tarixiy, tipologik va qiyosiy tilshunoslik kontekstlarida terminologik tizimlarni ko'rib chiqishda harakatni ham belgilaydi. Yuqorida aytilganlarning barchasi terminologiyani o'rganishning bugungi kundagi dolzarbligini tasdiqlaydi va tadqiqotchilarni fanni tekshirishda yangi usullarni yaratish va joriy etishga undaydi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Til materialining tadqiqi jarayonida tavsifiy, distributiv, transformatsion va o'rni bilan applikativ usullardan foydalanildi. Maqola mavzusini yoritishda qiyosiy tahlil, zidlash, tasniflash, kontekstual, distributiv, struktural va semantik tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Terminologiya sohasidagi zamonaviy kashfiyotlar o'tgan yillar tajribasiga murojaat qilmasdan mumkin emas edi. Terminlarning birinchi tadqiqotlari avstriyalik tadqiqotchi J.Vuster tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, u 1931-yilda "Texnikada, ayniqsa elektrotexnikada nutqni xalqaro standartlashtirish" dissertatsiyasini taqdim etdi. Dunyo tilshunosligida qurilish sohasiga oid terminlarning chog'ishtirma tadqiq qilish borasida qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Qurilish sohasiga oid terminlarning semantik guruhiga mansub leksemalarni nazariy jihatdan o'rganish o'zbek va ingliz tilida mazkur birliklar semantikasi, o'zaro tarjimasida hamda leksikografik talqinini mukammallashtirishi bilan amaliy ahamiyat kasb etadi. Turli tizimli tillarga mansub bo'lgan ingliz va o'zbek tillarida qurilish sohasiga oid leksemalarning umumiy va farqli jihatlari, o'zaro tarjimasidagi muammolarni aniqlash hamda leksikografik talqini bo'yicha takliflar ishlab chiqish lingvodidaktika, tarjimashunoslik va leksikografiyaning ayrim muammolariga yechim topishi bilan dolzarblik kasb etadi. A.S.Grinev shunday yozadi: "Arxitektura sohasida atamalar va tez-tez ishlatiladigan kundalik so'zlarni ajratish muammosi katta ahamiyatga ega, chunki o'rganilayotgan lug'atning eng muhim va qiziqarli xususiyatlaridan biri uning keng tarqalgan, kundalik tilga yaqinligidir" [Grinev. 2004, p. 26].

Xuddi shunday terminlar arxitektura san'atining eng qadimgi sohasi bo'lganligi sababli yuzaga keladi.

"Terminologik birlik umumiy tilga qaytishi mumkin" [Shmeleva" 2010, p. 20]. Biroq, bu holda atama yangi, metaforik ma'noga ega bo'ladi. Umuman olganda, atama haqida gapirganda, professionallikni ham esga olish kerak. "Professionalizm – bu atamalarning o'rnini bosuvchi sifatida institutsional nutqning past darajada shlaydigan ikkinchi darajali kasbiy subyektdagi me'yor birliklari" [Karelova. 2009, s. 116].

"Kasbiylik" so'zining ta'rifini to'liq tushunish uchun biz misollar keltiramiz. Ark, kafel, vitraj, devor, ark, ustun so'zlarini bir vaqtning o'zida arxitektura sohasidagi mutaxassisi tomonidan umumiy tildagi so'zlar yordamida qo'llashi mumkin. Korinf yoki Dorik tartibidagi iboralar ustuni, bazilika, transept, ambu-

lator, stel, kanop, chodir, apsis va boshqalar arxitekturani u yoki bu darajada tushunadigan odam tomonidan qo'llaniladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Ta'kidlash joizki, qurilish sohasidagi terminologiyaning o'sishiga kelsak, S.V.Grinev-Grinevich bundan yigirma yil avval shunday ta'kidlagan edi: "Bizning hisob-kitoblarimizga ko'ra, o'tgan asrning o'rtalarida 20-asr boshlarida arxitektura-qurilish terminologiyasi jami 15–20 ming atamani tashkil etgan; 30–35 ming, 1970-yillarning boshlarida 150 ming, hozirda esa 250 ming atama" [Grinev-Grinevich, 2008, c. 9]. U bu jarayonni texnologik taraqqiyot va globallashuv natijasida yuzaga kelgan "terminologik portlash" deb tushuntiradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, binolar ko'proq me'moriy analarni saqlab qolishga harakat qiladi, chunki ular milliy xususiyatlarni aks ettirish uchun mo'ljallangan va shu munosabat bilan ular ko'proq me'moriy detallardan foydalanganlar. Shu sababli arxitektura va qurilish sohasiga oid juda ko'p atamalar mavjud. Ushbu binolarning terminologiya tizimida yangi atamalar paydo bo'lgan yoki paydo bo'lmaganligini aniqlash uchun bino va nisbatan yaqinda qurilgan (bunday) arxitektura terminologiyasi taqqoslanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Анисимова А.Г. К вопросу о переводе терминов гуманитарных наук. Сб. статей. МАКС Пресс, 2002. Вып. 21, с. 139–143.
- (2). Апалько И.Ю. Лексико-семантическое терминообразование. Культурная жизнь Юга России, 2008, № 4 (29), с. 106–107
- (3). Аракин В.Д. История английского языка. Учеб. пособие, 2-е изд., испр. и доп. М., ФИЗМАТЛИТ, 2003, 272 с.
- (4). Арнольд И.В. Основы научных исследований в лингвистике. Учеб. пособие, М., "Высш. шк.", 1991, 140 с.
- (5). Атрощенко Е. Энциклопедия чудес света. М., РОСССА, 2011, 246 с.; Бабошина О.Н. Изменения в культовой архитектуре Англии под влиянием образцов нормандского сакрального зодчества. Исторические, философские, политические и юридические науки, культурология и искусствоведение. "Вопросы теории и практики", 2012, № 7, с. 15–17.
- (6). Бакулин А.А. Толковый строительно-архитектурный словарь. 2-е изд., доп. Смоленск, "Искусство", 2008, 78 с.; Бархударов Л.С. Лингвистические аспекты теории перевода (хрестоматия). Лингва, 2007, с. 13.
- (7). Брайчевский М.Ю. Утверждение христианства на Руси. Киев, Академия наук Украинской ССР, "Наукова думка", 1989, 294 с.
- (8). Буряк И.М. Профессионализмы в строительной лексике. Научный потенциал регионов на службу модернизации, 2012, № 1 (2), с. 117–120; Велединская С.Б. Курс общей теории перевода. Учебное пособие, Томск, издательство Томского политехнического университета, 2010, 230 с.

Nurillayev Hamza (Qoraqalpoq davlat universiteti assistent o'qituvchisi) INGLIZ VA QORAQALPOQ TILLARIDA SOMATIK FRAZEOLOGIZMLARNING O'RGANILISH DARAJASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz va qoraqalpoq tillarida somatik frazeologizmlar bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar darajasi qiyosiy tahlil qilinadi, bunda tanaga aloqador iboralarning idiomatik qo'llanishning lingvistik va madaniy o'lchovlarini tushunishdagi ahamiyati yoritiladi. Tadqiqotda korpusning miqdoriy tahlili va idiomatik iboralarning sifat tahlilini birlashtirgan aralash usullardan foydalaniladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ingliz va qoraqalpoq tillarida turlicha chastotalar va madaniy urg'ularga ega bo'lsa-da, somatik idiomalarning boy qatoridan foydalaniladi.

Kalit so'zlar: somatik frazeologizmlar, ingliz, qoraqalpoq, kognitiv lingvistika, madaniy tilshunoslik, idiomatik iboralar.

Нурыллаев Хамза (ассистент-преподаватель, Каракалпакский государственный университет) СТЕПЕНЬ ИЗУЧЕННОСТИ СОМАТИЧЕСКИХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ В АНГЛИЙСКОМ И КАРАКАЛПАКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. В статье предлагается сравнительный анализ степени исследования соматической фразеологии в английском и каракалпакском языках, подчеркивается значение выражений, связанных с телом, в понимании языковых и культурных аспектов идиоматического использования. В исследовании используется смешанный подход, сочетающий количественный анализ корпусов и качественный анализ идиоматических выражений. Согласно результатам исследования, и английс-

кий, и каракалпакский языки используют богатый набор соматических идиом, хотя и с разной частотой и культурными акцентами.

Ключевые слова: соматическая фразеология, английский язык, каракалпакский язык, когнитивная лингвистика, лингвокультурология, идиоматические выражения.

Nurillaev Khamza (Assistant teacher, Karakalpak State University)

THE DEGREE OF STUDY OF SOMATIC PHRASEOLOGICAL UNITS IN ENGLISH AND KARAKALPAK LANGUAGES

Annotation. This article proposes a comparative analysis of the research level on somatic phraseology in English and Karakalpak languages, highlighting the significance of body-related expressions in understanding linguistic and cultural dimensions of idiomatic usage. The study employs a mixed-methods approach, combining quantitative analysis of corpora and qualitative analysis of idiomatic expressions. According to the result of the research, both English and Karakalpak utilize a rich array of somatic idioms, though with varying frequencies and cultural emphases.

Key words: somatic phraseology, English, Karakalpak, cognitive linguistics, cultural linguistics, idiomatic expressions.

Kirish. Somatik frazeologiya, iboralar va tana qismlarini o‘z ichiga olgan iboralarni o‘rganish, til va fikrni tekshirish uchun ajoyib ob‘ektivni taqdim etadi. Ushbu tadqiqot ingliz va qoraqalpoq tillarida somatik frazeologiyalarning tarqalishi, qo‘llanilishi va konseptual metaforalarini solishtirish, bu iboralarning tana va ongning madaniy qiyofalarini qanday namoyon qilishini o‘rganishdan iborat. Tadqiqot tilda timsolning universal naqshlarini, shuningdek, tilga xos xususiyatlarni ochishga intiladi. Mazkur tadqiqot ilk bor ingliz va qoraqalpoq tillarida somatik frazeologizmlarni tahlil qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mazkur tadqiqotni amalga oshirish mobaynida ingliz va qoraqalpoq tillarida somatik frazeologizmlarga oid nashr etilgan qator kitoblar va ilimiy maqolalar tahlil qilindi. Xususan, ingliz tilidagi somatik frazeologizmlarni o‘rganishda Lakoff, Jonson, Semino, Boyers kabi mashhur olimlar ilimiy tadqiqotlari tahlil qilindi. Shuningdek, qoraqalpoq tilida somatik frazeologizmlar bo‘yicha Allamberganova, Perdebaeva, Ayapova, Saydamatov, Keulimjaevalarning ilimiy maqolalari tahlil qilindi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda adabiyotlar tahlili va frazeologik iboralarning sifat tahlilini birlashtirgan aralash usullardan foydalaniladi.

Tahlil va natijalar. Ingliz va qoraqalpoq tillaridagi somatik frazeologiyaning tadqiqot darajasini ko‘rsatuvchi tadqiqotlar kognitiv lingvistikadan tortib, pedagogik strategiyalargacha bo‘lgan turli yondashuvlarni o‘z ichiga oladi, bu yo‘nalishdagi tadqiqotlarning fanlararo xususiyatini aks ettiradi.

1. Kognitiv lingvistika va konseptual metafora nazariyasi. Jorj Lakoff va Mark Jonson (1980) – “Biz yashayotgan metaforalar” – Garchi somatik frazeologiyalar bilan cheklanmagan bo‘lsa-da, bu muhim asar metaforik iboralar, jumladan, tana a‘zolari va funksiyalariga asoslangan iboralar jismoniy va hissiy kechinmalarda qanday ildiz otganligini tushunishga zamin yaratdi. Ushbu kitobda keltirilgan tushunchalar ingliz va boshqa tillarda somatik metafora bo‘yicha ko‘plab keyingi tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlaydi.

2. Korpus lingvistik tahlili:

– Elena Semino tomonidan “So‘zdagi tana: she‘riy matn shakliga kognitiv yondashuv” (2008);

– ushbu tadqiqot ingliz she‘riyatida somatik metaforalarning qanday qo‘llanilishini tahlil qilish uchun korpus lingvistikasidan foydalanadi va adabiy matnlardagi tana ifodalarning tarqalishi va xilma-xilligi haqida tushuncha beradi.

3. Psixolingvistika:

– “Ingliz tilini o‘qitish va o‘rganish” jurnalida “Idiomatik ifodalarni ingliz tilini L2 o‘rganuvchilar tomonidan qayta ishlash” (2019);

– ushbu tadqiqot ona tili ingliz tili bo‘lmaganlar o‘rganuvchilarning tana a‘zolarini o‘z ichiga olgan idiomatik iboralarni qanday qayta ishlashlarini o‘rganadi, idiomani tushunish orqasidagi kognitiv mexanizmlar va ingliz tilini o‘rganuvchilar duch keladigan qiyinchiliklar haqida qimmatli tushunchalar beradi.

4. Pedagogik tadqiqotlar:

– ELT jurnalida Frenk Boers tomonidan “Kognitiv yo‘naltirilgan usullar orqali metafora sifatida ingliz iboralarni o‘rgatish: EFL yozish sinfidagi misol” (2000);

– ingliz tili idiomalarini o‘rgatishning pedagogik oqibatlariga e‘tibor qaratgan holda, ushbu tadqiqot ingliz tilini chet tili sifatida (EFL) o‘rganuvchilarga idiomatik iboralarni, shu jumladan, somatik tarkibiy qismlarni tushunish va ulardan foydalanishga yordam berishning samarali strategiyalarini o‘rganadi.

5. Sotsiolingvistik istiqbollari:

– madaniyat, tibbiyot va psixiatriya bo'yicha "Murakkablik iboralari: murakkab tartibga soluvchi muhitda psixo-ijtimoiy iztirobning somatik ifodalari" (2016);

–garchi bu tadqiqot faqat ingliz tiliga oid bo'lsa-da, somatik frazeologiyaning ijtimoiy-madaniy jihatlarini ta'kidlab, psixologik tanglikni bildirish uchun turli madaniyatlarda somatik iboralar qanday qo'llanilishini kengroq o'rganishda ingliz somatik idiomalarini o'z ichiga oladi [5;105-b.].

Bu misollar ingliz somatik frazeologiyasi bo'yicha tadqiqotlarning boy va ko'p qirraliligini ta'kidlaydi. Turli fanlarning olimlari tanani o'z ichiga olgan iboralar til, bilish va madaniyatni tushunish uchun qanday oyna bo'lib xizmat qilishini o'rganishda davom etmoqdalar.

Qoraqalpoq tilida somatik frazeologiyalarni o'rganish bu madaniyatlarda tana kechinmalarining konseptualizatsiyasi va so'zlashuvi haqida ajoyib tushunchalarni taqdim etishi mumkin.

1. Kognitiv lingvistika. Allamberganova G. va Perdebaeva G. tomonidan nashr etilgan "The usage of semantic phraseologies in the epic "koblan" nomli ilimiy maqolasida qoraqalpoq xalqi uchun ahamiyatli bo'lgan Qoblan dostonida uchraydigan somatik frazeologizmlar tahlil qilinadi [2;23-b.].

2. Etnolingvistika va antropologik tilshunoslik:

– madaniy ahamiyat. Etnolingvistik tadqiqotlar qoraqalpoq tilidagi somatik iboralarning madaniy ahamiyatini, ular jamiyatning tanaga, sog'lig'iga va shaxslararo munosabatlarga munosabatini qanday aks ettirishini o'rganishi mumkin. Bu tadqiqotlar qoraqalpoq jamiyatida til, madaniyat va jismoniy tajriba qanday o'zaro bog'langanligini ochib berishi mumkin. Misol tariqasida Ayapova T.P. tomonidan yozilgan "T. Qayipbergenov shigarmalarida somatikaliq frazeologizmlar qollanilishi" nomli ilimiy maqolasida mashhur yozuvchi Tolepbergen Qayipbergenov asarlaridan keng qo'llanilgan somatik frazeologizmlar tahlil qilinadi [1;250-b.].

3. Til o'rgatish va o'rganish. Pedagogik materiallar: qoraqalpoq tili, ayniqsa, turkiy tillarni yaxshi bilmaydigan o'quvchilar uchun o'quv qo'llanmalarini ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlar somatik idiomalarini o'rgatish muammolarini hal qilishi mumkin. Ushbu manbalar tilni saqlash va o'quvchilarga chuqurroq madaniy tushuncha berish uchun zarurdir. Xususan, Saydamatov I.N. tomonidan yozilgan "The degree of study of phraseological units with somatic components in modern linguistics" nomli maqolasi o'quvchilar uchun baholi ma'lumotlarni taqdim etadi [4;49-b.].

Xulosa va takliflar. Ingliz va qoraqalpoq somatik frazeologiyalarini qiyosiy o'rganish tilning ham umuminsoniy, ham madaniyatga xos jihatlarida tanaga aloqador iboralarning ahamiyatini ko'rsatadi. Bu insonning kognitiv qobiliyatlari va til ifodalarining xilma-xilligi haqidagi tushunchamizni boyitish uchun qoraqalpoq va ingliz tillarida qo'shimcha tadqiqotlar olib borish zarurligini ta'kidlaydi. Olingan natijalar kognitiv tilshunoslik, madaniyatlararo muloqot va til hujjatlari va saqlash sohalariga hissa qo'shishga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Ayapova T.P. (2022, June). T.Qayipbergenov shigarmalarida somatikaliq frazeologizmlar qollanilishi. In international conferences (Vol. 1, № 1, pp. 248 – 252).
- (2). Allamberganova G., & Perdebaeva G. (2023). The usage of semantic phraseologies in the epic "koblan". International Bulletin of Engineering and Technology, 3(7), p. 20 – 25.
- (3). Keulimjaeva U.K. (2021). Phraseologies with component «kóz» (eye) in the Karakalpak language. Academia. An International Multidisciplinary Research Journal, 11(3), p. 1605 – 1609.
- (4). Saydamatov I.N. (2023). The degree of study of phraseological units with somatic components in modern linguistics. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, p. 48–51.
- (5). Timoshenko E.S. (2012). English somatic phraseological units as a linguistic phenomenon. Вісник, 105.
- (6). Nuryllaev K. (2023). Somatism as a component of phrases in english and karakalpak languages. Евразийский журнал академических исследований, 3(3 Part 3), p. 51 – 54.
- (7). Nurillaev K.K., & Jumamuratova, M.A. (2023). The analysis of the somatic phraseological unit of English and Karakalpak language. Science and Education, 4(1), p. 1215 – 1220.
- (8). A.Gulara and A.Sharigul. "The Correspondence of the Equal Two-Component Phraseologies in Terms of Construction", ijmst, vol. 10, № 2, pp. 2696–2702, Oct. 2023.

Atamurodova Feruza Tashmurotovna (Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM dotsenti,
f.f.f.d. (PhD); feruza.atamurodova77@gmail.com)

XX ASR INGLIZ ADABIYOTIDA EPIK TURKUM JANRI TIPOLOGIYASI

Annotatsiya. Ushbu maqola 20-asr ingliz epik roman janr tipologiyasi va xususiyatlari haqida bo'lib, ushbu janrning o'ziga xos tamoyillari va kompozitsion tuzilishi yoritilgan. XX asr ingliz romani kompozitsion shaklining epik-dramatik strukturaga moyilligi roman kompozitsiyasi, obrazlar tizimida g'oyaviy qarshi kurashga urg'u berilishi, lirik-intellektual uslubning qo'llanishi, epik hikoya qilish tarzining milliy xususiyati bilan belgilanganligi asoslangan.

Kalit so'zlar. epik turkum, roman, tipologiya, janr, tamoyil, sujet hikoya.

Атамуродова Феруза Ташмуротовна (университет экономики и педагогики, доцент (PhD);
feruza.atamurodova77@gmail.com)

ТИПОЛОГИЯ ЖАНРА ЭПИЧЕСКОЙ КАТЕГОРИИ В АНГЛИЙСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ XX
ВЕКА

Аннотация. В статье рассмотрена типология и особенности жанра английского эпического романа XX века выделены специфические принципы и композиционная структура этого жанра. Склонность композиционной формы английского романа XX века к эпико-драматической структуре основана на том, что композиционная форма романа, акцент на идейной контрборьбе в системе образов, использование лирико-мыслительного строя определяется стиль, национальный характер эпического повествовательного стиля.

Ключевые слова. эпическая категория, типология, роман, жанровый принцип, сюжет, рассказ.

Atamurodova Feruza Tashmurotovna (University of Economy and Pedagogy, PhD;
feruza.atamurodova77@gmail.com)

TYPOLOGY OF THE GENRE OF THE EPIC SERIES IN ENGLISH LITERATURE OF THE
20TH CENTURY

Annotation. This article is about the typology and characteristics of the English epic novel genre of the 20th century, the specific principles and compositional structure of this genre are highlighted. The inclination of the compositional form of the 20th century English novel to the epic-dramatic structure is based on the fact that the composition of the novel, the emphasis on ideological counter-struggle in the system of images, the use of the lyrical-intellectual style, and the national character of the epic narrative style are determined.

Key words. epic series, novel, typology, genre, principle, plot, story.

f.f.f.d. (DsC) Daniyeva M.Dj. taqrizi ostida

Kirish. Introduction. XX asr ingliz romani tipologiyasida janr rang-barangligini ta'minlashda epik turkum yuksak mavqega ega. "Ponaramli", "markazdan qochadigan" romanlar ushbu shaklga intiladi, ularning tuzilishida epik muqaddima nafaqat epik turga oid janr asosini tashkil etadi, balki jamiki poetik aloqatlar tizimida, lirik va dramatik muqaddimani o'ziga bo'ysundirib, yetakchilik qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Virjiniya Vulf o'zining "Zamonaviy badiiy nasr" deb nomlangan essesda zamonaviy roman yozilishi lozim bo'lgan yangi printsiplarni birinchilardan bo'lib belgilab berdi va "bir nechta yosh qalamkashlarning (ular orasida eng e'tiborga loyiq bo'lgan Joys ham bor)" ijodi bilan ingliz realistik romani (Virjiniya Vulfning nigohida G.Uells, A.Bennet va D.Golsuorsilar ingliz realistik romanining yorqin namoyandalari) orasidagi masofani yaqqol ko'rsatib berdi. "Mazkur uchala yozuvchi to'g'risida o'z fikrimizni bir so'z bilan ifodalashimiz mumkin, biz ularni materialistlar deb atagan bo'lar edik. Aynan shuning uchunki, ularni qalb emas, balki moddiy shakl, ya'ni tana qiziqtirardi" [1;277-b.].

Pol Uest "Zamonaviy roman" kitobida roman turkumi janrini urfdan qolganlikda tanqid qiladi. Roman turkumi tuzilishida asosiy o'rinni ong oqimi emas, balki xarakter egallashi unga ma'qul kelmaydi. Bu janrdagi batafsillikni u katalog bilan tenglashtiradi, obrazlarning haqiqatnamoligini sun'iy xomxayol, deb ataydi, hayotning katta hajmda va keng qamrab olinganini hujjatbozlik, faktlarni ulab-qurash, ko'p so'zlik deb baholaydi. Yakunda tanqidchi shunday xulosaga keladi: roman turkumi – "ma'naviy hayot elek-tro-nikasi"; roman turkumi – jamiyat haqidagi hujjatli hisobot, roman-mif – tasavvur, o'y-farazlar yordamida metafizik muammolar ichiga kirib borish [2;117-b.]. Pol Uest zamonaviy adabiyotidagi e'tiborga molik oqim – realistik an'analarga tayangan epik turkum rivojini yomonga chiqarishga urinadi va G'arb mamla-

katlaridagi hozirgi jarayon bilan bog'liq asosiy yo'nalish – realizm yo'nalishida ijod qilayotgan yo-zuvchilar tomonidan rad etilgan modernizm estetikasini himoyasiga olishga harakat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ingliz adabiyotida epik asarning modernistik yoki realistik janrga mansubligini aniqlashda ko'proq janr yaratuvchi yetakchi tendensiyalarga asoslanganligini qiyosiy-tipologik, tasniflash metodlari orqali ochib berish va realistik romanning modernistik romanga zidligini, ularning o'zaro kurashini XX asr yozuvchilari ijodi orqali asoslab berish maqolaning metodologiyasi hisoblanadi.

Epik turkum janri hikoya qilishning o'ziga xos tamoyillari: davriylik, manzaralarga boyligi, ko'p qatlamliligi va hujjatligi bilan tavsiflanadi. Bu Balzak va Zolya turkumlaridan manba sifatida bahramand bo'lgan XX asr adabiyotining asl badiiy hodisasi. Epik turkum janri turkumga mansub bo'lgan alohida kitoblarning muhim tashqi va ichki bog'lanishiga asoslangan. Adabiyotshunoslikda turkum romanlar – bu amalga oshmagan, muvaffaqiyatsiz chiqqan epopeya, degan fikrlar aytilgan va ularga ikkinchi darajali voqea sifatida qaralgan. Epik turkumni roman-epopeyadan farqlantirilgan jihatlari yomon deb baholandi, roman-epopeya esa badiiylikning namunasi, deya e'lon qilindi. To'g'ri, roman-epopeya – realistik san'atning yuksak yutug'i, biroq hayotni epik tamoyilda tasvirlash “unvon va darajalar jadvali”ni tan olmaydi, epik asarda yirik narsalar ham, mayda narsalar ham estetik planda bir xil, teng ravishda tasvirlanadi. Epik tamoyil janrlar tengligini tavsiya qiladi, garchi bu tenglikda dunyoning poetik, qahramonona holati qayta yaratilgan janrga e'tibor qaratilsa-da. Epik turkumni roman-epopeya mezonlari nuqtai nazaridan emas, balki uning o'zining badiiy qonun-qoidalaridan kelib chiqib, tadqiq etish lozim. Turli janrlar hayotning turli sohalariga “xizmat qiladi”, shuningdek, janrlar muayyan ijtimoiy zaminda yuzaga keladi, dunyoning muayyan holatini aks ettiradi. Epik turkumda ko'proq dunyoning oddiy, shavqsiz holati qayta yaratiladi, garchi muayyan darajada qahramonlikni ham aks ettirsa-da.

Epik turkumda hikoya qilishning panoramli tamoyili sujetning yoyiqligida namoyon bo'ladi. Roman turkumi – bu ko'lamliligi tarzda yoyilib-kengayib boradigan keng ko'lamliligi tasvir bo'lib, o'z ichiga tez o'rin almashadigan epizodlar to'plamini, ko'plab faktlar sharhini, voqealarni, odamlarni, son-sanoqsiz sujet chiziqklarining chatishib, qo'shib ketishini, dunyoning umumiy manzarasini yaratadigan keng miqyosni qamrab oladi. Bunday ko'pqatlamli, ko'ptarkibli asarni chet ellik tanqidchilar “roman-oqim”, “roman-qurama”, deb ataydi. Bunday asarda hayotning turli manzaralari, jamiyatning turli qatlamlari sharhlanadi. Ko'p qatlamli hikoya tarzi o'zida mavzular va motivlar polifoniyasini, tavsiflarning ko'pohangligini jamlaydi. Panoramliligi tamoyil ulkan konni taqozo qiladi, xronikal tamoyil – katta muvaqqat davrlarni taqozo qiladi.

Xronikal tamoyil tarixiy taraqqiyot va shaxs taqdiri birligiga rioya qilishdan tarkib topadi. Yagona murakkab sujet rivoji jarayonida tarixiy sujet va shaxs sujetining bir-biriga kirishishi, singishi amalga oshadi. Haqiqiy badiiy xronikal hikoya qilishning kaleydoskopcha olchalpoq rang-baranglikka, yuzaki suhbatga, faktlarni shunchaki qayd etishga, lahzalik fotografik suratga, misol uchun, memuar adabiyotga hech qanday aloqasi yo'q. Solnomaning hujjatligi va tarixiy aniq-tiniqligi dunyoviy aloqalar turli xilligining umumiy g'oyasiga bo'ysunadi. Epik turkumda hikoya tarzi oilaviy solnomaning an'anavaiy doirasidan tashqariga chiqadi va badiiy gavdalandirilgan tarixiy voqealar solnomasini o'ziga qamrab oladi. Albatta, solnomalar turlicha bo'ladi, u tarixiy voqealarning sir tutilgan zaminini tashkil etishi mumkin, zero, ular haqda juda kam eslanadi, ular haqda faqat taxmin qilish mumkin, biroq ba'zan xronikalik aniq qayd etilgan sana, tarixiy faktlar va shaxslar haqidagi eslatmalar ko'rinishida birinchi planga chiqadi. Xronikal hikoya qilishda ko'lamdorlik umumlashtirilgan fikr, mazmun tashiydigan lo'nda juz'iy chizgilar favqulodda san'atkorona diqqat-e'tiborni talab etadi.

Tahlil va natijalar. Epik turkumning kompozitsion tuzilishi dialektikasi shundan iboratki, uning har bir nisbatan mustaqil elementlari, ayni paytda, butunlikning qismi hisoblanadi. Alohida mustaqil epizodlar rang-barang rishtalar vositasida yaxlit manzaraga bog'lanadi. Epik turkumda yaxlitlik, dramatik romandagidan ko'ra, yanada kamroq yopiq (bekitilgan) bo'ladi. Epik turkumni, roman-epopeyadan farqli tarzda, yangi qo'shimchalar bilan, unga qo'shilgan yangi romanlar bilan to'ldirish mumkin. Roman-epopeya barcha nisbatan mustaqil alohida boblari va qismlari borligiga qaramay, o'z strukturasi yaxlitligiga intiladi. Epik turkum ko'pqismli butunlik sifatida nafaqat romanlarni, shuningdek, romanlar mavzulari bo'yicha yaratilgan, turkumga kiradigan hikoyalarni ham qo'shib olishi mumkin. Ushbu “yo'ldoshlar”–hikoyalarda romanlarga kirmay qolgan bosh va ikkinchi darajali personajlar hayotidan ayrim lavhalar haqida hikoya qilindi.

Epik turkum yozuvchining roman-epopeya yaratishga qodir emasligi natijasi sifatida yuzaga kelishi ham mumkin, biroq ko'p hollarda epik turkum mustaqil va o'ziga xos janr sifatida yaratilgan. Har bir xilma-xilligida o'zining vazifasi va imkoniyatlari bor. Epik turkum roman-epopeyadan jamiyat manzaralari yaxlitligini ko'rsatishda, ijtimoiy-falsafiy konsepsiyaning teranligida, janr xususiyatlari birikuvi mezonida

ortda qoladi, biroq unda bir qator ustun jihatlar bor, ya'ni, u ko'lamdor, murakkab tus olgan sivilizatsiya-ning jamiki turli-tuman voqeliklarini qamrab olishi va jamiyat hayotining o'n yilliklari solnomasini yoritishi, dunyoning turli mamlakatlarida ro'y berayotgan voqea-hodisalarni aks ettirishi mumkin. Epik turkum bilan roman-epopeya o'rtasida turli farqli jihatlar bo'lishiga qaramay, o'tib bo'lmaydigan to'siq yo'q. Epopeyaga xos xususiyatlar epik turkumda ko'rinishi mumkin.

XIX asrda va XX asrga kelib ham ko'plab yozuvchilar ijodida epik turkumdagi asarlar doirasida roman-epopeyalar turkumidagi asarlar yaratilgan. Buyuk frantsuz yozuvchisi romantizm janri ijodkori, V. Gyugoning 1834-yilda yozgan mashhur asari "Xo'rlanganlar", L.Tolstoyning "Urush va tinchlik", Stiven Kingning "Qora minora" kabi romanlari ham ushbu turkumda yozilgan.

Zamonaviy epik hikoya qilish tarzida dramatik va lirik muqaddima ahamiyati kuchaymoqda. Bunda, shubhasiz, xalq ommasi harakatiga tayangan, faol tarixiy kuch sifatidagi shaxsning kuchayib borayotgan roli, XX yuzyillik odamining dunyoda o'z o'rnini anglagani, o'zining jamiyat va xalq bilan aloqasini, o'zining insoniyat taqdiriga javobgarligini tushunib yetgani hal qiluvchi omil bo'ldi.

XX asr realistik adabiyotida dramatik shaklda emas, balki epik san'at shakllaridagi epik fojeaviylik sifatidagi badiiy hodisalar rivojlanib bordi. Epik ko'lamli asarlarda, albatta, fojiali mavzular va kolliziyalar paydo bo'la boshladi. Hozirgi zamon adabiy jarayonida eposning liriklashuvi tendentsiyasi kuchli. Epik hikoya qilish zamiriga lirikaga xos bo'lgan ichki subyektiv harakatlar kirib bordi. Muallifning samimiyligi, dilkashligi hikoya qilishning obyektiga aylandi. Lirik kayfiyat barcha epik asarlar zamiriga singib ketdi. Epik predmetlik olamni subyektiv qabul qilish, idroklash bilan bog'landi.

Badiiy adabiyotda zamonni subyektiv qabul qilish, idroklash badiiy vositalardan biri sifatida qo'llaniladi. J.B.Pristlinning ta'kidlashicha, romanda vaqt cho'zqligidan ko'ra, badiiy zamon shakllari muhimroq. U vaqt surati, shamoyilining uch usulini farqlab ko'rsatadi. Birinchi usul bir maromda hikoya qilish tarziga muvofiq, tekis vaqt oqimi tasviridan iborat. Ikkinchi usul dramatik romanlarda kuzatiladi: bunda vaqt, keskin dramatik sahnalarning ketma-ketligi ritmiga muvofiq tarzda, goh shiddat bilan, gohida sekin kechadi. Uchinchi usul sekinlashgan vaqt ritmidan tashkil topadi, bunda vaqt ta'rif, tavsiflar bayonini o'qish uchun, real hayotdagi voqealar vaqtiga qaraganda xiyla cho'ziladi.

XX asr adabiyotida badiiy vaqtning ta'sirchan, yorqin ifodali imkoniyatlarini anglash ehtiyoji favqulodda ortadi. Bu davr adabiyotida epik hikoya qilish tarzi "psixologik" vaqtning tarixiy vaqt bilan muvofiqlashgan va o'zaro singishgan shakllarining rang-barangligi bilan farqlanadi, jumladan, o'tmishga murojaat usuli, vaqt surati, shamoyillarining o'rin almashishi, vaqtning falsafiy leytmotivga aylanishi, vaqtni "psixologiyalashtirish"ning turli usullari, harakatlar sinxronizmi va diaxronizmi, makon-zamon munosabatlari, o'zaro bog'lanishining harakatchanligi. Badiiy vaqtning ta'sirchan, yorqin ifodalash imkoniyatlarini faol qo'llash XX asr adabiyotida epik hikoya qilish strukturalari yangilanishiga yordam beradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, o'tgan asr ingliz prozasida epik turning asosiy tamoyillari, garchi epik asos turlarning o'zaro ta'siri jarayonida o'zgartirib bo'lsa-da, qisman saqlanib kelingan. Zamonaviy adabiyotda, ayniqsa, epik dramatism, epik fojiaiylik, dramatiklashtirilgan epos, lirik epos, epik hujjatlilik, epik xronika kabi epik shakllar takomillashib, rivojlanib borgan. Realistik adabiyotda badiiy vaqt talqini bo'yicha qo'llangan ijodiy tajribalarda sabab-vaqt aloqalarining mustahkam asosiga tayaniladi; modernistik adabiyotda esa tajriba vaqtni "vayron" qilishga, buning oqibatida vaqt va makondagi voqea-hodisalar harakatini tavsiflaydigan epik strukturani barbod qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

- [1]. Вульф В. Писатели Англии о литературе. Современная литература. М., 1981, с. 277.
- [2]. West Paul. The Modern Novel. L., 1963, p. 117.
- [3]. Днепров В.Д. Черты романа XX века. М., Л., 1965, с. 548.
- [4]. Priestley J.B. Man and Time. L., 1964, p. 110 –115.

**Shapsanova Feruza Muzaffarovna (O'zbekiston davlat Jahon tillari universiteti o'qituvchisi,
Toshkent, O'zbekiston; shapsanovaferuza@gmail.com)**

INGLIZ EKZISTENSIALIZM ADABIYOTIDA DRAMA VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Maqola XX asr o'rtalarida Germaniya va Fransiyada vujudga kelgan mashhur siyosiy, madaniy va badiiy oqim bo'lmish ekzistensializmning XX asr ingliz adabiyoti dramasi rivojiga ko'rsatgan ta'siriga bag'ishlanadi. Ekzistensializm insonning shaxs sifatida mavjudligi haqidagi ta'limotdir. Oqim shaxsning individualligini targ'ib qiladi, shu bilan birga, hayot mazmuni, erkinlik va erkin tanlov tushun-

chalarini o'rtaga qo'yadi. Aynan Absurd teatrining ingliz adabiyotida vujudga kelishida, ekzistensializm oqimi asosiy turtki va manba bo'lib xizmat qildi. Shu bilan birga, maqolada "Alamzada yoshlar" badiiy oqimining asoschisi hisoblanmish Jon Osborn asarlaridagi ekzistensial mavzular muhokama qilinadi. Ushbu maqolaning maqsadi XX asr ingliz adabiyoti dramasi ekzistensializmning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishdir. Tadqiqotda falsafiy yondashuv, tarixiy-madaniy, empirik va nazariy usullardan foydalaniladi. Shuningdek, mashhur dramaturg yozuvchilar, jumladan, Samyuel Bekket va Jon Osborn qalamiga mansub sahna asarlari ekzistensializm oqimining ingliz adabiyotidagi o'rni va xususiyatlarini asoslashda qo'llaniladi. Tadqiqot natijalari asosida ingliz adabiyoti dramasi ekzistensial mavzular va konsepsiyalar aniqlandi.

Kalit so'zlar: drama, ekzistensializm, individualizm, absurd, erkin tanlov, diniy motiv, o'lim va qo'rquv, hayot mazmuni.

Шапсанова Феруза Музаффаровна (преподаватель, Узбекский государственный университет мировых языков, Ташкент, Узбекистан)

ДРАМА И ЕЕ ОСОБЕННОСТИ В ЛИТЕРАТУРЕ АНГЛИЙСКОГО ЭКЗИСТЕНЦИАЛИЗМА

Аннотация. Статья посвящается влиянию экзистенциализма, популярного политического, культурного и художественного течения, возникшего в Германии и Франции в середине XX века, на развитие драматургии английской литературы двадцатого века. Экзистенциализм – это учение о существовании человека как индивидуума. Течение продвигает индивидуальность, в то же время, оценивает такие понятия, как смысл жизни, свобода и свободный выбор. Именно экзистенциализм послужил главным толчком и источником возникновения театра абсурда в английской литературе. А также в статье рассматриваются экзистенциальные темы, которые встречаются в литературном творчестве Джона Осборна, основателя художественного движения "Рассерженные молодые люди". Цель данной статьи – исследовать характерные черты экзистенциализма в современной английской драматургии. В исследовании используется философский подход, историко-культурный, эмпирический и теоретический методы. Также пьесы, написанные Самуэлем Беккетом и Джоном Осборном, используются для выделения особенностей и роли экзистенциализма в английской литературе. По результатам исследования были выявлены экзистенциальные темы и концепции в драматургии английской литературы.

Ключевые слова: драма, экзистенциализм, индивидуализм, абсурд, свобода выбора, религиозные мотивы, смерть и страх, смысл жизни.

Shapsanova Feruza Muzaffarovna (Uzbekistan State World Languages University Tashkent, Uzbekistan)

DRAMA AND ITS PECULIARITIES IN THE LITERATURE OF ENGLISH EXISTENTIALISM

Annotation. The article will focus on the influence of existentialism, a popular political, cultural and artistic movement that emerged in Germany and France in the middle of the 20th century, on the development of the drama of English literature of the 20th century. Existentialism is the doctrine of the existence of a man as an individual. The movement promotes the individuality, at the same time, evaluates the concepts such as, the meaning of life, freedom, and free choice. It was in the emergence of the Theater of Absurd in English literature that existentialism served as the main impetus and source. At the same time, the article discusses existential themes in the literary works of John Osborne, who is considered to be the founder of the artistic movement "Angry Young Men". The purpose of this article is to explore the inherent features of existentialism in contemporary English drama. The study uses a philosophical approach, historical-cultural, empirical and theoretical methods. Also, plays written by Samuel Beckett and John Osborne are used to distinguish the features and role of existentialism in English literature. Based on the results of the study, existential themes and concepts were identified in the drama of English literature.

Key words: drama, existentialism, individualism, absurd, free choice, religious motive, death and fear, meaning of life.

Kirish. XX asr tarixida muhrlangan ikki jahon urushlari fojiasi va oqibatlari Yevropa jamiyatida nigilistik ruhni shakllantirib, an'ana va qadr-qimmatlardan yiroq bo'lmish yangi zamon avlodini, shu bilan birga, yangi g'oya-firlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Ilm-fan namoyandalari XX asrning asosiy muammosini shaxsning hozirgi zamnodagi o'rni deb bilib, badiiy asarlarda ekzistensial mavzularni o'rtaga qo'yishdi. Buyuk Britaniya adabiyotiga ekzistensializm adabiy oqim sifatida XX asrning 50–70-yillarida kirib keldi, ayniqsa, drama turida o'chmas iz qoldirdi.

Zamonaviy ingliz adabiyotida ekzistensial dramaturglar Jon Osborn va Semyuel Bekket qalamiga mansub sahna asarlari o'zida mazkur tendensiyaning absurd, erkin tanlov va xaos kabi xususiyatlarini namoyon etadi.

Asosiy qism. Ekzistensializm oqimiga 1940-yilda, fransuz faylasuf-yozuvchisi Jan Pol-Sartr tomonidan asos solingan bo'lib, Sartr ilmiy ishlarini ingliz adabiyotiga ilk bor romannavis olimi, Ayris Myordok olib kirgan. Bu davr poetikasida yozuvchilar hayot ma'nosi, o'lim qo'rquvi va individuallik kabi mavzularga ko'proq murojaat qila boshlashdi va vujudga kelayotgan totalitar, kommunistik, hatto kapitalistik jamiyatning individualizmga solayotgan xavf-xatari haqida badiiy asarlar yaratishdi.

Ekzistensializm ingliz dramasi ham muhim o'rin egallab, XX asrning ikkinchi yarmida ijod qilgan Jon Osborn va Robert Boltlarning individual tanlov, xaos va absurdga to'la hayot kabi mavzular ko'tarilgan asarlari bilan bunga misol bo'la oladi. Ingliz adabiyotida bu oqimdan Semyuel Bekket va Garold Pinter kabi taniqli yozuvchilar boshchiligidagi absurd teatri vujudga keldi. Hayot oldida yolg'izlik, qo'rquv va sarosimaga tushish, hayotning absurdligi – bema'niligi tufayli o'z ma'nosini yo'qotishi bu teatr yo'nalishining asosiy mavzulari sirasiga kiradi.

Britaniyalik yozuvchi Jon Osborn XX asr ikkinchi yarmida paydo bo'lgan "Alamzada yoshlar" (Angry Young Men) oqimining asoschisi bo'lib, Britaniya iqtisodidagi o'zgarishlardan norozi bo'lgan yosh avlodni tasvirlovchi "Qahr ila boq" (Look Back in Anger, 1956) dramasi bilan mashhur bo'ldi. Ekzistensial ta'sirni uning 1960-yilda yaratilgan "Lyuter" asarida kuzatamiz. Bu asarda adib insonning shaxs sifatida javobgarligi, zamonaviy dunyodagi o'rni va erkin tanlovi haqida o'z fikrlarini bildiradi. Asar tarixda katolik cherkovining qattiqqo'l va buzuvchi tuzumiga qarshi isyon ko'targan va islohotlar olib brogan Martin Lyuter prototipi asosida ishlangan. Asarning badiiy qahramoni, ong va diniy e'tiqod o'rtasidagi ixtilofni qaytadan ko'rib chiqadi va Osbornning kufr haqidagi tushunchasiga oydinlik kiritadi [1;45-b.]. Ivasheva Lyuter obrazini jamiyatga qovusha olmagan, juda ham zamonaviy individ deb tasvirlaydi [2;4-b.]. Asarda o'lim bilan yonma-yon mavjudlik konsepsiyasini uchratamiz, ya'ni Xaydegger tomonidan ilgari surilgan borliq va yo'qlik tushunchasi. Unda Lyuter ustoz Shtaupitsdan so'raydi: *Tell me, Father, have you never felt humiliated to find that you belong to a world that's dying? ... Surely, this must be the last age of time we're living in. There can't be any more left but the black bottom of the bucket. "Aytinchchi menga, ota, so'nib borayotgan dunyoga tegishlilik hissi sizni hech bezovta qilganmi? ... Albatta, biz so'nggi davrni yashayapmiz. Oldinda hech nima qolmadi, faqat tubanlikdagi zulmat"* [3;54-b.].

Asarda ekzistensial uyg'onishning oqibatlarini haqida rohib Kayetan Lyuterni ogohlantiradi va uni maqsadidan qaytarishga urinib ko'radi (... *Mother Church – without it they'd be helpless and unprotected... Allow them their sins, their petty indulgences, my son, they're unimportant to the comfort we receive.*

We live in thick darkness, and it grows thicker. How will men find God if they are left to themselves each man abandoned and only known to himself?).

"Ular ona-cherkovini yo'qotsa yordamsiz va himoyasiz qoladilar... Ularni gunoh qilishiga qo'yib ber, indulgensiya keladigan yarimchaqa pulini olaverishsin, bu mayda ishlar tinchligimizni qurbon qilishga arzimaydi..."

Biz quyuv zulmatda yashayapmiz, va u yanada quyuvlashmoqda. Insonlar o'zi bilan ovora bo'lib qolsalar Xudoni topa olmay qoladilar..." [3;73-74-b.]. Bu parchada ekzistensial inqirozni yordamsiz va himoyasiz qolish, ya'ni, hayotda insonni yetaklovchi motivning yo'qolishi deb tushunish mumkin. Asarning oxirida Martin Lyuter (*No man can die for another, or believe for another or answer for another. The moment they try they become a mob. If we're lucky we can be persuaded in our mind, and the most we can hope for is to die each one for himself.*) "Hech qaysi inson boshqa inson uchun o'lmaydi, boshqasi uchun ishonmaydi, boshqa uchun javob bermaydi. Boshqa insonlarning javobgarligini bo'yniga olgan olomonga aylanadi. Inson o'z ongi bilan yashashi va o'zi uchun o'lishi lozim", deydi. [3;99-b.]. Lyuterning gaplarida individualizmga yetaklovchi ekzistensial g'oyalar yotadi.

Absurd drama teatri yetuk ekzistensial faylasuf-yozuvchilari Frans Kafka, Jan-Pol Sartr va Alber Kamyu g'oyalari ta'sirida paydo bo'ldi. "Absurd" atamasi jamiyat tomonidan uch xususiyat asosida tushuniladi:

- 1) absurdizm – hayotning ma'nosizligi;
- 2) ekzistensial g'oya;
- 3) mantiqqa zid sujet [4;18-b.].

Absurd g'oyasi bu ekzistensializmning bir qismidir. Xudosiz qolgan olamda insoniyatning adashib qolishi, hayotdagi yo'lini yo'qotishi va mantiqsiz hayotdan qutulishning birdan-bir yo'li, o'z joniga qasd qilish muammosi absurdizm markazida turadi. Alber Kamyu o'zining "Sizif haqida asotir" deb nomlangan

esseyida, olamda faqatgina bitta falsafiy muhim muammo mavjud, o'z-o'ziga qasd qilish deydi [5;386-b.]. Alber Kamyu aynan shu savolga javob qidiradi, ya'ni, nega inson absurd bo'lgan hayotda o'z joniga qasdlanmasligi kerak? Kamyuning g'oyasi shundan iboratki, hayot va insonni alohida qilib oladigan bo'lsak, ikkovi ham absurd hisoblanmaydi, balki hayot bilan insonning bir-biri bilan aloqaga kirishishi absurd hodisalarni yuzaga keltiradi, chunki inson doim hayotdan bir nima hohlaydi. Kamyu hayotdan ma'no izlamalik bilan bu ekzistensial inqirozga yechim topadi. Maykl Bennet o'z asarida absurd adabiyotining to'rtta mezonini sanab o'tadi:

1. Til bilan tajriba o'tkazish (*realistik* tilga qarshi ishlash).
2. Janriy jihatdan tragikomediyada ijod qilish.
3. Aristotel an'anasidan yiroq bo'lgan sujet – "rivoyat" shaklida asar yaratish.
4. Asarni mantiqqa zid bo'lgan vaziyatlarda tasvirlash [4;29-b.].

Absurd adabiyotini ikkinchi jahon urushidan so'ng Yevropada vujudga kelgan pessimistik holatga tragikomedik munosabat ko'rsatish deb tushunsa bo'ladi.

Fransuz adabiyotida absurdizm asoschisi Alber Kamyu bo'lsa, ingliz adabiyotida bu yo'nalish Semyuel Bekket bilan birgalikda tilga olinadi. Bekket turli xil janrlarda ijod qilgan, ko'plab she'rlar, hikoyalar va romanlar muallifi hisoblanadi. Bunga qaramasdan, uni aynan absurdizm asosida ishlangan sahna asarlari mashxurlik cho'qqisiga olib chiqdi, ayniqsa birinchi marotaba 1952-yil Fransiyada, keyinchalik, 1954-yil Britaniyada nashrdan chiqqan "Godoni kutish" (*Waiting for Godot*) asari. Semyuel Bekket 50–60-yillarda, aynan ekzistensializm cho'qqiga yetgan zamonda Fransiyada ijod qildi. Keyinchalik, 70-yillarda Britaniyada ish faoliyatini davom ettiradi. Uning asarlari ko'pgina absurd teatri namoyandalariga ilhom parisi bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

Semyuel Bekketning asarlari yuqorida sanab o'tilgan absurd adabiyoti mezonlariga to'laqonli mos keladi. "Godoni kutish" asari tragikomediyaning yorqin misollaridan biri bo'lib, unda Vladimir va Estragonlarning sirli kimsa bo'lmish Godoni kutish sahnalari tasvirlangan. Asarda ekspozitsiya va konflikt uchramaydi, uning o'rniga adib qahramonlarni sujet orqali asta-sekinlik bilan tanishtiradi va tushunarsiz, nodatiy vaziyatlarga joylaydi. Vladimir va Estragonlarning dialoglarida komik sahnalar bilan birga, falsafiy munozaralar, o'z joniga qasd qilishga urinish sa'y-harakatlari kabi sahnalar tasvirlangan. Asar qahramonlari bir necha marotaba o'zlarini osishga urinishadi, lekin har doim tushunarsiz bahonalar bilan kechiktirishadi:

(ESTRAGON: Let's hang ourselves immediately!

VLADIMIR: From a bough? (They go towards the tree). I wouldn't trust it.

ESTRAGON: We can always try.

VLADIMIR: Go ahead.

ESTRAGON: After you.

VLADIMIR: No no, you first.

ESTRAGON: Why me?

VLADIMIR: You're lighter than I am).

"ESTRAGON: Kel, o'zimizni tezda osib o'ldiramiz!

VLADIMIR: Shoxgami? (Daraxt tomon yurishadi). Men bunga ishonmayman.

ESTRAGON: Urinib ko'rishimiz mumkun.

VLADIMIR: Bo'lmasam, boshla.

ESTRAGON: Sendan keyin.

VLADIMIR: Yo'q-yo'q, sen birinchi.

ESTRAGON: Nimaga men?

VLADIMIR: Sen mendan yengilroqsan". [6;18-b.]

Qahramonlar Godo haqida hech qanday ma'lumotga ega emaslar, uning ko'rinishi, kasbi, kimligi noma'lum. Vladimir va Estragonlar qachondan beri uni kutayotgani, nima uchun kutayotganini ham bilishmaydi, taxminiy hisob-kitoblar bilan qariyb ellik yildan beri kutyapmiz deb o'ylashadi. Ular barcha savollariga Godotni uchratgandan so'ng javob olishlariga ishonadilar. Godot o'zi kim? Ko'pgina tanqidchilar uni *Xudo, jamiyat, inson*, ba'zilari *yo'qlik* deb ham talqin qilishgan. Semyuel Bekketning o'zi esa "*agar men uni kimligini bilganimda aytgan bo'lardim*", – deydi. Godoni kutish bu absurd holatdir, chunki Godo necha yillardan beri kelmaydi. Asar qahramonlari bu absurd holatda tirik qolishga harakat qilishadi, unga moslashishga urinishadi, oxir-oqibat bu vaziyat ular uchun hayotning mazmuniga evriladi (*What are we doing here, that is the question. And we are blessed in this, that we happen to know the answer. Yes, in this im-*

mense confusion one thing alone is clear. We are waiting for Godot to come–). “Biz bu yerda nima qilyapimiz, savol shunda. Javobni bilganimiz bizning toleyimizdan. Bu ulkan tushunmovchilikda faqat bir narsa aniq. Biz Godoni kutaypmiz” [6;81-b.].

Semyuel Bekketning yana bir e’tiborga loyiq sahna asari “*So‘zsiz birinchi sahna*” (Act Without Words I, 1956) sanaladi. Adib bu asarni yozishda faqat mimikani tasniflovchi so‘zlardan foydalangan. Asar qahramonining hech qanday nutqi yo‘q bo‘lib, u xatti-harakatlar yordamida ekzistensial inqirozni yoritib beradi. Asar voqealari sahroda ro‘y beradi, va qahramon sahna ortidagi personaj bilan aloqaga kirishadi. Sahna ortidagi kuch har xil predmetlar yordamida qahramonni harakat qilishga, sahroda omon qolishga undaydi, afsuski qahramonning barcha urinishlari zoye ketadi va oxir oqibat paydo bo‘layotgan predmetlarga hech qanday munosabat ko‘rsatmay qoladi. Asar syujeti joy olgan makon absurd hayot deb talqin qilindi. Hayot bu yerda sahroga taqqoslangan, bosh qahramon esa individ, sahna orti kuchi - jamiyat timsolidir. Bu asarda Bekket an‘anaviy til, monolog va dialoglarni yo‘qqa chiqargan holda absurdizm g‘oyalari ochib bergan.

Ekzistensializm ta’sirida ijod qilgan dramaturglar nasr va nazm adabiy turlarida asar yaratgan yozuvchilardan ko‘ra kattaroq qismni tashkil qiladi. Jon Osborn, Jon Arden, Arnold Vesker, Jon Vayting, Semyuel Bekket, Garold Pinter va boshqa ko‘plab yozuvchilar bu yo‘nalishda sahna asarlarini yaratishgan.

Xulosa. XX asrning ikkinchi yarmida, ingliz adabiyotida paydo bo‘lgan badiiy asarlarda ekzistensializm oqimining kuchli ta’siri sezilib turadi. Umumiy kesimda G‘arb adabiyotida uchraydigan ekzistensializm g‘oyalari, ikki jahon urushidan so‘ng yuzaga kelgan nigilistik ruhga nisbatan mutafakkir-yozuvchilarning munosabatidir. Ayniqsa, drama kesimida, oqimning asosiy g‘oyalari bo‘lmish *absurdizm* va *individualizm* konsepsiyalari zamonaviy ingliz dramaturglari tomonidan yaratilgan asarlarning leytmotivi bo‘lib xizmat qiladi. Bu konsepsiyalarni mashhur ingliz dramaturglari Jon Osborn va Semyuel Bekket asarlarida uchratish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Jonathan Bolton. Blasphemy in John Osborne’s A Subject of Scandal and Concern and Luther University of Toronto Press. Volume 53, Issue 1, 2010, p. 45.
- (2). В.В.Ивашева. На пороге XXI Века. НТР и литература мира, Прогресс. 1978, с. 4.
- (3). John Osborne. Luther Faber and Faber. London, 1961, p. 54; 73–74; 99.
- (4). Michael Y. Bennett. The Cambridge Introduction to Theatre and Literature of the Absurd University Printing House. United Kingdom. 2015, p. 18; 29.
- (5). Albert Camus. The Rebel, The Myth of Sisyphus [collection of essays] ACT MOSCOW (1951; 1942 – 2022), p. 386.
- (6). Samuel Beckett Waiting for Godot a tragicomedy in two acts Grove Pres. New York. 1954, Renewed in 1982, p. 18; 81.

**Botirova Shaxlo Isamiddinovna (Chirchiq davlat Pedagogika universiteti,
pedagogika fanlari doktori, professor)
NOAN’ANAVIY QISSACHILIKDA EVRILISH METAMORFOZASI**

Annotatsiya. Mazkur maqolada XX asr va XXI asr o‘zbek nasrida qissa poetikasining tubdan yangilanishi istiqloq davri bergan imkoniyatlar mevasi sifatida qarash va qissaning zamirida – yangi inson xarakteri akslanishi to‘g‘risida ilmiy tahlillar berilgan. Metafora va ramzlar o‘ziga xosligi, an‘anaviylikdan – noan’anaga o‘tish prinsiplarining rang-barangligi, olam va odam muammolarining serqatlamligi yagona Allohni tanish, uning chiziqlaridan noto‘g‘ri chiqmaslik malakasi uslubiy shartlanishi, bugungi kun ramziy-majoziy talqin metamorfozalari o‘ylashga, fikrlashga ehtiyojmand, ixlosmand kishining ruhiy sarzanishlaridir. Zero, ijod ongli va sirli jarayonligini inobatga olsak, masala mohiyati yanada real mohiyat kasb etishi tayin. Ayni chog‘da, ijodning psixologiya, falsafa, fizika, organik ximiya bilan bog‘lanib ketishi haqida mulohazalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: qissa, noan’aviy qissalar, arxitektonika, inson xarakteri, metafora, ramzlar, metamorfoza, ijod.

**Ботирова Шахло Исамиддиновна (Чирчикский государственный Педагогический университет,
доктор педагогических наук, профессор)**

МЕТАМОРФОЗЫ ПРОГРЕССА В НЕТРАДИЦИОННОМ ПОВЕСТВОВАНИИ

Аннотация. В данной статье дан научный анализ того, как коренное обновление поэтики рассказа в узбекской прозе XX и XXI веков рассматривается как плод возможностей, предостав-

ленных эпохой независимости, а в основе рассказа – отражение нового человеческого характера. Своеобразие метафор и символов, многообразие принципов перехода от традиционного к нетрадиционному, многообразие проблем мироздания и человека – это стилистические предпосылки познания Единого Аллаха, умение не ошибаться в его линиях, метаморфозы символично-образного толкования сегодня – это духовные искушения человека, нуждающегося в созерцании, мышлении, любознательного. Ведь, учитывая сознательный и таинственный процесс творчества, суть вопроса приобретает более реалистичный характер. Между тем, высказывались предположения о связи творчества с психологией, философией, физикой, органической химией.

Ключевые слова: повествование, нетрадиционные рассказы, архитектоника, человеческий характер, метафора, символы, метаморфоза, творчество.

Botirova Shakhlo Isamiddinova (Chirchik State Pedagogical University, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor)

METAMORPHOSES OF PROGRESS IN NON-TRADITIONAL STORYTELLING

Annotation. In this article, scientific analysis is given on the reflection of the new human character in the Zamir of the story, and on the basis of the 20th century and 21st century Uzbek prose, the radical renewal of the poetry of novels as the fruit of opportunities given by the era of independence. The uniqueness of metaphors and symbols, the colorfulness of the principles of the transition from traditional to non-traditional, the completeness of the problems of the universe and Man are familiar to the only God, the methodological conditioning of the skill not to go wrong from his lines, the metamorphoses of today's symbolic-figurative interpretation are the spiritual upheavals of a person who needs to think. After all, considering the conscious and mysterious process of creativity, the essence of the matter is determined to acquire a more real essence. At the same time, comments were made on the connection of creativity with psychology, philosophy, physics, organic chemistry.

Key words: short stories, unconventional short stories, architectonics, human character, metaphor, symbols, metamorphosis, creativity.

Kirish. Maqola mavzusining dolzarbligi badiiy asarlarda metafora qo‘llanilishining yuqori va abadiy ahamiyati bilan bog‘liq, chunki bu o‘quvchini matnga chuqurroq kirib borishga va muallifning fikrlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Xususan, metafora to‘g‘ridan to‘g‘ri nominatsiyalar shaklida tasvirlab bo‘lmaydigan narsani, masalan, insonning ruhining holatini ifodalashi mumkin. Metaforik birliklar orqali bosh qahramon boshidan kechirgan holatlar zanjirini kuzatish mumkin.

Zamonaviy adabiyotshunoslikda evrilish motivi asar qahramonining taqdiri, ichki dunyosi, kechinmalari va emotsional jihatlari she‘riy talqin qilish, uning hayotidagi turli o‘zgarishlar, ruhiy hayotidagi holatlar ijtimoiy voqea, harakatlar, sifat-fazilatlar va hodisalarni to‘laligicha yoritish imkoniyati sifatida namoyon bo‘lib, badiiy-estetik qadriyatlar asosida asarning ahamiyatini oshirishga yordam beradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O‘zgarayotgan dunyoning shakli shamoyili o‘z-o‘zidan istaymizmi-yo‘qmi qissalar arxitektonikasida ham, janriy-mazmuniy ko‘rinishida ham izini qoldirayotgani sir emas. Chunki haddan tashqari rivojlanib, taraqqiy qilib ketayotgan dunyo qiyofasi keyingi o‘n yilliklarda yanada odamzod oldiga turli-tuman savollarni qo‘ymoqda. Natijada ruhiy zo‘riqish, asab va ruh muhofazasi borasida inson o‘ziga yo‘l axtarayotgan yo‘lovchidan farqi yo‘qligi ma‘lum bo‘ldi. badiiy adabiyotdagi o‘zgarishlarni ong oqimi bilan bog‘lab talqin qilgan T.Jo‘rayev shunday yozadi: “XX asr jahon adabiyoti klassiklarining jahon xalqlari adabiyotiga, jumladan, o‘zbek adabiyotiga salmoqli ijobiy ta‘siridir, biroq bundan ko‘z yummagani holda, aytish lozimki, o‘zbek romani ong oqimi yo‘nalishi g‘arb ong oqimi adabiyotini, aslo, qaytarayotgani yo‘q, balki ijodiy rivojlantirmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida nazariy metodologiyaning tarkibiy elementlari bilan bir qator quyidagi xususiy metodlardan foydalanish ham maqsadga muvofiqligi aniqlandi: biografik metod, jumladan, ijodkorning shaxsiyati, hissiy-emotsional kechinmalari, dunyoqarashi, u mansub bo‘lgan ijtimoiy qatlam manfaatlari, xotiralar, kundaliklarni o‘rganish va h.k. Qiyosiy-tarixiy metod, xususan, tarixiy yondashuv hodisani tarixiy va dinamik rivojlanayotgan hodisa sifatida ko‘rib chiqishga yordam beradi; rivoyatlar, an‘analar, janrlarning shakllanishi va matnlarni tarixiy-tipologik va strukturaviy-tipologik tahlil qilish.

O‘zbek ong oqimi nasrida tasvirlanayotgan dunyo butunlay o‘zgacha hoyaviy-badiiy prinsiplariga asoslanadiki, unda “yangi psixologik materiya” qidirish, borliqni mif, afsonalar asosida anglash, tashqi olam va insonni sxemalashtirish, hayotning mohiyatini tub “ichki istak” singari ruhiy g‘ayrihuuriyliklar bilan o‘lchash tendensiyalari yo‘q, balki unda romanning asl mohiyati – shaxsning jamiyat va tarix bilan yuzma-yuz to‘qnashuvi “yarq” etib ko‘rinib turibdi” [3;159-b.]. Haqiqatdan ham, T.Jo‘rayev muhim fikrni

ilgari surmoqda. Bunga asosiy sabablardan biri N.Eshonqulning “Tun panjaralari” qissasi G‘arb yoki turk, rus adabiyotida yana kimning qalamiga mansub usulda ko‘zga tashlanadi? Bu savol esa ko‘pchilikni qiziqtirish, tabiiy. Jahon adabiyotining juda ko‘plab asarlarini mutolaa qilish jarayonida N.Eshonqul o‘ziga katta bir adabiy so‘qmoq yaratadi. Bu so‘qmoqning namoyon bo‘lar va yetib borish manzili bor. U ham bo‘lsa o‘zbek o‘quvchisining moddiy va ma‘naviy olamda o‘z o‘rniga ega bo‘lishi, Allohni tanishi, 70-yil hukmronlik qilgan sobiq ittifoqning xalqimiz boshiga solgan og‘ir kulfatlari, dinu diyonatdan, iymon-e‘tiqoddan, maqsad-u maslagidan ayrishgacha borishi fikrimiz yorqin dililidir. Nazar Eshonqul nasri – xilma-xil mulohazalar, mushohadalar, fikrlar va ziddiyatlar nasri. Ana shu jarayonning asl qiyofasida – umumturkiy adabiyotning mutafakkiri Navoiyni anglash darajasiga ishoralar turadi. Agar biz Navoiyni, Boburni qanchalik teran anglab yetsak, ana shundagina millat sifatidagi qadamlarimiz ham, kelajakdagi intilishlarimiz ham o‘z holicha izchil ro‘yobga chiqadi, degan xulosaga keladi. Jahon adabiyotini chuqur o‘rganish natijasida N.Eshonqul tafakkur balandligi, tasvir o‘ziga xosligiga erishdi:

“Ba’zida tuynukdan oqib kirgan va oxurning chetini zo‘rg‘a yoritgan nur menga kimningdir o‘tkir nigohiday bo‘lib tuyuladi. Bu nurning zulmatni parchalab tashlashga o‘sha paytdi kuchi yetmagan edi, endi esa mutlaqo yetmaydi.

Bizda bu narsalar haqida yozish odobdan emas, biroq bu aslida bor gap. Biz undan qanchalik ko‘z yummaylik, u xuddi nayzadek tanamizga chuqurroq kirib boraveradi. Xullas, o‘zini sevmay turib, badanni sevib bo‘lmaydi. Chiroyli badanlar – sho‘r baliqday gap. Agar go‘zallik qalbga ko‘chmasa, tez ba‘dga uradi va uzoq vaqtgacha bu lazzatli xo‘rakdan ko‘ngling aynib yuradi. Chiroyli tanalar bir yonib o‘chgan gulxanga o‘xshaydi. Bunday gulxanlar lov etib isitadi-yu, so‘ng taftsiz cho‘g‘ qoldirib so‘nadi – bu cho‘g‘ muhabbat olovini yoqolmaydi. Mabodo, shunday bo‘lgan taqdirda ham bu tasodif yoki o‘zini-o‘zi ovuntirishdan boshqa narsa emas. muhabbat ham odamga omadni sinab ko‘rish uchun umr kabi bir marta beriladi. Undan oldin yoki keyin beriladigan tuyg‘ular bu sirli yurtga borish yoki undan qaytish yo‘llari, xolos” [2;165–166-b.].

Tahlil va natijalar. Qissaning “Tun panjaralari” deb nomlanishining o‘ziyoq barcha voqelik tunda – zulmatda goh yozuvchi ongida, xayolida, tushida, xotiralarida sodir bo‘ladi. Tun – qahramonning habibi, sirdoshi. Kunduz bilan ajratib turuvchi panjara orqasida qalb yashirin. U o‘sha qalbini boricha tashqariga, jamiyatga, odamlarga izhor qilmoqchi bo‘lib, necha bor urinadi. Amm buning befoyda ekanligini anglab yetadi. Qissaning modernistik ifoda usuli ong osti sezimlari, qahramonning o‘y-xayollari aks etadi. Demak, yozuvchi Albert Kamyu, Marsel Prust, Frans Kafka ifoda madaniyatini o‘ziga xos tarzda o‘zlashtiradi. Ulardan farqli o‘laroq, Nazar Eshonqul voqelikni asta-sekin darajalab, bir-biriga sintezlab boradi. Qissada – Shayton obrazi ham borki, insonning adashishlari va gunoh sabab jannatdan badar ketishiga ham mantiqiy ishora mavjud. Qahramon bir vaqtning o‘zida, ham tashqi dunyodagi “men” bilan, ham ichki dunyodagi “men” bilan murosasiz jang qiladi. Bu jang maydonida esa faqatgina azob-uqubatni roviy (qissago‘y) tortadi. Qissago‘yning tafakkur tarzi bilan yashash tarzi bir xil: o‘tmishdagi xatolar uni ma‘nan va ruhan yuksakka chiqarish uchun bir vosita. Muhabbatiga erisholmagan hijron, kuchli bir irodaning sababkori. Shayton iymonni mustahkamlovchi obrazdir. U o‘sha Shayton, Iblis makridan berkinish uchun har zamon, har zamon o‘zini ko‘zguga tashlab turadi. Ayniqsa, tungi uzundan uzun o‘z xayollari bilan qilgan suhbatlari qahramonning “bu olamda yashash va gunohdan forig‘ bo‘lish yo‘llarini qidiradi”.

Ayonki, badiiy matndagi metaforaning ma‘nosi g‘oyat serqirra, chunki u kontekstdagi boshqa so‘zlar bilan birga mazmuniy butunlikni tashkil qilar ekan, ular bilan aloqada hosil bo‘lgan assosiatsiyalar tufayli ma‘no diapozonini kengaytiradi [4;170-b.]. Qissadagi – tunning mohiyatida yozuvchining olam bilan ramzlar va kodlar orqali qilgan suhbatini tushunish hiyla qiyin kechadi. Bunday ramzlar Navoiy, Bbobur va Ogahiyalarda ham mavjud. Ularning ramzlari she‘riy shaklda – iymon va e‘tiqodning mustahkamlanishi va Allohni tanishga olib boruvchi yo‘llar xususida bo‘lsa, Nazar Eshonqulda nasriy shaklda Odam ato zamonidan ko‘chib kelayotgan insonning xunrezliklari, Iblis qutqusi bilan yerdagi yaramas ishlarning davom etishini xohlovchi toifalardan berkingan va shuning davosini, chorasini izlagan inson (xarakteri) murakkabliklari ifodalanadi. Qissadagi muallifning ong osti hislari, tuyg‘ulari va iztiroblari juda o‘rinli inkishof qilingan.

Badiiy tafakkurdagi evrilishlarning yuzaga kelishi oson kechganicha yo‘q. 1990-yillardan keyin boshlangan istiqloq yog‘dusi nafaqat badiiy san‘at, balki boshqa san‘ada ham o‘z muhrini yoydi. Modernizmning kirib kelishi va badiiy tafakkurdagi yangilanishlarga qo‘yilgan ilk qadamni qabul qilmagan qatlam paydo bo‘ldi. bugun esa o‘sha qatlam modernizmning bizga kirib kelishi katta hodisa ekanligini tan olishib, o‘zlari shu haqda chuqur mulohazalar qilib, tadqiqotlar olib borishga kirishdi. Ko‘rinadiki, biror adabiy hodisaning – an‘anadan noan‘anga o‘tish tamoyili osonlitkcha kechmagan. Shu boisdan ham, “in-

soniyat aqli mifdan, mifologik olamdan ajdodlarning ilk xayoliy dunyosidan qanchalik uzoqlashib va taraqqiyot zinalaridan ko'tarilgani sayin bu mavzu yana ham qizg'in tus oldi. Atom, kosmik kema asri bo'lgan XX asrda ham fizika va himiyaning yutuqlariga qaramay, mifologiya yana adabiyotning mavzusiga aylandiki, oqibatda "neomifologizm" degan oqim paydo bo'lib, mif va adabiyot aloqalarini birinchi marta ilmiy o'rganishga kirishdi. XX asr ilg'or adabiyotining yirik namunalari bo'lmish "Ullis", "Sehrlig' tog'", "Doktor faustos", "Qo'rg'on", "Jarayon", "Vabo", "Pedro paroma", "Yolg'izlikning yuz yili", "Sartoris", "G'azab va shovqin" singari asarlar tufayli adabiyotda yangilanish, uning imkoniyatlarini kengaytirish, yangi pog'onaga ko'tarish mifsiz sodir bo'lmasligi ayon bo'lgach, mif va adabiyot aloqalarini endi quruq syujetlardan emas, inson psixologiyasidan izlaydigan – psixoanalitika yuzaga keldi" [4;141-b.]. Mana shu tamoyil asta-sekinlik bilan norealistik qissalar poetikasida ham janriy-uslubiy izlanishlarni, ham mazmuniy-g'oyaviy o'ziga xosliklarni, ham mifologik qatlam teranlashuviga katta zamin hozirlanganidan dalolat beradi. Chunki XX asrning birinchi jahon urushi yillarida insoniyatning boshidan o'tkazgan misli ko'rilmagan yo'qotishlari bilan bir qatorda – darbadarlik hissini botinida tuyg'an o'sha adiblar yangi asr mifologiyasini ramzlar va metaforalar bilan ochib berish usulini o'ylab topishdi. San'at – ramzlardan, yangi miflardan iborat degan g'oyalar asta-sekinlik bilan kanonlarni paydo bo'ldi. poetik matritsa negizida yangilanishga mahkum badiiy tafakkur miqyoslari har qachongidan ham kengayib ketdi.

Xulosa va takliflar. Norealistik proza imkoniyatlarida – tush, ong osti hislari, oxirat va o'lim mavzusi, texnogen olamda odamlarning umidlari, yashashga moslashuvchanlik malakasi barchasida talqin tamomila struktural-semantik jihatdan kodlanshtirildi. Ramzlar xuddi dori vositasidek, kapsulaga joylandi, undan keragini hazm qilish o'quvchining qurbi idroki, tafakkuri, o'zlikka bo'lgan ishonchi hamda sezimlari bilan zabt etish mumkinligi namoyon bo'ldi.

Umuman olganda, XX asr va XXI asr o'zbek nasrida qissa poetikasining tubdan yangilanishi istiqloq davri bergan imkoniyatlar mevasi sifatida qarash ishonchni oqlaydi. Chunki qissaning zamirida – yangi inson xarakteri akslanadi. Metafora va ramzlar o'ziga xosligi, an'anaviylikdan – noan'anaga o'tish prinsiplarining rang-barangligi, olam va odam muammolarining serqatlamligi yagona Allohni tanish, uning chiziqalaridan noto'g'ri chiqmaslik malakasi uslubiy shartlanadi. Ana shu jihatdan olib qaralganda, hech bir janr yoki oqim o'z holicha umrboqiy emasligini taqozolaydi. Bugungi kun qissalari texnogen olamning bir uzvi. Bugungi kun qissalari qahramonlari tafakkur kishilar sohibidir. Bugungi kun ramziy-majoziy talqin metamorfozalari o'ylashga, fikrlashga ehtiyojmand, ixlosmand kishining ruhiy sarzanishlaridir. Zero, ijod ongli va sirli jarayonligini inobatga olsak, masala mohiyati yanada real mohiyat kasb etishi tayin. Ayni chog'da, ijodning psixologiya, falsafa, fizika, organik ximiya bilan bog'lanib ketishi Navoiy ko'rsatgan mayoqning bir ko'rinishidir desak, adashmagan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

- (1). Эшонкул Жаббор. Фольклор: образ ва талкин. Қарши, "Насаф", 1999, 172 бет.
- (2). Эшонкул Назар. Ялпиз ҳиди. Т., "Шарқ", 2008, 400 бет.
- (3). Жўраев Т. Онг оқими модерн. Фарғона, "Фарғона", 2009, 204 бет.
- (4). Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. Т., "Академнашр", 2013. 408 бет.

Jovliyev Baxtiyor Xolbayevich (Qarshi shahridagi Osiyo Texnologiyalar universiteti katta oqituvchisi; baxtiyordilorom@mail.ru),

Mavlyanov Muzaffar Namazovich (Qarshi shahridagi Osiyo Texnologiyalar universiteti oqituvchisi; mavlyanovmuzaffar719@gmail.com)

IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARGA MASHG‘ULOT O‘TISH XUSUSIYATLARI

***Annotatsiya.** Maqolada imkoniyati cheklangan bolalarni ularning o‘shish va rivojlanish xususiyatlarini inobatga olgan holda, o‘qitish muammolari haqida qisqacha ma‘lumot keltirilgan. Eshitish yoki ko‘rish qobiliyatida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan olib boriladigan pedagogik faoliyatning asosiy muammolari ko‘rsatilgan. Shuningek, bunday bolalar rivojlanishining psixologik va pedagogik xususiyatlarini va ular bilan ishlash usullari yoritilgan. Eshitish yoki ko‘rish qobiliyatida nuqsoni bo‘lgan bolalarga mashg‘ulot o‘tish bo‘yicha o‘qituvchiga yordam beradigan usullar taklif qilingan. Maqolada o‘qituvchi duch keladigan muayyan muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari izchil ko‘rib chiqilgan. Keltirilgan ma‘lumotlar eshitish yoki ko‘rish qobiliyatida nuqsoni bo‘lgan bolalarning rivojlanishi va o‘rganish xususiyatlari haqida ma‘lumot olishni istagan barcha o‘qituvchilar uchun foydali bo‘lishi mumkin.*

***Kalit so‘zlar:** qobiliyat, ijod, intellect, IQ-intellekt, eshitish yoki ko‘rish qobiliyatida nuqsoni bo‘lgan bolalar.*

ОСОБЕННОСТИ ОБУЧЕНИЯ ДЕТЕЙ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ ЗДОРОВЬЯ

***Аннотация.** В статье представлена краткая информация о проблемах обучения детей с ограниченными возможностями здоровья с учетом особенностей их роста и развития. Обозначены основные проблемы педагогической деятельности с детьми с нарушениями слуха или зрения. Также освещены психолого-педагогические особенности развития таких детей и методы работы с ними. Предлагаются методы, помогающие педагогу в обучении детей с нарушениями слуха или зрения. В статье последовательно рассматриваются конкретные проблемы, с которыми сталкивается учитель, и пути их преодоления. Эти данные могут быть полезны всем педагогам, которые хотят узнать об особенностях развития и обучения детей с нарушениями слуха или зрения.*

***Ключевые слова:** способность, сознание, интеллект, IQ-интеллект, дети с нарушениями слуха или зрения.*

FEATURES OF TEACHING CHILDREN WITH LIMITED HEALTH OPPORTUNITIES

***Annotation.** The article provides brief information about the problems of teaching children with disabilities, taking into account the characteristics of their growth and development. The main problems of teaching activities with children with hearing or vision impairments are identified. The psychological and pedagogical features of the development of such children and methods of working with them are also covered. Methods are proposed to help teachers teach children with hearing or vision impairments. The article consistently examines the specific problems that teachers face and ways to overcome them. These data can be useful to all teachers who want to learn about the development and learning characteristics of children with hearing or vision impairments.*

***Key words:** ability, creation, intelligence, IQ intelligence, children with hearing or vision impairments.*

Taqrizchi Cho‘liyev Ikrom Ne‘matullayevich, biologiya fanlari nomzodi, Qarshi shahridagi Osiyo texnologiyalar universiteti katta oqituvchisi

Kirish. Yangi tahrirdagi „Ta‘lim to‘g‘risida“ qonunning 20-moddasida, Vazirlar Mahkamasining 12.10.2021-yildagi «Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta‘lim berishga oid me‘yoriy-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida»gi 638-qarorida, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini 2023-yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida PQ-300-qarorlarida keltirilgan vazifalarni amalga oshirish har birimizga tegishli mas‘uliyatni yuklaydi. Jumladan, ta‘lim tizimi ishtirokchilari o‘z vazifalarini bajarish jarayonida ta‘lim-tarbiya berish bilan birga, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning targ‘ibotchisi va bajaruvchisi sifatida qatnashib keladi.

Hech kim insonlar orasida birinchi “geniy” kim ekanligi u qanday xislatlarga ega bo‘lgani, qaysi davrda yashagani haqida aniq ma‘lumotlarga ega emas. Lekin mukammal bo‘lish siri, noodatiy ijodkorlik xususiyatlarining siri hali-hanuz insonlarni chuqur o‘yga solmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Insoniyat tarixida o‘zining benazir qobiliyati bilan chuqur iz qoldirgan siymolar juda ko‘p o‘tgan. Mazkur maqolamizda ularning ba‘zilariga to‘xtalib o‘tishni lozim deb

topdik. O'zining o'lmas asarlari bilan tarix zarvarolaridan joy olgan Mikelanjelo Buonarrotoning "Dovud" haykali haqiqiy ijod mahsulidir. Mikelanjelo jang oldida turgan Dovudni mohirona tasvirlab bergan. V.A. Motsartning zamondoshlari "XVIII asrning haqiqiy mo'jizasi" deb atashgan. U noyob qobiliyat egasi bo'lib, 3 yoshidan boshlab musiqani o'rgana boshlagan, 5 yoshida birinchi konsertini yozgan. Betxoven esa ayanchli hayot kechirishiga qaramay, o'z qobiliyatlarini namoyon eta oldi. U eshitish qobiliyatini deyarli yoqotgan edi. Lekin barchani hayratga soladigan musiqalar yarata olgan. Ular ichida "Fantaziya yo'lida sonata", "Qahramonlik simfoniyasi", ayniqsa, mashhur. Bular dengizdan tomchi, xolos. Aslida, bu ro'yxatni cheksiz davom ettirish mumkin.

Ijod – yangi qimmatli g'oyalarni yaratishning psixik jarayoni. Subyektning qobiliyatlari, motivlari, bilim va ko'nikmalari asosida yangi, original, antiqa buyum yaratilishida namoyon bo'ladi. Bunday shaxs xususiyatini o'rganish ijodkorlikda – tasavvur, intuitsiya, aqliy faollikni anglanmaganligi komponentlari, shuningdek, shaxsning o'zini-o'zi takomillashtirish, o'zining yaratuvchanlik qobiliyatini namoyon etish va kengaytirish kabi xususiyatlar katta ahamiyat kasb etishini ko'rsatdi. Ijodkorlikda ijodiy tasavvur asosiy o'rinni egallaydi. Tasavvur bilan bir qatorda, ijodkorlik o'zida fikrlash tezligini mujassamlashtiradi. U emotsionallik va iroda orqali namoyon bo'ladi.

Ijodkorlik. Individning ijodkorlik qobiliyati noodatiy fikrlarni o'ylab topish, an'anaviy fikrlash doirasidan chetlashish, muammoli masalalarni tezda hal etish qobiliyatidir. U yangi g'oyalarni yaratishga doimo tayyorlik bilan xarakterlanadi va qobiliyat strukturasi omili hisoblanadi.

A.Moslou ijodkorlikka "bu hamma uchun xos, tug'ma, lekin ko'pchilikda tashqi muhit tasirida yo'qolib boruvchi ijodiy yo'nalganlik" deb ta'rif beradi.

Qobiliyatlar 2 xil bo'lishi mumkin:

1. O'quv qobiliyatining mazmuni shuki, bunda masalaga shaxsiy yondashuv mavjud emas. Shuni aytib o'tish lozimki, ko'p tadqiqotchilar ta'lim jarayoni qarama-qarshiliklarini e'tirof etishadi, bir tomondan, ta'lim bu begonaning tajribasini o'zlashtirish va o'zining aylanirish bo'lsa, ikkinchi tomondan, u o'z qarashlaridan voz kechib, o'zga biron mantig'ini tez o'zlashtirish demakdir.

2. Ijodkorlik. Ijodkor shaxslar biron-bir hodisani shunchaki qabul qila olmaydilar. Ular bu hodisalarni o'zlaricha qabul qilishadi, shuning uchun ularga o'zlashtirishdan ko'ra o'ylab topish osonroq. Shunday bo'lsa-da, qobiliyatli odamlarni o'zaro 2 guruhga ajratish mumkin: 1. "Mavjud bilimlarni inkor qiluvchilar". 2. "Yangilik yaratuvchilar".

Bu 2 xil tipga psixologiyaning o'zini munosib ta'riflari bor: 1. Intellekt. 2. Ijodkorlik.

Tahlil va natijalar. Ijodiy va intellektual qobiliyatlar orasidagi aloqalarni aniqlashga oid ko'pgina tadqiqotlar olib borilgan. Bu tadqiqotlar bir necha faktlarni tasdiqlaydi. Ular quyidagilar.

Ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishi uchun aqliy rivojlanishning shunday darajasi lozimki, u "o'rta" darajadan yuqori bo'lsin. Agar o'rtacha aqliy qobiliyatni 100 deb oladigan bo'lsak, yuqori ijodiy qobiliyatlar uchun 120 dan kam bo'lmagan daraja zarur. Ijodiy va intellektual qobiliyat turli xil bo'lsa-da, lekin yaxshi intellektual bazasiz ijodiy qobiliyatlar ro'yobga chiqmaydi.

Mana shu zarur darajadagi intellektual bilimlarga ega bo'lgandan so'ng, bu bilimlar doirasining kengayishi ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishida ahamiyatga ega emas. Bu nima degani? Intellekt indeksi (IQ -intellekt koeffitsiyenti) 150 birlikka teng bo'lgan insonning ijodiy qobiliyati, Intellekt indeksi 125 bo'lgan insonning ijodiy qobiliyatidan kamroq bo'lishi ham mumkin, lekin bu holat ham ma'lum darajagacha davom etadi. Agar intellekt juda yuqori (170–180) da bo'lsa, xuddi intellekt past darajada bo'lgani kabi ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishi uchun zarur sharoit yuzaga kelmaydi va aloqalar yana zid bo'lib qoladi. Yuqori intellektuall shaxslar kamdan kam hollardagina ijodkor bo'lishadi va bu tushunarli, albatta. Intellektning bunday yuqori darajasi, ilmiy bilimlarni chuqur o'rganishga o'zini yo'naltirish natijasida kelib chiqadi. Bunday gipertrofik yo'naluvchanlik ijodiylikka to'sqinlik qiladi.

Umuman olganda, ijodkor shaxslarga quyidagi xususiyatlar molikdir:

Mustaqillik–guruhiy standartdan shaxsiy standartlarning muhimligi. Shaxsiy baho va mulohazalarda konformizmning sustligi.

Aqlning ravshanligi–o'z shaxsiy va bironlarning fantaziyalarini tekshirib ko'rishga shaylik, yangi va noodatiy narsalarga nisbatan qiziquvchanlik.

Noaniq hamda yechimsiz holatlarda yuqori tolerantlik, bu holatlarda faolligini namoyon eta olish.

Estetik his-tuyg'uning rivojlanganligi va go'zallikka intiluvchanlik.

F.Barronning takidlashicha, ijodkor bo'lish uchun ozgina nevroitik bo'lish kerak. Ya'ni, emotsional buzilish "normal dunyo"dan qabul qilinayotgan ta'sirotlarni boshqacharoq qabul qilish imkonini beradi. Lekin bu yerda sabab va oqibat aloqadorligining o'rni aralashtirib yuborilgan. Aslida, nevroitik simptomlar

salbiy ijodiy faoliyat natijasidir. Shunday bo'lsa-da, ijodkor shaxs va uning nevrotik belgilari o'rtasida bog'liqlik mavjud. Agar diqqatimizni sog'lom kishidan ma'lum jismoniy nuqsonga ega shaxslarga qarat-sak, masalan, eshitishida yoki ko'rishida nuqsoni bo'lgan insonlar tabiatan ijodkor bo'ladilar. Shuningdek, ularda nevrotizm ko'rinmaydi, bu ijodkorlik natijasida kelib chiqadigan va nerv tizimiga salbiy ta'sir ko'r-satadigan omillar jismoniy nuqsun bilan kompensatsiyalanishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Xalqimiz–bolajon xalq, chunki bolalar uchun yelib-yuguradi, barcha qiyinchiliklarni yengib o'tadi. O'g'il farzandi ulg'aygach, ota uni yaxshi tarbiya ko'rgan qizga uylantiradi. Shu tarzda bizda muqaddas oi-la tashkil topadi.¹

Shaxs shakllanishida oilaning roli muhimligini ta'kidladan holda, quyidagilarni ta'kidlab o'tmoqchi-miz:

–oiladagi katta yoki yolg'iz o'g'il ijodkorlik xususiyatlarini ko'proq namoyon eta olish imkoniga ega.

–oilada o'zini ota-onalar bilan (otasi bilan) o'xshatadigan bolalarda ijodkorlik xususiyatini namoyon etish imkoniyati kamroq. Lekin, aksincha, bola o'zining “ideal qahramoni”ga o'xshashni xohlasa ijodkorlik ehtimoli katta bo'ladi. Bu fakt ko'p bolalarning ota-onalari o'rtacha, ijodiy qobiliyatga ega bo'lmagan odamlar, ularga o'xshashlik bolalarni ham ijodiy qobiliyatlardan mahrum qilishi bilan izohlanadi. Ijodiy qobiliyatli bolalar, ko'pincha, erining yoshi xotinning yoshidan ancha katta bo'lgan oilalarda tug'iladi.

Ota yoki onadan erta ajralish bolalarda namuna uchun shaxsning yo'qolishiga va bolalikdagi xatti-harakatlarning cheklanishiga sabab bo'ladi. Bu holat siyosatchilar, buyuk olimlar bilan bir qatorda, jinoyat-chilar va aqli zaiflar hayotiga ham taalluqli.

5. Ijodkorlik erta namoyon bo'lishi uchun bolaning qobiliyatlariga e'tibor berish, talantining oilada rivojlanishiga ahamiyat berish darkor.

Agar shaxsda ijodkorlik qobiliyatini shakllantirishga muvaffaq bo'lsak, kelajakda barkamol, yuksak ma'naviyatli keng dunyoqarash egasi bo'lgan avlodlarni tarbiyalash imkoniga ega bo'lamiz. Chunki aynan ijodkor shaxs yaratgan ijod mahsullari odamlarning ongini rivojlantiruvchi, ularni dunyoga o'zgacha nigoh bilan qarashlarini ta'minlovchi, atrof-muhit hamda mavjud voqeliklardan go'zallikni topa oluvchi, o'z qo'l-lari bilan go'zallik yaratishga undovchi, ertangi kunga ishonch tuyg'usini tarbiyalovchi hamda optimistik ruh egalarini shakllantirishning asosiy vositasi bo'lib xizmat qiladi. Ushbu xususiyatlarni o'zida jamlagan har qanday inson, shubhasiz, o'z yurti ravnaqi uchun munosib hissasini qo'sha oladi hamda uning dovrug'i-ni butun olamga taratadi. Xullas, ijodkor insonni tarbiyalash bugungi kunning dolzarb muammosidir. Har bir mamlakat o'z farzandlarini tarbiyalashda buni hisobga olmog'i hamda buni amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib berishi darkor.

Bugungi kunda inkluziv ta'lim sohasida to'plangan tajribani va bu soha o'qituvchilarining qo'lla-gan usullarini umumiy ta'limda keng foydalanish zarurati yuzaga keldi. Nogironligi bo'lgan, xususan, eshi-tish yoki ko'rish qobiliyatida nuqsoni bo'lgan, tayanch-harakat tizimi faoliyati buzilgan bolalarning davlat ta'lim standartlarida aks ettirilgan talablar bo'yicha ta'lim olishi uchun darsda foydalaniladigan o'quv ji-hozlari ro'yxatiga maxsus usullarni ham kiritishni taqozo etadi. Ya'ni, deyarli har bir o'qituvchi imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlash usullarini egallashi kerak [2].

Eshitish yoki ko'rish qobiliyatida nuqsoni bo'lgan bolalarning o'ziga xos xususiyatlari. Eshitish yoki ko'rish qobiliyatida nuqsoni bo'lgan bolalarning psixologik va fiziologik xususiyatlarini har bir darsda qan-day hisobga olish mumkinligini tushunish uchun ularning kasalligi tufayli yuzaga keladigan o'ziga xos cheklovlarni tushunish kerak [4].

Eshitish yoki ko'rish qobiliyatida nuqsoni bo'lgan bolalarning psixologik-pedagogik xususiyatlari. Eshitish yoki ko'rish qobiliyatida nuqsoni bo'lgan bolalarning rivojlanish xususiyatlarini e'tiborga olgan holda, bolalar aqliy faoliyatining quyidagi xususiyatlarini ajratib ko'rsatish kerak:

- Diqqatning yetishmasligi.
- Diqqatning o'ta charchashi.
- Xotiraning cheklanganligi.
- Olam haqidagi tasavvurlarning cheklanganligi.
- Emotsional-irodaviy xususiyatlar.
- Motivatsion komponentlarning past shakllanishi.
- Mustaqil faoliyatga tayyorgarlikning past darajasi yoki uning yo'qligi.

¹ E.Jumayev. “Ommaviy madaniyat”ning zararli oqibatlari. “Jamiyat va boshqaruv” jurnali, Toshkent, 2008, 30-bet.

Shuni ta'kidlash kerakki, o'quv materialini taqdim etishda "qismlarga bo'lib" va "oddiydan murakkabga" tamoyillaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. O'quv jarayonida yuqorida tavsiflangan muammoli sohalarga ta'sir qilishning ba'zi usullarini ko'rib chiqamiz [5].

Psixologiyada bir sezgining yo'qolishi, boshqa qobiliyatlarni kuchaytirib yuborishi isbotlangan hodisadir. Pedagog tarbiyachilar ko'rish yoki eshitish qobiliyatida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlashda albatta, bu faktni inobatga olishlari lozim [7].

Xulosa. Yuqorida aytilganlarning barchasini umumlashtirgan holda shuni aytish kerakki, maxsus darslar eshitish yoki ko'rish qobiliyatida nuqsoni bo'lgan bolalarning o'quv jarayonida muhim o'rinlardan birini egallaydi, bundan tashqari, u, ko'pincha, individual korreksiya darslari tomonidan qo'yilgan muammolarni hal qilishga yordam beradi. Maxsus darslardagi faoliyat, ko'pincha, boshqa darslarda ishtirok etmaydigan bolaning hayoti va shaxsiyatini tashkil etishdagi muammoli sohalarga qaratilgan. Maxsus darslar bolaning barkamol shaxsini rivojlantirishda ishtirok etadi. Maxsus darslarning samarali bo'lishi uchun barcha metod va o'quv materiallaridan, yaxshi jihozlardan, barcha zamonaviy texnologik yutuqlardan foydalanish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). E.Jumayev "Ommaviy madaniyat"ning zararli oqibatlari. "Jamiyat va boshqaruv", Toshkent, 2008, 30-bet.
- (2). Musurmonova, O. Umumiy pedagogika. Yoshlar nashriyot uyi, 8-oktabr 2020, 48–49-betlar; ISBN 978-9943-6679-0-7. 10-noyabr 2022-yilda qaraldi.
- (3). "Ta'lim to'g'risida"gi yangi qonun va inkluziya: qanday bo'lishi kerak?" (o'zbekcha). gazeta.uz (9-iyun 2020, 16:00). Qaraldi: 10-noyabr 2022-yil.
- (4). Махмудова Н.М. и др. Детский церебральный паралич. Клиника, терапия и организация медицинской реабилитации. Ташкент, "Медицина", 1978, 230 с.
- (5). Актуальные проблемы междисциплинарного подхода к этапной комплексной реабилитации детей с церебральным параличом: материалы научно-практического семинара с международным участием. М.: МГПУ, 2013, 203 с.
- (6). Семенова К.А. Восстановительное лечение детей с перинатальным поражением нервной системы и с детским церебральным параличом. М., "Закон и порядок", 2007, 616 с.
- (7). Мастюкова Е.М. Дети с церебральным параличом. Специальная психология. Учеб. пособие для студ. высших пед. учеб. зав. Под ред. В.И.Лубовского, М., "Академия", 2003, с. 367–391.
- (8). Ivanov I., Zufarova M. Umumiy psixologiya. O'zFMJ, 2008, 386–392-betlar.

Xonqulov Ulug'bek Xursanaliyevich (Farg'ona davlat universiteti "Matematika" kafedrasida dotsenti, p.f.f.d. (PhD); e-mail: u_xonqulov@mail.ru)

IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLARDA TRIGONOMETRIYANI ILLUSTRATIV METOD ASOSIDA O'RGANISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarining trigonometriyani o'rganish jarayonida umumtaniqiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan illustrativ metod imkoniyatlari bayon qilingan. Matematika kursining trigonometrik tushunchalari mazmuni, mohiyatini shakllantirish va ularni oson o'rganishga qaratilgan ta'sirli, visual didaktik vositalar ishlab chiqilgan va tavsiya qilingan. Shuningdek o'quvchilar bilimni umumlashtirish va tizimlashtirishda ko'rgazmali o'qitish metodidan foydalanish jihatlari boyicha tavsiyalar berilgan. Maqolada trigonometriyani tizimli, ko'rgazmali o'rganish maqsadida formulalarning tuzilmaviy genetik tasniflanishiga a'lohida e'tibor berilgan.

Kalit so'zlar: ko'rgazmalilik tamoyil, qo'shish formulalari, trigonometrik funksiyalar, bog'langan-integrativlik, trigonometrik tenglamalar.

ВОЗМОЖНОСТИ ИЗУЧЕНИЯ ТРИГОНОМЕТРИИ НА ОСНОВЕ ИЛЛЮСТРАТИВНОГО МЕТОДА В ПРОФИЛЬНЫХ ШКОЛАХ

Аннотация. В данной статье описаны возможности иллюстративного метода, направленного на развитие общего логического мышления учащихся профильных школ в процессе изучения тригонометрии. Разработаны и рекомендованы эффективные, наглядные дидактические средства, направленные на формирование содержания и сущности тригонометрических понятий курса математики и облегчение их усвоения. Также даются рекомендации по аспектам использования наглядного метода обучения при обобщении и систематизации знаний учащихся. В статье особое

внимание уделено структурно-генетической классификации формул с целью систематического и наглядного изучения тригонометрии.

Ключевые слова: принцип доказуемости, формулы сложения, тригонометрические функции, интегрируемость по границам, тригонометрические уравнения.

POSSIBILITIES FOR STUDYING TRIGONOMETRY BASED ON THE ILLUSTRATIVE METHOD IN PROFILE SCHOOLS

Annotation. This article describes the possibilities of an illustrative method aimed at developing the general logical thinking of students in specialized schools in the process of studying trigonometry. Recommendations are also given on aspects of using the visual teaching method in summarizing and systematizing students' knowledge. The article pays special attention to the structural-genetic classification of formulas for the purpose of a systematic and visual study of trigonometry.

Key words: provability principle, addition formulas, trigonometric functions, boundary integrability, trigonometric equations.


Pedagogika fanlari doktori Temirov Nabijon Soliyevich taqrizi asosida

Kirish (Introduction). Maktab matematika kursining mazmuni matematik munosabatlarni mantiqiy asoslash, matematik tasdiqlarni isbotlash, turli jadvallar, diagramma va chizmalar, sonli qiymatlar hamda matematik mantlar bilan ishlash orqali o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu maqsadga erishish uchun o'qituvchi dars jarayonida o'quvchilarning bilimni tizimlashtirish va umumlashtirishga qaratilgan ba'zi metodlarni qo'llashi lozim. Bunday holda ko'rgazmalilik tamoyili asosida illyustratsiya, ya'ni, grafik, jadval va turli tasvirlardan foydalanib, trigonometrik bilimlarni shakllantirish ushbu kursni o'rganishni yengillashtiradi hamda abstrakt tushunchlarni eslab qolish va ko'rish imkoniyatini oshiradi.


Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review) Maktabda trigonometriyani o'qitish metodi-kasi bo'yicha ko'plab tadqiqotchilar tomonidan metodik ishlanmalar taklif etiladi. Xususan, trigonometriyani o'qitish jarayonida o'quvchilarni hisoblash texnikasini oshirish, trigonometrik funksiyalarning muqobil ta'riflar (Erdem Çekmez) [1], teskari trigonometrik funksiyalarni birlik aylana yondashuvi asosida shakllantrishda o'quvchilarning mantiqiy tafakkuri konstruksiyalari tahlili (Rafael Martínez Planell) [2], trigonometrik funksiyalar qiymatlarini yodlash usullari (Mamontova Tatyana Sergeevna) [3], trigonometriyani kompyuter texnologiyalari yordamida o'rganish (Ross J., Bruce C.) [4] va boshqa shu kabi tadqiqotlarni keltirish mumkin. Ularda, asosan, o'quv mazmuntini fanlararo aloqadorlik asosida takomillashtirishga bog'liq takliflar beriladi. Ko'rgazmalilik, tasvir bilan trigonometrik tushuncha orasidagi bog'liqlikni ta'minlash muammolari esa kam o'rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Trigonometrik materiallarning o'zi ham o'zaro ichki aloqadorlikka ega. Masalan, trigonometrik tenglamalar va tengsizliklarni yechishda trigonometrik funksiyalarning xossalari, trigonometrik ifodalarni shakl almashtirishlar qo'llaniladi.


Dastlab, $\sin x$, $\cos x$, tgx , $ctgx$ funksiyalarning ta'rifini quyidagi illutratsiya bilan taqdim etilishi trigonometrik funksiyalar mazmuni va mohiyatini anglashga yordam beradi (1-rasm).



Tahlil va kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar tomonidan trigonometriyani o'rganishda asosiy muammolardan biri bu katta hajmdagi materiallarni o'rganish lozimligi va trigonometrik formulalarning ko'pligi bilan tavsiflanadi. Trigonometrik materiallarni oson o'zlashtirish uchun uning o'zaro bog'liq bo'limlarini aniqlash, ularni jadval, diagrammalar orqali tizimlashtirish, formulalarni bo'limlar bo'yicha guruhlariga bo'lib chiqish orqali o'rganishni boshlash tavsiya etiladi. Trigonometriyani tizimli o'qitishda o'qituvchi ushbu turli bo'limlar o'rtasidagi munosabatni aks ettiruvchi quyidagi jadvaldan foydalanishi maqsadga muvofiq (1-jadval).



Trigonometrik ifodalarning shakl almashtirishni o'rganayotganda formulalarni, shartli ravishda, ikki guruhga bo'lish mumkin. Birinchisi, bitta argumentning trigonometrik funksiyalari orasidagi asosiy aloqalar, ikkinchisi esa barcha boshqa formulalarni birlashtiradi. Bunday holda formulalarning birinchi guruhini quyidagi jadvalda ko'rsatish mumkin (2-jadval).



Bunday sxema bizga formulalar orasidagi aloqalarni o'rnatishga va qaysi formuladan va qanday formulani olinishini ko'rishga imkon beradi. 1-rasmda keltirilgan munosabatlar esa ushbu bog'liqlikni aniqlashtiradi.


Ikkinchi guruh formulalar to'plami bir nechta bloklar bilan ifodalanadi: bitta blokka tegishli formulalar bir xil turdagi trigonometrik ifodalarni shakl almashtirishda qo'llaniladi. Bunday bloklarni quyidagicha ajratish mumkin:

1-blok. Qo'shish formulalari, keltirish formulalari, ikkilangan va yarim argument uchun formulalari.


2-blok. Trigonometrik funksiyalar yig'indisini ko'paytmaga aylantirish formulalari; trigonometrik funksiyalar ko'paytmasini yig'indiga aylantirish formulalari.

Shunday qilib, formulalar bilan ishlash jarayonida biz bloklar o'rtasida va bitta blok formulalari o'rtasida bog'lanishni o'rnatish zaruratiga duch kelamiz.

Masalan, $\cos(x - y) = \cos x \cos y + \sin x \sin y$ formula boshqa formulalarni keltirib chiqarishda fundamental (yadro) sifatida foydalaniladi. Buni quyidagi jadval orqali tasvirlash mumkin (3-jadval).




Qo'shish formulalari orasidagi aloqalarni quyidagicha tasvirlash mumkin (4-jadval).



Formular orasidagi aloqadorlik bilan bir qatorda, formulalarni turli usullar bilan keltirib chiqarish muhim ahamiyatga ega. Usullarning soddaligi va turli tumanligi formulani esda saqlab qolish va qo'llay olish imkoniyatini kengaytiradi. Shu naqtayi nazardan, fundamental hisoblangan

$\cos(x - y) = \cos x \cos y + \sin x \sin y$ formulani keltirib chiqarishning bir necha usullarini kel-tiramiz. O'qituvchi dars jarayonida ushbu usullardan foydalanishi mumkin.

1-usul. Bunda formula vektor tushunchasi yordamida keltirib chiqariladi. Bizga x va y qiymatlar berilgan bo'lsin. Birlik trigonometrik aylana x va y burchaklarga, mos ravishda, A va B nuqtalar olina (1-a rasm).



(1-rasm).

Koordinata boshini O deb olib, $\vec{a} = \overrightarrow{OA}$, $\vec{b} = \overrightarrow{OB}$ vektorlarni qaraylik. Trigonometrik funksiyalarning ta'rifidan ayonki, $\vec{a} = \overrightarrow{OA}$, $\vec{b} = \overrightarrow{OB}$ vektorning koordinatalar quyidagicha: $\vec{a} = (\cos x; \sin x)$; $\vec{b} = (\cos y; \sin y)$. \vec{a} va \vec{b} vektorning skalar ko'paytmasini topamiz: $\vec{a} \cdot \vec{b} = \cos x \cos y + \sin x \sin y$. \vec{a} va \vec{b} vektorlar orasidagi burchak $x - y$, aniqroq aytganda, $x - y$ qiymat π dan katta yoki manfiy bo'lgan hollar uchun $(x - y) + 2\pi n$, ($n \in \mathbb{Z}$) ga teng. Ikkinchi tomondan, \vec{a} va \vec{b} vektorning skalar ko'paytmasi $\vec{a} \cdot \vec{b} = |\vec{a}| |\vec{b}| \cos(x - y) = \cos(x - y)$, bu erda $|\vec{a}| = |\vec{b}| = 1$. Demak, $\vec{a} \cdot \vec{b}$ skalar ko'paytmaning ikki qiymatidan quyidagi formulani olishimiz mumkin:

$$\cos(x - y) = \cos x \cos y + \sin x \sin y \quad (1)$$

Agar y ning o'rniga $-y$ ni qo'yib, $\sin(-y) = -\sin y$ va $\cos(-y) = \cos y$ ekanligini hisobga olsak, ikki argument kosinusi yig'indisi formulasi kelib chiqadi:

$$\cos(x - (-y)) = \cos(x + y) = \cos x \cos y - \sin x \sin y \quad (2)$$

Keltirish formulasidan ikki argument yig'indisi va ayirmasi sinusi formulalari kelib chiqadi:

$$\begin{aligned} \sin(x + y) &= \cos\left(\frac{\pi}{2} - (x + y)\right) = \cos\left(\left(\frac{\pi}{2} - x\right) - y\right) = \\ &= \cos\left(\frac{\pi}{2} - x\right) \cos y + \sin\left(\frac{\pi}{2} - x\right) \sin y = \sin x \cos y + \sin y \cos x \end{aligned} \quad (3)$$

2-usul. R^x burish birlik aylana ustidagi P_{-x} va P_y nuqtalarni, mos ravishda, P_0 va P_{x+y} nuqtalarga o'tkazsin(1-b rasm).

Bunda $R^x [P_{-x} P_y] = [P_0 P_{x+y}]$ bo'ladi. Demak, $|P_{-x} P_y|$ va $|P_0 P_{x+y}|$ kesmalarning uzunliklari teng: $|P_{-x} P_y| = |P_0 P_{x+y}|$.

Ikkita $P_{-x}(\cos x; -\sin x)$ va $P_y(\cos y; \sin y)$ nuqtalar orasidagi masofa $d_1 = \sqrt{(\cos x - \cos y)^2 + (\sin x + \sin y)^2}$ ga teng. Shuningdek $P_0(1; 0)$ va

$P_{x+y}(\cos(x+y); \sin(x+y))$ nuqtalar orasidagi masofa quyidagicha:

$d_2 = \sqrt{(1 - \cos(x+y))^2 + \sin^2(x+y)}$. $d_1 = d_2$ bo'lgani uchun tegishli almashtirishlardan so'ng $\cos(x+y) = \cos x \cos y - \sin x \sin y$ kelib chiqadi. Agar y o'rniga $-y$ qo'yib, $\sin(-y) = -\sin y$ ekanligini hisobga olsak, ikki argument ayirmasi kosinusining formulasi kelib chiqadi:

$\cos(x+y) = \cos x \cos y - \sin x \sin y$. Keltirish formulasiga ko'ra, $\sin y = \cos(\frac{\pi}{2} - y)$ va

$\cos y = \sin(\frac{\pi}{2} - y)$ ekanligidan ikki argument yig'indisi va ayirmasi sinusi formulalari kelib chiqadi.

3-usul. Birlik aylanada α va β burchak qiymatlarini ifodalovchi M va N nuqtalar berilgan bo'lsin (1-c rasm).

Bu nuqtalarning koordinatalari, mos ravishda, quyidagicha: $x_M = \cos \alpha$, $y_M = \sin \alpha$; $x_N = \cos \beta$, $y_N = \sin \beta$. M va N nuqtalar orasidagi masofani topamiz:

$$\begin{aligned} MN^2 &= (x_M - x_N)^2 + (y_M - y_N)^2 = (\cos \alpha - \cos \beta)^2 + (\sin \alpha - \sin \beta)^2 = \\ &= 2(1 - \cos \alpha \cos \beta - \sin \alpha \sin \beta) \end{aligned}$$

Berilgan α va β yo'ylar orasidagi farq $\alpha - \beta$ ga teng bo'lib, boshi va oxiri, mos ravishda, M va N nuqtalarda joylashgan. $\cup MN = \cup AR$ bo'lgani uchun MN va AR vatarlar teng: $|MN| = |AR|$. U holda $A(1;0)$ va R nuqtaning koordinatalari $x = \cos(\alpha - \beta)$ va $y = \sin(\alpha - \beta)$ bo'lgani uchun AR vatarining uzunligi $AR^2 = (\cos(\alpha - \beta) - 1)^2 + \sin^2(\alpha - \beta) = 2(1 - \cos(\alpha - \beta))$. Topilgan ifodani $|MN| = |AR|$ ga qo'yish orqali $\cos(\alpha - \beta) = \cos \alpha \cos \beta + \sin \alpha \sin \beta$ formulani olish mumkin. Agar β ni $-\beta$ bilan almashtirilsa, $\cos(\alpha + \beta) = \cos \alpha \cos \beta - \sin \alpha \sin \beta$ kelib chiqadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Pedagogik tajriba va tahlillar asosida aytish mumkinki, agar matematik bilimlar tizimlashtirilsa va umumlashtirilsa, ular xotirada mustahkam saqlanib qoladi, osonlikcha yangilanadi va turli vaziyatlarda muvaffaqiyatli qo'llaniladi. Trigonometriyani o'qitishda bilimlarni tizimlashtirish va umumlashtirishning eng samarali usullaridan biri bu chizma va tasvir elementlaridan foydalanishdir. Ular o'qituvchi tomonidan qo'yilgan aniq maqsadga qarab, materialni o'rganishning turli bosqichlarida ishlatilishi mumkin. Jadvallar va diagrammalar o'quvchining aqliy zo'riqishini kamaytiradi, bundan tashqari takrorlash, bog'langan-integrativlik (o'quv fanining ichki bog'liqligi), integrativlik (fanlararo aloqadorlik)ni ko'rsatishda muhim rol o'ynaydi. Matematika kursida, avval, o'rganilgan tushunchalar bilan trigonometriyada o'rganiladigan tushunchalar orasidagi aloqalar asosida bilimlarni yangi vaziyatda qo'llash sharoitlari yaratiladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa chiqarish mumkin:

–trigonometriya kursini o'qitishda usullarning turli tumanligi, jadvallar, illustratsiya modellari o'quv mazmunini o'rganishning turli bosqichlarida o'quvchilar bilimini umumlashtirish va tizimlashtirishga yordam beradi;

–o'z navbatida ixtisoslashtirilgan maktablarda trigonometriyani o'rganish jarayonida ilustrativ metodning qo'llanishi o'quvchilarining umummantiqiy tafakkurini rivojlantirishda hamda trigonometriyani o'qitish metodikasini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Çekmez, E. What generalizations do students achieve with respect to trigonometric functions in the transition from angles in degrees to real numbers? The Journal of Mathematical Behavior, 2020, (58), p. 151–169.

(2). Martínez Planell, R., Cruz Delgado, A. The unit circle approach to the construction of the sine and cosine functions and their inverses: An application of APOS theory. The Journal of Mathematical Behavior, 2016, (43), p. 111–133.

(3). Мамонтова Т.С., Мусьякаева Е.И. Приемы запоминания значений тригонометрических функций. Научно-методический электронный журнал «Концепт», 2018, № 8, 52–59 с.

(4). Ross, J., Bruce, C. Sequencing computer-assisted learning of transformations of trigonometric functions. Teaching Mathematics and its Applications, 2019, (30), p. 120 – 137.

**Kamolova Azimaxon Odiljon qizi (Namangan davlat Pedagogika instituti “Pedagogika va psixologiya fanlarini o‘qitish metodikasi” kafedrasi (mustaqil izlanuvchisi) o‘qituvchisi)
PEDAGOGIK FAOLIYAT JARAYONLARIDA O‘QTUVCHINING SALOMATLIK
MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH**

Annotatsiya. Quyuda taqdim etayotgan maqolamizda biz mamlakatimizda ta'lim tizimida olib borilayotgan istiqbolni rejalar tuzish jarayonlarida, avvalo, ta'limga e'tiborni kuchaytirishimiz, shu bilan bir qatorda, sog'lom fikrlaydigan doimo yangiliklarni oson qabul qiladigan, amaliy faoliyat jarayonlariga qo'llashda hech bir qiyinchiliklarsiz yangiliklarni olib kiradigan pedagog kadrlarga ehtiyoj sezamiz. O'qituvchi pedagog qachonki, o'z kasbini seva olsa va kasbiy kasaliklardan o'z qobilyati va mahoriti orqali o'zini kasbiy yuksaltirish jarayonlarida foydalansagina, biz haqiqiy kadrlarga ega bo'lamiz. Bu natijalarga erishish uchun pedagoglar doimiy ijodiy kasbiy va shaxsiy o'z-o'zini tarbiyalash mahoratni egallashlari va pedagogik mehnat ustasi bo'lish uchun qanday xususiyatlarga va ko'nikmalarga ega bo'lishlari haqida ma'lumotlar taqdim etamiz.

Kalit so'zlar: rivojlanish, qobilyat, mahorat, pedagogik-psixologik, konsepsiya, ijtimoiy xususiyatlar, fikrlash, pedagogik texnologiya, stress, kasbiy kasaliklar, ehtiyojlar, mexanizm, salomatlik, qiziqish.

Камолова дочь Азимахана Одилжона (Наманганский государственный педагогический институт, Педагогика и психология, преподаватель кафедры методики преподавания (независимый исследователь)

**ФОРМИРОВАНИЕ КУЛЬТУРЫ ЗДОРОВЬЯ УЧИТЕЛЯ В ПРОЦЕССЕ
ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ**

Аннотация. В статье, которую мы представляем ниже, обсуждаются перспективы системы образования в нашей стране. В процессе составления перспективных планов в данной сфере, прежде всего, мы должны обратить внимание на образование, в то же время мы нуждаемся в здравомыслящих педагогических кадрах, способных адекватно воспринимать новости и применять их в процессах практической деятельности. Настоящие кадры у нас будут только тогда, когда педагог сможет любить свою профессию и, будучи способным победить профессиональные болезни, сможет использовать свои умения и мастерство в процессе профессионального развития. Для достижения этих целей мы предоставляем информацию о том, как учителя могут приобрести навыки постоянного творческого, профессионального и личностного самообразования, и какие характеристики и навыки им необходимы, чтобы овладеть мастерством педагогического труда.

Ключевые слова: развитие, способность, умение, педагогико-психологическое, понятие, социальные характеристики, мышление, педагогическая технология, стресс, профессиональные заболевания, потребности, механизм, здоровье, интерес.

Kamolova Azimaxon (Namangan State Pedagogical Institute, the department “Methodology of teaching pedagogy and psychology (independent researcher)

**SHAPING THE TEACHER’S HEALTH CULTURE IN THE PROCESS OF PEDAGOGICAL
ACTIVITY**

Annotation. In the article we present below, we will discuss the perspective of the education system in our country, in the process of making plans, first of all, we should increase the attention to education, and at the same time, we should always be sane and easy to accept news, and apply it to practical activity processes. We are in need of pedagogic personnel who can bring news without any difficulties. We will have real personnel only when the teaching pedagogue can love his profession and use professional diseases through his abilities and skills in the process of professional development. In order to achieve these results, we provide information about how teachers can acquire the skills of permanent creative professional and personal self-education and what characteristics and skills they need to become a master of pedagogical work.

Key words: *development, ability, skill, pedagogical-psychological, concept, social characteristics, thinking, pedagogical technology, stress, occupational diseases, needs, mechanism, health, interest.*

Kirish. Bugungi jamiyatimizning rivojlanishi va ta'lim tizimidagi islohotlarni amalga oshirish davomida pedagoglar duch keladigan eng muhim jihatlardan biri bu ularning salomatligini saqlash va himoya qilish bilan bir qatorda, salomatlik madaniyatni shakllantirish texnologiyasi hamdir. Davlatimiz rahbari tomonidan O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2019-yil 8-oktabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi sohadagi yangi islohotlar ham ta'lim tizimida yetarli natijalarga erishishni bir qadar amaliy ko'maklardan biridir. [1] Biz, pedagoglar esa yuqorida amalga oshiriladigan islohotlarni mutaxassislarni tayyorlash jarayonlarida, ularning har jihatdan rivojlanishi, buning bilan bir qatorda, ularning o'z salomatliklarini saqlash ko'nikmalarini ham shakllantirishlarida ham amaliy yordam berishimiz lozim.

Adabiyotlar tahlili. Keltirilgan va o'rganilgan ma'lumotlar o'qituvchi shaxsiyatining kasbiy ahamiyatga ega xususiyatlarining tarkibiy tuzilishini tahlil qiladi. O'qituvchining ijtimoiy xususiyatlariga doir bir qator keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkin, o'qituvchining pedagogik-psixologik xususiyatlarni o'rganish va tahlil qilish orqali biz o'qituvchini yuzaga keladigan stresslardan himoya qila olamiz. O'rganilgan tadqiqotlarni tahlil qilish orqali biz quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lamiz. A.K.Markova tomonidan pedagoglarning pedagogik-psixologik xususiyatlar orasida pedagogik fikrlashlari, pedagogik aks ettirish xususiyatlari, pedagogik o'z-o'zini anglash jarayonlari, pedagogik tasavvur qila olish, pedagogik o'zini-o'zi baholash tizimi, pedagogik kuzatish jarayonlari, pedagogik prognozlash ko'rsatkichlari, bag'rikenglik va tolerantlik va hamdardlik xususiyatlari e'tirof etilgan. Pedagog mutaxassis K.K.Platonov tomonidan bildirilgan fikr o'rganadigan bo'lsak, pedagogning faoliyat jarayonlarida ishlab chiqilgan shaxsning pedagogik-psixologik konsepsiyasiga jarayonlariga ko'ra, mutaxassis yetakchi quyi tuzilmaning mazmun-mohiyatini va shaxsning ijtimoiy yo'nalishlarini, uning yetakchi munosabati va mavjud ehtiyojlari tizimidan, motivlar yig'indisidan xulosa qilish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Pedagogik faoliyat jarayonida o'qituvchi va pedagoglarning qobilayatlari pedagog L.F.Spirinning qarashlarida quyudagi xususiyatlarini:

- o'qituvchi shaxsining yo'nalishini;
- o'qituvchining kasbiy faoliyatga;
- o'qituvchi faoliyatining asosiy obyektini;
- bolaga bo'lgan faol munosabatlari tizimini belgilaydigan xususiyatlarini;
- shaxsning ma'naviy va ijtimoiy ehtiyojlarini.

Pedagogning xulq-atvor motivlarini va shaxsning psixologik munosabatlari, orzu-istaklari va umidlarida, faoliyat jarayonlariga kirishishdagi ijodiy faoliyatlariga ham ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, yana bir qator olimlarimizning o'qituvchining shaxsiy va kasbiy faoliyatlari jarayonida duch kelinadigan bir qator salbiy muomalaning oldini olishga ham chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Pedagog mutaxassislarimizdan A.Slastenin fikr-mulohazalarini o'rganadigan bo'lsak, uning qarashlarida asosiy jihatlarni quyudagicha ifodalaymiz. Uning "kasbiy va pedagogik yo'nalish o'qituvchining shaxsiyatining asosiy xususiyatlari to'plangan ramkani tashkil qiladi" [2], degan fikrlari bilan o'qituvchi shaxsini sifatlarini ko'rsatib o'tadi. U pedagog shaxsning rivojlanish jarayonlarini rivojlantirish va professionallikka o'tkazish orqali kasbiy stress kasalliklarini oldini olishga o'z etiborini qaratadi. A.Slastenin fikrlariga va olib borgan tadqiqotlari natijalariga ko'ra, kasbiy yo'nalishni rivojlantirish jarayonlarini u orqali yuzaga keladigan kasbiy streslarning oldini olish uchun quyudagi xususiyatlar jarayonlarning asosiy to'rt bosqichi belgilanadi:

1. Pedagogning kasbga qiziqishni aniqlash uni shakllantirish imkoniyatlarini o'rganish.
2. Pedagogning kasbiy faoliyatni takomillashtirish uchun doimiy qiziqishni va ichki motivatsiyasini shakllantirish.
3. Pedagogik mahorat asoslarini o'zlashtirishda aniq maqsadni belgilash.
4. O'qituvchi faoliyati uchun kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan qobilaytlar majmuasini shakllantirish imkoniyatlarini belgilash [3].

Tadqiqotlar jarayonida biz "bevosita va bilvosita kuzatuv", "kasbiy streslarni aniqlash" so'rovnomasi, "Ayzenk so'rovnomasi" kabi metodlardan foydalangan holda pedagog kadrlarni pedagogik fikrlash, pedagogik aks ettirish, o'z fikrlari, harakatlari, munosabatlari va boshqalarni boshqarish qobiliyati qanchalik rivojlangan va shakllanganligini aniqlangan bo'lsa, pedagogik faoliyat shunchalik samarali, mazmunli,

qiziqarli va samarali amalga oshiriladi. Bugungi kunda sog'liqni saqlash tizimida amalga oshiriladigan islohotlarning asosiy maqsadi uning barcha ishtirokchilari pedagog kadrlar va talabalarning sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash, bu orqali sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga amaliy yordam beradi. Bu jarayonlarni amalga oshirish natijasida pedagog kadrlarni va talabalarning kasbiy va shaxsiy sifatlarni shakllantirish darajasi va amaliy faoliyatdagi sog'liqni saqlashning amaliy faoliyatlari, bilimlari bilan bir qatorda, o'zlashtira olishlariga erishish, ularni diqqat bilan tinglash, puxta o'zlashtirish ko'nikmalariga, shuningdek, sog'liqni saqlash malakalarini tahlil qilish xususiyatlarini rivojlantirish orqali kutilgan natijaga erishamiz.

Tahlillar va natijalar. Pedagog kadrlar va talabalarning sog'liqni saqlash muammolarini o'rganish va o'xshashliklarini tahlil qilish usullarini, sog'liqni saqlash madaniyati, sog'liqni saqlash texnologiyalarini shakllantirish, shuning bilan bir qatorda, shu bo'yicha egallangan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash, orqali tavsiya qilingan yo'nalishlar malakalar hosil qilish orqali salbiy stresslarning oldini olishga erishish. Olingan natijalarga ko'ra bo'lajak mutaxassislar har bir mashg'ulotda salomatlikning har bir funksional tizimini tahlil qilishlari va sog'liqni saqlash, sog'liqni saqlash madaniyati muammolari va ularni xal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishlari lozim. Buning natijasida esa yuzaga kelgan qiyinchiliklar, muammoli vaziyatlar sog'liqni saqlash madaniyatini yanada takomillashtirishga turtki, asos bo'ladi. Sog'lom avlodlarni tarbiyalash va umuman jamiyatni sog'lomlashtirish uchun sog'liqni saqlash madaniyatiga ega bo'lgan o'qituvchining ijtimoiy rolining ahamiyati to'g'risida xabardorlik oshdi. Talabalar maqsadli rejalashtirish, sog'liqni saqlash faoliyatini rejalashtirish va loyihalash, tashkiliy, tuzatish va profilaktika, sog'liqni saqlash va pedagogik texnologiyalar, ijodiy ko'nikmalar kabi sog'liqni saqlash ko'nikmalarini o'zlashtirdilar.

Xulosalar. Yuqorida keltirgan tadqiqot natijalarimizdan xulosa qiladigan bolsak, pedagoglar o'z qobilyatlarini va o'ziga xos ijtimoiy xususiyatlarini, uning kasbiy yo'nalishidan kelib chiqqan holda va sog'liqni saqlash madaniyatini shakllantirish orqali pedagoglarga sog'liqni saqlash mazmuni, biz tomonidan, quyidagi tarkibiy qismlar to'plami orqali ko'rib shakllantirishimiz mumkin:

- motivatsion va qiymat: pedagoglar sog'liqni saqlash madaniyatini o'zlashtirish va uni o'z psixologik xususiyatlarida tarkib toptirish;
- mazmunli va operatsion tizim: sog'liqni saqlash bilimlari, ko'nikmalari, texnologiyalari tizimi;
- refleksiv-baholash tizimi: pedagogning yuqori darajadagi qobilyatlariga erishish uchun amaliy faoliyatlari;
- ijodiytizimi: sog'lom turmush ko'nikmasini shakllantirish;
- hissiy-iroda tizimi pedagogning o'z va kasbiy hayotida sog'liqni saqlash madaniyati talablariga rioya qilish orqali o'z bilish jarayonlarini rivojlantirish.

Biz keltrib o'tgan ma'lum tizim asosida ifodalagan xususiyatlarimiz pedagoglarni faoliyat jarayonlarida o'zlarini ruhiy va jismoniy salomatliklarini saqlashga avval turli kasbiy stresslarning oldini olishga ham yordam bradi. Bu esa jamiyatdagi pedagog mutaxassislarni himoya qilishning yana bir usullaridan biridir. Jamiyatda o'sib kelayotgan yish avlodni har tomonlama sog'lom qilib tarbiyalamoqchi ekanmiz ularga sog'lom fikrli ustozlarni ham jalb eta olishimiz lozim. Bu bugungi kun talablaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). <https://yuz.uz/uz/news/talim-tizimi-va-yangicha-yondashuvlar>
- (2). Слостенин В.А. Формирование личности учителя советской школы в процессе профессиональной подготовки. М., 1976, с. 22.
- (3). Хозяинов Г.И. Педагогическое мастерство преподавателя. М., 1988.
- (4). Kamolova, A., Ergasheva, G.S. (2022). Yosh avlodni tarbiyalashda xalq pedagogikasini manbalarining o'rganishning ilmiy-nazariy asoslari. Science and Education, 3(12), p. 590 – 592.
- (5). Kamolova, A.O.Q., Husaynova, S.I. (2023). O'smirlar o'rtasida axloqsizlikni oldini olishda pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari. Science and Education, 4(2), p. 969 – 972.
- (6). Nishonova M.Y., Kamolova A.O. (2021). O'smirlarga huquqiy bilim berishda keys stadi texnologiyasidan foydalanish. "Экономика и социум", 8 (87), 42 – 45-betlar.
- (7). Nishonova, M.Y., Kamolova, A.O. (2021). Using case stade technology in legal education for teenagers. "Экономика и социум", (8), p. 42 – 45.
- (8). Ориббоева, Д.Д. (2019). The influence of social competens on professional choice. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 1(9), p. 256 – 261.
- (9). Oribboyeva, D.D., & Ikromova, D. (2024). Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar psixologiyasining o'ziga xosligi, aqli zaiflik turlari. "Science and Education", 5(1), p. 287–291

Mirzayev Akramjon O'ktamjonovich (Andijon Iqtisodiyot va pedagogika universiteti (NOTM) dotsenti;
akramjon.mirzayev008@gmail.com)

BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING 3-SINF O'QUVCHISIGA KASR SON TUSHUNCHASINI O'RGATISH METODIKASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf matematika darsliklarida ulush va kasr tushunchalarini berilishi, o'quvchi yoshida bu mavzularning o'zlashtirishida yangicha yondashuv zarurligi, sinflar kesimida kasrlarni o'rgatish bo'yicha tahlili va o'qituvchilar 3-sinf o'quvchisiga kasr tushunchasini tushuntirishda yangi metodikadan foydalanish kerakligi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: kasr, kasr chizig'i, surat, maxraj, ulush, qism, doira, matematika, butun, yarim, chorak, xalqaro baholash, metodika, bo'lak, son, chizmalar, taqqoslash.

Мирзаев Акрамжон Уктамжонович (доцент Андижанского университета экономики и педагогики;
akramjon.mirzayev008@gmail.com)

МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ ПОНЯТИЮ ДРОБНОГО ЧИСЛА УЧЕНИКОВ 3-КЛАССА

Аннотация. В данной статье представлены понятия о долях и дробях в учебниках математики для начальной школы, анализ обучения дробей по классам и описывается новый подход к обучению дробям учеников 3 классов учителями.

Ключевые слова: дробь, дробная черта, числитель, знаменатель, доля, часть, круг, математика, целое, половина, четверть, международное оценивание, методика, часть, число, чертежи, сравнение.

Mirzaev Akramjon Uktamzhonovich (Associate Professor, Andijan University of Economics and Pedagogy;
akramjon.mirzayev008@gmail.com)

METHODOLOGY FOR TEACHING THE CONCEPT OF FRACTIONAL NUMBERS TO 3rd GRADE SCHOOLCHILDREN BY PRIMARY CLASS TEACHERS

Annotation. This article presents the concepts of fractions and shares in mathematics textbooks for elementary school, analysis of fractions teaching by grade and describes a new approach to teachers teaching fractions to 3rd grade schoolchildren.

Key words: fraction, fractional line, numerator, denominator, share, part, circle, mathematics, whole, half, quarter, international assessment, methodology, part, number, drawings, comparison.

Kirish. Kasr tushunchasini o'rgatishda, avvalo, ulush tushunchasiga to'xtalib o'tamiz. Biror obyekt yoki predmetni teng bo'laklarga bo'lib, olingan bir qismiga ulush deyiladi. Butun narsani teng bo'laklarga bo'lingan holdagi bir bo'lagi bitta ulush degan tushuncha beriladi. Masalan, dasturxondagi doira shaklidagi nonni teng bo'laklarga bo'lib, atrofdagi insonlarga tarqatiladi. Shu nondan bir bo'lagi uning ulushi hisoblanadi. Boshlang'ich sinflarda 2-sinf matematika darsligida butunni teng ikkiga bo'lib, olingan bir qismi yarim ulushi va butunni teng to'rt bo'lakka bo'lib, olingan bir qismi chorak ulushi ekanligi hamda sonlarning yarmini, chorak qismini topish (sonning qismini topish) kabi asosiy tushunchalar bilan o'quvchilar tanishtirildi.

Kasr tushunchasi to'rt yil oldin ham 5- va 6-sinf matematika darslarida o'quvchilarga o'rgatilar edi. Jahon standartlariga monand holda o'rgatish va xalqaro baholash tadqiqotlarida mamlakatimiz ham qatnasha boshlaganligi sababli kasr tushunchasi boshlang'ich sinfda 3-sinf matematika darsligiga kiritildi. Bu borada boshlang'ich sinf o'qituvchilariga 3-sinf o'quvchilariga kasr tushunchasini tanishtirishda va ular ustida amallar o'rgatishda yangi metodik yordam zarurati bor ekanligi aniqlandi. Shu sababli 3-sinf yoshidagi o'quvchiga kasr tushunchasini o'rgatishga yangicha metodlar va tavsiyalar berish lozim.

Adabiyotlar tahlili. Kasr tushunchasini miqdorlar bilan o'rgatishda T.Xaydarova [1], Sh.Yusufzoda [2], boshlang'ich sinflarda kasrlarni yechish malakasi bo'yicha M.Samatova [3], ulush va kasr tushunchalari haqida o'quvchilarga bilim berish N.Yadgarova [4], Z.Daminova [5], F.Baratova, Sh.Yusufzoda [2] tadqiqotchilar ilmiy izlanishlar olib borgan. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining 3-sinf o'quvchisiga kasr tushunchasini o'qitish metodikasi bo'yicha ilmiy izlanishlar hali olib borilmagan.

Metodologiya. Har bir o'qituvchi 3-sinf o'quvchisiga kasr tushunchasini o'rgatishda kasr son tushunchasini anglatish lozim. Kasr son deb butunni teng bo'laklarga bo'lib, olingan bir nechta ulushiga aytiladi. Bundan ko'rinadiki, kasr son ulush tushunchasini kengaygan, umumiy tushunchasi ekanligini anglatadi.

3-sinf matematika darsligida kasr son tushunchasini kiritishning yangi talqini ko'rib chiqamiz. Bunda o'qituvchi kasr son tushunchasini kiritishda quyidagi muhim bo'lgan metodga ahamiyat berishi kerak:

- 1) kasr son tushunchasini kiritish;

- 2) kasr sonning yozilish va o'qilishi;
- 3) kasr son va chizmalar;
- 4) kasr sonning mazmuni (mag'zi)ni tushuntira olishi;
- 5) kasr sonlarni taqqoslash.

Bu tavsiyalarga birma-bir to'xtalib o'tamiz. Kasr son tushunchasidan oldin va keyin ham boshlang'ich sinf o'quvchilari nomanfiy butun sonlar va ular ustida amallarni o'rganadi. Raqam, son, sanoq tushunchalarini har bir o'quvchi yaxshi anglab yetganidek, yana bir muhim bo'lgan sonlar, ya'ni, kasr son tushunchasini kiritish ancha mushkul masala hisoblanadi. Boshlang'ich sinflarning o'rtasida 3-sinfda kasr sonni o'quvchilar anglab olishi bu o'qituvchining mahorati va o'qitish metodikasiga bog'liq.

O'quvchilarga kasr ifodasi uch qismdan, kasrning maxraji (pastki qismi), kasr chiziq (kasrning o'rtasi) va kasr surati (kasrning tepadagi qismi) iborat. Bitta sonning o'zi ham ifoda bo'lganligi uchun kasr son deb tushuncha kiritilgan. Kasr son butunning qismlari ekanligi va bu kasr son butun va kasr qismga ega bo'lishi ham mumkin. O'quvchilarga kasr sonni tanishtirishda, avval, butunning teng qismlarga bo'lib, bir nechta qismini olish tushuntiriladi.

Bularni sonlar orqali quyidagicha yozish mumkin.

Ikki dan bir = 2 dan 1 = $\frac{1}{2}$ Uchdan bir = 3 dan 1 = $\frac{1}{3}$ To'rt dan bir = 4 dan 1 = $\frac{1}{4}$

Bunday ifoda **kasr** deb ataladi.

$\frac{1}{3}$ → Kasrning surati
 → Kasr chiziq'i
 → Kasrning maxraji

Uchdan ikki
 3 dan 2 = $\frac{2}{3}$

1-rasm. Kasr sonning o'qilishi va yozilishi.

Kasr sonni, avval, kasr maxraji (pastki qismidagi son) o'qiladi keyin "dan" qo'shimchasi qo'shib, so'ng kasr surati (tepa qismidagi son) o'qiladi. Masalan, $\frac{3}{5}$ kasr sonini o'quvchilarga o'qilishini (sonning aytilishini) o'rgataganimizda birinchi maxraj 5 keyin "dan" qo'shimchasi undan keyin surat 3 o'qiladi, ya'ni beshdan uch. O'quvchilar kasr sonning o'qilishini o'zlashtirganidan keyin, uning yozilishini ham o'rganadi. Bunda, kasr son o'qilishini o'quvchi eshitsu, birinchi eshitgan sonni maxrajga yozadi, ikkinchi eshitgan sonni suratga yozadi. Masalan, to'rt dan ikki deb eshitsu, o'quvchi birinchi eshitgan 4 sonini maxrajga yozadi, so'ng kasr chiziq'i chizadi va ikkinchi eshitgan 2 sonini suratga yozadi.

Kasrlar va chizmalar deganda o'quvchilarga butun narsani teng bo'laklarga bo'lib, shu teng bo'laklar soni maxrajga yozilishi va olingan yoki bo'yalgan qismlar sonini suratga yozilishini tushuntirib o'rgatiladi (2-rasm).

Kasrlar	Surat	Maxraj
$\frac{1}{2}$		1 2

Kasrlar	Surat	Maxraj


2-rasm. Kasrlar va chizmalar.

Kasr son berilgan bo'lsa, uni chizmada hosil qilishda berilgan butun narsani (masalan, doira, to'g'ri to'rtburchak) kasr maxrajidagi son nechchi bo'lsa, shuncha teng qismga bo'linadi. Kasr suratidagi son nechchi bo'lsa, bo'lingan teng qismlardan shunchasi olinadi (2-rasm). Chizmalar bilan ishlashda o'quvchi kasr son butunning ma'lum bir qismi ekanligini va bir sonidan ham kichik sonlarni bor ekanligini, bu sonlarni o'qilishi hamda yozilishini anglab yetadi.

Kasr sonning mazmuni (mag'zi) deyilganda har bir kasr sonning qiymati tushuniladi. Masalan, $\frac{3}{6}$ soni bilan ko'rib chiqamiz. O'quvchilar sonlar o'qida har bir soning joylashuvini yaxshi anglab yetgan. 17 sonidan 5 birlik o'ngga sanalsa, 23 soni yoki 5 birlik chapga sanalsa, 12 soni ekanligini ko'rib chiqqan. Yana shuni aytish mumkinki, 17 soni bu 17 ta birlikning yig'indisi ekanligini ham o'quvchilar anglab yetishgan. Bu tushunchalar orqali sonlar ustida qo'shish va ayirish amallarini ma'nosini tushunib yetishgan. Kasr sonlarda ham o'quvchilar shunday tushunga ega bo'lish kerak. $\frac{3}{6}$ soni $\frac{1}{6}$ ulushdan uchtasi ekanligini o'quvchiga tushuntiriladi. Bu bilan o'quvchi $\frac{1}{6}$ ulushdan uchtasi $\frac{3}{6}$ sonini tashkil qilishini anglab yetadi. Shundan keyin o'quvchiga $\frac{3}{6}$ soniga yana bir ulush qo'shsak, qanday son hosil bo'lishi va $\frac{3}{6}$ sonidan bir ulushni ayir-sak, qanday son hosil bo'lishi tushuntiriladi. Kasr sonning mazmuni (mag'zi) tushunchasi o'quvchilarga kasrlarni taqqoslash va kasrlar ustida qo'shish va ayirish amallarini tushuntirishda asos bo'ladi.

Kasrlarni taqqoslashda, avvalo, kasr sonning mazmunini o'quvchilar yaxshi tushunishi lozim. Masalan, $\frac{5}{7}$ kasr soni butunni teng yettiga bo'lib, 5 ta ulushini olish ekanligini va $\frac{5}{7}$ soni $\frac{1}{7}$ sonidan beshtasi ekanligini yaxshi tushungan bo'lishi kerak. Bunda $\frac{1}{7}$ sonidan bir ulush ko'p bo'lgan son $\frac{2}{7}$ ekanligi yoki $\frac{1}{7}$ sonidan ikkitasi $\frac{2}{7}$ soni ekanligi o'quvchilar ongida shakllangan bo'lishi zarur. O'quvchilar bunday tushunchadan keyin kasrlarni taqqoslay oladi. O'qituvchi $\frac{3}{7} < \frac{5}{7}$ taqqoslashga doir misolni kasr sonning mazmuni (mag'zi) bilan tushuntirsa, o'quvchilar ham buni oson anglab yetadi. $\frac{3}{7}$ soni $\frac{1}{7}$ ulushdan 3 tasi, $\frac{5}{7}$ soni esa $\frac{1}{7}$ ulushdan 5 tasi, ya'ni, $3 < 5$ tengsizlikdan ko'rinadiki, $\frac{3}{7}$ kasr sonidan, haqiqatdan ham, $\frac{5}{7}$ kasr soni katta ekan.

Natija. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga kasr son tushunchasini tanishtirishda quyidagi metodika bilan o'rgatish kerak.



3-rasm. Kasr son tushunchasini o'rgatish metodi.

Bu metod o'quvchida ulush va kasr tushunchalarini tushunishida hamda kasr sonlar haqida tasavvurlarini, bilimni yanada mustahkamlaydi (3-rasm).

Xulosa. Maqola yozilish jarayonida bir necha ilmiy adabiyotlardan, maqolalardan, bitiruv malakaviy ishlardan foydalanildi. Mavzu sinflar kesimida matematika darsliklarining eski va yangi nashrlaridan foydalanilgan holda tahlil qilindi. Yangi va eski nashrli darsliklarning farqlaridan biri shuki, yangi darslikda

mavzular yuzasidan bilimlar chuqurroq berilgan. Chunki hozirgi jadal rivojlanayotgan zamonga kelib, yosh bolalarning intellekti ham rivojlanib, o'sib bormoqda. Yanggi darslikda mavzularning keng ko'lamliligiga jiddiy ahamiyat berilganligi uchun biz kasr son tushunchasini tushuntirishda yangi metodni tavsiya qildik. Ammo bu mavzu juda keng bo'lgani sabab ham bunga yana juda ko'plab metodlarni moslashtirish mumkin. Muhimi, mana shu metodlarni dars jarayonida qo'llay bilish, metodning afzallik va kamchiliklarini chuqur tahlil qilgan holda mavzuga mos metod qo'llashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). T.G.Xaydarova. Kasr haqida tushuncha va kasrlarni o'qitishda yangi innovatsiyalardan foydalanish. "Pedagogs" international research journal. 2022, 187–190-betlar.
- (2). Sh.Y.Yusufzoda, F.B.Baratova. Boshlang'ich sinflarda ulush va kasr tushunchasi. "Научный импульс" Международный научный журнал, № 5, 2022, 767–773 с.
- (3). M.X.Samotova. Boshlang'ich sinflarda kasrlarni yechish malakalarini hosil qilish. "Sustainability of education socio-economics science theory" Finland, Helsinki international scientific online conference. 73–74 p.
- (4). N.R.Yadgarova. Boshlang'ich sinf matematika darslarida ulushlar, kasr sonlar tushunchalari haqida bilim berish. "Fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi", № 5, 2022.
- (5). Z.I.Daminova. Kasr va uning turlari. "Ustozlar uchun jurnali", 2023. 63–64-betlar.

**Jumagulova Aziza Abdujalil qizi (O'zbekiston davlat Jismoniy tarbiya va sport universiteti
I bosqich tayanch doktoranti, Chirchiq shahri, O'zbekiston; aziza96m@gmail.com)**

BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIK BOSQICHIDAGI DZUDOCHILAR JISMONIY SIFATLARINING RIVOJLANISHINI NAZORAT QILISH, TEXNIK-TAKTIK VA JISMONIY TAYYORGARLIGINING PEDAGOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

***Annotatsiya.** Maqolada, boshlang'ich tayyorlov guruhidagi dzudochilarni tayyorlashda yosh dzudochilarning texnik va taktik, umumiy va maxsus tayyorgarligiga, shuningdek, jismoniy sifatlarining rivojlanishini nazorat qilishga e'tibor qaratilgan. Shu bilan bir qatorda, boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida egallanishi va o'qitish darajasi bo'lgan 6-oq belbog'ni olish uchun belgilangan vazifalar yoritib o'tilgan.*

***Kalit so'zlar:** dzudo, boshlang'ich tayyorlov guruhi, rivojlantirish, saralash, o'quv-mashg'ulot jarayoni, dzudochilarning texnik va taktik, umumiy va maxsus tayyorgarligi, o'qitish darajalari, irg'itishlar, tik turishlar, yiqilishlar, muvozanatdan chiqarish, burilishlar, ushlab olishlar, parterda to'ntarishlar va ushlab qolishga o'tishlar, jismoniy sifatlar.*

Жумагулова Азиза Абдужалиловна (базовый докторант 1 ступени, Узбекский государственный университет физического воспитания и спорта, город Чирчик, Узбекистан; aziza96m@gmail.com)

МОНИТОРИНГ РАЗВИТИЯ ФИЗИЧЕСКИХ КАЧЕСТВ НА НАЧАЛЬНОМ ЭТАПЕ ПОДГОТОВКИ, СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ОСНОВ ИХ ТЕХНИКО- ТАКТИЧЕСКОЙ И ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ

***Аннотация.** В статье основное внимание уделяется технико-тактической, общей и специальной подготовке юных дзюдоистов, а также контролю физического качества при подготовке дзюдоистов. Кроме того, выделены задачи, поставленные для получения 6-го «Белый пояс» - уровня образования и подготовки на этапе начальной подготовки.*

***Ключевые слова:** дзюдо, группа начальной подготовки, развитие, отбор, тренировочный процесс, технико-тактическая, общая и специальная подготовка дзюдоистов, уровни подготовки, броски, положения стоя, падения, нарушение равновесия, повороты, приемы, партерные перевороты и переходы в приемы, физические качества.*

Jumagulova Aziza Abdujalilovna (Basic doctoral student of the 1st stage Uzbek State University of Physical Education and Sports, Chirchik city, Uzbekistan; aziza96m@gmail.com)

MONITORING THE DEVELOPMENT OF PHYSICAL QUALITIES AT THE INITIAL STAGE OF PREPARATION, IMPROVING THE PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF THEIR TECHNICAL-TACTICAL AND PHYSICAL PREPARATION

***Annotatsion.** The article is focused on on technical-tactical, general and special training of young judokas, as well as physical quality control during the training of judokas. In addition, the tasks set for obtaining the 6th "white belt" – the level of education and training at the initial training stage are highlighted.*

Key words: *Judo, initial training group, development, selection, training process, technical and tactical, general and special training of judokas, levels of training, throws, standing positions, falls, imbalance, turns, techniques, ground coups and transitions into techniques, physical qualities.*

Kirish (Introduction). Ilmiy ish mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Yosh dzudochilarni tayyorlashdagi muammolar uzoq yillardan beri bir qancha ilmiy jamoatchilik, professor va olimlar tomonidan o'rganilib kelinayotgan asosiy masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Bu bo'yicha hozirgacha ko'plab ilmiy-uslubiy ishlar, tadqiqotlar olib borilgani barchamizga ma'lum, ammo dzudoni o'rgatish va o'qitishdagi bir qancha masalalar o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q. Sport maktablarida malakali sportchilarni yetishtirib chiqarish uchun sport maktabiga kelgan boshlang'ich tayyorgarlik guruhlariga shug'ullanuvchilariga alohida ahamiyat berish lozim. Trener ularni shu sport turiga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, o'quv yili davomida o'rganilishi lozim bo'lgan o'quv materialini puxta va tushunarli tarzda o'rgatish, shug'ullanuvchilarni mashg'ulotlarni oqsatmasliklari yo'llarini izlashi lozim. Bunda o'quv materialidagi usullar sportchilarga trener tomonidan qisqa va aniq qilib tushuntirilish bilan bir qatorda, ko'rsatib berish, usullarni har bir detalini, ya'ni bo'lagini alohida ko'rsatib so'ng umumlashtirish kerak. Ularning har tomonlama rivojlantirish, ya'ni texnik-taktik, umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarliklari shu bilan bir qatorda, jismoniy sifatlarining ham shakllanishini ta'minlash bu bosqichning asosini tashkil qiladi. Dzudo sport turi bo'yicha boshlang'ich tayyorlov guruh sportchilarini umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligi, texnik va taktik tayyorlash orqali aniq bajarilgan harakatlar samaradorligini shu bilan bir qatorda, boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi dzudochilarning jismoniy sifatlarini nazorat qilishdan iborat. Bu tadqiqot o'z ichiga quyidagi vazifalarni oladi:

– boshlang'ich tayyorlov guruhi shug'ullanuvchilarining texnik va taktik tayyorgarligini takomillastirish;

– boshlang'ich tayyorlov guruhi shug'ullanuvchilarining umumiy va maxsus tayyorgarlik turlari;

– dzudo sport turi boshlang'ich tayyorlov guruh sportchilarni tayyorlashda jismoniy sifatlarini rivojlantirish va nazorat qilish.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Dzudo bo'yicha sportchilarni o'qitish va tayyorlashning barcha bosqichlarida sport mahoratidan bilim berishning innovatsion metodlarini ishlab chiqish, ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy qilish, dzudo bo'yicha qobiliyatli yosh sportchilarni aniqlash, ular orasidan xalqaro sport maydonlarida munosib qatnashishni ta'minlashga qodir bo'lgan professional sportchilarni tayyorlash mahorati, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan zamonaviy hamda samarali parasportchilarni tayyorlashga yo'naltirilgan dasturlar va usullarni ishlab chiqish zaruriyati paydo bo'lmoqda.

Sportchilarni tayyorlash maqsadga qaratilgan jarayon bo'lib, maxsus vosita, uslub va shart-sharoitlarni qo'llagan holda sportchini rivojlantirish va uning zaruriy sport natijalarini qo'lga kiritishni ta'minlovchi jarayondir. Sportchini tayyorlashda uchta asosiy tarkibi mavjud vabu komponentlar sport tayyorgarligida muhim ahamiyat kasb etadi: a) musobaqa tizimi; b) sport mashg'uloti tizimi; d) mashg'ulot va musobaqaga qo'shimcha ravishda, ularning samaradorligini oshiruvchi faktorlar (L.P.Matveyev. 1991).

Texnik-taktik tayyorgarlik dzudoda yuksak natijalarni qayd etishda asosiy ahamiyatga ega. Dzudo nazariyasi va metodikasi bo'yicha yaratilgan ilk adabiyotlarda dzudochilarni tayyorlashga oid muhim ma'lumotlar keltirilgan. Keyinchalik, dzudo nazariyasi va metodikasining rivojlanishi bu yo'nalishda yangi yo'nalish va sportchilarni tayyorlash uslub, uslubiyatlarining amaliyotga joriy qilinishiga sababchi bo'ldi. Hozirgacha dzudo bo'yicha juda ko'p qimmatli adabiyotlar va ilmiy maqolalar nashr ettirildi. A.N.Lens va G.S.Tumanyan (1969) kabi olimlar tomonidan dzudochilar tayyorgarligi jarayoniga oid individual tayyorgarlik dasturi taklif etilgan. Y.K.Koblev, M.A.Pismenskiy va V.I.Sitnik (1982) o'z ishlarida ko'p yillik mashg'ulotlar tizimini qisqa muddatli mashg'ulotlar seriyasidan iborat ekanligini ta'kidlaydi. Ularning fikriga qaraganda, faqat dzudodagina emas, balki barcha kurash turlarida butun bir mashg'ulotlar tizimi bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lgan mashg'ulotlardan iboratligi e'tirof etiladi. Yuqoridagi fikr va xulosalar sport nazariyasi va uslubiyati bo'yicha boshqa ko'pgina olimlar ishlarida o'z aksini topgan (V.M. Dyachkov. 1964, V.M.Zatsiorskiy. 1966, L.P.Matveyev. 1967, 1977, 1991; M.Y.Nabatnikova, 1970, N.G. Ozolin. 1970, V.P.Platonov. 1986, R.S.Salamov. 2005, T.S.Usmonxo'jayev. 2006, Tudor O.Bompa, 2005). I.I.Alixanov (1986), A.S.Kuznesov (1995), A.N.Lens (1967), G.A.Sapunov (1970), Y.A.Shulik (1988) kabilar fikriga nazar soladigan bo'lsak, sport kurashlarida yuqori natijaga erishish uchun texnik-taktik tayyorgarlik muhim hisoblanadi. [1;121-122-123-b.].

Texnik-taktik tayyorgarlik darajasining pastligi, ya'ni, yetishmasligi musobaqa faoliyatiga farqli shaklda ta'sir ko'rsatadi. Bu holat bellashuv sharoitida hakam tomonidan salbiy baholanish ehtimoli ham

mavjud. F.A.Kerimov fikricha esa (1988) tayyorgarlikning dastlabki bosqichida potensial imkoniyatlar modeli, malakali sportchilar tayyorlash bosqichida esa sport faoliyati modeli bo'lishi kerak. Uzoq yillik tayyorgarlik jarayoni yuqorida taklif etilgan model asosida tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. Yuqori natijalarni qayd etishda bir qancha omillarni hisobga olish kerakligi murabbiylar tomonidan aytib o'tilgan. Bunday omillar sirasiga sportchini tanlash, saralash, tayyorgarlik jarayonini maqsadga muvofiq ravishda tashkil etish kabilarni kiritish mumkin [3].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Sportchilar sport maktabida shug'ullanishlarining boshlang'ich tayyorgarlik bosqichining birinchi yilida mashg'ulotlarida UJT va MJT o'zaro nisbati 10–12 yoshdagi sportchilar uchun UJT 80%, MJT 20 %ni tashkil etadi. Dzyudochilar umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik mashqlari mazmuni 10–12 yosh uchun.

Umumiy jismoniy tayyorgarlik – turli xil o'yinlar, kross (haftasiga bir marta), suzish va turizm.

Maxsus jismoniy tayyorgarlik – maxsus jismoniy mashqlar (qisqa muddatli), asosiy qismi dinamik xarakterdagi mashqlar [1;135-b.].

Bu bosqichda asosiy mashg'ulot uslublari: o'yin, bir tekis, o'zgaruvchan, aylanma, takroriy. Mashg'ulot vositalari: harakatli va sport o'yinlari, gimnastika mashqlari, kross yugurish, kurashchining maxsus mashqlari, o'z-o'zini ehtiyotlash, o'quv-mashg'ulot bellashuvlari. Bu bosqichda tezkorlik, chaqqonlik hamda egiluvchanlik sifatlariga e'tibor ko'proq qaratiladi [4;381-b.].

Texnik va taktik tayyorgarlik uchun tavsiya etilgan o'quv materiallari 1 yillik o'quv mashg'ulotning dastlabki tayyorgarlik bosqichida (BTG-1).

Irg'itishlar – Nage Waza.

1. Yon tomondan chalish – De Ashi Barai.
2. Tizzadan chalish – Hiza Guruma.
3. Oldindan chalish – Sasae Tsuru Komi Ashi.
4. Beldan o'rab, yonbosh osha irg'itish – Uki Goshi.
5. Tutib otish – O Soto Gari.
6. Yonbosh orqali irg'itish – O Goshi.
7. Ichkaridan ilib olish – O Uchi Gari.
8. Bel orqali irg'itish – Seoi Nage.

Yotgan holatda kurashish usullari – Ne Waza.

1. Yon tomonlama ushlab qolish – Hon Kesa Gatame.
2. Yon tomondan qayta ushlab qolish – Kata Gatame.
3. Oyoq va beldan tutgan holda, ko'ndalangiga ushlab qolish – Yoko Shiho Gatame.
4. Belbog'dan tutgan holda, bosh tomondan ushlab qolish – Kami Shiho Gatame.
5. Qo'llar va boshni tutgan holda, minib ushlab qolish – Tate Shiho Gatame.
6. Yon tomondan ushlab qolishdan oyoq yordamida tirsakni bukish – Kesa Ude Hishigi Gatame.

O'z-o'zini himoya qilish oldindan, orqadan, qo'l, qo'llar, gavgani oldindan, orqadan bo'yinni ushlab qolishlardan bo'shatish.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). “KYU” tizimi – bu oltita o'rgatish darajasi bo'lib, to jiggarrangacha bo'lgan belbog'lar bilan belgilangan (darajalar yo'nalishi 6 dan 1 gacha). Birinchi o'qitish darajasi endi shug'ullanuvchilarga mo'ljallangan. Bu belbog' uchun imtihonlar topshirish 10 yoshdan tavsiya qilinadi va bu boshlang'ich tayyorgarlik bosqichiga to'g'ri keladi. Birinchi daraja vazifalari (6-oq belbog').

1. Dzyudo tarixi.
2. Hakamlar va murabbiylarning asosiy buyruqlari.
3. Kimanoni taxlash. Belbog'ni taqish.
4. Rasm-rusmlar. Tachi-rei – Tik turgan holda salomlashish.
5. Yiqilish (Ukemi). Sherigini xavfdan saqlash.
6. Tik turishlar (Shusei):

–asosiy: frontal (Shizen-tai), o'ng tomonlama (Migi-shizen-tai); chap tomonlama (Hidari-shizen-tai);

–himoyalaniqlik: frontal (Jigo-hontai); o'ng tomonlama (Migi-jigotai); chap tomonlama (Hidari-jigotai).

7. Siljib harakatlanish (Shintay):

–navbatma-navbat qadam tashlash bilan (Ayumi ashi); yuzi bilan oldinga, orqasi bilan oldinga.

–mayda qadamlar bilan (Tsugi ashi); tozi bilan oldinga, orqasi bilan oldinga, yon tomoni bilan oldin-
ga.

8. Muvozanatdan chiqarish (Kuzushi) – sakkizta yo‘nalish.
9. Burilishlar (Tai-sabaki):
 - 90 gradusga burilishlar – Chap va o‘ngga 90 gradus burilishlar;
 - 180 gradusga burilishlar.
10. Ushlab olishlar (Kumikata): yeng-qaytarma, yeng-yelkadan.
11. Tik turish va parter holatidagi usullarning namoyishi kompleksi:
 - tizzadan chalish (Hiza-guruma) – Yon tomondan chalish (De-ashi-barei);
 - sondan oshirib irg‘itish (Uki-goshi) – Orqadan chalish (O-soto-otoshi).
12. Parterda to‘ntarilishlar va ushlab qolishga o‘tish.
13. Siltab muvozanatdan chiqarish (Uki-otashi). [2;43-49-50-97-b.].

1-jadval

1–2-o‘quv yili dzudochilari uchun zachot talablari
Dzudochilar jismoniy sifatlarining rivojlanishi nazorat qilish uchun zachot talablari (10–11 yosh)

Harakat faoliyati turi	Rivojlantiriladigan jismoniy sifat	Mashqlar	Dzudochilar yoshi	
			10 yosh	11 yosh
Yengil atletika	Tezkorlik	30 m ga yugurish (s)	5,6	5,4
Gimnastika	Kuch	Turnikda tortilish (marta)	4	6
	Chidamlilik	Yotib qo‘llarni bukib-yozish (marta)	-	20
	Tezkorlik	Orqamacha yotib, oyoqlar birlashtirilgan, 20 sek ichida gavidani bukish	-	6

2-jadval

Dzudochilar jismoniy sifatlarining rivojlanishi nazorat qilish uchun zachot talablari

Harakat faoliyati turi	Rivojlantiriladigan jismoniy sifat	Mashqlar	12 yosh		
			50 kg gacha	60 kg gacha	60 kg dan yuqori
Yengil atletika	Tezkorlik	30 m ga yugurish (s)	5,6	5,4	5,6
	Chidamlilik	400 m ga yugurish (min/s)	1,13	1,13	1,13
	Chaqqonlik	3x10 m ga mokisimon yugurish (s)	7,5	7,5	7,5
Gimnastika	Kuch	Turnikda tortilish (marta)	8	8	8
	Chidamlilik	Yotib qo‘llarni bukib-yozish (marta)	45	48	30
		Oyoqlar birlashtirilgan holda gavidani bukish (marta)	18	20	14
	Kuch	Gimnastika devorchasida osilib turib, oyoqlarni qo‘llargacha ko‘tarish (marta)	6	5	2
		Oyoqlar yordamisiz arqonga (4 m) tirmashib chiqish (s)	9,3	9,9	12,2

	Tezkorlik	Orqamacha yotib, oyoqlar birlashtirilgan, 20 sek ichida gavdani bukish	12	12	10
		20 sek turnikda tortilish (marta)	6	6	4
		Yotib tayanib, 20 sek ichida qo'llarni bukib-yozish (marta)	16	12	12
	Chaqqonlik	Oldinga 10 marta umbaloq oshish (s)	18	18	19
Sport kurashi	Kuch	Vazni o'zining teng bo'lgan sherigini yelkaga o'tkazib, o'tirib-turishlar (marta)	6	8	4
		Parallel o'rindiqlarda turgan holda raqib belini orqadan ushlab olib, uni ko'tarish (marta)	3	7	2
		Tik turishdan ko'prik holatiga o'tish (5 marta)	14	16	18
	Egiluvchanlik	Ko'prik holatida 10 marta ag'darilishlar (s)	18	20	22
	Tezkorlik	Manekenni sondan oshirib, 10 marta irg'itish (s)	28	30	26

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Bu bosqichda asosiy e'tibor mashg'ulot faoliyati asoslarini shakllantirish: dzudo texnikasi elementlarini o'zlashtirish, dzudo taktikasi to'g'risida umumiy tasavvur hosil qilishiga ko'maklashishga qaratilgan. Bolalarni jismoniy tarbiya va dzudo bilan muntazam shug'ullanishga jalb qilish, sport mashg'ulotlariga bo'lgan qat'iy qiziqishini shakllantirish. Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash; sportga qadriyat sifatidagi munosabatni shakllantirish; ma'naviy sifatlar; mehnatsevarlik; halollik; intizom; onglilikni shakllantirish, jamoadoshchilik va o'rtoqchilik xislarini, xulq madaniyatini tarbiyalash lozim. Tiklanish vositalari sifatida esa pedagogik sayrlar, suzish, ochiq havoda o'yinlar; fizioterapevtik dush, hammomlardan foydalanish, o'quv-mashg'ulot yili so'ngida o'quv guruhlarining to'ldirilishi; bolalarning har tomonlama rivojlanishi, musobaqa faoliyatini olib borish asoslarini egallash; o'tish va nazorat me'yorlarini bajarish va nazorat qilish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

1. F.F.Djapparov. Sport-pedagogik mahoratini oshirish (dzudo) mavzusida. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar organlarining ofitserlik va safdorlik lavozimlariga xizmatga qabul qilingan xodimlar uchun o'quv qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish instituti, 2023, 160 bet.
2. Elov A.N., Bagdasarov A.Y., Arslonov Sh.A. Dzudo nazariyasi va uslubiyati. O'quv qo'llanma, T., "Olimos qilich", 2012, 190-bet.
3. Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va usuliyoti. T., 2004.
4. N.A.Tastanov. Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati. Darslik, T., «Sano-standart», 2017, 480-bet.

Masharipov Azamat Komuljonovich (Urganch davlat universiteti "Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi" kafedrasida kafedrasida dotsenti., p.f.b.f.d (PhD); azamat_86uz@inbox.ru)
SPORT-SOG'LOMLASHTIRISH TURIZMI BILAN SHUG'ULLANUVCHI TALABA-YOSHLARNING FUNKSIONAL HOLATI DINAMIKALARI

Annotasiya. Ushbu maqolada sport-sog'lomlashtirish turizmini talaba-yoshlarning funksional holatiga samarali ta'siri bayon qilingan. Shuningdek, turizmni talabalarning sog'ligini saqlash va mustahkamlashda sog'lomlashtirish vositasi sifatida dolzarbli haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: jismoniy tarbiya, turizm, sport, sog'lomlashtirish, vosita, jismoniy rivojlanish, funksional holat, jismoniy tayyorgarlik, salomatlik, samaradorlik.

Машарипов Азамат Комилджанович (Ургенчский государственный университет, доцент кафедры «Теория и методика физической культуры», p.f.b.f.d (PhD); azamat_8buz@inbox.ru)
ДИНАМИКА ФУНКЦИОНАЛЬНОГО СОСТОЯНИЯ СТУДЕНТОВ, ЗАНИМАЮЩИХСЯ СПОРТИВНО-ОЗДОРОВИТЕЛЬНЫМ ТУРИЗМОМ

Аннотация. В данной статье описано эффективное влияние спортивно-оздоровительного туризма на функциональное состояние студентов. Также дана информация об актуальности туризма как средства сохранения и укрепления здоровья студентов.

Ключевые слова: физкультура, туризм, спорт, оздоровление, средство, физическое развитие, функциональное состояние, физическая подготовленность, здоровье, эффективность.

DYNAMICS OF THE FUNCTIONAL STATE OF STUDENTS INVOLVED IN SPORTS AND HEALTH TOURISM

Annotation. This article, describes the productive effect of sports-health tourism on the functional status of students. Information is also given about the relevance of tourism as a means of health promotion in maintaining and strengthening the health of students.

Key words: physical education, tourism, sports, health improvement, means, physical development, functional state, physical fitness, health, efficiency.

Kirish. Jahonda aholini jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan shug'ullanishga jalb qilish, oliy ta'lim muassasalarida tahsil oluvchi talabalarning funksional holati darajasini tadqiq qilish, iqlimiy hamda ekologik shart-sharoitlarni inobatga olgan holda, sport-sog'lomlashtirish turizmini amaliyotga joriy qilish talabi keskin oshmoqda. Aynan shu nuqtayi nazardan talaba-yoshlarning salomatligini turli vositalar, jumladan, sport-sog'lomlashtirish turizmi orqali mustahkamlash muammosi o'ta dolzarbdir.

Aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini kundalik hayotimizga aylantirishimiz zarur ekanligini bugungi davrning o'zi taqozo etmoqda. Jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanish hamda sog'lom turmush tarzi bo'yicha hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish hamda ommaviy jismoniy faollik tadbirlarini tizimli va samarali tashkil qilish, bu borada tegishli infratuzilma va boshqa zarur shart-sharoitlarni yaratish maqsadida Respublikada aholi o'rtasida ommaviy sportni rivojlantirish va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishda yurish va yugurish sportning ustuvor turlari etib belgilangan [1].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ilmiy adabiy manbalarini o'rganish shundan dalolat beradiki, yosh avlodni sport-sog'lomlashtirish turizmi va jismoniy tarbiya vositasida jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish, jismoniy sifatlarni tarbiyalash va rivojlantirish bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) davlatlarida olimlardan L.P.Matveev, Y.A.Vasilkovskaya, I.N.Ovsyannikova, O.O.Brilliantova, E.A.Shtix, E.V.Mardasova, E.V.Milevskiy, L.I.Donskova, A.A.Makarov, E.V.Myagkova, V.A.Semirekov, A.A.Fedyakin, V.I.Radchenko, V.V.Lixoletov, D.A.Pochebut, T.Y.Tarasenya; mamlakatimiz olimlaridan R.A.Abdumalikov, R.S.Salomov, A.Abdullayev, Sh.H.Xonkeldiyev, K.M.Mahkamjonov, T.T.Yunusov, T.X.Holdarov, V.Sh.Raximov, T.E.Nabiyev, A.A.Abduraxmanova, V.S.Kosimova, K.B.Muxammadiyev, E.Y.Daurenov, A.K.Masharipov va boshqa olimlarning ilmiy manbalari muhim ahamiyat kasb etgan [2,3,4,12].

Talabalarning jismoniy tarbiya tizimida sport-sog'lomlashtirish turizmi vositalari hozirgi davrda yetarlicha samarali qo'llanilmayapti. Oliy ta'lim muassasasida turizm fani jismoniy tarbiyaning hordiq olish rejimida namoyish qilingan bir qismi sifatida ko'riladi, bu talabalarning jismoniy tarbiyasida sport-sog'lomlashtirish turizmi vositalari doirasini cheklaydi. Oliy ta'lim muassasasi talabalarini jismoniy rivojlantirish bo'yicha ta'lim jarayoni individuallashtirish va tabaqalashtirish tamoyillariga asoslanishi lozim, bu esa talabalarning sog'lig'i va ehtiyojlarini inobatga olib tashkil qilinuvchi jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish faoliyatiga bo'lgan qobiliyatlarning namoyon bo'lishi, oliy ta'lim muassasasida jismoniy tarbiya shaklining turli-tumanligi va tarkibining variativligini asoslaydi [2,3,4,5].

Hozirgi vaqtda oliy ta'lim muassasasida jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish ishlarining asosiy vazifalari zamonaviy yondashuvlarga muvofiq talaba yoshlarda o'quv jarayoni doirasida va o'qishdan tashqari vaqtlarda jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish, shuningdek, sog'lom hayot tarzini kechirishga o'rgatishdan iborat. Bu yoshlarda funksional holatni yaxshilashga, jismoniy sifatlarni rivojlantirishga, harakat malakalari va ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish ishlari shaxsning emotsional, intellektual, ma'naviy-axloqiy va estetik rivojlanishiga, ijodiy qobiliyatlarning shakllanishiga ko'maklashadi [2,5,6,7,8,9].

Turizm jismoniy tarbiyaning allaqachon ma'lum va samarali vositasi sifatida o'zining emotsionalligi, jozibadorligi va talaba-yoshlar uchun faol hordiq chiqarish imkoniyatlari bilan ajralib turadi, ularning

xarakat faolligi hajmini oshirishga, jismoniy tayyorgarlik va funksional holatni yaxshilashga imkon beradi [9,10].

Turizm aholining turli yosh va ijtimoiy guruhlari, shu jumladan, yoshlar orasida mashhurligi, unga bo'lgan qiziqish mutaxassislar tomonidan keng doirada asoslab berilgan. Olimlarning tadqiqotlarida sport-sog'lomlashtirish turizmining nazariy-uslubiy va biologik asoslari, sog'lomlashtirish maqsadida turistik piyoda yurish, sayr mashg'ulotlarining tarkibi va tashkillashtirilishi, turistik sayr davomida organizm funksional holatining ayrim ko'rsatkichlarining o'zgarish masalalari o'rganilgan [11,12,13,14,15,16,17].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot ishimizda oliy ta'lim muassasasining mutaxassisligi jismoniy tarbiya bo'lmagan yo'nalishlari talaba yoshlarni pedagogik tajribaga (dastlabki o'lchashlarda natijalari bir-biriga yaqin bo'lgan ellik besh nafar talaba saralab olinib, shundan 27 nafari tajriba guruhi (TG) va 28 nafar talaba nazorat guruhi (NG)ga jalb qilindi. Pedagogik tajriba guruhi talabalarini biz tomonimizdan ishlab chiqilgan dastur samaradorligini tajribada asoslash uchun sport-sog'lomlashtirish turizmi mashg'ulotlarida ishtirok qildilar, shuningdek, dam olish kunlarida algoritmlangan yo'nalishlarda sayrlarda qatnashdilar. Nazorat guruhi talabalarini an'anaviy dastur bo'yicha mashg'ulotlarda ishtirok qildilar.

Tahlil va natijalar. "Oliy ta'lim muassasasi talabalarining funksional holati ko'rsatkichlarini aniqlash bo'yicha testlar natijalari 1-jadvalda berilgan.

Talabalar funksional holati aniqlash maqsadida o'quv yili davomida tajriba va nazorat guruhlarida qator test sinovlari, o'lchashlar amalga oshirildi YQS tinch holatda (marta/daqiqqa), sistolik arterial bosim, (mm.s.u.), diastolik arterial bosim (mm.s.u.), shtange sinovi (soniya), genche sinovi (soniya), rufe dikson indeksi (shart/birlik). O'quv yili boshida talabalarining ko'pchiligi deyarli barcha ko'rsatkichlarda qoniqarsiz natijalarni qayd etishdi. Tajriba guruhi talabalarining funksional holati ko'rsatkichlaridan ishonchli statistik farqlari va yuqori o'zgarish dinamikasi 1-rasmda keltirilgan. Oliy ta'lim muassasasi talabalarini o'rtasida o'quv yili boshida tajriba guruhida YQS tinch holatda (marta/daqiqqa), dastlab, o'rtacha 78.4 marta/daqiqaga teng bo'lgan bo'lsa, o'quv yili oxirida o'rtacha 76.4 marta/daqiqani tashkil qilib, ko'rsatkichlar orasida ishonchli statistik farqlar kuzatilmadi ($t=1.36$; $P>0.05$). Nazorat guruhida esa o'quv yili boshida o'rtacha natija 77.9 daqiqani tashkil etdi o'quv yili oxirida esa 77.1 martaga teng bo'lib, ko'rsatkichlar orasida ishonchli statistik farqlar kuzatilmadi ($t=0.48$; $P>0.05$).

Tajriba guruhida o'quv yili boshida sistolik arterial bosim (mm.s.u.) o'rtacha 118.87 mm.s.u.ga teng bo'lgan bo'lsa, o'quv yili oxirida o'rtacha 119.8 mm.s.u.ni tashkil qilib, natijalar orasida ishonchli statistik farqlar kuzatilmadi ($t=0.45$; $P>0.05$). Nazorat guruhida esa o'quv yili boshida o'rtacha natija 119.2 mm.s.u.ni tashkil etdi, o'quv yili oxirida esa 119.3 mm.s.u.ni tashkil qilib, ko'rsatkichlar orasida ishonchli statistik farqlar kuzatilmadi ($t=0.48$; $P>0.05$).

Tajriba guruhida o'quv yili boshida diastolik arterial bosim (mm.s.u.) o'rtacha 77.8 mm.s.u.ga teng bo'lgan bo'lsa, o'quv yili oxirida o'rtacha 79.8 mm.s.u.ni tashkil qilib, natijalar orasida ishonchli statistik farqlar kuzatilmadi ($t=1.57$; $P>0.05$). Nazorat guruhida esa o'quv yili boshida o'rtacha natija 78.9 mm.s.u.ni tashkil etdi, o'quv yili oxirida esa 78.07 mm.s.u.ni tashkil qilib, ko'rsatkichlar orasida ishonchli statistik farqlar kuzatilmadi ($t=0.56$; $P>0.05$).

O'pkaning tiriklik sig'imi (mil.litr) tajriba guruhida o'quv yili boshida o'rtacha 3324,35 ml.ni, o'quv yili oxirida o'rtacha 3540,97 ml.ni tashkil qilib, natijalar orasida ishonchli statistik farqlar aniqlandi ($t=4.13$; $P<0.001$). Nazorat guruhida esa o'quv yili boshida 3315,5 ml.ni tashkil etdi, o'quv yili oxirida esa 3409,4 ml.ni tashkil qilib, ishonchli statistik farqlar kuzatilmadi ($t=1.81$; $P>0.05$).


O'quv yili boshida tajriba guruhida shtange sinovi ko'rsatkichlari (soniya) o'rtacha 38.4 soniyani, o'quv yili oxirida o'rtacha 44.9 soniyani tashkil qilib, ko'rsatkichlar orasida ishonchli statistik farqlar aniqlandi ($t=6.63$; $P<0.001$). Nazorat guruhida esa o'quv yili boshida 38.9 soniyani, o'quv yili oxirida 41.6 soniyani tashkil etib, ishonchli statistik farqlar kuzatilmadi ($t=1.98$; $P>0.05$).

Tajriba guruhida genche sinovi (soniya) ko'rsatkichlari o'rtacha 31.2 soniyani, o'quv yili oxirida esa o'rtacha 35.1 soniyani tashkil qilib, ko'rsatkichlar orasida ishonchli statistik farqlar kuzatildi ($t=4.57$; $P<0.001$). Nazorat guruhida esa o'quv yili boshida 32.1 soniyani, o'quv yili oxirida 33.1 soniyani tashkil etib, ishonchli statistik farqlar kuzatilmadi ($t=0.90$; $P>0.05$).

O'quv yili boshida o'tkazilgan pedagogik testlash natijalari tajriba guruhida Rufe diksona indeksi (shart/birlik) o'rtacha 15.2 shart./bir.ni, o'quv yili oxirida o'rtacha 9.9 shart./bir.ni, tashkil qilib, ko'rsatkichlar orasida ishonchli statistik farqlar kuzatildi ($t=12.8$; $P<0.001$). Nazorat guruhida esa o'quv yili boshida 15.8 shart./bir.ni, o'quv yili oxirida esa 14.80 shart./bir.ni tashkil etib, ishonchli statistik farqlar kuzatilmadi. ($t=1.89$; $P>0.05$).

Tajriba va nazorat guruhlarida o'quv yili davomida funksional holati ko'rsatkichlarining o'zgarish dinamikasi (TG-n=27; NG-n=28).

T/r	Testlar	Tadqiqot guruhlari	Tadqiqot boshlanida (sentabr oyi)			Tadqiqot oxirida (may oyi)			Student mezon t-bo'yicha farqlar	
			\bar{X}	σ	V%	\bar{X}	σ	V%	t	P
1	YQS tinch holatda (marta/daqiqa).	TG	78,4	4,8	6,12	76,4	5,5	7,19	1.36	>0.05
		NG	77,9	5,2	6,67	77,1	6,4	8,30	0.48	>0.05
2	Sistolik arterial bosim (mm.s.u.).	TG	118,8	5,78	4,86	119,8	9,52	7,94	0.45	>0.05
		NG	119,2	6,96	5,83	119,3	8,86	7,43	0.04	>0.05
	Diastolik arterial bosim (mm.s.u.).	TG	77,8	3,87	4,97	79,8	5,01	6,27	1.57	>0.05
		NG	78,9	4,11	5,20	78,07	6,11	7,82	0.56	>0.05
3	O'TS (ml).	TG	3324,35	184,3	5,54	3540,97	186,1	5,25	4.13	<0.001
		NG	3315,5	179,5	5,41	3409,4	186.1	8,12	1.81	>0.05
4	Shtange sinovi (soniya).	TG	38,4	2,01	5,23	44,9	4,47	9,14	6.63	<0.001
		NG	38,9	1,99	5,11	41,6	6,51	15,67	1.98	>0.05
5	Genche sinovi (soniya).	TG	31,2	1,45	4,64	35,1	4,01	9,52	4.57	<0.001
		NG	32,1	1,09	3,395	33,1	5,43	13,21	0.90	>0.05
6	Rufe dikson indeksi (shart/birlik).	TG	15,2	2,01	13,22	9,9	0,47	4,74	12.8	<0.001
		NG	15,8	2,22	14,05	14,80	1,42	9.59	1.89	>0.05



1-rasm. Tajriba va nazorat guruhlarida o'quv yili davomida ko'rsatkichlarining yuqori o'zgarish dinamikalari (TG-n=27; NG-n=28).

Xulosa va takliflar. 1. Oliy ta'lim muassasalarida sport-sog'lomlashtirish turizmi vositalaridan jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarida vosita sifatida foydalanish, ushbu majmuaviy dasturning samaradorligini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan pedagogik tajriba va sport-sog'lomlashtirish turizmi vositalarining qo'llanilishi uning yetarlicha yuqori samaradorlikka ega ekanligini tasdiqladi. Jumladan, talabalarida jismoniy rivojlanish, morffunksional holati va jismoniy tayyorgarlik darajasini yaxshilanishiga erishildi.

2. Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya va sport amaliyotida mavjud an'anaviy jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish dasturlariga nisbatan turizm elementli harakatli o'yinlar va turistik estafetalarni darsdan tashqari vaqtda ta'lim jarayoniga kiritish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalarining maqsadga muvofiqligini isbotladi.

3. Tajriba guruhida olib borilgan tadqiqotlar davomida o'quv yilining kuzgi semestrda jismoniy sifatlarini rivojlantirish uchun turizm elementlari bilan ochiq havoda o'tkaziladigan o'yinlar 35%ni, turizm elementlari bilan estafetalar 20%ni, mo'ljal olishni o'rgatuvchi o'yinlar 20%ni va ikkinchi semestrda 30%ni va 8%ni tashkil qildi. Shu bilan birga, turistik yo'nalishga ega bo'lgan ochiq havoda o'tkaziladigan o'yinlar va estafetalar talabalarda harakatlarni bajarishda diqqatini jamlash, harakatlarning aniqligi va makonda

to'g'ri mo'ljal olish, harakatlarning epcilligi va tezkorligi, harakatlarni jamoa bilan bir xil sur'atda bajarish qobiliyatlarini rivojlantirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6099-farmoni, 2020-yil 30-oktabr, Toshkent.

(2). V.Raximov. Talabalarda sog'lom turmush tarzi hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini takomillashtirish. Avtoref. diss. p.f.d. (DSc), Toshkent, 2023.

(3). К.Б.Мухаммадиев Жисмоний тарбия ва спорт машғулотлари жараёнида талабаларда экологик маданиятни ривожлантиришни илмий-педагогик асослаш. Педагогика фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация, Чирчик, 2022, 251-бет.

(4). И.В.Бабичева Технология оздоровительной аэробики в системе физического воспитания студентов. Дис. ...канд. пед. наук, Т., 2011, 124 с.

(5). И.Н.Овсянникова Содержание и организация физического воспитания студентов вузов на основе использования средств пляжного гандбола. Дис., кандидата педагогических наук, Кубан. гос. ун-т физ. культуры, спорта и туризма. Краснодар, 2008, 42–53 с.

(6). Ю.А.Васильковская. Физическое воспитание студентов вузов с использованием терранкура и туризма. Дис., кандидата педагогических наук, Сочинский гос. унив., туризма и курортного дела, Сочи, 2009, 62–78 с.

(7). О.О.Бриллиантова. Нормирование объемов нагрузок на академических занятиях по физической культуре для студентов вузов в различные сезоны года. Дис., кандидата педагогических наук, Кубан, гос. ун-т физ. культуры, спорта и туризма, Краснодар, 2009, 61–77 с.

(8). Е.А.Штих Расчетно-графическая оценка способности дифференцирования ощущений интенсивности нагрузки у студентов. «Омский научный вестник», № 2 (116), 2013.

(9). Е.В.Мардасова. Инновационные оздоровительные. Туризм как средство физического воспитания в Алтайском государственном университете технологии в спортивной деятельности. Журнал "Здоровье человека, теория и методика физической культуры и спорта", 2018.

(10). Е.В.Милевский. Туристским походам-государственное регулирование и контроль. Журнал "Вестник академии детско-юношеского туризма и краеведения", 2017.

(11). Л.И.Донскова, А.А.Макаров, Е.В.Мягкова. Исследование социального туризма в молодежном сегменте: современное состояние, проблемы и перспективы. Журнал «наука и туризм», стратегии взаимодействия, № 2 (54), 2019.

(12). А.А.Федякин Физическое воспитание студентов: специальное высшее образование в группе прохождения элективных дисциплин по физической культуре. Журнал «Ученые записки университета им. П.Ф. Лесгафта», 2018, № 10 (164).

(13). В.И.Радченко. Содержание и организация туристских походов в горах с целью оздоровления. Дис., кандидата педагогических наук, Сочинский гос. унив., туризма и курортного дела, Сочи, 2000, с. 25–71.

(14). В.В.Лихолетов, Д.А.Почебут. Педагогический потенциал туристических походов. Журнал "Образование и наука", 2008, № 6 (54).

(15). В.А.Семиреков. Использование средств рекреационного туризма для восстановления здоровья рабочих и служащих промышленного предприятия. Журнал "Ученые записки университета им.П.Ф.Лесгафта", № 12 (82), 2011.

(16). А.К.Машарипов. Talaba-yoshlar sog'ligi va jismoniy rivojlanishiga turizmning ta'siri va ijtimoiy ahamiyati. Avtoref. diss. p.f.b.f.d. (Phd), Chirchiq, 2023.

Internet saytlari:

www.arxiv.uz

www.ziyonet.uz

www.referat.uz

Rustamova Davlatxon Toyirjon qizi (Farg'ona davlat universiteti "Boshlang'ich ta'lim" kafedrasida katta o'qituvchisi; davlatxontoyirjonovna@gmail.com)

MA'NODOSH SO'ZLAR BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI NUTQINI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot boshlang'ich sinif o'quvchilarining nutqini rivojlantirishda ma'nodosh so'zlarni o'rgatish samaradorligini o'rganadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, sinonim so'zlar bilan shug'ullanadigan o'quvchilarda ishtiyok, hamkorlik va tanqidiy fikrlash rivojlanadi.

Kalit so'zlar: sinonim so'zlar, nutqni rivojlantirish, boshlang'ich sinif o'quvchilari, lug'at, til bilish, pedagogik mahorat.

Рустамова Давлатхон Тойиржон кизи (Ферганский государственный университет, старший преподаватель Кафедры начального образования; davlatkhontovirjonovna@gmail.com)
ЗНАЧИМЫЕ СЛОВА КАК СРЕДСТВО РАЗВИТИЯ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. В данном исследовании рассматривается эффективность обучения осмысленным словам в развитии речи учащихся младших классов. Большую роль в этом играют синонимы. Результаты показывают, что у учащихся, которые используют синонимы, развивается энтузиазм, сотрудничество и критическое мышление.

Ключевые слова: синонимы, речевое развитие, учащиеся младших классов, словарный запас, знание языка, педагогическое мастерство.

Rustamova Davlatxon Toyirjon qizi (Fergana State University, Senior teacher of the Department of Primary Education; davlatkhontovirjonovna@gmail.com)

MEANINGFUL WORDS AS A TOOL FOR SPEECH DEVELOPMENT OF PRIMARY CLASS STUDENTS

Annotation. This study investigates the effectiveness of teaching synonyms in the development of speech of elementary school students. The results show that students who engage in synonyms develop enthusiasm, cooperation, and critical thinking.

Key words: synonyms, speech development, elementary school students, vocabulary, language learning, pedagogical skills.

Kirish. Bugungi kun ta'lim mazmunini modernizatsiya qilish sharoitida kichik yoshdagi maktab o'quvchilarini ona tilini o'rganishga jalb qilish, og'zaki va yozma nutq madaniyatini shakllantirish muammolari haligacha dolzarb bo'lib qolmoqda. Kuzatishlar va olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilari fikr va tuyg'ularini ifodalashda, leksemalarni to'g'ri tanlashda qiyinchiliklarga duch keladilar. Buning asosiy sababi esa ularda lug'at boyligining yetishmasligi va so'zlarning lug'aviy ma'nosini bilmaslik, ma'nodosh so'zlar qatori haqidagi tasavvurlarning yo'qligidir. Bu esa o'quvchilarning ijtimoiy jamiyatga kirishi va uning a'zolari bilan bevosita kommunikativ aloqa o'rnatish hamda muloqotdagi muammolarni hal etish jarayonlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Adabiyotlar tahlili. Demyankovning ta'kidlashicha, "Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ma'nodosh so'zlarni o'rgatishda, avvalo, ularda ma'nodosh so'zlar qatorini tahlil qilib, ularni qo'llashda nutq me'yorlaridan chetga chiqish holatlariga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir" [1;5-b.]. Ta'lim jarayoni va maktablarda ona tilini o'qitish va til hodisalarini o'rgatish tilshunoslar va metodistlarning diqqatini tortib kelmoqda. O'quvchilarning ona tilini samarali o'zlashtirishlari uchun, asosan, so'zlarning leksik-semantik jihatiga ko'proq e'tibor qaratish lozim. Hozirgi vaqtda ta'lim tizimini modernizatsiyalash jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tilini o'rganishga jalb qilish, og'zaki va yozma nutq madaniyatini shakllantirish muammolari dolzarb bo'lib qolmoqda. Olib borilgan kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilari gap tuzishda, o'z his-tuyg'ularini ifoda etishda, gap mazmuni uchun mos leksemalarni to'g'ri tanlashda qiynaladi. Buning asosiy sababi esa o'quvchilarda lug'at boyligining yetarli, ya'ni yoshga mos darajada oshirilmaganligi va so'zlarning lug'aviy ma'nosini yaxshi bilmasliklari, ma'nodosh so'zlar qatori haqida tushuncha hamda ulardan nutqda faol qo'llay olish ko'nikmalarining yetarli emasligidir. Bu esa o'z-o'zidan ijtimoiy jarayonlarga kirish, boshqa kishilar bilan aloqa o'rnatish va muloqot muammolarini hal qilish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari so'z boyligini oshirish va ularda nutqni rivojlantirish bo'yicha maqsadli olib boriladigan ishlarni ona tili va o'qish savodxonligi darslarida amalga oshirish mumkin. Ona tili darslarida lug'at bilan ishlash jarayonida o'qituvchining asosiy vazifasi ma'nodosh so'zlar qatorini misollar yordamida tushuntirishi va dastlabki grammatik tushunchalar bilan tanishtirib borishi zarur. 4-sinf o'quvchilari nutqda ma'nodosh so'zlarni ajrata olishi va o'z fikrini ifodalash uchun jumladagi so'zlarni boshqa ma'nodoshlari bilan almashtira olishi kerak.

"Qayd etish kerakki, sinonimik munosabatlarning mohiyatini anglash so'zning lug'aviy ma'nosi mohiyati va tuzilishini tushunish bilan chambarchas bog'liq. Tilshunoslikda so'zning semantik tuzilishini talqin etishning turli usullari mavjud" [2;11-b.].

Boshlang'ich sinflarda ma'nodosh so'zlar ustida ishlashga o'quvchilar lug'at boyligini boyitish metodikasining istiqbolli yo'nalshilaridan biri sifatida qarash mumkin. Ta'limning bu davrida o'quvchilarga ma'nodosh so'zlar haqida chuqur nazariy ma'lumotlar berilmaganiga qaramay, ma'nodosh so'zlarni o'rgatishga amaliy yondashuvni o'quvchilar nutqini o'ziga xos tarzda rivojlantiruvchi usul sifatida ko'rsatish mumkin [3;27-b.].

Tahlil va natijalar. Nutqiy faoliyat boshlang'ich sinf o'quvchisidan nutqning o'ziga xos barcha qiralarini o'zlashtirishni talab qilishi barobarida uning har tarflama rivojlanishiga sharoit yaratadi. O'quvchilar bu davrda nutqning barcha asosiy shakllaridan foydalanadilar. O'quv faoliyati davomida esa bola o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda izchil hamda mantiqiy ifodalashni o'rganadi. Boshlang'ich ta'limning asosiy dasturiga ko'ra, o'quvchilar ona tilining ma'lum talaffuz, leksik va grammatik me'yorlarini o'zlashtirishi kerak. Me'yorlarni o'rganish va o'zlashtirish jarayonida, albatta, tilda mavjud asosiy me'yorlarning aniq tuzilganligi ham muhim ahamiyatga ega.

Ma'nodosh so'zlar bilan ishlashda amaliy mashg'ulotlar tizimi quyidagi elementlardan iborat bo'lishi lozim:

a) o'quvchilar uchun darsliklarda berilgan matnlardagi ma'nodosh so'zlarni va ma'nodosh so'zlar qatoridagi so'zlar ifodalagan ma'nolar o'rtasidagi farqlarni aniqlash (1-sinf);

b) berilgan so'zning ma'nodoshini topish, ma'nolar o'rtasidagi nozik farqlarni tushuntirish (2-sinf);

d) ma'nodosh so'zlar ishtirokidagi topshiriq va maxsus mashqlarni bajarish (3-sinf);

e) ma'nodosh so'zlar ishtirokida gaplar tuzish orqali nutqda faollashtirish, ya'ni izchil nutqda qo'llash (4-sinf);

f) nutqdagi xatolarni tuzatish, berilgan matnda kelgan ma'nodosh so'zni unga mos kelgan boshqa ma'nodoshiga almashtirish kabi.

4-sinfda o'quvchilarga leksikologik bilim hamda ona tiliga oid ko'nikmalarni chuqurlashtirish ishlari yanada ko'proq tizimli va yaxlit tarzda olib borilishi zarur [4;140–156-b.].

Yuqorida keltirilgan ma'nodosh so'zlarni tizimli o'zlashtirish jarayoni o'quvchilar nutqining tizimli rivojlanib borishiga xizmat qilishi ularning so'z boyligini oshirishi bilan birga tilning leksik va uslubiy jihatlarini chuqurroq o'rganishga imkoniyat berishi maqsadga muvofiq, deb hisoblanadi. Boshlang'ich ta'limda ma'nodosh so'zlarni o'rganish o'quvchilarga nafaqat tilga oid bilimlarni beradi, balki o'quvchilarga o'z ona tilining so'z boyligini va go'zalligini ko'rsatishga imkon beradi, o'quvchilarning o'zbek xalqiga tegishli bo'lgan madaniyat bilan tanishtirib, ularning milliy til va milliy madaniyat haqidagi bilimlarini kengaytiradi.

O'quvchilar nutqini rivojlantirish bo'yicha olib boriladigan ishlar o'quvchilarning o'quv va hayotiy faoliyatlari davomida o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni qo'llay olish imkoniyatini berishi bilan ahamiyatligini hisobga oladigan bo'lsak, o'quvchilarning nutqida ma'nodosh so'zlarni faollashtirishni takomillashtirishda ham amaliy yo'naltirilgan metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda, ona tili darslarida atorf-olam haqidagi tushunchlarni, tabiat dunyosi haqidagi bilimlarni o'zlashtirish uchun tildan foydalanish imkoniyati yuqori deyish mumkin.

Xulosa va takliflar. M.Saidov o'z tadqiqotida ona tilini o'qitish jarayonida mashq va topshiriqlar o'z mohiyatiga ko'ra farqlanishi lozim deb hisoblaydi. Uning ta'kidlashicha, "dastlabki ikki atama borasida ona tili o'qitish metodikasida ikki xil qarash mavjud. G.Azizov, O.Botirov kabilar mashqni topshiriqning bir shakli, deb hisoblasa, Y.G'ulomov, H.Rustamov, B.Mirzaahmedovlar uni o'qitish metodi sifatida talqin qiladilar. M.Saidov A.G'ulomovning "mashq ham o'quv topshirig'ining bir shakli, ham o'qitishning muayyan bir usuli," topshiriq mashqning bir bo'lami, u, asosan, mashqning shartida o'z ifodasini topishini, topshiriq mashqqa qaraganda torroq tushunchani ifodalashini e'tirof etadi" degan fikrini ma'qullaydi [5;25-b.].

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini o'stirish boshlang'ich ta'lim jarayonining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Shunday ekan, o'quvchilar nutqini o'stirish uchun ularning lug'at zahirasini oshirish, uni boyitish, ya'ni, yangi so'zlarni hamda so'zlarning ma'nodoshlarini topshiriq va mashqlar asosida o'zlashtirishlari lozim. Bu jarayonni samarali tashkillash metodikasi esa, bizningcha, to'rt asosiy yo'nalishni ko'zda tutadi.

1) o'quvchilarga so'z va uning ma'nolarini tushuntirish ishlarini tashkillash, ya'ni, har kungi dars jarayonida ona tilining leksik zahirasiga tegishli ma'nodosh so'zlardan 5–10 tasini ma'nolarini o'zlashtirish;

2) o'quvchilar o'rgangan ma'nodosh so'zlar lug'atiga aniqlik kiritish mashq va topshiriqlar yordamida;

3) o'quvchilar o'zlashtirishgan ma'nodoshlar so'zlar lug'atini faollashtirish, ya'ni, o'quvchilar ma'nosini tushunadigan, ammo ulardan nutqiy faoliyatida foydalanmaydigan nafaol ma'nodosh so'zlarni elektron o'quv lug'atlari yordamida faollashtirish [6].

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, boshlang'ich sinf ona tili darsliklarida ma'nodosh so'zlar alohida mavzu sifatida nazariy ma'lumotlar berilmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Демянков В.З. Когнитивная лингвистика как разновидность интерпретирующего подхода. "Вопросы языкознания", 1994, № 4, с. 5.
- (2). Kobilova A.B. Voqelik obyektini perifrastik sinonimlar orqali ifodalash. Tilning leksik-semantik tizimi, qiyosiy-tipologik izlanishlar va adabiyotshunoslik muammolari. Materiallar to'plami, "Durdona", Buxoro, 2022, 11-bet.
- (3). Богусловская Н.Е., Капинос В.И., Купалова А.Ю. и др. Под ред. Т.А.Ладыженской Методика развития речи на уроках русского языка. Кн. для учителя, М., «Просвещение», 2009, 27 с.
- (4). Методика развития речи на уроках русского языка. Кн. для учителя, Н.Е.Богусловская, В.И.Капинос, А.Ю.Купалова и др. Под ред. Т.А.Ладыженской. 2-е изд., испр. и доп. М., «Просвещение», 2008, 140–156 с.
- (5). Saidov M. O'zbek maktablarining 5-sinflarida ona tili ta'limi jarayonida tafakkurni rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlari va ulardan foydalanish metodikasi. Ped. fan. nom-di diss. avtoref., TDPU, Toshkent, 2000, 25 bet.
- (6). Развитие связной речи младших школьников. Режим доступа: <https://docviewer.yandex.ru/?url=http%3A%2F%2Fshigaeva.ru%2Fdoc%2F1.doc&name=1.doc&lang=ru&c=57338aaefbb1/>

**Qutekeeva Roza Artikovna (O'zbekiston davlat Konservatoriyasi Nukus filiali dotsenti;
Roza_kutekeeva@gmail.com)**

AKADEMIK VOKAL DARSIDA TALABANING NAFAS OLIISHI VA UNI MUSTAHKAMLASHI UCHUN PEDAGOG TOMONIDAN OLIB BORILADIGAN MASHQLARNING AHAMIYATI

Annatsiya. Ushbu maqolada talabalarning dars jarayonida ovoz mashqlarini to'g'ri yo'lga qo'yish va ovozni mustahkamlovchi mashqlarning pedagog tomonidan to'g'ri yo'lga qo'yilishi yuzasidan yozilgan bo'lib, bugingi kunda ommalashgan ovoz mashqlarini inson immun tizimiga oid yoshlarda uchrayotgan traxeylarni bartaraf etish yo'llari va ovoz mashqlarining ahamiyati haqida yozilgan.

Kalt so'zlar: opera, san'at, teatr, musiqali drama, solist, rejissor, kompozitor, janr.

**Кутеева Роза Артыковна (Нукусский филиал Государственной консерватории
Узбекистана, доцент; Roza_kutekeeva@gmail.com)**

ВАЖНОСТЬ УПРАЖНЕНИЙ, ПРОВОДИМЫХ ПРЕПОДАВАТЕЛЕМ ДЛЯ УКРЕПЛЕНИЯ И УКРЕПЛЕНИЯ ДЫХАНИЯ УЧАЩЕГОСЯ НА АКАДЕМИЧЕСКОМ УРОКЕ ВОКАЛА

Аннотация. В данной статье написано о правильном выполнении голосовых упражнений учащихся на уроке и правильном выполнении педагогом упражнений по укреплению голоса, а также о популярных сегодня голосовых упражнениях, связанных с иммунной системой человека, о способах устранения трахеита у молодых людей и детей, о важности голосовых упражнений.

Ключевые слова: опера, искусство, театр, музыкальная драма, солист, режиссер, композитор, жанр.

THE IMPORTANCE OF EXERCISES CONDUCTED BY THE TEACHER TO STRENGTHEN AND STRENGTHEN THE STUDENT'S BREATHING IN THE ACADEMIC VOCAL LESSON

Annotation. This article is written about the correct implementation of students' voice exercises during the lesson and the correct implementation of voice strengthening exercises by the pedagogue, and today's popular voice exercises related to the human immune system. written about ways to eliminate tracheitis in young people and the importance of voice exercises.

Key words: opera, art, theater, musical drama, soloist, director, composer, genre.

Taqrizchi A.Kalliyev, O'zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filiali professori.

Kirish. XIX asr oxiri – XX asr boshlaridan O'zbekistonda san'at sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar biz pedagog xodimlarni quvontiradi, ayniqsa yurtimizda pedagogika sohasida keyingi 7–8 yilni olib qarasaq, ancha o'zgarishlar va rivojlanishlarning guvohi bo'lamiz.

Ayniqsa, Qoraqalpog'iston Respublikasida bu sohani rivojlantirishga katta e'tibor qaratilib, ko'pgina o'zgarishlarning, yangilanishlarning guvohi bo'lamiz. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Qoraqalpog'iston Respublikasiga amaliy tashrifi chog'ida O'zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filialini tashkil etish to'g'risidagi topshirig'iga binoan, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 5-apreldagi 186-qaroriga muvofiq, O'zbekiston davlat konservatoriyasining Nukus filiali tashkil etildi.¹

Bu kabi uzoqni ko'zlab amalga oshirilgan islohotdan qoraqalpog'istonlik yoshlarning orzu-tilaklari, umidlari uyg'onib, katta imkoniyat eshiklari ochilgani biz, professor-o'qituvchilarga ham mas'uliyat yuk-

¹ Lex.uz

laydi. Ushbu dargoh tashkil etilganidan buyon beshta mutaxassislik, to'qqizta yo'nalish bo'yicha talabalar tahsil olib kelmoqda. Akademik vokal yo'nalishida yurtimizga tanilgan professor-o'qituvchilar dars berib kelmoqda. Talabalar ham ushbu yo'nalish bo'yicha xalqaro va respublika miqyosidagi ko'rik-tanlovlarga qatnashib muvaffaqiyatlar qozonmoqda, bu esa pedagogga yana ham kuch va g'ayrat ulashishi turgan gap.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Mavzu yuzasidan, asosan o'zining ilmiy va amaliy pedagogik faoliyatimda sinovdan o'tkazilgan amaliy ishlarimdan va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va farmonlari, Allanbayev R. "Jeke qosiqshilik óneri" o'quv qo'llanma. Muxamedova G. "Qosiqshilikdan sabaq beriw" (darslik), Savapov R. "Musiqada o'quvchilar ovozi tarbiyalashda vokal san'atining yangi texnologiyalar asosida o'rgatishning ahamiyati" nomli maqolasi va internet manbalaridan foydalanildi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqot jarayonida, asosan, O'zbekiston davlat Konservatoriyasi Nukus filialining dars jarayonlarida talabalarning ovoz mashqlarini amalga oshirishda pedagog tomonidan amalga oshirilgan xatti-harakatlar, mashqlarning to'la-to'kis amalga oshirilishi katta ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, talabalarni yetuk kadr sifatida tayyorlashda, dastavval, mutaxassislik fanlariga alohida e'tibor bermog'imiz lozim. Akademik vokal darsida talabani nafas olishi va uni mustahkamlashi uchun pedagog tomonidan olib boriladigan mashqlarning ahamiyati katta bo'lib, asosan, dars ma'noyida bir-birini takrorlamagan ovoz mashqlarini amalga oshirishni talab qiladi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Tadqiqotni amalga oshirishda talabalarning yosh ko'rsatkichlariga katta ahamiyat beriladi, masalan, mutatsiya davrida talaba ovozi bilan, iloji boricha, amaliy mashqlar qilmasdan, ularga faqatgina darslarda muntazam qatnashib, mutatsiya davridan o'tgan talabalar mashqlarini tinglash orqali, talabada eshitish va ritmik sezish qobiliyatini shakllantirish muhim hisoblanadi.

Mutatsiya (lotincha: mutare – "o'zgarish, almashish") organizmlar genetik moddasining asos juftlaridagi o'zgarishdir.¹

Ovoz mashqlarini boshlashda dastavval ovoz apparatlarini qizdirish maqsadga muvofiq sanaladi.



Vokal artistning ichki a'zolari.

Tamoq, burin bo'shliqlari nafas olish naycha yo'lagi hamda o'p-kalar ovoz hosil qilish a'zolari hisoblanadi.

Yirik ovoz bog'lamlari qo'shiq aytishda qatnashmaydi, lekin ular tarkibida suyuqlik bilan ta'minlovchi bezlar mavjud bo'lib, ularning vazifasi haqiqiy ovoz to'qimalarini ho'llab turadi.²

Ovoz mashqlari – vokal ijrochilari mashqlari qo'shiqchining madaniyati, ovoz tiniqligi va tinglash mahoratini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Vokalist, birinchi navbatda, uning asosiy quroli ovozi bo'lganligi bois, ovozni saqlovchi, uni parvarish qiluvchi omillarga yuzlanishi kerak. Kunlik 7–8 soat demolish, achchiq va o'tkir shira mahsulotlardan tiyilishi, albatta, to'g'ri ovqatlanishi zarur.

Qo'shiqchi har kuni qo'shiq aytishga tayyor turmog'i lozim.

Uning uchun u ma'lum gigienik qoidalarga amal qilishi shart. Ovoz apparatini charchashan asray bilishi, ko'p gapirmaslik, ortiqcha ovozni zo'riqtirib qo'shiq aytmalik, yuqori notalarni keraksiz foydalanmaslik kerak. Hech qanaqasiga tayyorgarlik ko'rmay turib, qo'shiq aytish kerak emas. Mashqlarni shunday tuzish kerakki, to'xtamasdan qo'shiq aytish bir soatdan oshmasligi shart.³

Ovoz mashqlarining o'ziga yarasha maqsadlari bor bo'lib, ular ovoz apparatlarini mustahkamlash, toza intonatsiya, diksiya tiniqligi, artikulyatsiya aktivligiga erishish, ovozni kuchaytirishda tembrning rangbarangligini shakllantirish maqsadida qo'llaniladi. Masalan, «Legato» bir nasha ovozlarni birlashtirib aytish, stakatto aytishda esa unli tovushlarni tenglashtirish va hokazolarga amal qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ovozlarni sozlash haqida gap ketar ekan, albatta, traxeya terminiga duch kelamiz, "traxeya" – bu yunonchada nafas olish yo'lagi deganni anglatadi.

Dastavval burin va og'iz bo'shlig'idan boshlanib, havoni o'pkaga yetkazish bilan birga pastki dam olish a'zolari qatoriga kirib, ushbu a'zo so'lak qabatining harakatchanligidan rivojlanadi hamda burin yoki tamoqning virusli kasalliklarining murakkablashuvi natijasidan kelib chiqadi. Traxeyani keltirib chiqaruvchi omillar tutin yoki gazlardan, ifloslangan havodan dam olish, tamaki chekish, virusli va bakteriya infek-

¹ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Mutatsiya>

² Allanbaev R. Jeke qosiqshilik óneri. O'quv qo'llanma, "Tamaddun" nashriyoti, T., 2023, 17-bet.

³ Muxamedova G. Qosiqshilikdan sabaq beriw. "Ilimpaz" nashriyoti, Nókis, 2023, 58-bet.

siyalaridan paydo bo'ladi. Bu infeksiya, asosan, yosh bolalarda ko'p uchrashadi, ularning immune tizimining to'liq shakllanmaganidan paydo bo'ladi.

Talabning bunday holatdan chiqib ketishiga, vokal ovoz mashqlarining uslublaridan, ya'ni, qulay tuzilgan, shakllangan unli ovozlardan, ularning oraliq masofasini kamaytirish usublari asosida ovoz mashqi qo'llaniladi. Agarda talaba bir unli tovushni aytishga qiynaladigan bo'lsa, boshqa o'zlashtirilgan unli tovush bilan aralashtirib ayishiga imkoniyat yaratiladi.

Musiqqa madaniyati darslarida qo'shiqlar vositasida o'quvchilarda vokal san'ati ko'nikmalarini shakllantirish orqali jahon va o'zbek vokal san'atining naqadar boy tarixga ega ekanligi xususida o'quvchilarning bilimiga ega bo'lishi kelajakda vokal san'atida buyuk insonlar yetishib chiqishida katta ahamiyatga ega.¹

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Har qaysi kasb borki, uni tanlash ekanligi hammaga tengdek yaratilgan. Akademik vokal yo'nalishida tehsil olayotgan talabalar ham, boshqa soha vakillari kabi o'zini va ovozi asrashi shart. Masalan, sportchilar u futbolchi bo'lsin, yoki tennischi o'z ustida muntazam ishlab bormasa, o'ziga e'tibor qaratmasa, musobaqalarda o'z natijasini beradi. Shunday ekan, bo'lajak vokal artisti ham muntazam ravishta o'z ustida ishlamasa, ovozi to'g'ri parvarishlamasa, albatta, sahnaga chiqqan paytida o'z so'zini aytadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

- (1). Allanbaev R. Jeke qosiqshilik óneri. O'quv qo'llanma, "Tamaddun" nashriyoti, T., 2023, 17-bet.
- (2). Muxamedova G. Qosiqshilikdan sabaq beriw. "Ilimpaz" nashriyoti, Nókis, 2023, 58-bet.
- (3). <https://art.jdpu.uz/index.php/art/article/view/5055/3492>
- (4). Lex.uz
- (5). <https://uz.wikipedia.org/wiki/Mutatsiya>

Axunjonov Alisher (T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti mustaqil izlanuvchisi; alisheraxunjanov1976@gmail.com)

SHAXMAT KICHIK YOSHDAGI MAKTAB O'QUVCHILARINING KREATIV QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRUVCHI DIDAKTIK VOSITA SIFATIDA

Annotatsiya. Maqolada shaxmat kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining kreativ qobiliyatlarini shakllantiruvchi didaktik vositalardan biri ekanligi haqida fikr yuritilgan. Xususan, maqolada dunyoda globallashuv jarayonlari kechayotgan bugungi kunda ta'lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan ishlarni yanada takomillashtirib borish va shu asosda yosh avlodni bilim, ko'nikma va malakalarini jamiyat talablari bilan uzviyligini ta'minlash orqali o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini shakllantirishda shaxmat ta'lim sifatini ta'minlovchi vositalardan biri ekanligini keltirilgan. Suningdek, shaxmatning ta'lim sifatini ta'minlashdagi o'rni haqida xorijiy olimlarning olib borgan ilmiy tadqiqotlari qiyosiy tahlil qilingan. Mamlakatimizda ham tanlab olingan 1000 ta umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 2-,3-,4-sinlarida jismoniy tarbiya fani doirasida 18 soatlik reja asosida shaxmatni o'qitish bo'yicha ishlar olib borilayotganligi o'z aksini topgan. Maqola muallifi tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlariga (Andijon viloyati misolida) jalb qilingan umumiy o'rta ta'lim maktablari hamda respondentlar soni keltirilgan. Tajriba-sinov ishlarining birinchi hamda ikkinchi bosqichlarining yakuniy natijalari jadval ko'rinishda bayon etilgan. Shu bilan birga, o'rganilgan adabiyotlar tahlili va tariba-sinov ishlarining yakuniy natijalari asosida xulo-sa qilingan.

Kalit so'zlar: shaxmat, kreativ, yosh avlod, didaktik vosita, ta'lim sifati, divergent, psixologik jarayon, ko'nikma, qobiliyat, xotira, sezgirlik, idrok, tasavvur, tanqidiy fikrlash.

Ахунжонов Алишер (соискатель, Узбекский научно-исследовательский институт педагогических наук имени Т.Н.Кары Ниязи; alisherahunjanov1976@gmail.com)

ШАХМАТЫ КАК ДИДАКТИЧЕСКОЕ СРЕДСТВО, ФОРМИРУЮЩЕЕ ТВОРЧЕСКИЕ СПОСОБНОСТИ ЮНЫХ ШКОЛЬНИКОВ

Аннотация. В статье рассматривается вопрос о том, что шахматы являются одним из дидактических средств, формирующих творческие способности младших школьников. В частности, когда в мире происходят процессы глобализации, шахматная подготовка способствует формированию творческих способностей учащихся путем дальнейшего совершенствования работы, проводимой в сфере образования и на этой основе обеспечения знания, развитие умений и навыков

¹ <https://art.jdpu.uz/index.php/art/article/view/5055/3492>

молодого поколения. Отмечено, что это одно из средств обеспечения качества образования. Также сравнительно проанализированы научные исследования зарубежных учёных о роли шахмат в обеспечении качества образования. В нашей стране во 2, 3 и 4 классах 1000 общеобразовательных учреждений шахматы преподаются по 18-часовому плану в рамках физического воспитания. Приведено количество общеобразовательных школ и респондентов, участвующих в научных исследованиях, проводимых автором статьи (на примере Андижанской области). Итоговые результаты первого и второго этапов экспериментальных испытаний представлены в виде таблицы. При этом был сделан вывод на основе анализа изученной литературы и окончательных результатов обучения и тестирования.

Ключевые слова: шахматы, творчество, молодое поколение, дидактическое средство, качество образования, дивергент, психологический процесс, мастерство, способности, память, чувствительность, восприятие, воображение, критическое мышление.

Akhunjonov Alisher (independent researcher of the Scientific Research Institute of Pedagogical Sciences of Uzbekistan named after T.N.Kari Niyazi; alisherahunjanov1976@gmail.com

CHESS AS A DIDACTIC TOOL THAT SHAPES THE CREATIVE ABILITIES OF SCHOOLCHILDREN

Annotation. *The article discusses the fact that chess is one of the didactic tools that shapes the creative abilities of schoolchildren. In particular, when globalization processes are taking place in the world, chess training contributes to the formation of students' creative abilities by further improving the work carried out in the field of education and, on this basis ensuring that the knowledge, skills and abilities of the younger generation are integrated with the requirements of society. It is mentioned that it is one of the means of ensuring the quality of education. Similarly, the scientific research conducted by foreign scientists on the role of chess in ensuring the quality of education has been comparatively analyzed. In our country, in the 2nd, 3rd, and 4th grades of 1000 general secondary educational institutions, chess is taught on the basis of an 18-hour plan within the scope of physical education. The number of general secondary schools and respondents involved in scientific research conducted by the author of the article (in the case of Andijan region) is given. The final results of the first and second stages of the experimental tests are presented in the form of a table. At the same time, a conclusion was made based on the analysis of the studied literature and the final results of the training and testing.*

Key words: chess, creativity, young generation, didactic tool, quality of education, divergent, psychological process, skill, ability, memory, sensitivity, perception, imagination, critical thinking.

Kirish. Bugungi kunda jamiyat va iqtisodiyotning istiqbollari kreativ fikrlaydigan, tezkorlikka ega bo'lgan, professional va ijtimoiy qiyin masalalarni yecha olishga tayyor mutaxassislarini talab qilishini aniq va ravshan qilib qo'yimoqda. Buning uchun uzluksiz ta'lim tizimining asosiy bo'g'inlaridan biri bo'lgan umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'sib kelayotgan yosh avlodni kreativ fikrlay olishga o'rgatish orqali oldilarida turgan muammolarini o'zlariga yecha oladigan, axloqan tarbiyalangan, ma'naviy yetuk shaxs bo'lib kamol topishi uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish zarur. Jahon tajribasi keyingi yillarda ko'plab rivojlangan mamlakatlarda ta'lim sifatini ta'minlovchi didaktik vositalardan biri sifatida shaxmat amaliyotini maktab ta'limi dasturlariga kiritish tendensiyaga aylanib borayotganligini tasdiqlamoqda.

Masalan, Turkiya, Ispaniya, Italiya, Kanada, Xitoy, Shvetsiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Amerika Qo'shma Shtatlari kabi qator rivojlangan mamlakatlarda shaxmatga o'qitish maktablarning boshlang'ich sinf ta'lim dasturlariga o'quv fani sifatida kiritilgan [2]. Kanada davlatining 130 ming nafar 2–6-sinf o'quvchilari matematika fani dasturi doirasida qo'shimcha fan sifatida shaxmatni o'rganmoqdalar. Turkiya davlatida 2006-yilda juda katta ta'lim loyihasi ish boshlagan. Bunda shaxmatni didaktik vosita sifatida ta'limga joriy etish orqali millionlab o'quvchilarning kelajagini ta'minlash maqsad qilib olingan. Turkiya davlatida shaxmat maktablarning dars jadvaliga kiritilgan. Bugungi kunda Turkiyaning 64 mingta maktabida 12.000 nafar o'qituvchi yoshlarga shaxmatni o'rgatib kelmoqda. Turkiyalik mutaxassislar "Shaxmatni o'quv jarayoniga joriy qilinishi natijasida o'quvchilar maktabda asosiy fanlarni yuqori o'zlashtirayotganligini" ta'kidlamodalar [3].

Mamlakatimizda ham shaxmatni umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quv dasturlariga joriy etish bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2021-yil 14-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Shaxmatni yanada rivojlantirish va ommaviylashtirish hamda shaxmatchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4954-qarori qabul qilindi. Mazkur qaror asosida "Yosh avlodning mantiqiy fikrlash doirasini kengaytirish, intellektual salohiyatini rivojlantirish maqsadida 2021–2022-o'quv yilidan boshlab tajriba tariqasida respublikamizdagi 1000 ta umumiy o'rta ta'lim

maktabida 2-, 3-, 4-sinf o'quvchilariga "Jismoniy tarbiya" fani tarkibida 18 soatlik reja asosida shaxmatni o'qitish yo'lga qo'yildi [1].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Horijiy hamda mahalliy olim va mutaxassislarining imiy manbalarida shaxmat ta'lim sifatini oshiradigan didatik vositalardan biri ekanligi keltirilgan. Masalan, A.X. Maxmudov "Shaxmat masalalari bu qadimiy o'yinning eng go'zal qirralarini o'zida aks ettiradi. Uning sirli olamiga sayohat qilmasdan turib, bunday ajoyib o'yinning donishmandigini egallash mumkin emas. Shaxmat masalalari nafaqat nazariy bilim va ko'nikmalarni, balki kombinatsiyali o'yin ko'nikmalarini rivojlantirishga ham yordam beradi. Shu bilan birga, shaxmat o'quvchilarda xotira, diqqat, tasavvur, idrok etish hamda qunt bilan boshlangan ishni oxiriga yetkazish kabi shaxsiy sifatlarni shakllantira oladi", deya ta'kidlaydi" [4]. Sunungdek, rossiyalik mutaxassis V.V.Akishina "Faol shaxmat o'ynab yurgan bolalarning intellektual salohiyatini ishga solish tezligi, shaxmat o'ynamay yurgan bolalarnikiga qaraganda 40% yuqori bo'lganligini e'tirof etgan [5]. Yuqoridagi bildirilgan fikrlardan kelib chiqib, shaxmat didaktikasining o'zi-ga xos pedagogik imkoniyatlari mavjud, degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Quyida ushbu o'xshashliklarni keltiramiz (1-jadval).

1-jadval


O'quvchilarning psixologik jarayonlarini rivojlantirishda pedagogik metodlar va shaxmat o'yini o'rtasidagi o'xshashliklar

№	Psixologik jarayon	Pedagogika	Shaxmat didaktikasi
1	Xotira	Ta'limda kompetensiyali yondashuv tablari asosida samarali o'qitish metodikalaridan foydalangan holda, o'quvchilar o'zlashtirishi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar vaziyatlarni ustiga qurilsa, bu jarayonda o'quvchilarning yuqori darajadagi faolligi ta'minlanadi. Bunday jarayonlar o'quvchilarning xotirasini kuchaytiradi.	Shaxmat mashg'ulotlarida: birinchidan , muammoli vaziyatlarbi yaratishga qaratilgan mashqlarini bajarish orqali; ikkinchidan , o'yin davomida ko'psonli vaziyatlarni yaratilishi, yaratilgan vaziyatlarni o'quvchilar tomonidan tahlil qilinishi orqali o'quvchilarda shaxmatga oid maxsus bilimlarni o'zlashtirilishi. Shuningdek, shaxmat doskasidagi sipohlarni harakatlari (yurish)ni eslab qolish orqali o'quvchilarning xotirasi mustahkamlanib boradi.
2	Sezgirlik	Ta'lim-tarbiya jarayonida muammoli hamda mantiqiy fikrlashga qaratilgan vaziyatlarni yaratish o'quvchilarning kognitiv (anglash), sezish va his qilish qobiliyatlarini shakllantiradi.	Shaxmat mashg'uloti davomida hech qanday mantiqiy holatlarni ishlatmasdan va murakkab kombinatsiyalarni hisoblamasdan o'yinchiga o'zini g'oyasini haqiqatga aylantirishga yordam beradigan jarayon.
3	Tasavvur	Masalani yoki muammoni yechimlarini avvaldan tasavvur qila olish.	Shaxmat taxtasidagi vaziyatlarni avvaldan tasavvur qila olish.
4	Diqqat	Mavzudagi eng muhim jihatlarni o'rganishga bo'lgan e'tibor qaratish orqali o'quvchining diqqatini oshirish (Eyzenxayerning olti shlyapasi).	Shaxmatda bir necha vaziyatlar ichidan eng maqbul variantini ajratib olishga e'tibor qaratiladi.
5	Idrok	Muammoli vaziyatlar yaratish asosida o'quvchilarni voqelikni idrok etish jarayonlarini ongda aks ettirishi sifatlarini rivojlantirish.	Shaxmatda yaratilgan muammolarni idrok etish asosida samarali yechimlarni topish.
6	Tanqidiy fikrlash	Dars jarayonida qo'yilgan muammolarni yechimiga qaratilgan dars mashg'ulotlarida muammoni yechimiga qaratilgan ma'lumot yoki axborotlarni saralab olish.	Shaxmatda vaziyatlarni baholay olish qobiliyati, vaziyat yaratish maqsadida bir necha yurishlar ichidan eng samarali yurishni aniqlash. Shaxmat taxtasida har bir yurishda tanqidiy fikrlashga to'g'ri keladi.

Demak, shaxmat didaktik vosita sifatida strategik va taktik nuqtayi nazardan pedagogik jarayondagi kabi o'quvchining xotira, sezgirlik, tasavvur, diqqat, idrok, tanqidiy fikrlashdek psixologik jarayonlariga ta'sir etish asnosida o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini shakllantirishni tartibga soladi.

Shu o'rinda Abu Nasr Forobiyning quyidagi fikrlarini keltiramiz: "... inson tanasi, miyasi, sezgi organlari bilan tug'ladi, lekin aqliy bilimi, ma'naviyligi, ruhiy va axloqiy hislatlari... boshqa insonlar bilan muloqotda vujudga keladi. Inson o'z faoliyati davomida ularni egallaydi, ularga erishadi" [6].


Abu Nasr Forobiy fikrlaridan kelib chiqib, o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan jihatlar, asosan, quyida keltirilgan psixologik jarayonlarni rivojlanganlik darajasi bilan bog'liq ekanligi to'g'risida xulosa qilishimiz mumkin (1.1-rasm).



1-1-rasm. Kreativ qobiliyatlarni rivojlantiruvchi psixologik jarayonlar.

Shu o'rinda biz "Kreativ qobiliyat – bu inson sezgi organlarining yuqori darajadagi faolligi asosida an'anaviy fikrlashni chetlab o'tib, amaldagi echimdan tubdan farq qiluvchi qiymatga ega, kutilmagan natijalarga erishish", deya o'zimizning ta'rifimizni keltiramiz.

Muhokama. Kreativlik tushunchasi XX asr o'rtalarida amerikalik psixolog Djoy Pol Gilford tomonidan ilgari surilgan. Dj.Gilford "Kreativlikni universal ijodiy faoliyat ekanligini aniqladi hamda kovergent va divergent tushunchalarni bir-biridan farqlashni taklif qildi". Uning konsepsiyasiga ko'ra, konvergen fikrlash bu masalaning bitta aniq yechimini topish bo'lsa, divergent fikrlash deganda masalaning turli hil yechimlarini topsih nazarda tutiladi. Dj.Gilfordning fikriga ko'ra, "Kreativlik bir qolipda (streatip) fikrlash usullaridan voz kechish qobiliyati bo'lib, divergent fikrlashga asoslanadi" [7]. Shaxmat o'yinida bir yurish amalga oshirib, natijaga erishish uchun bir necha vaziyatlar izlanadi. Bunda o'quvchidan muammolarni yechishda yuqori darajadagi xotira, sezgirlik, tasavvur, idrok, tanqidiy fikrlash talab qilinadi. Shu asosda o'quvchilarni kreativ qobiliyatlarini rivojlantirib boriladi (2.1.3-rasm).



2.1.3-rasm. Divergent fikrlash va shaxmat didaktikasi o'rtasidagi bog'liq jihatlar.

Demak, xulosa o‘rnida shaxmat didatikasida kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarining kreativ qobiliyatlarini shakllantira oluvchi jihatlar mujassam ekanligini keltirishimiz.

Natijalar. Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda, ikki bosqichda o‘tkazilgan tadqiqot natijalarini Andijon viloyati misolida keltiramiz. Yuqorida keltirilganidek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ qobiliyatlarini aniqlashda Dj.Gilford tomonidan asos solingan quyidagi jihatlariga e‘tibor qaratildi.

- tezkorlik – chizma, rasm va so‘zlarning mazmunidan qat‘iy nazar, o‘quvchilar tomonidan izlab topilgan chizma, rasm va so‘zlarning sanog‘iga;

- moslashuvchanlik – o‘quvchilar tomonidan ijodkorlikni ishga solib, boshqa o‘quvchilarnikidan farq qiluvchi chizma, rasm va so‘zlarni topa olishi;

- originallik – test shaklidagi chizma, rasm va so‘zlardan ham mazmun va shakl jihatdan yuqori turuvchi chizma, rasm va so‘zlarning topa olishi;

- g‘oyalarning ishlab chiqilganligi – test shaklidagi chizma, rasm va so‘zlardan o‘quvchilarning tomonidan ko‘proq yangilik qo‘sha olishi inobatga olindi.

Ushbu jihatlar orqali o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantiruvchi psixologik jarayonlari xotira, sezgi, tasavvur, idrok, tanqidiy fikrlash darajalari shartli qiyoslash indikatori yordamida aniqlandi.

Tadqiqotning birinchi bosqichi umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining tajriba va nazorat sinflarida olib borildi. Tajriba-sinov ishlari tajriba tariqasida tanlab olingan Baliqchi tumanidagi 36-, Bo‘ston tumanidagi 8-, Buloqboshi tumanidagi 9-, Oltinko‘l tumanidagi 5-, Shahrixon tumanidagi 26-umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida hamda nazorat guruhi sifatida tanlab olingan Baliqchi tumanidagi 14-, Bo‘ston tumanidagi 6-, Buloqboshi tumanidagi 4-, Oltinko‘l tumanida 8-, Shahrixon tumanidagi 53-umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 2-sinflarida olib borildi. Tajriba-sinov ishlariga tajriba guruhlarida 212 nafar, nazorat guruhlarida 188 nafar boshlang‘ich sinf o‘quvchilari jalb qilindi.

Tadqiqotning ikkinchi bosqichiga tariba guruhlarida 210 nafar, nazorat guruhlarida 186 nafar boshlang‘ich sinf o‘quvchilari jalb qilindi. Tadqiqot natijalarining jadval shaklini keltiramiz.

Tadqiqotning birinchi bosqida tajriba va nazorat guruhlarida nazariy va amaliy topshiriqlarni yechish natijalari (viloyat kesimida)

Viloyat	O‘quvchilar soni (TG/NG)	O‘quvchilar soniga nisbatan % ko‘rsatkichi					
		Tajriba guruhi (TG)			Nazorat guruhi (NG)		
		Yuqori	O‘rta	Past	Yuqori	O‘rta	Past
Andijon	400 (212/188)	31	34	35	30	34	36

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, tadqiqotning birinchi bosqichida tajriba va nazorat guruhlarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining divergent (tezkorlik, moslashuvchanlik, originallik, g‘oyalarning ishlab chiqilganligi) fikrlashlari deyarli bir xil.

Tadqiqotning ikkinchi bosqichida tajriba va nazorat guruhlarida nazariy va amaliy topshiriqlarni yechish natijalari (viloyatlar kesimida)

Viloyat	O‘quvchilar soni (TG/NG)	O‘quvchilar soniga nisbatan % ko‘rsatkichi					
		Tajriba guruhi (TG)			Nazorat guruhi (NG)		
		Yuqori	O‘rta	Past	Yuqori	O‘rta	Past
Andijon	400 (210/186)	41	42	18	35	34	31

Tadqiqotning ikkinchi bosqich natijalari bo‘yicha tajriba va nazorat guruhlarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining divergent (tezkorlik, moslashuvchanlik, originallik, g‘oyalarning ishlab chiqilganligi) fikrlashlari shaxmat o‘qitilayotgan tajriba guruhlarida yuqori bo‘lganligini tasdiqlamoqda.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan qiyosiy tahlillar hamda tajriba-sinov ishlarining natijalariga ko‘ra shaxmat o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlarini shakllantiruvchi didaktik vositalardan biri ekanligini haqida xulosa qilishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-yanvardagi “Shaxmatni yanada rivojlantirish va omaviylashtirish hamda shaxmatchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4954-qarori.

(2). И.Г.Сухин. “Шахматы как надпредметная учебная дисциплина в системе образования России и зарубежных стран (выступления на международной научно-практической конференции “Шахматы-инструмент повышения интеллектуального уровня детей”. 3.10.2010 г.

(3). ug.ru/archive/22826

(4). A.Maxmudov, M.Xaylayev, A.Axunjonov. Shaxmat bo'yicha mashqlar va masalalar to'plami. Qo'llanma, Toshkent, “Nodirabegim”, 2021, 70 s.

(5). В.В.Акишкина. Как определить способности к обучению шахматной игре ребёнка 5–7 лет. Методическая разработка, г. Урай, 2011.

(6). Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. “Yulduzcha”, 2008, 224-bet

(7). vikent.ru/enc/1802/#:~:text=

Buriyev Akbar Yuldoshevich (Iqtisodiyot va pedagogika universteti erkin tadqiqotchisi)
AMALIY MASHG'ULOTLARDA NEFT VA GAZ SOHASI BO'LAJAK MUHANDISLARINING
KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

***Annotatsiya.** Bo'lajak muhandislarning fikrlash xususiyatlarini rivojlantirish zaruriyligi masalasi aniqlashtiriladi. Talabalarni standartlashtirilgan usullar yordamida texnik masalalarni yechishga o'rgatish metodlari va texnikaga oid texnik masalalarni yechish jarayonida hosil bo'ladigan bilim va ko'nikmalar keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:** kasbiy fikrlash, muammoli vaziyatlar.*

Буриев Акбар Юлдашевич (внештатный исследователь экономико-педагогического университета)

РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ
НЕФТЕГАЗОВОЙ ОТРАСЛИ НА ПРАКТИЧЕСКИХ ЗАНЯТИЯХ

***Аннотация.** Уточнен вопрос о необходимости развития практической компетентности по физике будущих инженеров. Представлены методы обучения студентов решению технических задач с использованием стандартизированных методов, а также знания и умения, которые формируются в процессе решения физических задач, связанных с техникой.*

***Ключевые слова:** профессиональное мышление, проблемные ситуации.*

Buriyev Akbar Yuldoshevich (Freelance researcher at the University of Economics and Education)

DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCIES OF FUTURE ENGINEERS OF THE
OIL AND GAS INDUSTRY IN PRACTICAL CLASSES

***Annotation.** The issue of the need to develop practical competence in physics for future engineers has been clarified. Methods for teaching students to solve technical problems using standardized methods are presented, as well as knowledge and skills that are formed in the process of solving physical problems related to technology.*

***Key words:** professional thinking, problem situations.*

Kirish. Neft va gaz sohasida kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirish sohasida pedagogikada ilmiy va amaliy qiziqishning eng dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lajak muhandislarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish bo'lib, ularning texnik obyektlar bilan ishlash muvaffaqiyatini belgilab beradi. Bu jarayon har qanday texnikaga oid bilimlarni o'rganish va texnikaga oid qonun, hodisalarlardan foydalanish orqali texnik (mashina, mexanizm, qurilma va boshqalarga oid) masalalarni yechishdan boshlanadi.

Yechilishi qiyin bo'lgan masalalar yechimi evristik usullar yordamida bilimli shaxslar tomonidan taklif qilinadi. Biroq texnik masalalarni yechishda tajriba to'plash ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi (IMEN), ixtirochilik masalalarini yechish algoritmi (IMEA) va h.k. standart metodlar majmuasiga ega bo'lgan usullarni ishlab chiqishga olib keldi. Texnik masalalar yechimlarini izlashning standartlashtirilgan usullaridan foydalanish ijodiy jarayonni yo'q qilmaydi, lekin uni ratsionallashtiradi, bu esa ma'lum bo'lgan yechim usullarini izlashga vaqt va kuch sarflamaslikka imkon beradi. Bu usullar muhandis optimal tarzda kerakli natijani olish va texnik qiyinchiliklarni yengish uchun bilishi zarur bo'lgan ijodiy jarayondagi qonuniyatlarni o'z ichiga oladi. Muammoni yechish natijasida keyingi bosqichlar uchun qo'llanma bo'lib xizmat qiluvchi «yechim modeli» olinadi. Shu sabablarga ko'ra, bu bosqich juda muhim hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). “Amaliy mashg'ulotlarda neft va gaz sohasi bo'yicha muhandislar uchun kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish” mavzusiga oid adabiyotlar ommalashtirilgan. Bu mavzuga oid adabiyotlar, muhandislik sohasidagi yangiliklarni, texnologiyalarni va amaliyotlarni o'rganish, ularni dasturlash, neft va gazni eksport qilish jarayonlari, muhandislik amaliyotlarida innovatsiyalar, texnik jarayonlarni rivojlantirish, energiya resurslarini muhofaza qilish va boshqalar kabi mavzularni qamrab olib boradi. Bu adabiyotlar o'rtasida texnik va ilmiy muhitni tushunarli o'rganish-

lari, muhandislik va neft-gaz sohasidagi yangiliklarni o'rganish uchun kerakli tadqiqotlar, ushbu sohaning raqobatbardoshligi va mustaqillikning muhimligi kabi muhim mavzular ham mavjud. Ular muhandislik talabalarining va mutaxassislik qilayotganlarining mutaxassislik darajasini oshirishga yordam beradi.

Bu adabiyotlardan biri "Neft va gaz tizimlarining optimallashtirilishi" nomi bilan nomlangan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari bo'lishi mumkin. Bunda neft va gaz sohasidagi muammolar, ularning yechimlari, tizimlari va jarayonlari, texnologik yutuqlar va shu kabi mavzular keng qamrovda ko'rib chiqilgan. Boshqa adabiyotlar esa texnologik rivojlantirish, muhandislik hodisalari, inovatsiyalar va neft-gazning ekologik muammolari kabi mavzularni o'z ichiga oladi. Bular hammasi birgalikda, muhandislik sohasidagi mutaxassislik va ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan mavzular hisoblanadi. Bu adabiyotlar muhandislik talabarlari, professor-o'qituvchilar, soha mutaxassislari va ilmiy tadqiqotchilar uchun qo'llanma sifatida yaxshi foydalanishlarni ta'minlaydi.

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar texnik obyektlarni takomillashtirish uchun texnik masalalarni yechishni o'rganadilar. Texnik obyekt deganda o'zaro bog'liq moddiy elementlarning ma'lum bir integral birligini tushunamiz. Ixtisoslik fanlaridan amaliy mashg'ulotlarda o'quv dasturidagi texnik masalalarni yechishda, uning loyihalash xususiyatlarini hisobga olmagan holda, optimal prinsipial yechimlari bilan cheklanamiz. Masalani yechish davom etayotgan texnik jarayonning xususiyatlari uni nazorat qilish usullarini yaratishga qanday xizmat qilishini ko'rsatish imkonini beradi. Texnik masalani yechishning yuqoridagi misolda algoritm va ba'zi standart yechimlarining qo'llanilishi aniq ko'rsatib berilgan. Biroq texnik masalalarni yechish uchun algoritm va standartlarni qo'llashda tajribaga ega bo'lgan talabalarga bunday masalalarni taklif qilish tavsiya etiladi, ya'ni fanni o'rganishning birinchi yili oxirida qo'llash mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology). Amaliy mashg'ulotlarda neft va gaz sohasi bo'ylab muhandislar uchun kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning tadqiqot metodologiyasi, muhokama va amaliyotlarni o'z ichiga oladi. Quyidagi bosqichlar bilan batafsil o'rganiladi.

Ko'rsatmalar. Tadqiqotning boshlanishi uchun maqsad va maqsadlarni aniqlash. Bu o'rganishda qanday kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning kerakli ehtiyoatlarni aniqlashda yordam beradi.

Tahlil. Neft va gaz sohasi bo'yicha muhandislar uchun kerakli kasbiy kompetensiyalar tahlili. Bu qadam, hozirgi maqbul kompetensiyalar va kutilayotgan yangi kompetensiyalarni aniqlashga yordam beradi.

Tadqiqot rejasi tuzish. Tadqiqotning metodologiyasi va usullarini tuzish. Bu qadam, tadqiqotni o'rganish va amaliy amallarni boshlashda yordam beradi.

Ma'lumot yig'ish. Neft va gaz sohasi bo'yicha muhandislar uchun kerakli ma'lumotlarni to'plash. Bu qadam tadqiqotning yaxshi tuzilishi va qo'llanilishi uchun zarur ma'lumotlarni to'plashni ta'minlaydi.

Hisobot yozish. Natijalarni hisobotlarga olish. Bu qadam, rivojlanayotgan kasbiy kompetensiyalarni qog'ozga yozish va ularga amal qilish jarayonida muhimdir.

Metodologiya neft va gaz sohasi bo'yicha muhandislar uchun kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida qarorlarni o'rganish va ma'lumotlarni to'plashda yordam beradi. Bu qadamlar yo'l, muhandislar uchun ilg'or kasbiy rivojlanishni ta'minlashda yordam beradi.

Ixtisoslik fanlariga oid masalani yechish bo'yicha harakatlarni bajarishda o'quvchilar masalaning yechimi uchun ishlatishi mumkin bo'lgan qonun va hodisalarni aniqlash uchun katta hajmdagi adabiyotlar bilan tanishishlari kerak. Ixtisoslik fanlarini o'rganishni boshlagan va texnik masalalarni yechish ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonining boshida bo'lgan talabalar uchun texnik muammolarni hal qilishda ishni qanday tashkil qilish kerakligi haqida ko'rsatma berishimiz zarur. Boshlang'ich kurs talabarlari o'rganishi lozim bo'lgan asosiy narsa: kasbga yo'l fan (texnika sohasi) muammolari doirasini tushunish, hunarning ko'nikma va sirlarini egallashdan boshlanadi.

Individual masalalarni yechish ko'plab mutaxassislarning sa'y-harakatlarini talab qiladi. Ishlab chiqarish masalalarini yechish uchun nafaqat chuqur va mustahkam bilim, balki nostandart sharoitlarda ularni qo'llash qobiliyati, jamoada ishlash va muammolarni juda qisqa vaqt ichida hal qilish qobiliyati kerak.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Olingan ma'lumotlar va amaliyot natijalarini tahlil qilish. Bu tadqiqotning natijalariga e'tibor qaratish va o'sish yo'nalishini aniqlashda yordam beradi.

Texnika OTMlarida ixtisoslik fanlarini o'rganishda kasbiy yo'nalishni chuqurlashtirish muammosining dolzarbligi texnika OTMlari bitiruvchilarining nazariy va amaliy bilim darajasiga qo'yiladigan talabalarini oshirish bilan belgilanadi. Pedagogik tadqiqotlarning tahlili ushbu masalani o'rganishda bir qator eng jadal rivojlangan yo'nalishlarni aniqlashga imkon beradi. Ulardan biri muhim kasbiy fazilatlarini rivojlantirishdir. Inson fazilatlarini rivojlantirish uzoq muddatni talab qilgan ekan, bu masalani o'qitishning dastlabki kunlaridanoq hal etish lozim. Talabalarining maqsadga erishish uchun ko'rsatmalarni belgilash imkonini

beruvchi integral tizimni ishlab chiquvchi jarayon injenerning tipik kasbiy vazifalarini hal etishning umumlashgan usullaridan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish va o'qituvchiga muhim kasbiy sifatlarini shakllantirish uchun mutaxassis tayyorlash modelini tuzish zarurati mavjud [5]. Ikkinchisi—o'qitish motivatsiyasini shakllantirish. O'qitishning muvaffaqiyati – o'qitish motivatsiyasining rivojlanish darajasiga bog'liq bo'lib, u ham o'qitishning dastlabki kunlaridanoq shakllanishi kerak. Ushbu yo'nalish tadqiqotchilari talabalarining kelajakdagi mutaxassisligiga muvofiq, ixtisoslik fanlari bo'yicha yangi fan dasturlarini ishlab chiqishni taklif qiladilar, bu yerda ba'zi professional muhim mavzular chuqurlashtiriladi, kelgusi kasb bilan chambarchas bog'liq laboratoriya ishlarini olib boradi, ta'lim vazifalarini, yetarli kasblarni tanlaydi va hokazo [4].

Masalalarni modellashtirish yo'li bilan yechish usuli kunduzgi va sirtqi bo'lim talabarlari bilan dars o'tkaziladigan guruhlarda qo'llaniladi. Ixtisoslik fanlarini o'rganish jarayonida texnik masalalarni yechish usulini qo'llash orqali bir necha ta'sirga erishimiz mumkin:

1) texnik masalani yechish jarayonida bo'lajak muhandislar ushbu bo'limdagi texnik qonunlar, hodisalar va ta'sirlarni chuqurroq tushunadilar;

2) muayyan texnik hodisani tanlab texnik ziddiyatni bartaraf etish, talaba muayyan texnik obyektga nisbatan tahlil, sintez, taqqoslash operatsiyalarini amalga oshiradi. Bu birinchidan, texnik fikrlashning shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan mantiqiy, obrazli, samarali va konseptual komponentlarni ishlab chiqadi. Ikkinchidan, talaba – bo'lg'usi muhandis texnik obyektlarni ishlab chiqish usullarini o'rganadi. Uchinchidan, o'quvchilar ixtisoslik fanlari va texnika o'rtasidagi yaqin munosabatlarni amalda o'rganishlari muhimdir. Bunday masalalarni yechish ixtisoslik fanlari barcha texnik obyektlarga taalluqli bo'lgan qonunlari murakkab va har doim ham tushunarli bo'lmagan fan emas, balki tirik predmetga aylantiradi.

Xulosa va takliflar (Summary and suggestions). Amaliy mashg'ulotlarda neft va gaz sohasi bo'ylab muhandislar uchun kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga oid xulosalar va takliflar quyidagicha bo'lishi mumkin.

Neft va gaz sohasi bo'yicha muhandislar uchun kasbiy rivojlantirish uchun amaliy mashg'ulotlar tashkil etish va ularni intensivlashtirish lozim. Bu mashg'ulotlar, nazariyadan ko'ra amaliyotni o'rganish, muammoni hal qilish va jamoa bilan ishlashni o'rganish uchun yaxshi imkoniyatlar yaratishga yordam beradi.

Yakuniy maqsadlarni qo'yish. Har bir amaliy mashg'ulotning yakuniy maqsadlari belgilanishi kerak. Bu maqsadlar, muhandislar uchun rivojlanayotgan kasbiy kompetensiyalarni aniqlash va ta'minlashga yo'l qo'yimoqchi bo'lishi kerak.

Individual o'qish rejasi. Har bir muhandis uchun maxsus individual o'qish rejalarini tuzilishi kerak. Bu rejalar, ularning o'zlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan, ularning maqsadlariga mos keladigan va ularning qobiliyatlari va xohishlariga asoslangan bo'lishi kerak.

Amaliy mashg'ulotlarni qo'llash. Har bir muhandisning o'rganish jarayonida amaliy mashg'ulotlarni qo'llash juda muhimdir. Bu, ularning o'zlarini o'rganish va rivojlantirishning amaliy qismi bo'lishi mumkin. Ushbu takliflar, neft va gaz sohasi bo'ylab muhandislar uchun kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun amaliy yo'nalishlar yaratishda yordam berishi mumkin. Bu, muhandislar uchun ilg'or va samarali o'rganish jarayonini ta'minlashga yordam beradi va sohasida yuqori sifatli professional bo'lishlari uchun kerakli qadamlarni belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). M.Muhiddinov, Sh.Ahmedov, B.Qutlimurodov. Texnik adan testlar va ularning yechimi. Toshkent, "O'zbekiston", NMIU, 2016, 424 bet.

(2). Тураев С.Ж. Формирование научно-практических навыков студентов с привлечением к научному проекту № 1/1-Ф и применением технологий программирования. Преподаватель XXI век., № 4. Москва, 2018, с. 88–95.

(3). Махманов Э.Б. Бўлажак муҳандисларни тайёрлашда мантикий фикрлаш компетенцияларини такомиллаштириш. Наманган Давлат университети, 2021, 1-т., 581-бет.

(4). Binokulovich Makhmanov Ergash. The development of laboratory practice-trainings in the identification of comparative specific heat capacity in liquids and solids. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, Vol 8, 9 (2020).

(5). Ишмуродова Г.И., Махманов Э.Б. Талабаларнинг физикадан мантикий масалалар ечиш кўникмаларини шакллантириш. "Замонавий таълим" журнали, 2020, 3-сон, 16–23-бетлар.

(6). Махманов Э.Б. Физика таълими жараёнида талабаларнинг ўқув компетенцияларини ривожлантириш./А ИЛМ, 75-бет.

(7). Беспалько. В.П. Слагаемые педагогической технологии. М., “Педагогика”, 1989, 192 с.

(8). Хамидов В.С. Таълим тизимида кескин бурилишга сабаб бўлган 4 дастур ҳақида. «Infocom.uz», Тошкент, 2010, 1-сон, 54–57-бетлар.

(9). Шоштаева Е.Б. Интегральная технология обучения как основа повышения качества образовательного процесса. Автореф. дис. канд. пед. наук, Карачаевск, 2003, с. 23.

Abdurashidova E'zoza (Guliston davlat universiteti “Texnologik va maktabgacha ta'lim” kafedrasida o'qituvchisi)

INNOVATION-PEDAGOGICAL TECHNOLOGICAL YORDAMIDA MAKTABGACHA YOSHDAI BOLALARNI TANQIDIY FIKRLASHNI O'RGATISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada ko'rsatib o'tilgan qator ustuvor vazifalar tadqiqot ishining dolzarb ekanligini asoslaydi. Tadqiqotimizning asosiy konsepsiyasi maktabgacha yoshdagi bolalarning kritik fikrlash ko'nikmasini shakllantirish jarayonlarini takomillashtirishda innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan ustuvorligi bilan tavsiflanadi.

Kalit so'zlar: interaktiv, muhokama, mahalliy ta'lim, ta'lim yondashuvlari, virtuallik monitoring, individual, kreativlik, adaptatsiya.

Абдурашидова Эъзога (преподаватель кафедры “Технологическое и дошкольное образование” Гулистанского государственного университета)

ОБУЧЕНИЕ КРИТИЧЕСКОМУ МЫШЛЕНИЮ ДОШКОЛЬНИКОВ С ПОМОЩЬЮ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация. Ряд приоритетов, представленных в данной статье, обосновывают актуальность исследовательской работы. Основная концепция нашего исследования характеризуется приоритетом инновационных педагогических технологий в совершенствовании процессов формирования навыков критического мышления у дошкольников.

Ключевые слова: интерактивность, обсуждение, местное образование, образовательные подходы, виртуальность мониторинга, индивидуальность, креативность, адаптируемость.

Abdurashidova E'zoza (Lecturer at the Department of Technological and Preschool Education of Gulistan State University)

TEACHING CRITICAL THINKING TO PRESCHOOLERS WITH THE HELP OF INNOVATIVE PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES

Annotation. A number of priorities presented in this article substantiate the relevance of the research work. The main concept of our research is characterized by the priority of innovative pedagogical technologies in improving the processes of formation of critical thinking skills in preschoolers.

Key words: interactivity, discussion, local education, educational approaches, monitoring virtuality, individuality, creativity, adaptability.

Kirish. “Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3261-qarorida o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama shakllantirish va ularni maktabga tayyorlashda xorijiy tajribaga tayangan holda sifatli ta'lim-tarbiya jarayonlarini samarali tashkil etish masalasiga alohida to'xtalib o'tilgan [6]. Shuningdek, “Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5198-farmonida esa zamonaviy texnologiyalar va metodlarni hisobga olgan holda, bolalarni har tomonlama tarbiyalash belgilangan [1].

Yuqoridagi normativ-huquqiy hujjatlardagi muhim va ustuvor pedagogik vazifalarni hal etish tadqiqot ishining konseptual asosini tashkil etadi. Shunga ko'ra, maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini ustuvor talablar va zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish, MTTda amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya jarayonlarining samaradorligini yangi mazmun va innovatsion texnologiyalar bilan ta'minlanishga erishish, maktabgacha yoshdagi bolalarni kritik fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, intellektual qobiliyatini o'stirish, ijodiy faoliyatga yo'naltirish mazkur yoshdagi bolalarni aqliy, estetik va jismoniy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi o'ziga xos ahamiyatga ega [3].

Obyektlarning inson ongida umumiy va muhim xususiyatlarida umumlashtirilgan aks etishi fikrlashning o'ziga xos natijasi bo'lishi mumkin. Tanqidiy fikrlashning natijasi esa harakat, munosabat, yo'nalish ko'rinishidagi ma'lum bir mahsulot bo'lib, tanqidiy analitik shubhani, shuningdek, umuman fikrlash jarayonini rasmiylashtirib bo'lmaydi. Tanqidiy fikrlash bo'yicha turli xil tadqiqotlar amalga oshirilgan, ammo tanqidiy fikrlash tushunchasi hali ham aniq belgilanmagan. Mazkur tushunchani mualliflar o'xshash,

hatto bir xil psixologik haqiqat sifatida tasvirlab, terminologiyada turlicha ifodalaydilar.

Ko'pgina tadqiqotlarda tanqidiy fikrlash insonni tanlov qilishga, o'z xatti-harakatlarini axloqiy me'yorlar, qadriyatlar va boshqalarning baholari bilan bog'lashga majbur bo'lganda "nazorat mexanizmi" vazifasini bajarishi asoslangan. Bundan tashqari, tanqidiy fikrlash xatolarni aniqlash, shuningdek, ilgari surilgan taxminlarning haqiqatini asoslash bilan ham bog'liq [4]. Shu sababli tanqidiy fikrlashning bir qismi bo'lgan boshqa ko'nikmalar, ya'ni bilimning kelib chiqishi, asosida xulosa chiqariladi. Amerikalik olimlar Marzano va Arredondo yuqori darajadagi fikrlash qobiliyatlarini (yuqori tartibli fikrlash) deb atashadi. Mantiqning asosiy qonunlariga rioya qiladigan fikrlash, odatda, "to'g'ri" deb hisoblanadi.

Tanqidiy fikrlash konsepsiyasi dastlabki xulosalarini aniqlash asosida boshqa elementlarni kiritish-gacha kengayib boradi, bu ilgari kritik fikrlashning asoslaridan biri hisoblangan rasmiy mantiqdan tashqari, norasmiy mantiq ham kiritilganligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shuningdek, bunday tahlillar asosiy gipotezalardan tashqari, bo'lgan tushunchalarni tahlil qilishga imkon beradi [5]. Tanqidiy fikrlash bo'yicha olib borilgan eksperimental tadqiqotlarini hisobga olgan holda, uchta yo'nalishni ajratish mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Aqlning fazilatlarini aqliy faoliyatning shaxsiy parametrlari sifatida ko'rib chiqish A.I.Lipkina tadqiqotlarida amalga oshirilgan. Muallifning yondashuviga ko'ra, shaxsning aqliy faoliyati uning obyektiv mazmuni bilan bir qatorda, subyektga xos bo'lgan aqliy jarayonni tartibga solishning barqaror omillarini tavsiflovchi ma'lum parametrlar bilan belgilanadi. Bunday omil sifatida A.I.Lipkina aqlning bunday sifatini tanqidiy fikrlash deb hisoblaydi, bu subyektning amalga oshirilgan faoliyat mazmuniga, uning natijalariga va hokazolarga nisbatan muayyan xatti-harakatlarini tavsiflaydi. Insonning tanqidiy fikrlashi natijasi o'zini hurmat qilish sifatida birinchi o'ringa chiqadi. Mazkur eksperimental tadqiqotda anqidiy fikrlash va o'zini hurmat qilish muammoni hal qilishning tabiati va xususiyatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi, uni hal qilishning ajralmas, regulatorga o'xshash komponentiga aylanishi ko'rsatilgan. Shuning uchun tanqidiy fikrlashning "chora-tadbirlar" toifasi bilan o'zaro bog'liqligi haqida savol tug'iladi. Bu masala dolzarb va yetarli darajada rivojlanmagan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology). Bu metodologiya ilmiy tadqiqotning maqsadlarini, muammolarni yechish usullarini, ma'lumotlar to'plamini, tahlil usullarini va natijalarni tahlil qilish jarayonini qamrab oladi. Shunga ko'ra, maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini ustuvor talablar va zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish, MTTda amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya jarayonlarining samaradorligini yangi mazmun va innovatsion texnologiyalar bilan ta'minlanishga erishish, maktabgacha yoshdagi bolalarni anqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, intellektual qobiliyatini o'stirish, ijodiy faoliyatga yo'naltirish mazkur yoshdagi bolalarni aqliy, estetik va jismoniy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi o'ziga xos ahamiyatga ega hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy tadqiqotning o'zida bir nechta eng muhim jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Maqsadlar va muammolar. Tadqiqotni boshlashda qo'yilgan maqsadlarga va muammolarga qaratilgan vaqt va ehtiyotkorlikka oid bir reja shaklida ma'lumotlar to'plamini shakllantirishda yordam beradi.

Ma'lumotlar to'plash usullari. Tadqiqot jarayonida kerakli ma'lumotlarni to'plash uchun qo'llaniladigan usullarni tuzish va qo'llanishni ta'minlash.

Ma'lumotlarni tahlil etish. Toplangan ma'lumotlarni tahlil qilish uchun mos tahlil usullarini tanlash va ularni qo'llash jarayonini belgilash.

Natijalarni tahlil qilish. Olingan natijalarni tahlil qilish va ularga ma'noni bermoqda qo'llaniladigan analitik va tahlil usullarni belgilash.

Amerikalik olim S.Brukfeld yozadi: "tanqidiy fikrlash – bu universal haqiqatlarga va absolutizmga shubha bilan qarash-bu prinsipni boshqarish kerak, chunki inson hech qachon mukammal bo'lolmaydi. Tanqidiy fikrlashning bu xususiyati savol tug'diradi: halokatli oqibatlariga olib keladigan "tanqidiylikni yo'q qilish" aniq bo'lgan oqilona chiziq qayerda ekanligini ko'rsatadi. Shuning uchun, bizning fikrimizcha, tanqid tanqidiy fikrlashning bir tomoni bo'lishi mumkin. Tanqid–bu kimningdir xudbin qiziqishini yashiradigan nosamimiy tanqid bo'ladi. Haqiqiy tanqidiylik keng qamrovli va o'z-o'zini tanqid qilishni nazarda tutadi. Bir tomonlama tanqidiylik yertami-kechmi yuzaki tanqidga aylanadi, bu haddan tashqari umumiylik va mayda-chuyda bilan tavsiflanadi. Tanqid faqat maqsadga yerishishga yordam berishga qaratilgan bo'lsa, mantiqiy bo'ladi va tanqid uchun tanqid yemas.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Shunday qilib, har bir muallif "tanqidiy fikrlash" tushunchasini o'z tushunchasi bilan to'ldiradi, bu masala qaysi fanning pozitsiyasiga bog'liq. Bu psixologik (kognitiv, instrumental) yondashuv, falsafiy-mantiqiy, pedagogik yoki hamma narsaning ozgina aralashmasi bo'lishi mumkin.

Bizning fikrimizcha, ushbu muammolarni tadqiq qilishning ushbu sohasidagi taraqqiyotga to'sqinlik qiladigan asosiy to'siqlardan biri shundaki, ularning aksariyati alohida-alohida qo'yilgan yoki ma'lum bir nazariya kontekstidan tortib olingan. Shaxsning tanqidiy fikrlashining maxsus proyeksiyada – shaxsning subyekt sifatida proyeksiyasida namoyon bo'lishini ko'rib chiqishda, bu muammo bo'yicha avvalgi barcha tajribalarni birlashtirish, shuningdek, tanqidiy fikrlashni o'rganishning ba'zi savollarini to'g'ri ko'tarish imkoniyatini ochadi.

Bir tomondan, mavzu psixologiyasida ijtimoiy tajribaning tanqidiy rivojlanishini, mustaqillikni va pirovardida individual shaxsiy rivojlanish imkoniyatini ta'minlaydigan fikrlash jarayonlari alohida rol o'ynaydi. Boshqa tomondan, inson nafaqat turli xil faoliyat turlari, balki aqliy jarayonlar va xususiyatlarning subyekt sifatida ham ishlaydi [9].

Psixologiyada predmetning mohiyatini tushunish insonning o'ziga (va boshqalarga) shaxs sifatida, subyekt faoliyatining har xil turlarining tashabbuskori va manbai sifatida munosabati bilan bog'liq (A.N. Leontyev va boshqalar), subyektivlik (faoliyat mahorati sifatida) insonning turli xususiyatlaridan biridir. Ga binoan, K.A.Abulxanova-Slavskaya [1], insonning subyektiv mavjudligining yeng yuqori darajalari insonning o'z psixologik resurslaridan (jarayonlar, xususiyatlar, holatlar) hayotiy faoliyatni ta'minlash vositasi sifatida foydalanishni nazarda tutadi. Shu bilan birga, psixologik resurslar o'ziga xos individual shaxs tuzilishini shakllantiradi, bu mavjudotda hayot va bilishning ishlab chiqilgan strategiyalarida ifodalanadi.

Xulosa va takliflar (Summary and suggestions). Xulosa qilib shuni takidlash lozimki, tanqidiy fikrlashni mavzuni tavsiflovchi shaxsiy xususiyat sifatida ko'rib xulosa qilsak, nazariy jihatdan uning tuzilishida komponent mavjudligini tafsiflash mumkin. Kognitiv komponent-tanqidiy fikrlash haqidagi bilim, hissiy komponent – tanqidiy fikrlashga munosabat, samarali xulq-atvor komponenti–ta'lim faoliyati va xatti-harakatlarida tanqidiy fikrlash namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.09.2017-yildagi PQ-3261-qarori. <https://lex.uz/docs/3334234>
- (2). Покасов В.Ф. Управление качеством образования современной школы (методические материалы). Автор-состав, Ставрополь, 2012, 145 с.
- (3). Гомулина Н.Н. Применение новых информационных и телекоммуникационных технологий в школьном физическом и астрономическом образовании. Дисс. канд. пед. наук, 13.00.02, М., МГПУ, 2003, 332 с.; РГБ ОД, 61:03-13/1698-6.
- (4). Хамидов В.С. Таълим тизимида кескин бурилишга сабаб бўлган 4 дастур ҳақида. «Infocom.uz», Тошкент, 2010, 1-сон, 54–57-бетлар.
- (5). Шоштаева Е.Б. Интегральная технология обучения как основа повышения качества образовательного процесса. Автореф. дис. канд. пед. наук, Карачаевск, 2003, с. 23.
- (6). Хамидов В.С. Таълим тизимида кескин бурилишга сабаб бўлган 4 дастур ҳақида. «Infocom.uz», Тошкент, 2010.
- (7). Байденко, В.И. Компетенции в профессиональном образовании (к освоению компетентностного подхода). [текст]. “Высшее образование в России”, 2004, № 11, с. 3–18.
- (8). Балаш В.А. Задачи по физике и методы их решения [текст]. Пособие для учителя, 4-е изд., перераб. и доп., М., “Просвещение”, 1983, 432 с.; 196 с.
- (9). М.Мухиддинов, Sh.Ahmedov, B.Qutlimurodov. Texnik adan testlar va ularning yechimi. Toshkent, O'zbekiston NMIU, 2016, 424 bet.
- (10). Тураев С.Ж. Формирование научно-практических навыков студентов с привлечением к научному проекту № 1/1-F и применением технологий программирования. Преподаватель XXI век. № 4, Москва, 2018, с. 88–95.

Berdaliyeva Gulasal Abduqunduzovna (Sirdaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi o'quv va metodik ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari)
RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI
O'QITUVCHILARINI KASBIY RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TA'MINOTINI
TAKOMILLASHTIRISH

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada dolzarb vazifalar qatoriga malaka oshirish tizimida umumta'lim maktablari pedagog kadrlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish, ularda ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, ularning qobiliyatlari, istaklari va intilishlarini mustaqil ravishda aniqlash uchun sharoit yaratish, dunyoqarash, yuqori mehnat intizomi va madaniyatini shakllantirish kiradi. Chunki kelajakda yangi texnika va texnologiyalarni qo'llay oladigan, mustaqil qarorlar qabul qila oladigan yuqori malakali kadr-*

lar tayyorlash malaka oshirish tizimiga tegishli. Ushbu vazifalarni bajarishda malaka oshirish jarayoni-ning so‘nggi yutuqlarini, yangi texnika va texnologiyalarni qamrab oluvchi zamonaviy o‘quv adabiyotlari bilan ta‘minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: raqamli muhit, ta‘limiy muhit, didaktik ta‘minot, texnologiyalar, malaka oshirish, professional rivojlanish, yangi avlod darsliklari.

Бердалиева Гуласал Абдукундузовна (заместитель директора по учебно-методической работе Национального центра обучения педагогов новым методикам Сырдарьинской области)

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ДИДАКТИЧЕСКОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ УЧАЩИХСЯ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ В ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

Аннотация. В данной статье в число актуальных задач входит непрерывное профессиональное развитие педагогических кадров общеобразовательных школ в системе повышения квалификации, формирование у них навыков творческого мышления, создание условий для самостоятельного выявления своих способностей, желаний и стремлений, формирование мировоззрения, высокой трудовой дисциплины и культуры. Потому что подготовка высококвалифицированных кадров, способных в будущем применять новые техники и технологии, принимать самостоятельные решения, относится к системе повышения квалификации. При выполнении этих задач важное значение приобретает обеспечение современной учебной литературой, охватывающей последние достижения процесса повышения квалификации, новые техники и технологии.

Ключевые слова: цифровая среда, образовательная среда, дидактическое обеспечение, технологии, повышение квалификации, профессиональное развитие, учебники нового поколения

Berdaliev Gulasal Abdukunduzovna (Deputy Director for Educational and Methodological Work of the National Center for Teacher Training in New Methods of the Syrdarya region)

IMPROVING THE DIDACTIC PROVISION OF PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF SECONDARY SCHOOL STUDENTS IN A DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT

Annotation. In this article, the urgent tasks include the continuous professional development of teaching staff of secondary schools in the system of advanced training, the formation of their creative thinking skills, the creation of conditions for the independent identification of their abilities, desires and aspirations, the formation of a worldview, high work discipline and culture. Because the training of highly qualified personnel capable of applying new techniques and technologies in the future, making independent decisions, belongs to the system of professional development. In fulfilling these tasks, it is important to provide modern educational literature covering the latest achievements of the professional development process, new techniques and technologies.

Key words: digital environment, educational environment, didactic support, technology, advanced training, professional development, new generation textbooks.

Kirish. Maktab o‘quvchilarining bilimi va ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, o‘qituvchi kasbi nufuzini va pedagoglarning sifat tarkibini oshirish, darsliklar va o‘quv-metodik majmualarni zamon talablari asosida takomillashtirish, xalq ta‘limi muassasalarining xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy modellarini barpo etish maqsadida, shuningdek, 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Malaka oshiroish muassasalari uchun zamonaviy “Pedagogik mahorat” darsliklarining yaratilishi va o‘quv jarayoniga joriy etilishi nafaqat pedagog kadrlarning zamonaviy bilimlarini egallashda, balki ularda amaliy ko‘nikma va malakalarning shakllanishida ham katta rol o‘ynaydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili o‘quvchilarga o‘zlarining tadqiqotlarini olib borish, mavzuga oid ilmiy ko‘rsatmalarni tahlil qilish va yangi tushunchalar o‘rganish imkoniyatini beradi. Bu jarayon o‘quvchilarga ko‘proq ma‘lumot olish, nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiiq qilish va savol yoki muammolarga ilmiy yechimlar qidirishga yordam beradi. Eng muhim yo‘nalishlardan biri:

Tushunchalar va ko‘nikmalar muhimligi. Tahlilni boshlashda mavzuga oid ilmiy ko‘rsatmalar, o‘quvchilar uchun, iloji boricha, bo‘lgan asosiy mafkurani, muammolarni, tartib va mantiqiy muhokamalarni aniqlashda yordam beradi. Bu tushunchalar va ko‘nikmalar o‘quvchilarga tadqiqotlarini boshlash uchun zamin tashkil etadi.


Ilmiy adabiyotlar bilan ishlash. Mavzuga oid eng so‘nggi ilmiy adabiyotlar, jurnallar, maqolalar va elektron manbalar bilan tanishish o‘quvchilarga yangi va kengaygan tushunchalar olishda yordam bera-

di. Bu o'quvchilarning so'nggi ilmiy rivojlanishlarni kuzatish va o'zlarining tadqiqotlarini mavzuga oid qo'shimcha ma'lumotlar bilan to'ldirish imkonini beradi.

Analitik qobiliyati. Tahlil jarayonida, o'quvchilar ko'p tomondan o'quv materiallarini tahlil qilish, ularning aniq va mantiqiy ta'riflarini berib, ularning ilmiy qadrini qiymatlash, va yangi tushunchalarni kiritish qobiliyatlarini rivojlantirishlari kerak bo'ladi. Tahlil natijalarini o'quvchilar uchun foydali qilishning muhim qismi, ularning o'zlarining fikrlarini va fikrlarini rivojlantirish, ularga yangi tushunchalar kiritish, va ilmiy jamiyatda qatnashishlarini oshirishga yordam berishdir.

Darsliklarning yangi avlodi o'z tarkibida o'quv predmetining mazmuni hamda o'quvchida bilish faoliyatining ko'rinishlarini mujassam tarzda ifodalashi zarur [3].

Darslikni modellashtirishda fundamental tadqiqotlarni o'rganish asosida biz "Pedagogik mahorat" darsligining quyidagi modelini tavsiya qilamiz (1-rasm).



1-rasm. Pedagogik mahorat fani darsligining takomillashtirilgan modeli.

Ushbu modelga muvofiq, darslik 2 qismdan iborat bo'lib, 1-qismda asosiy o'quv materiallari bosma shaklda taqdim etiladi. O'quv materiallari darslikning asosiy mazmunini tasvirlaydi. Biz tom ondan o'quv materiallari tuzilmasini ishlab chiqish va uni loyihalash bo'yicha bir qator olimlarning fundamental tadqiqotlari ham o'rganildi va asosiy talablar hamda tamoyillarga rioya qilindi.

Ba'zi mualliflar o'quv adabiyotini yaratish bosqichlarini quyidagi tartibda amalga oshirishni izohlaydilar [2]:

1. Maqsadlarni belgilash va mualliflar jamoasini tanlash.
2. Izlanish va o'quv materialini to'plash.
3. O'quv adabiyotini yozish jarayonini rejalashtirish va amalga oshirish.
4. Qo'lyozma tayyorlash va ekspertizadan o'tkazish.
5. Qo'lyozma sifatini aniqlash.
6. Tahrir qilish va nashr etish.

Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology). Darslik yoki mezonning har bir tarbiyaviy elementi mohiyatini va mazmunini ochib berdi.

Asosiy matn malaka oshiruvchi tomonidan o'rganilish va o'zla shtirishi majburiy bo'lgan o'quv materialini bayon qiluvchi asosiy manbaya vazifasini bajaradi. Pedagogik adabiyotlarda asosiy matnlarni ham ikki guruhga ajratiladi.

Nazariy-ilmiy matnlar. Bu matnlar quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

– fanning asosiy atamaları va tilini, asosiy dalillarni–hodisalarni, obyektlarni, texnologik jarayonlar, texnologik operatsiyalar, ixtirolar va kashfiyotlarni, eksperimental tajribalarni, asosiy na zariyalarni, yetakchi g'oyalari va dolzarb yo'nalishlarni, fan-texnika yut uqlarini, dunyoqarashga oid mafkuraviy umumlash-tirish va baholashlarni tavsiflash lozim.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). “Pedagogik mahorat” darsligining asosiy matnlarida tex-nikaviy bilimlar, texnologik jarayonlar, butun ijtimoiy ishlab chiqarish asosida yotuvchi fakt va qonuniyat-lar nazariy jihatdan to'liq yoritilishi lozim, chunki u tinglovchilarning texnik bilimlar va malakalarining il-miy va amaliy asoslarini yagona birlikda bog'laydi. “Pedagogik mahorat” darsligida tinglovchi pedagogik faoliyat uchun tipik bo'lgan texnologik operatsiyalar bilan ishlashni o'rganadilar, ta'lim va tarbiya jarayon-larida raqamli texnologiyalardan foydalanishni o'zlashtiradilar. Sekin-asta ular ongida ta'lim jarayoni va uning komponentlari haqida yaxlit tasavvur shakllanib boradi. Pedagogik mahorat fani darsligi asosiy matnlarida materiallarni o'rganish masalasiga e'tibor qilinadi.

Tajribaviy-amaliy matn. Bu matnda “Pedagogik mahorat” o'quv materialini o'zlashtirishda va mustaqil tarzda bilim olishda tinglovchi ba jaradigan amaliy faoliyat usullari, o'quv dasturidagi barcha mavzularni o'rganishga pedagogik jarayon asos qilib olinib, shu asosda tinglovchilar pedagogik operatsiya-larni izchillik bilan o'rganib boradilar. Malaka oshirish kurslarida o'rganiladigan barcha pedagogik operat-siyalar ketma-ketlikka asoslanib, ularni quyidagi guruhlarga ajratilishi matnda ko'rsatilishi lozim. Matnda yangi texnologik operatsiyasi o'rganishga kirishilganda ma'lum izchillikka rioya qilinishi yoritib berilishi kerak.

Pedagogik mahorat darslarida tinglovchilar ko'p sonli raqamli texnologiyalardan foydalanishga to'g'ri keladi. Bularning hammasi tin glovchilarda pedagogik bilim va malakalar bilan boyitadi. Matnda a-sbob va uskunalarini o'rganish quyidagi tartibda olib borilishini yoritish lozim.

Qo'shimcha matnlar. Bularga darslikdagi belgilashlar, hujjatli mat yeriallar, amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan mashqlar, xulosalar, tavsiyalar, ma'lumotli materiallar kiradi. Matnning bun-day turi o'tilgan materialni mustahkamlaydi, uni tiz imlashtirishga yordam beradi. Og'zaki va yozma mashqlar tinglovchilarning be vosita amaliy ishlashlari uchun mo'ljallangan. Bunday ishlarni bajara bor ib, tinglovchilar ma'lum ko'nikma va mahoratni egallaydilar.

Tushuntirish matni – o'quv kursi materiali tushunishga va chuqurroq o'zlashtirishga mo'ljallangan yozma tuz.ilmadir. Darslik o'quv materialini o'zlashtirishda tushuntirish mat. nleri ko'p yordam beradi. Ularga quy idagilar kiradi: kirish so'zi, izohlar, ilovalar, tayanch iboralar, tush untirishlar, lug'atlar. Bu matnlar tushunarli qisqa va ma'lum tushunchani aniq shakllantirgan bo'lishi kerak. Masalan, pedagogik mahorat fanida ko'p uchraydigan tayanch iboralar kiradi.

O'zlashtirishni tashkil qiluvchi komponent. Zamonaviy “Pedagogik mahorat” darsligida qancha-lik turli xildagi ko'rsatmalar, tavsiyalar, top shiriqlar, savollar, testlar va amaliy mashg'ulotlar berilishi mu-him aha miyat kasb etadi. Bular tinglovchilarning faollashuvi va bilim, malak alarni mustahkam egalash-larini ta'minlaydi, ularning kasbiy qiz iqishlarini rivojlantiradi, pedagogik faoliyatda mustaqil ishlash ko'n ikmalarini shakllantiradi. Didaktikada ularni darslikning uslubiy appa rati deb ham atashadi.

Tasviriy materiallar. O'quv adabiyotlarni tasviriy materiallarni shakllantirishga alohida e'tibor be-rilishi lozim. O'quv adabiyotida o'quv materiali mazmunini tushunish, yangilash tizimi uchun diagramma-lar, graf iklar, jadvallar, tuzilmalar, rasmlar va xaritalardan foydalanildi. Tasviriy materiallar yaqqol ko'ri-narli bo'lishlari lozim.

O'quv adabiyotlarda tasviriy material axborot funksiyasini bajarib, tinglovchilarga noma'lum narsa-lar, obyektlar, jarayonlar, mahsulotlar va hodisalar haqida tasavvur hosil qildiradi. Shuningdek, tasviriy mat yeriallar o'quv materialini mustahkam o'zlashtirilishi uchun tayanch vosita bo'lib xizmat qilishi lozim [20].

Tasviriy materiallar o'zlarining asosiy vazifalarini bajarishdan tashqari o'quv adabiyotini tinglovchi uchun jozibali va yoqimli qiladilar, bu esa uning mazmuniga qiziqishni orttirishdan tashqari, estetik tarbi-yasiga ham xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar (Summary and suggestions). Shunday qilib, respublikada amalga oshirilayot-gan yangiliklar, malaka oshirish sohasidagi islohotlarning asosiy maqsadi va harakatga keltiruvchi kuchi

bu inson, uning barkamol rivojlanishi, farovonligi, shaxs qiz iqishlarini amalga oshirish, sharoitlarini ta'minlash, mas'uliyatini his qilar ekanmiz, tinglovchilarida mustaqillik, mehnatsevarlik, erkinlik, ijodkorlik, tadbirkorlik, ishbilarmonlik kabi sifatlarini shakl lantirish, ularni intizomlilik, do'stlik, birdamlikda kasbiy faoliyat yur itishida o'quv adabiyotlar yangi avlodini yaratish va amalda joriy etilishi orqali o'z oldimizga qo'yilgan pirovard maqsadimizga erishishimizga imkon beradi.

Raqamli ta'lim muhitida umumiy o'rta ta'lim maktablari pedagog kadrlarini malakasini oshirish jarayonida uzlsiz kasbiy rivoj lantirishning didaktik ta'minoti mazmunan rivojlantirildi: Davlat ta'lim standartlari asosida malaka oshirish kurslari ishchi dasturi tarkibiga qo'shimchalar kiritildi: yangi adabiyotlar qo'shildi, malaka oshirishning pedagogik texnologiyalari kiritildi, baholash mezonlari takomillashtirildi, internet saytlariga havolalar berildi. Rivojlantirilgan mazmun asosida "Pedagogik mahorat" darsligi ishlab chiqilib, malaka oshirish kurslariga joriy qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги фармони. Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. Т., 2017, 39-бет.

(2). Покасов В.Ф. Управление качеством образования современной школы (методические материалы). Автор-состав, Ставрополь, 2012, 145 с.

(3). Гомулина Н.Н. Применение новых информационных и телекоммуникационных технологий в школьном физическом и астрономическом образовании. Дисс. канд. пед. наук, 13.00.02. М., МГПУ, 2003, 332 с.; РГБ ОД, 61:03-13/1698-6.

(4). Хамидов В.С. Таълим тизимида кескин бурилишга сабаб бўлган 4 дастур ҳақида. «Infocom.uz», Тошкент, 2010, 1-сон, 54–57-бетлар.

(5). Шоштаева Е.Б. Интегральная технология обучения как основа повышения качества образовательного процесса. Автореф. дис. канд. пед. наук, Карачаевск, 2003, с. 23.

(6). Хамидов В.С. Таълим тизимида кескин бурилишга сабаб бўлган 4 дастур ҳақида. «Infocom.uz», Тошкент, 2010.

(7). Turaev S.J. Methods of the using of software program Microsoft Excel in practical and laboratory occupation on physics, Scientific Bulletin of Namangan State University, 2019.

(8). Смолкин, А.М. Методы активного обучения. Метод. пособие для преподавателей и организаторов проф. и экон. обучения кадров, М., «Высш. шк.», 1991, с. 175.

(9). Психология и педагогика. Под ред. Абульхамовой К.А., Васиной Н.В., Лаптева Л.Г., Слостенина В.А. М., «Совершенство», 1998.

(10). Махмадиев Б.С. MathCAD тизимида ишлаш асослари. Ўқув қўлланма, Қарши. 2012, 144 бет.

Махмаризаев Хуршид Отақулович (Shahrisabz Pedagogika instituti "Jismoniy madaniyat" kafedrası o'qituvchi) OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA JISMONIY TARBIYA VA SPORTNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada jismoniy tarbiya nazariyasi va amaliyotida jismoniy tayyorgarlik atamasi "jismoniy holat", "jismoniy rivojlanish", "jismoniy sifatlar" kabi iboralarning asosini tashkil etadi. Bu ijtimoiy-pedagogik jarayon sifatida kishilarning yoshi, jinsi, salomatligi, istak va qiziqishlari bilan bevosita bog'liq. Talabalarni jismoniy tarbiya dasturi talablarini bajarishga tayyorlash, sportchilarning mahoratini oshirishda ularning jismoniy tayyorgarliklarini ta'minlash kabi muhim.*

***Kalit so'zlar:** jismoniy tarbiya, rivojlantirish, pedagogik, shart-sharoitlar, muassasa, texnologiyalar, individuallashtirilgan, tarbiyaviy muhit.*

**Махмаризаев Хуршид Отақулович (преподаватель кафедры "Физкультура"
Шахрисабзского педагогического института)**

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

***Аннотация.** В данной статье, посвященной теории и практике физического воспитания, термин физкультура лег в основу таких выражений, как "физическое состояние", "физическое развитие", "физические качества". Физкультура как социально-педагогический процесс напрямую связана с возрастом, полом, здоровьем, желаниями и интересами людей. Подготовка студентов к выполнению требований программы физического воспитания так же важна, как и обеспечение их физической подготовленности при обучении спортсменов.*

Ключевые слова: физкультура, развитие, педагогика, условия, учреждение, технология, индивидуализированная, образовательная среда.

Makhmarizaev Khurshid Otakulovich (Teacher of the Department of Physical Education of the Shakhrisabz Pedagogical Institute)

PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE DEVELOPMENT OF PHYSICAL CULTURE AND SPORTS IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Annotation. This article is dedicated to the theory and practice of physical education, the term “physical education” formed on the basis of such expressions as “physical condition”, “physical development”, “physical qualities”. As a socio-pedagogical process, it is directly related to age, gender, health status, desires and interests of people. Preparing students to meet the requirements of the physical education program is just as important as ensuring their physical fitness in the preparation of athletes.

Key words: physical education, development, pedagogy, conditions, institution, technology, individualized, educational environment.

Kirish. Jamiyatimizda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda o‘z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona-Vatanga sadoqat tuyg‘ularini kamol toptirish, shuningdek, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish ishlarini tizimli tashkillashtirish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga yo‘naltirilgan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, mamlakatimizning barcha hududlarida ommaviy sportning inson va oila hayotidagi muhim ahamiyati, uning jismoniy va ma‘naviy sog‘lomlikning asosi ekanini targ‘ib-tashviq qilish, hayotga katta umid bilan kirib kelayotgan yoshlarni zararli odatlardan asrash, ularga o‘z qobiliyat va iste‘odlarini ro‘yobga chiqarishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ular orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish hamda maqsadli tayyorlash tizimini takomillashtirish borasida muhim va dolzarb vazifalar turibdi.

Jismoniy tarbiyaning vazifalari quyidagilardan iborat:

- insonni faoliyatidagi jismoniy holatlarga tayyorlash va ularni baholash;
- jismoniy tayyorgarlikning umumiy va maxsus xususiyatlari bilan talabalarni tanishtirish;
- jismoniy tayyorgarlikning ijtimoiy-mehnat sharoitlaridagi o‘rni, vazifasi va mazmuni bilan tanishtirish;
- jismoniy tayyorgarlikning yosh, jins va salomatlikka qarab qo‘llanilish usullarini o‘rgatish va boshqalar.

Talabalar o‘quv va sport mashg‘ulotlari hamda musobaqalarda egallagan malakalarini doimo takomillashtirib borishlari, keyingi ish jarayonlarida bundan maqsadli foydalanishlari lozim. Yuqorida ta‘kidlangan jismoniy tarbiya vositalari (turli xil mashqlar), qo‘llaniladigan usullar jismoniy tayyorgarlikka asos bo‘la oladi. Ya‘ni, tezlik, chaqqonlik, epchillik, kuchlilik, chidamlilik kabi jismoniy sifatning ilk bor shakllanishi va ularni mukammallashtirishga nazariy va amaliy jihatdan yo‘l ochib beradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Jismoniy tarbiya nazariyasi, jismoniy tarbiya va sportni boshqarish, jismoniy madaniyat va sport tarixi, shuningdek, sport turlari bo‘yiga davlat tilida yangi darsliklar, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar yaratilmoqda. Shunga qaramasdan, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va uni yoshlar hayotiga joriy etishda, takomillashtirishda jismoniy tarbiya va sportning o‘rni haqida mukammal ishlangan qo‘llanmalar yo‘q. Yaratilgan ba‘zi bir qo‘llanmalar ham faqat gigiyenik qoidalar, kundalik rejimlar, kasallikning oldini olish yoki uni davolash kabilarnigina o‘z ichiga olgan [2].

Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology). Pedagogika oliy ta‘lim muassasalarida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarining tadqiqot metodologiyasi quyidagi bosqichlardan iborat.

Tadqiqotning maqsadi. Tadqiqot boshlanishi uchun jismoniy tarbiya va sport sohasidagi pedagogik shart-sharoitlarini tushunish va belgilash juda muhimdir. Bu tadqiqotning asosiy maqsadlarini aniqlash, masalan, talabalar va o‘qituvchilar uchun eng samarali o‘qish usullarini aniqlashga yordam beradi.

Ma‘lumotlar yig‘ish. Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi pedagogik shart-sharoitlarining tadqiqoti uchun kerakli ma‘lumotlarni yig‘ish. Bu ma‘lumotlar, oliy ta‘lim muassasalaridagi jismoniy tarbiya va sport darsliklari, o‘qituvchilar va talabalar orasidagi mulohazalar va ilmiy maqolalar orqali to‘plashi mumkin.

Tuzilish va rejalashtirish. Tadqiqotning tuzilishi va rejalashtirilishi, masalan, qaysi metodlar va texnikalar qo‘llanilishi, qanday ma‘lumotlar to‘plash va tahlil qilish, va qanday natijalar tushirilishi kerakligini aniqlashga yordam beradi.

Amaliy mashg'ulotlar tashkil etish. Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi pedagogik shart-sharoitlarini tadqiq qilish uchun amaliy mashg'ulotlar tashkil etish juda muhimdir. Bu mashg'ulotlar, tadqiqotchilarga real jismoniy tarbiya va sport darslarida amaliyot olish imkoniyatini beradi.

Metodologiya, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi pedagogik shart-sharoitlarini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlarni olib borish uchun qulay va samarali yo'l bo'lib, oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya va sport sohasidagi pedagogik faoliyatni yanada rivojlantirishda yordam beradi.

Jismoniy mashqlar shakllari va mazmunan xilma-xildir. Ularni quyidagi asosiy guruhlariga bo'lish mumkin.

Ertalabki gigiyenik gimnastika mashqlari, ya'ni, gavda harakati, ayniqsa bo'g'inlarni ishga soluvchi har xil harakatlar (yurish, yugurish, sakrash, egilish, burilish, siltash, cho'zilish va boshqa mashqlar).

•Bo'sh vaqtlarda (dam olish kuni, kechki paytlar va ertalab) umumrivojlantiruvchi jismoniy harakatlarni qilish. Bunda aniq maqsad yo'lida (chiniqish, kuch orttirish–kultuzizm va hokazo) maxsus mashqlar (osilish, tortilish, tosh ko'tarish, yugurish, futbol o'ynash va boshqalar) bilan shug'ullanish.

•O'quvchi-yoshlar va talabalar jismoniy tarbiya darslarida bajaradigan mashqlar, o'yinlar, musobaqalar va boshqalar.

•Sport to'garaklaridagi mashg'ulotlarda ishtirok etish.

•Dam olish kunlari va ta'til paytlarida sayohatlarga chiqish.

Deyarli barcha mashqlar va turli harakatlarni bajarishda xilma-xil usullardan foydalaniladi va ularning me'yorlari ham turli-tuman bo'ladi. Masalan: bir joyda o'tirib-turish mashqlarini kimdir tez va kimdir sekin bajaradi. Kimdir bu mashqni 5–10 marta takrorlay oladi, boshqasi esa 20–30 marotaba takrorlashi mumkin. Bunday holatlar barcha turdagi mashqlar, faol harakatlarda ham uchraydi. Demak, shug'ullanuvchining salomatligi va jismoniy holatiga qarab mashqlarni tanlash hamda ularni boshqarish yo'llari, miqdorlari, hajmlarini ustozlar hamda har bir kishi bilishi shart. Sog'lom turmush tarzini yaratishda sport turklarining, ayniqsa suzish, futbol, yengil atletika, sport o'yinlari, piyoda yurish sayohati muhim ahamiyatga ega. Shu sababdan ham ko'pchilik yoshlar, hatto katta yoshdagilar ham sportning u yoki bu turi bilan doimiy ravishda shug'ullanishadi.

Ko'pchilik talabalar va sportchilar boks, shaxmat, tennis, sharqona yakka kurashlar va boshqa sport turlari bo'yicha xalqaro turnirlar hamda jahon birinchiliklarida yuqori natijalarga erishmoqda [5].

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya fanining mashg'ulot darslari va sport to'garaklari talabalarni insonparvarlik ruhida, o'z mutaxassisligi bo'yicha zamonaviy talablarga mos ravishda tayyorlashda ijtimoiy fanlarning ajralmas bir qismi hisoblanadi. U har bir talabaning o'z kasbini egallashga jismonan tayyorlanishiga, shaxs sifatida shakllanishida muhim bir vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, u sog'liqni mustahkamlash omili bo'lib, talabaning kelajakda yetuk mutaxassis bo'lib yetishishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Jismoniy tarbiya va sport talabalarining kun tartibidan muhim o'rin olgan, o'quv muassasalarida va talabalar turar joylarida sport to'garaklari ishlab turibdi. To'garaklarni yuqori malakali jismoniy tarbiya o'qituvchilari va sport ustozlari boshqarib borishadi. Bu o'quv muassasalarida talabalar, o'qituvchi va sport ustozlari boshchiligida jismoniy tarbiya va sport bilan amaliy shug'ullanishdan tashqari ilmiy izlanish ishlarini ham olib borishadi.

Oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim dasturi shaxsning o'quv jarayonida o'quv-tarbiya, jamoat ishlari bilan birga jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari bilan shug'ullanishga bo'lgan ehtiyojini qanoatlantirmaydi. Talabalar o'qish davomida jismoniy tarbiya va sport faoliyati shakllari bilan tanishib chiqishadi. Talabalar jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanganda, o'z oldiga quyidagi maqsadlarni qo'yadi:

–o'z sog'ligini mustahkamlash, har tomonlama jismonan rivojlanish, jismoniy harakatlarni tarbiyalash, organizmning kasallikka bardoshligini, mehnat unumdorligini oshirish;

–aql-idrok faoliyatini faollashtirish va toliqlashni yengishga qaratilgan vositalarni topish. Kommunikativ tarbiyaning mazmuni talabaning o'z o'rtoqlari bilan muloqatda bo'lishi, o'quv guruhidagi do'stlari bilan aloqani mustahkamlashi, irodasini tarbiyalash, mehnatdan qochmaslikdir. Pedagog-tashkilotchi, jamoatchi-yo'riqchi, tarbiyachilik, sport bo'yicha hakamlik, ommaviy jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining tashkilotchisi qobiliyatini, malaka va ko'nikmalarini tarbiyalab boradi [6].

Jismoniy tarbiya pedagogik jarayon bo'lib, yosh avlodning sog'lig'i, jismonan yetukligi, ijtimoiy faolligi, axloqan sog'lom o'suvchi avlodni shakllantirishni takomillashtirishga yo'naltirilgan bir tarbiyaviy vositadir. Jismoniy tarbiya jarayonida organizm funksional va morfologik takomillashtiriladi, harakat ko'nikmalari, jismoniy harakat sifatleri: chaqqonlik, tezkorlik, egiluvchanlik, chidamkorlik maxsus bilim va ko'nikma bilan shakllanadi [7].

Ommaviy jismoniy tarbiya va sport tadbirlari o'z yo'nalishiga qarab tashviqot-targ'ibot, o'quv-tayyorgarlik mashg'ulotlari va sport musobaqalariga bo'linadi. Tashviqot-targ'ibot yo'nalishining maqsadi talaba, o'qituvchi va ishchi-xodimlarni jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari bilan muntazam shug'ullanishiga, jismoniy tarbiya malakalarini egallashga qaratilgan.

Sport klubning vazifalari:

a) talaba yoshlarni, professor-o'qituvchilarni, ishchi-xodimlar va ularning oila a'zolarini jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullantirish va qiziqtirish;

b) talabalarining sog'ligini mustahkamlash, organizmini chiniqtirish, tashkilotlar a'zolarining doimiy ravishda sog'lom bo'lishini ta'minlash;

d) rahbariyat bilan bog'langan holda kafedra, yoshlar agentligi, kasaba uyushmasi va boshqa ijtimoiy tashkilotlar bilan birga talabalarining bilimlari, mahorati, ish qobiliyati, ko'nikmalari sifatini oshirish, fuqorolik burchlarini (harbiy xizmatni) bajarishlarini ta'minlash;

e) ommaviy sog'lomlashtirish, jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini o'tkazish;

f) sport turlari bo'yicha klublar, ma'ruzalar va jamoa birlashmalarini tashkil etish;

g) jismoniy tarbiya va sport, sog'lom turmush tarzi, jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanuvchilarni ommaviy ravishda oliy o'quv muassasalari siyosiy tadbirlarida qatnashishga jalb etish.

Talabalarining jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlariga sarflaydigan vaqti (bir haftada), soatda 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Mashg'ulotlarni tashkiliy shakli	O'quv bo'limlari		
	Maxsus	Asosiy	Sport
Darsdagi o'quv mashg'ulotlari	1.20+0.04	1.20+0.001	1.20+0.63
Ertalabki mashg'ulotlar (ertalabki gimnastika)	0.43+0.11	0.88+0.01	1.48+0.02
Mustaqil mashg'ulotlar	0.37+0.03	1.78+0.03	1.9+0.05
Sport shubalaridagi mashg'ulotlar	-	1.30+30	7.9+0.15
Musobaqalarga qatnashish	-	0.67+0.01	5.42+0.06

Talabalar mehnati aqliy faoliyat bo'lib, bilimlarni o'zlashtirish ko'nikmasini hosil qilishga, fan va texnika, ishlab chiqarishning turli sohalarida ishlashni o'rganishga qaratilgan. Har qanday mehnatdagi singari o'qishda ham sog'liqni saqlab turish, yuqori darajada ishchanlik va boshqa sifatlar har tomonlama rivojlanishi uchun hech narsa to'sqinlik qilmasligi kerak. Talabalar mehnatini ilmiy tashkil qilish (MITK) ni baholashda mutaxassislarining fikricha, o'qishga sarf qilinadigan vaqtning bo'sh vaqtga nisbatining ahamiyati muhimdir.

Xulosa va takliflar (Summary and suggestions). Bu xulosalar va takliflar, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi pedagogik shart-sharoitlarini tadqiq etishda va rivojlantirishda qo'llaniladigan metodologiyani ta'minlashga yordam berishi mumkin. Bu oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya va sport sohasidagi pedagogik faoliyatning sifatini oshirish uchun samarali va qulay yo'nalishlar yaratishga yordam beradi.

Talaba o'z sog'ligini va jismoniy mashqlarning o'ziga ta'sir intensiv kuzatib borishiga "o'z-o'zini nazorat qilish" deyiladi. Talabaning jismoniy rivojlanishini takomillashtirish, uning jismoniy ish qobiliyatini va aqliy qobiliyatini ongli ravishda oshirish tarbiyalashning asosiy shartidir. Maxsus uslub va ko'nikmalar yordamida o'z-o'zini nazorat ("Jismoniy tarbiyaning ilmiy-tabiiy asoslari") qilish jismoniy tarbiya fanining nazariy bilimlari asosida olib boriladi. Talaba o'ziga xos ma'lumotlarni va obyektiv ko'rsatkichlarni, organizmning asosiy fiziologik tarmog'ining faoliyatini o'rganadi sog'liqning muhim alomati talabaning kayfiyatini, hol-ahvolini. uyqusining sifatining, o'zgarish xususiyatiga xizmat qiladi va toliqishning boshlang'ich bosqichi (aqliy yoki jismoniy) ushbu alomatlarining o'zgarishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 03.06.2017 yildagi PQ-3031-son. <https://lex.uz/docs/-3226019>

(2). Покасов В.Ф. Управление качеством образования современной школы (методические материалы). Автор. состав. Ставрополь, 2012, 145 с.

(3). Гомулина Н.Н. Применение новых информационных и телекоммуникационных технологий в школьном физическом и астрономическом образовании. Дисс. канд. пед. наук, 13.00.02. М., МГПУ, 2003, 332 с.; РГБ ОД, 61:03-13/1698-6.

(4). Хамидов В.С. Таълим тизимида кескин бурилишга сабаб бўлган 4 дастур ҳақида. «Infocom.uz», Тошкент. 2010, 1-сон, 54–57-бетлар.

(5). Шоштаева Е.Б. Интегральная технология обучения как основа повышения качества образовательного процесса. Автореф. дис. канд. пед. наук, Карачаевск, 2003, с. 23.

(6). Хамидов В.С. Таълим тизимида кескин бурилишга сабаб бўлган 4 дастур ҳақида. «Infocom.uz», - Тошкент. 2010.

(7). Исмоилов, Д.М. (2021). Место междисциплинарной связи в профессиональных компетенциях. Инновации в технологиях и образовании (р. 96–98).

(8). Makhmadalievich, Ismoilov Davron. “Development of methods of scientific knowledge at the modern stage”. The 4th International scientific and practical conference “Fundamental and applied research in the modern world” (November 18–20, 2020). BoScience Publisher, Boston, USA, 2020. 1036, p. 2020.

**Maxmanov Ergash Binoqulovich (Qarshi Muhandislik-iqtisodiyot instituti
“Fizika va elektronika” kafedrası dotsenti (PhD))
FIZIKADAN AMALIY MASHG‘ULOTLARDA BO‘LAJAK MUHANDISLARNING KASBIY
KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH**

***Annotatsiya.** Bo‘lajak muhandislarning fikrlash xususiyatlarini rivojlantirish zaruriyligi masalasi aniqlashtiriladi. Talabalarni standartlashtirilgan usullar yordamida texnik masalalarni yechishga o‘rgatish metodlari va texnikaga oid fizik masalalarni yechish jarayonida hosil bo‘ladigan bilim va ko‘nikmalar keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar:** fizika, kasbiy fikrlash, muammoli vaziyatlar.*

Махманов Эргаш Бинокулович (доцент кафедры физики и электроники Каршинского инженерно-экономического института (PhD))

РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ НА ПРАКТИЧЕСКИХ ЗАНЯТИЯХ ПО ФИЗИКЕ

***Аннотация.** Уточнен вопрос о необходимости развития практической компетентности по физике будущих инженеров. Представлены методы обучения студентов решению технических задач с использованием стандартизированных методов, а также знания и умения, которые формируются в процессе решения физических задач, связанных с техникой.*

***Ключевые слова:** физика, профессиональное мышление, проблемные ситуации.*

Makhmanov Ergash Binokulovich (Docent, Department of Physics and Electronics, Karshi Institute of Engineering and Economics (PhD))

DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCIES OF FUTURE ENGINEERS IN PRACTICAL CLASSES IN PHYSICS

***Annotation.** The issue of the need to develop practical competence in physics for future engineers has been clarified. Methods for teaching students to solve technical problems using standardized methods are presented, as well as knowledge and skills that are formed in the process of solving physical problems related to technology.*

***Key words:** physics, professional thinking, problem situations.*

Kirish. Bugungi kunda ta’lim muassasalarida fizika fanini o‘qitish sifatini oshirish, ta’lim jarayoniga zamonaviy o‘qitish uslublarini joriy qilish, iqtidorli o‘quvchilarni saralash, mehnat bozoriga raqobatbardosh mutaxassislarini tayyorlash, ilmiy tadqiqot va innovatsiyalarni rivojlantirish hamda amaliy natijadorlikka yo‘naltirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, sohada yechimini topmagan qator masalalar fizika sohasidagi ta’lim sifati va ilmiy tadqiqot samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish zaruratini ko‘rsatmoqda.

Hozirgi kunda hayotimizning turli sohalaridagi o‘zgarishlar, ma’naviy, axloqiy va kasbiy qadriyatlarini qayta ko‘rib chiqish jarayoni davom etayotgan bir paytda oliy ta’lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlashga alohida e’tibor qaratish lozim. Bu, avvalo, talabaning fuqarolik va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish, ularning aqliy va ijodiy tafakkuri, madaniyati va axloqini rivojlantirish bilan bog‘liq.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Fizikani o‘rganish jarayonida masalalar yechish katta o‘rin tutadi. Masalalarni yechish va tahlil qilish fizikaning asosiy qonunlari va formulalarini tushunish va eslab qolish, ularning xarakterli xususiyatlari va qo‘llanish chegaralari haqida aniq tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Vazifalar moddiy olamning umumiy qonuniyatlaridan amaliy va kognitiv ahamiyatga ega bo‘lgan aniq masalalarni yechish uchun foydalanish malakasini rivojlantiradi. Masalalarni yechish qobiliyati dastur materialini o‘rganish va uni o‘zlashtirishning darajasini baholashning eng yaxshi mezonidir. Har bir fizik masala fizikaning bir yoki bir necha asosiy qonunlari va ularning oqibatlarining muayyan tarzda namoyon bo‘lishiga asoslanadi.

Kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirish sohasida pedagogikada ilmiy va amaliy qiziqishning eng dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lajak muhandislarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish bo'lib, ularning texnik obyektlar bilan ishlash muvaffaqiyatini belgilab beradi. Bu jarayon har qanday texnikaga oid bilimlarni o'rganish va fizikaning texnikaga oid qonun, hodisalarlardan foydalanish orqali texnik (mashina, mexanizm, qurilma va boshqalarga oid) masalalarni yechishdan boshlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology). Fizikadan amaliy mashg'ulotlarda bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning tadqiqot metodologiyasi quyidagi bosqichlardan iborat.

Maqsad va muammolar. Tadqiqotning boshlanishida, bo'lajak muhandislar uchun maqsadlar belgilanadi va muammolar aniqlanadi. Bu qismda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida kerakli ma'lumot va ko'nikmalarni aniqlash va muhokama qilish uchun asosiy tushunchalar yaratiladi.

Amaliy mashg'ulotlar tashkil etish. Bo'lajak muhandislar uchun amaliy mashg'ulotlar tashkil etiladi. Bu mashg'ulotlar, fizikadan amaliy bilimlarni o'rganish, laboratoriya ishlarini bajarishdan iborat bo'ladi.

Ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish. Amaliy mashg'ulotlar o'tkazilganida olingan ma'lumotlar tahlil qilinishi kerak. Bu bosqichda talabalar uchun amaliy ish jarayonlarida olingan ma'lumotlar, natijalar va ularning tahlili o'rganiladi.

Natijalarni baholash va taqdim etish. Amaliy mashg'ulotlar natijalarining baholanishi va taqdim etilishi muhimdir. Bu qismda talabalar o'z ishlarining natijalarini baholaydilar va ularga mos javobgar taqdimot tayyorlaydilar. Tadqiqot metodologiyasi orqali, bo'lajak muhandislar uchun kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonini samarali, tizimli va ma'lumotlarga ega bo'lgan shaklda o'rganib chiqish mumkin. Ular o'z faoliyatlari va mashg'ulotlari orqali ilg'or tajriba va bilimlarni olishlari, va o'z rivojlanishlarini oshirishlari mumkin.

Yechilishi qiyin bo'lgan masalalar yechimi evristik usullar yordamida kompetentli shaxslar tomonidan taklif qilinadi. Biroq texnik masalalarni yechishda tajriba to'plash ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi (IMEN), ixtirochilik masalalarini yechish algoritmi (IMEA) va h.k. standart metodlar majmuasiga ega bo'lgan usullarni ishlab chiqishga olib keldi. Texnik masalalar yechimlarini izlashning standartlashtirilgan usullaridan foydalanish ijodiy jarayonni yo'q qilmaydi, lekin uni ratsionallashtiradi, bu esa ma'lum bo'lgan yechim usullarini izlashga vaqt va kuch sarflamaslikka imkon beradi. Muammoni yechish natijasida keyingi bosqichlar uchun qo'llanma bo'lib xizmat qiluvchi «yechim modeli» olinadi. Shu sabablarga ko'ra, bu bosqich juda muhim hisoblanadi.

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar texnik obyektlarni takomillashtirish uchun texnik masalalarni yechishni o'rganadilar. Texnik obyekt deganda o'zaro bog'liq moddiy elementlarning ma'lum bir integral birligini tushunamiz. Fizika fanidan amaliy mashg'ulotlarda o'quv dasturidagi texnik masalalarni yechishda, uning loyihalash xususiyatlarini hisobga olmagan holda, optimal prinsipial yechimlari bilan cheklanamiz.

Keltirilgan algoritmnin texnik masalani yechish uchun qo'llanishini misolda ko'rib chiqamiz.

Masala. EYKi $\varepsilon = 5 V$ va ichki qarshiligi $r = 5 \Omega$ bo'lgan zanjirga $R_1 = 20 \Omega$ va $R_2 = 30 \Omega$ bo'lgan qarshiliklar ulanadi. 2 min 49 s da birinchi rezistorda qanday issiqlik miqdori chiqadi? Yechish (algoritm yordamida):

1-bosqich. Berilganlarni yozib olamiz:

<p>Berilgan:</p> <p>$\varepsilon = 5 V$</p> <p>$r = 5 \Omega$</p> <p>$R_1 = 20 \Omega$</p> <p>$R_2 = 30 \Omega$</p> <p>$t = 169 c$</p>	
---	--

2-bosqich. Masalada yopiq elektr zanjiri haqida gapirish mumkin. EYK manbasini o'z ichiga olgan to'liq zanjir uchun Ohm qonunini yozing.

$$I = \frac{\varepsilon}{R + r}$$

Masalada zanjirdagi qarshilik haqida gapirilgan. Shuning uchun qismi uchun Ohm qonunini yozamiz:

$$I = \frac{U}{R}$$

Biz elektr isitish elementlari haqidagi masalani uni yechish uchun Joule-Lens qonuni yozishimiz kerak:

$$Q_1 = I^2 R t = \frac{U^2}{R} t$$

3-bosqich. 1-bosqichdagi tuzilgan formulalardan foydalanamiz. Bu holda umumiy qarshilikni hisoblash uchun rezistorlar parallel ulanganligini hisobga olamiz.

$$\left\{ \begin{array}{l} I = \frac{\varepsilon}{R + r} \\ I = \frac{U}{R} \\ Q_1 = \frac{U^2}{R} t \\ \frac{1}{R} = \frac{1}{R_1} + \frac{1}{R_2} \end{array} \right.$$

Yozilgan to'rtta tenglamada to'rtta noma'lumli sistemani yechish mumkin.

4-bosqich. Dastlabki uchta tenglamadan

$$U = IR = \frac{\varepsilon}{R + r} R = \frac{\varepsilon}{\frac{R_1 R_2}{R_1 + R_2}} \frac{R_1 R_2}{R_1 + R_2}$$

$$Q = \left(\frac{\varepsilon}{\frac{R_1 R_2}{R_1 + R_2}} \frac{R_1 R_2}{R_1 + R_2} \right)^2 \frac{t}{R_1} = 180J$$

5-bosqich. Kattaliklarni tekshiramiz: Joule-Lens qonuniga asosan, $\frac{v^2}{\Omega} s = J$.

6-bosqich. Javob: 180 J.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Masalani yechish davom etayotgan fizik jarayonning xususiyatlari uni nazorat qilish usullarini yaratishga qanday xizmat qilishini ko'rsatish imkonini beradi.

Texnik masalani yechishning yuqoridagi misolida algoritm va ba'zi standart yechimlarining qo'llanilishi aniq ko'rsatib berilgan. Biroq texnik masalalarni yechish uchun algoritm va standartlarni qo'llashda tajribaga ega bo'lgan talabalarga bunday masalalarni taklif qilish tavsiya etiladi, ya'ni fizikani o'rganishning birinchi yili oxirida qo'llash mumkin.

Individual masalalarni yechish ko'plab mutaxassislarining sa'y-harakatlarini talab qiladi. Ishlab chiqarish masalalarini yechish uchun nafaqat chuqur va mustahkam bilim, balki nostandart sharoitlarda ularni qo'llash qobiliyati, jamoada ishlash va muammolarni juda qisqa vaqt ichida hal qilish qobiliyati kerak.

Texnika OTMlarida fizika kursini o'rganishda kasbiy yo'nalishni chuqurlashtirish muammosining dolzarbligi texnika OTMlari bitiruvchilarining nazariy va amaliy bilim darajasiga qo'yiladigan talablarni oshirish bilan belgilanadi. Pedagogik tadqiqotlarning tahlili ushbu masalani o'rganishda bir qator eng jadal rivojlangan yo'nalishlarni aniqlashga imkon beradi. Ulardan biri muhim kasbiy fazilatlarini rivojlantirishdir. Inson fazilatlarini rivojlantirish uzoq muddatni talab qilgan ekan, bu masalani o'qitishning dastlabki kunlaridanoq hal etish lozim. Talabalarining maqsadga erishish uchun ko'rsatmalarni belgilash imkonini beruvchi integral tizimni ishlab chiquvchi jarayon injenerning tipik kasbiy vazifalarini hal etishning umumlashgan usullaridan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish va o'qituvchiga muhim kasbiy sifatlarni shakllantirish uchun mutaxassis tayyorlash modelini tuzish zarurati mavjud [5]. Ikkinchisi—o'qitish motivatsiyasini shakllantirish. O'qitishning muvaffaqiyati — o'qitish motivatsiyasining rivojlanish darajasiga bog'liq bo'lib, u ham o'qitishning dastlabki kunlaridanoq shakllanishi kerak. Ushbu yo'nalish tadqiqotchilari talabalarining kelajakdagi mutaxassisligiga muvofiq, fizika bo'yicha yangi fan dasturlarini ishlab chiqishni taklif qiladilar, bu yerda ba'zi professional muhim mavzular chuqurlashtiriladi, kelgusi kasb bilan chambarchas bog'liq laboratoriya ishlarini olib boradi, ta'lim vazifalarini, yetarli kasblarni tanlaydi va hokazo [4].

Kasbiy faoliyatga yo'naltirilgan ba'zi masalalar keltiramiz:

1. Radio tebranish konturi kondensatorining sig'imi 5 pFdan 100 pFgacha o'zgaradi. Qoplamalar orasidagi elektr maydon kuchlanganligi necha marta o'zgaradi? Sig'imni qanday o'zgartirish mumkin?

1) plastinkalar orasidagi masofa o'zgaradimi?

2) plastinkalar yuzi o'zgaradimi?

2. Radioto'lqin uzatuvchi qurilmaning tebranish konturi induktivligi 0.5 mH. Kontur 300 m to'lqin uzunligidagi to'lqin tarqatish uchun kondensatorning sig'imi qanday bo'lishi kerak?

3. 600 W quvvatli va 220 V kuchlanishli qizdirish elementining spiral uzunligining bir qismi erib ketdi. Element ishini davom ettirish uchun 0.2 mm diametrlilik nixrom simdan qancha qo'shish kerak?

4. Bir xil EYK va ichki qarshilikka ega bo'lgan uchta manba mavjud. Ular eng yuqori tokni, eng yuqori kuchlanishni olish uchun qanday ulanishi kerak?

Keltirib o'tilgan masalalar bo'lajak mutaxassislarni texnik qurilmalarning ishlash prinsiplari, fizik tadqiqot usullari bilan tanishtiradi. Ularga fizika qonunlarining birligini va mutaxassis tomonidan xizmat ko'rsatiladigan aniq uskunalarining ishlashini ko'rish imkonini beradi. Masala shartlari ham va talablarini adabiy loyihalash jarayoni ham muhim ahamiyatga ega.

Xulosa va takliflar (Summary and suggestions). Fizik masalalarni yechish o'quvchilarning mantiqiy fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning eng muhim vositalaridan biridir. Ko'pincha, guruxda muammoli vaziyatlar topshiriqlar yordamida yaratiladi va bu o'quvchilarning mantiqiy fikrlash faoliyatini oshiradi. Masalalar qiymati, birinchi navbatda, ular o'z ichiga olgan fizikaviy axborot bilan belgilanadi. Shunday qilib, klassik, fundamental tajribalar va kashfiyotlarni tasvirlovchi hamda fizikaga xos tadqiqot usullaridan foydalanib yechish mumkin bo'lgan masalalarga e'tibor qaratish lozim.

Masalalarni modellashtirish yo'li bilan yechish usuli kunduzgi va sirtqi bo'lim talabalari bilan dars o'tkaziladigan guruhlarda qo'llaniladi. Fizikani o'rganish jarayonida texnik masalalarni yechish usulini qo'llash orqali bir necha ta'sirga erishimiz mumkin:

1) texnik masalani yechish jarayonida bo'lajak muhandislar ushbu bo'limdagi fizik qonunlar, hodisalar va ta'sirlarni chuqurroq tushunadilar;

2) muayyan fizik hodisani tanlab texnik ziddiyatni bartaraf etish, talaba muayyan texnik obyektga nisbatan tahlil, sintez, taqqoslash operatsiyalarini amalga oshiradi. Bu, birinchidan, texnik fikrlashning shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan mantiqiy, obrazli, samarali va konseptual komponentlarni ishlab chiqadi. Ikkinchidan, talaba – bulg'usi muhandis texnik obyektlarni ishlab chiqish usullarini o'rganadi. Uchinchidan, o'quvchilar fizika va texnika o'rtasidagi yaqin munosabatlarni amalda o'rganishlari muhimdir. Bunday masalalarni yechish fizika, barcha texnik obyektlarga taalluqli bo'lgan qonunlari murakkab va har doim ham tushunarli bo'lmagan fan emas, balki tirik predmetga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi PQ-5032-qarori. <https://lex.uz/docs/-5338558>
- (2). Махманов Э.Б. Бўлажак муҳандисларни тайёрлашда мантикий фикрлаш компетенцияларини такомиллаштириш. Наманган Давлат университети, 2021, 1-т, 581-бет.
- (3). Binokulovich, Makhmanov Ergash. The development of laboratory practice-trainings in the identification of comparative specific heat capacity in liquids and solids. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Vol 8, 9 (2020).
- (4). Ишмуродова Г.И., Махманов Э.Б. Талабаларнинг физикадан мантикий масалалар ечиш кўникмаларини шакллантириш. "Замонавий таълим" журнали, 2020, 3-сон, 16–23-бетлар.
- (5). Махманов Э.Б. Физика таълими жараёнида талабаларнинг ўқув компетенцияларини ривожлантириш. А ИЛМ, с. 75.
- (6). Ишмуродова Г.И., Махманов Э.Б. Физика фанидан лаборатория машғулотларини инновацион ёндашув асосида ўтказиш. Современное образование (Узбекистан). 2019, №. 8 (81), с. 16 – 22.
- (7). Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. М., "Педагогика", 1989, 192 с.

Turayev Sirojiddin Juraqobilovich (TATU Qarshi filiali "Tabiiy fanlar" kafedrasida dotsenti) BO'LAJAK PROFESSIONAL TA'LIM O'QITUVCHILARINI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA LOYIHALASHTIRISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda dasturiy vositalardan foydalanish orqali loyihalash, konstruksiyalash, ilmiy tadqiqot kabi kasbiy faoliyat turlariga tayyorlash keltirib o'tilgan, bundan tashqari, dasturiy vositalar va ularning turlari, dasturiy injiniring bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalarini pedagogik dasturiy mahsulotlar yaratishga o'rgatish amalga oshirilgan.

Kalit so'zlar: dasturiy vosita, elektron resurs, animatsiya, dasturiy paket, dasturiy mahsulot, kasbiy faoliyat, texnologiyalar, loyihalash, konstruktorlik.

Тураев Сирожиддин Джурақобиллович (доцент кафедры “Естественные науки”
Каршинского филиала ТУИТ)

ПРОФЕССИОНАЛЬНОЕ ОБУЧЕНИЕ И ПОДГОТОВКА СПЕЦИАЛИСТОВ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация. В данной статье рассматривается подготовка студентов к проектированию, конструированию, анализируется научно-исследовательская профессиональная деятельность с использованием программных средств, а также помимо видов программных средств и их видов, изучение направления образования программный инжиниринг для создания педагогических программных продуктов.

Ключевые слова: программные средства, электронный ресурс, анимация, программный пакет, программный продукт, профессиональная деятельность, технология, проектирования, конструкторский.

Turayev Sirojiddin Juraqobilovich (Docent of the Department of Natural Sciences of the Karshi branch of TUIT)

PROFESSIONAL EDUCATION AND TRAINING OF SPECIALISTS IN PROFESSIONAL ACTIVITIES BASED ON DIGITAL TECHNOLOGIES

Annotation. This article discusses the preparation of students for design, construction, research and professional activities using software, as well as in addition to the types of software tools and their types, the direction of education is studied software engineering for the creation of pedagogical software products.

Key words: software tools, electronic resource, animation, software package, software product, professional activity, technology, project, construction.

Kirish. Ta’limda dasturlash tillaridan foydalanishning ahamiyati shundan iboratki, ular nafaqat ma’lum pedagogik vazifalarni hal qilish vositalari sifatida qo’llaniladi, balki didaktik hamda metodik rivojlanishga turtki beradi, ta’limning zamonaviy va yangi shakllarini yaratishga imkoniyat yaratadi. Ta’limda dasturlash tillaridan foydalanishning ahamiyati shundan iboratki, ular nafaqat ma’lum pedagogik vazifalarni hal qilish vositalari sifatida qo’llaniladi, balki didaktik hamda metodik rivojlanishga turtki beradi, ta’limning zamonaviy va yangi shakllarini yaratishga imkoniyat yaratadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Ta’limning metodik va didaktik jihatdan rivojlanishida dasturlash tillari hal qiluvchi ahamiyatga ega bo’lib, uning natijasida ta’lim sifati va samaradorligini oshirish, talabalarni loyihalash, konstruktorlik, yaratuvchanlik va ilmiy tadqiqot kabi kasbiy kompetensiyalarini rivojlanishini ta’minlaydi.

Dasturiy injiniring ta’lim yo’nalishi malaka talablarida bakalavrlar kasbiy faoliyat turlarining bar-chasida dasturiy ta’minot ishlab chiqish ko’nikmasiga ega bo’lishlari shart ekanligi keltirib o’tilgan. Shuni inobatga olib, bo’lajak dasturchilarni amaliy mashg’ulotlar jaryonida dasturiy mahsulotlar ishlab chiqish hamda eng sodda masalalar yechimini topishda dasturlash tillaridan foydalanish metodikasini keltirib o’tamiz.

Dasturlash tillari, asosan, ikki guruhga bo’linadi: quyi darajali dasturlash tili va yuqori darajali dasturlash tili. Quyi darajali dasturlash tillari mikroprotssorlarni dasturlashda ishlatilib ancha murakkabdir. Hozirgi kunda yuqori darajali C++, Delphi, Python, Java kabi dasturlash tillari, Maxmadiyev B.S., Xamidov V.S., Shoshtayeva Y.B. adabiyotlardan foydalanilmoqda. Bunga sabab dastur tuzishda soddaligi, vizual komponentalarga egaligi va interfeysining mukammalligidir [4,5].

Borland C++ builder6 dasturlash tili obyektga yo’naltirilgan vizual dasturlash tili bo’lib Borland firmasi tomonidan ishlab chiqilgan va hozirgi kungacha ishlatilib kelinmoqda. Borland C++ dasturlash tili C va C++ dasturlash tillarining uzviy davomi bo’lib yuqori imkoniyatlarga ega, ya’ni innovatsion muhiti mavjud. Borland C++ dasturlash tilini yaxshi o’rganish uchun avvalo matematik va tabiiy-ilmiy fanlarga doir oddiy hodisa va jarayonlarni modellashtirish, vizual komponentalarini formaga joylashtirish va o’zaro bog’lash, xossalarni aniqlash zarur. Bo’lajak dasturchilarni dastur komponentalari tarkibiga dastur kodlarini kiritishi va mukammal dizaynga ega bo’lgan dasturiy mahsulotlar ishlab chiqishi ularni kasbiy faoliyatga yo’naltiradi. Istalgan turdagi dasturlash tilidan foydalanib dasturiy mahsulotlar ishlab chiqish uchun oddilikdan boshlash va aniq bir yo’nalishda reja asosida natijaga erishishga intilishi kerak bo’ladi [1,2].

Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology). Fizika fanidan amaliy mashg’ulotlar jarayonida talabalar C++ dasturlash tilida hodisa va jarayonlarni vizuallashtirishni o’rgatish metodikasini ko’rsatib o’tamiz.

Amaliy mashg'ulotlarda talabalarni hadisa va jarayonlarni dasturlash tillari yordamida vizuallashtirishga o'rgatishda FSMU metodidan foydalanish samarali natijalar beradi. Bunda talabalar:

- o'z fikrlarini bildiradilar;
- fikrlarini asoslovchi sabab ko'rsatadilar;
- misol keltiradilar;
- fikrlarini umumlashtiradilar.

Amaliy mashg'ulot darsi quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

Amaliyot o'qituvchi talabalarga dinamik jarayonga doir masalani analitik yechimini topish vazifasini beradi. Gorizontga burchak ostida otilgan jism harakatida uchish uzoqligi, ko'tarilish balandligi va uchish vaqtini aniqlash formulalari 16-ilova keltirilgan (3-masalaga qarang). Amaliyot o'qituvchisi talabalar bergan fikrlarga asoslanib analitik yechilgan masalani dasturlash tili formasiga vizual komponentalarini joylashtiradi;

Borland C++ dasturlash tilida vizuallashtirish quyidagicha bo'ladi: Dasturlash tili ishga tushiriladi Borland C++->File->New->Application. Yangi formaga komponentalar palitrasidan kerakli komponentalarni formaga joylashtiriladi. Standard tarkibidan label va button tugmachalarni formaga ketma-ket joylashtiriladi. So'ngra System tarkibidan TPaintBox formaga joylashtiriladi. Funksiyaga doir argumentlarni kiritishda qadam berish va otilish burchak kattaliklariga alohida e'tibor berish kerak bo'ladi. Amaliyot o'qituvchisi talabalar ishtirokida dastur kodlarini kiritadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Dasturlash ishlari yakuniga yetgach kompilyatsiya jarayoni amalga oshiriladi va otilish burchagi va tezlik qiymatlarini ketma-ket kiritilgandan so'ng tegishli natijalarga ega bo'linadi.

- talabalar ishlab chiqilgan dastur bo'yicha o'z fikrlarini beradilar;
- fikrlariga sabab ko'rsatadilar;
- masalada berilgan kattaliklarni o'zgartirib misol keltiradilar.

Formaga otilish burchagi va boshlang'ich tezlikning istalgan qiymatini kiritilsa aniq natija kelib chiqishi bilan birgalikda grafik tasvirlari ham namoyon bo'ladi.

Amaliyot o'qituvchisi talabalar fikrlarini umumlashtiradi va yakuniy xulosa beradi.

Borland C++ dasturlash tilida gorizontga burchak ostida otilgan jism harakatida uchish uzoqligi, uchish vaqti, maksimal ko'tarilish balandligini hisoblash, harakat trayektoriyasining vizual dasturini tuzish amalga oshirildi. Bunday dasturlarni ishlab chiqish talabalarni kasbiy faoliyat turlariga tayyorlashda va undan amaliy mashg'ulotlarida foydalanish ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi [3;40-44-b.].

Matematika, sonli usullar va dasturlash fanlaridan amaliy mashg'ulotlar jarayonida yuqorida keltirib o'tilgan ta'lim metodikasini qo'llagan holda C++ va Delphi dasturlash tillari yordamida hodisa va jarayonlarni vizuallashtirishni ko'rsatib o'tamiz.

Delphi7 muhitida ishlash Turbo Paskal dasturlash tilida ishlashga qaraganda qulay va yuqori imkoniyatlarga ega hisoblanadi hamda vizual komponentalardan foydalanilishi bilan ajralib turadi. Agar talaba Pascal dasturlash tilini yaxshi o'zlashtirgan bo'lsa qiyinchilik bo'lmaydi. Vizual dasturlash dastur tuzishni osonlashtiradi va talabada dasturiy vositalar yaratishga bo'lgan qiziqishini oshiradi [5].

Amaliy mashg'ulot jarayonida ko'rsatib o'tilgan uslublar bo'yicha talabalar o'z fikrlarini bildiradi, sabab ko'rsatadi, misollar keltiradi. Amaliyot o'qituvchisi fikrlarni umumlashtiradi va yakuniy xulosaga kelinadi.

Fizika fanidan amaliy mashg'ulotlarda Delphi 7 dasturlash tilida ishlab chiqilgan axborot almashuvchi ma'lumotlar bazasini yordamida grafiklar hosil qilish, elektr zanjirlariga doir masalalarning yechimini topish metodikasini keltirib o'tamiz.

1. Amaliyot o'qituvchisi o'qitishning ko'rgazmali metodi yordamida talabalarning nazariy egalagan bilimlarini amaliyotda qo'llay olishga o'rgatadi.

2. Masala sharti bilan tanishtiradi.

3. Masalani yechimini keltirib chiqaradi.

4. Dasturlash tilida jarayonni vizual dasturini ishlab chiqadi.

5. Grafiklar hosil qilinadi.

6. Grafiklar tahrir qilinadi.

7. Yakuniy xulosaga kelinadi.

8. Talabalarga qo'shimcha topshiriqlar beriladi.

Masala. To‘g‘ri chiziqli tekis tezlanuvchan harakat tenglamasi $x = x_0 + \mathcal{G}_0 t + \frac{at^2}{2}$ ko‘rinishda berilgan bo‘lsin. $x_0 = 5m$, $\mathcal{G}_0 = 1m/s$, $a = 4m/s^2$ bo‘lgan hol uchun harakatni grafik tasvirini hosil qiling.

Yechilishi. Berilgan kattaliklarni o‘rniga qo‘ysak harakat tenglamasi $x = 5 + t + 2t^2$ ko‘rinishdaga keladi. Tezlik $\mathcal{G} = \frac{dx}{dt} = 1 + 4t$, tezlanish $a = \frac{d^2x}{dt^2} = \frac{d\mathcal{G}}{dt} = 4m/s^2 = const$. $x = x(t)$, $\mathcal{G} = \mathcal{G}(t)$, $a = a(t)$ grafiklarini ma‘lumotlar bazasini shakllantirish orqali hosil qilamiz. Argument t ga ixtiyoriy qiymatlar berib funksiyaning x , \mathcal{G} , a qiymatlarini quyidagi jadvalda tushiramiz (1-jadval).

1-jadval

Masofa, tezlik va tezlanishning vaqtga bog‘lanishi

t	1	2	3	3.5	3.8	4	4.7	5	5.3	5.9
x	8	15	26	33	37.68	41	53.88	60	66.48	80.52
\mathcal{G}	5	9	13	15	16.2	17	19.8	21	22.2	24.6
a	4	4	4	4	4	4	4	4	4	4


Borland Delphi7 dasturlash tilini ishga tushirib argument “ t ” va funksiya “ x ”, “ \mathcal{G} ”, “ a ” nomli maydonlardan iborat ma‘lumotlar bazasini tuziladi va grafiklar hosil qilinadi (1-rasm).

1. DataBase DeskTop utilitasi ishga tushiriladi. Pusk=> Programmi=> Borland Delphi=>DataBase DeskTop.

2. DataBase DeskTop oynasining bosh menyusidan quyidagi buyruq beriladi: File=>Working Directory.

3. Jadval nomini mbgr1 kabi saqlab DataBase DeskTop oynasi menyusidan File=>Open->Edit Data orqali jadvaldagi ma‘lumotlar kiritiladi.

4. Ma‘lumotlar bazasini boshqarish algoritmi tuziladi.



1-rasm. Delphi7 muhitida grafik tasvir.

Ushbu oynada berilgan funksiyalarning jadval qiymatlari o‘zgarsa grafik ham mos ravishda o‘zgaradi [6;124–128-b.].

Talabalar ishlab chiqilgan dastur yordamida kinematika qonunlariga doir bir nechta masalalarning yechimini topadilar. Talabalarga amaliy mashg‘ulot yakunida ishlab chiqilgan dasurlarning imkoniyatlarini yanada kengaytirish bo‘yicha topshiriqlar beriladi.

Ta‘lim jarayonida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan pedagogik dasturiy vositalar, matematik dasturiy paketlar va dasturlash tillarining turlari bugungi kunda yetarlicha ko‘p, shunga qaramay ulardan foydala-

nish imkoniyati ham chegaralanmagan. Matematik va tabiiy-ilmiy fanlarning har bir bo‘limiga ijodiy yondashgan holda metodik nuqtayi nazar bilan qarab bo‘lajak dasturchilar kasbiy faoliyatiga mos zamonaviy dasturiy vositalarni tanlash muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy dasturiy vositalarning imkoniyatlaridan foydalanib, ilmiy-amaliy, ijodiy ishlarda uzluksiz ravishda foydalanish zamonaviy ta‘lim metodikasi va zamonaviy dasturlash tillarining bir xilda rivojlanishini ta‘minlaydi [8], [9;58–64-b.].

Shunday qilib, biz dasturiy injiniring bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi talabalariga matematik tabiiy-ilmiy fanlardan amaliy mashg‘ulotlar jarayonida o‘quv rejaga va kasbiy faoliyatiga mos dasturiy vositalarni tanlab oldik va tatbiq etdik.

Microsoft Excel dasturining jadval va imkoniyatlaridan foydalanib fizikaviy jarayonlarni matematik modellashtirish, birinchidan sonli usullarda jadval imkoniyatidan foydalanib grafik usulida yechimini topish, ikkinchidan dasturlash orqali jadval kattaliklarini hosil qilgan holda muammoli masalalarning yechimini topish usullari ko‘rsatib o‘tdik.

Matlab va MathCAD matematik dasturiy paketlari yordamida dinamik jarayonlarni, funktsiya grafiklarini modellashtirish orqali fizikaviy masalalar va matematik misollar yechimini topishda foydalanildi. Qo‘shimcha ravishda Matlab dasturining dasturlash imkoniyatidan ham foydalanildi. Bo‘lajak dasturchilar kasbiy faoliyatga tayyorgarligini shakllantirish maqsadida Borland firmasi tomonidan ishlab chiqilgan C++ va Delphi dasturlash tillarining imkoniyatlaridan ta‘lim jarayonida foydalanish ko‘rsatib o‘tildi.

Xulosa va takliflar (Summary and suggestions). Kuzatuvlar shuni ko‘rsatmoqdaki, pedagoglar va dasturchilarning o‘zaro hamkorligida dasturiy mahsulotlar ishlab chiqishlarida ayrim tushunmovchiliklar kelib chiqmoqda. Bunga sabab dasturchining tegishli fan bo‘yicha bilimining pastligi yoki pedagogning dasturiy tillariga doir ma‘lumotlarga ega emasligidir. Ushbu muammoni bartaraf etish uchun bo‘lajak dasturchilarga ta‘lim berayotgan har bir pedagog fanning barcha bo‘limlariga dasturlash tillarini qo‘llashi va talabalarni kasbiy faoliyatga yo‘naltirishi lozim. Bunday yondashuv bo‘lajak dasturchilarni mukammal pedagogik dasturiy mahsulotlar ishlab chiqishi bilan birga kasbiy faoliyatga tayyorgarlik ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Покасов В.Ф. Управление качеством образования современной школы (методические материалы). Автор-состав., Ставрополь, 2012, 145 с.
- (2). Аладьев В.З., Харитонов В.Н. Программирование. Maple или Mathematica. Таллинн, 2011, 415 с.
- (3). Гомулина Н.Н. Применение новых информационных и телекоммуникационных технологий в школьном физическом и астрономическом образовании. Дисс. канд. пед. наук, 13.00.02. М., МГПУ, 2003, 332 с.; РГБ ОД, 61:03-13/1698-6.
- (3). Xamidov V.S. Ta‘lim tizimida keskin burilishga sabab bo‘lgan 4 dastur haqida. «Infocom.uz», Toshkent, 2010, 1-son, 54–57-betlar.
- (4). Шошгаева Е.Б. Интегральная технология обучения как основа повышения качества образовательного процесса. Автореф. дис. канд. пед. наук, Карачаевск, 2003, с. 23.
- (5). Turaev S.J. Methods of the using of software program Microsoft Excel in practical and laboratory occupation on physics, Scientific Bulletin of Namangan State University, 2019.
- (6). Смолкин, А.М. Методы активного обучения (Метод. пособие для преподавателей и организаторов проф. и экон. обучения кадров). М., “Высш. шк.”, 1991, с. 175.
- (7). Психология и педагогика. Под ред. Абульхамовой К.А., Васиной Н.В., Лаптева Л.Г., Слостенина В.А. М., «Совершенство», 1998.
- (8). Maxmadiyev B.S. MathCAD tizimida ishlash asoslari. O‘quv qo‘llanma, Qarshi, 2012, 144 bet.

Matniyazova Aziza Baxtiyarovna (Urganch davlat Pedagogika instituti “Maktabgacha ta‘lim metodikasi” kafedrası o‘qituvchisi)

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING LOYIHALASHTIRISH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH

***Annotatsiya.** Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning loyihalashtirish kompetensiyasining muhim xususiyatlari va tuzilishi ochib berilgan. Mualliflarning ta‘kidlashicha, loyihani amalda qo‘llash uchun, ya‘ni loyiha vakolatiga ega bo‘lish uchun bo‘lajak o‘qituvchi analitik, gnostik, tadqiqot, diagnostika, ijodiy va aks ettiruvchi kabi ma‘lum ko‘nikmalarni rivojlantirishi kerak. Loyiha ko‘nikmalari boshqa o‘ziga xos tor metodologik ko‘nikmalar bilan birlashishni talab qilganligi sababli, mualliflar ularga aks ettirish, tadqiqot qobiliyatlari, bir nechta muammolarni hal qilish qobiliyati, guruh ko‘nikmalari, boshqaruv, taqdimot va aloqa ko‘nikmalarini ham kiritdilar.*

Kalit so‘zlar: bo‘lajak o‘qituvchi, ta’lim loyihasi, loyihalashtirish kompetensiyasi, ko‘nikmalar.
Матниязова Азиза Бахтияровна (Ургенчский государственный педагогический институт,
преподаватель кафедры «Методика дошкольного образования»)

ФОРМИРОВАНИЕ ПРОЕКТНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ

Аннотация. В статье раскрываются сущностные характеристики и структура проектной компетентности будущих учителей. Авторы отмечают, что для реализации на практике проектирования, то есть для того, чтобы обладать проектной компетенцией, у будущего учителя должны быть развиты определенные навыки, такие как аналитические, гностические, исследовательские, диагностические, творческие и рефлексивные. Поскольку проектные навыки требуют сочетания с другими специфическими узкими методологическими навыками, авторы включили в них также рефлексивные, исследовательские навыки, умение находить множественные решения проблем, групповые навыки, навыки управления, презентации и общения.

Ключевые слова: будущий учитель, образовательное проектирование, проектная компетентность, умения.

**Matniyazova Aziza Bakhtiyarovna (Urgench State Pedagogical Institute, teacher of the department
“Methodology of preschool education”)**

FORMATION OF THE PROJECT COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS

Annotation. The article reveals the essential characteristics and structure of the project competence of future teachers. The authors note that in order to implement design in practice, that is, in order to have project competence, a future teacher must have developed certain skills, such as analytical, gnostic, research, diagnostic, creative and reflective. Since project skills require a combination with other specific narrow methodological skills, the authors also included reflective, research skills, the ability to find multiple solutions to problems, group skills, management, presentation and communication skills.

Key words: future teacher, educational design, project competence, skills.

Введение. Анализ научной литературы показывает, что успешное достижение поставленных целей и дальнейшая профессиональная деятельность будущего педагога невозможны без высокого уровня развития проектной компетентности, которая является основой методической компетентности, поскольку для осуществления профессиональной деятельности педагог должен постоянно проектировать свои действия, владеть приемами профессионального проектирования мышление, такое как планирование, анализ, прогнозирование, моделирование и т.д.

Мы считаем, что природа компетентности заключается в том, что она является продуктом образования; следствием саморазвития человека, его личностного роста, следствием самоорганизации и обобщения личного и трудового опыта. Чтобы выявить основные характеристики проектной компетентности будущего учителя, необходимо рассмотреть ряд научных концепций, которые помогут раскрыть суть и специфику этого явления.

Литературный анализ. Давайте проанализируем категории, которые являются ключевыми в подготовке будущих учителей к реализации проектной компетенции. Центральными понятиями исследуемой проблемы являются “проект”, “проекция”, “проектные навыки”, соотношение понятий “проекция”, “прогностика”, “моделирование” и “навык”. В толковом словаре В.Даля “проектировать” – это “планировать, думать, ..., прогнозировать, выполнять, составлять для этого примечания” (Даль. 1980;148 с.). Л.Столяренко определяет педагогическое проектирование как одну из функций любого учителя, которая не менее важна, чем организующая, гностическая или общительные функции (Столяренко. 2000;61 с.). И.Подласый рассматривает проектирование (planning) как “последний этап подготовки к уроку, который заканчивается созданием программы управления познавательной деятельностью учащихся” (Подласый. 1999;534 с.).

Другие ученые утверждают, что проектирование—это очень важный этап подготовки к использованию конкретных педагогических идей в реальном педагогическом процессе. Поэтому важно создать конкретную технологию, которая поможет будущему учителю проектировать образовательный процесс учащихся (Жерновникова. 2015).

Анализ и результаты. Проектная компетенция состоит из проектных навыков, которые характеризуются осознанностью, независимостью, продуктивностью и динамизмом. Их осознанность заключается в совершении тех или иных действий, человек осознает цель действий и управляет ими с помощью развитых навыков. Его независимость проявляется в умении переносить навыки из одного вида деятельности в другой.

Эффективность навыка определяется его способностью не только воспроизводить заученные действия, но и находить более эффективные решения для использования выработанных навыков. Аналитические способности включают в себя способность анализировать педагогические явления, разделяя их на составные элементы, такие как создание уроков, осмысление каждого этапа урока, поиск новых форм и методов представления нового материала, использование индивидуальных стратегий обучения, портфолио, компьютерных тестов и различных интернет-технологий, диагностика педагогических проблем, создание системы пограничного контроля, система оценки и систематической проверки уровня знаний и практических навыков, а также процесса обучения в ходе изучения учебных материалов.

Методология исследования. Исходя из вышесказанного, мы можем выделить следующий перечень навыков, которые будут способствовать развитию проектной компетентности будущих учителей:

- аналитические навыки;
- гностические навыки;
- исследовательские навыки;
- диагностические навыки;
- творческие навыки;
- рефлексивные навыки.

Проектная компетентность обязательно сочетается с организаторскими способностями в учебной деятельности, поэтому при работе со студентами важно не только разработать проект в теории, но и реализовать его практически в жизни и получить результат.

Заключение. Организация специального обучения для развития проектной компетентности имеет важное значение при подготовке студентов педагогических вузов. Это требует создания алгоритмических предписаний для проектирования различных объектов на основе обобщенных методов педагогического проектирования, диагностики, целеполагания, обладающих симбиозом способностей, которые развиваются в процессе обучения студентов: оформление документации по педагогической практике, дипломных и курсовых проектов, их технический анализ и реализация. Таким образом, проектная компетентность будущих учителей представляет собой сочетание сложных навыков, главными из которых являются аналитические, диагностические, гностические, творческие, исследовательские и рефлексивные. Практические навыки (организационные и коммуникативные) также важны для проектной компетентности. Мы всесторонне рассматриваем состав навыков как компонента проектной компетентности будущих учителей.

Список используемой литературы:

- (1). Безрукова Б.С. (1996). Педагогика. Проектная педагогика. Екатеринбург: Изд-во. "Деловая книга", 344 с.
- (2). Дахин А.Н. (2009). Моделирование компетентности участников открытого образования. Монография, М., НИИ школьных технологий, 290 с.; Даль, В. (1980.). Толковый словарь живого великорусского языка: в 4-х т., т. 3, М., рус. яз., 555 с.
- (3). Генисаретский О.И. (1988). Проблемы исследования и развития проектной культуры дизайна. Автореф. дис. ... канд. техн. наук. соискан уч. степени искусствоведения: спец, 17.00.06. "Техническая эстетика и дизайн", М., 22 с.
- (4). Иванова Н.В. (2011). Методика развития гностических способностей в научно-методической деятельности студентов языкового вуза. Дис....канд. пед. наук. кандидат педагогических наук. специальность: 13.00.01. Курск, 191 с.
- (5). Яковлева Н.О. (2002). Теоретико-методологические основы педагогического образования. Проектирование. Монография, М., Информационно-издательский центр, 1980, 327 с.; Кузьмина, Н.В. (1980). Методы системного педагогического исследования.
- (6). Н.В.Кузьмина 234 с.; Лебедева, Г.А. (2002). Технология обучения педагогическому проектированию /Г.А.Лебедева. Педагогика, 1, с. 68–75; Магсумова Т.А. (2015). Идеи и смыслы Симпозиума историков российского образования. Журнал министерства народного просвещения, том (6), Том 4, с. 143–145. Doi: 10.13187/Лга.2015.6.143.
- (7). Осова О.О. (2009). Работа над системой формирования коммуникативной компетенции студентов на занятиях иноземной музыкой. Психология: сб. науч. тр. ПР. ДВНЗ. Переяслав-Хмельницкий государственный пед. ун-т имени Григория Сковороды-Переяслав-Хмельницкий, 3, с. 224–228.

(8). Осова О.О. (2009). Ролевая игра как метод активизации духовно-познавательной деятельности студентов на занятиях иноземной музыкой. Гуманизация духовно-нравственного процесса. Сб. науч. тр. пиар. Словенский. гос. пед. ун-т., Славянск, с. 31–34.

(9). Подлас. Модж И.П. (1999). Педагогика. Новый художественный курс. В 2-х кн. Кн. 1, Общие основы. Процесс обучения. Учебник, М., ВЛАДОС, 576 с.

(10). Щепилова А.В. (2003). Коммуникативно-когнитивный модуль для обучения французскому языку как второму иностранному. Монография, М., ГОМЦ “Школьная книга”, 488 с.

(11). Сороков, Г.В. (2013). Интерактивные технологии в иноязычном модульном образовании: исследование. Стратегия и методы живого применения. Коллективная монография под науч. ред. Г.В.Сорокова, М., УК, “Перспектива”, 172 с.

(12). Столяренко Л.Д. (2000). Педагогическая психология. Учебное пособие, Ростов-н-Д, “Феникс”, 544 с.

Fozilova Odina Nabiyevna (Farg‘ona davlat universiteti “Maktabgacha ta’lim” kafedrasida o‘qituvchisi, f.f.b.f.d. (FhD); abobakirovaodina78@gmail.com)

МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМДА О‘ЙИНЛАР ОРҚАЛИ О‘ҚИТИШ

***Аннотация.** Ushbu maqola maktabgacha ta’limda o‘yinlar orqali o‘qitish samaradorligini o‘rganadi, erta bolalik sharoitida o‘yinga asoslangan ta’limning kognitiv, ijtimoiy-emotsional va pedagogik imkoniyatlarini o‘rganadi. Aralash metodli tadqiqot loyihasini qabul qilgan holda, tadqiqot o‘yinga asoslangan ta’limning maktabgacha yoshdagi bolalarning ta’lim natijalariga va o‘qituvchilarning amaliyoti va idrokiga ta’sirini o‘rganadi.*

***Калит со‘злар:** erta bolalik ta’limi, kognitiv rivojlanish, ijtimoiy-emotsional rivojlanish, amaliyotlar, tadqiqot, kasbiy rivojlanish, o‘quv dasturlari integratsiyasi.*

Taqrizchi N.Y.Madraximova (Urganch Ranch texnologiya universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi)

Kirish. Keyingi yillarda tilshunoslikda nutqiy hodisalarni sotsiolingvistik o'rganishni pragmatik yo'sinda olib borish ommalashmoqda. Ko'p hollarda pragmatik talqinlardan shaxs omilining sotsial sifatlariga urg'u berish ustuvorlashadi. Bunday aspektdagi yondashuvlar asosida o'zbek tilshunosligida ham ancha ishlar amalga oshirildi [9;100-b.].

A.Hojiyev sotsiolingvistika terminiga quyidagicha ta'rif beradi: "Sotsiolingvistika – tilshunoslikning tilning ijtimoiy yashashi va ijtimoiy hayoti, faktlari aloqasi; nolisoniy omillar ta'sirida til taraqqiyotidagi faol jarayonlar radio, televideniya, kino kabilarning keng tarqalishi bilan tilning og'zaki va yozma shakli o'rtasidagi nisbatning o'zgarishi, til siyosati yuritishning vazifa shakllari keng xalq ommasi, nutq madaniyatini ko'tarish muammolar bilan shug'ullanadi".

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. B.Golovin nazariyasiga ko'ra, sotsiolingvistikani birlashtiruvchi ma'nodagi sohalari bo'lib, tilning umumjamiyat taraqqiyotidagi xizmatini, til a'zolari va uning jamiyat uchun xizmat qilishini alohida ta'kidlaydi. Jumladan, ijtimoiy til hammaga baravar, ya'ni ishchi, dehqon, xizmatchi, ziyolilarga ham xizmat qiladi. Golovindan keyin taniqli tilshunos olim F.Filin ham «til jamiyat» uchun xizmat qiluvchi ijtimoiy hodisadir, deb ta'kidlaydi [7;131-b.].

Kommunikant tushunchasi. Ma'lumki, har qanday muloqotda so'zlovchi va tinglovchi komponentlar sifatida, albatta, ishtirok etadi. Bu muammoga bag'ishlangan ko'pgina adabiyotlarda so'zlovchi, ya'ni, xabar beruvchi, gapiruvchi adresant kommunikator deb, adresantning nutqi qaratilgan shaxs tinglovchi, adresant kommunikant deb muloqotda bevosita ishtirok etuvchi omillar esa ta'sir birliklari deb yuritiladi [5;19-b.]. Ta'sir birliklari shartli ravishda quyidagi ikki guruhga bo'lib tahlil etiladi:

1. Ichki ta'sir birliklari. Bunga adresant va adresant shaxsi bilan bevosita bog'liq quyidagi belgi-xususiyatlar kiradi: millati, jinsi, yoshi, ijtimoiy belgilari TB ga yaqinlik darajasi.

2. Tashqi ta'sir birliklari. Bunga muloqotga ta'sir etuvchi quyidagi tashqi omillar kiradi: muloqot vaqti, vaziyat, holat, ijtimoiy muhit.

Tadqiqot metodologiyasi. Zamonaviy tilshunoslikda dramatik asarlar tilini tilshunoslikning turli tarmoqlari, jumladan, sotsiolingvistika nuqtayi nazaridan tadqiq qilish muhim masalalardan hisoblanadi. Mazkur maqola tilshunoslikdagi bugungi kunda dolzarb muammolardan biri bo'lgan dramatik asarlarni sotsiolingvistik jihatdan tadqiq etish asoslari, uning tadqiq usullari, dramatik asarlarning jahon va o'zbek tilshunosligida sotsiologiya yo'nalishi bo'yicha o'rganilishi kabi qator masalalar haqida ma'lumot berilgan.

Mazkur maqolani yozishdan maqsad ushbu ixtisoslik bo'yicha olib boriladigan ilmiy tadqiqotlarning metodologiyasi, nazariy asoslari va usullarining erkin tadqiqotchi tomonidan o'zlashtirilishiga erishishdir.

Zamonaviy lingvistik grammatika, matn tushunchasi va uning paydo bo'lishida, ommaviy axborot tizimida tilning tutgan o'rni kabi masalalarni ijtimoiy-lisoniy nuqtai nazardan tadqiq etishda katta ahamiyat kasb etadi. Bunda milliy xarakter muhim ahamiyatga ega. Milliy xarakter deganda, ma'lum ijtimoiy guruh o'rtasida asrlar mobaynida avloddan avlodga o'tib kelgan o'ziga xosliklar majmuyi tushuniladi. Milliy xarakterga mazkur millat aholisi sig'inadigan din, atrof-muhit va ijtimoiy turmush tarzi jiddiy ta'sir ko'rsatadi va bu ta'sir o'z-o'zidan xarakterda namoyon bo'ladi.

Tahlil va natijalar. A.Hojiyev tomonidan keltirilgan bu ta'rif ko'proq sotsial lingvistika maqomidagi sotsiolingvistika fanining mohiyatini ifodalaydi. Zero, sotsiolingvistika til hodisalarining jamiyati bilan bog'liq holatlarini lisoniy birliklarning yosh, jins, mavqe kabi sotsial omillarga ko'ra farqlanishlarini tadqiq qiladi:

Akaxon. Bizdan salom! Sog'inchli salom!

Rahbar Rahbarovich. Qay biriga – Gulixongami yo Barnoxonga?

Akaxon. Opqochmang, hey! Har ikkaloviga! Rahbar Rahbarovich (sho'xlikni oshirib). Qaysisiga ko'proq bo'lsin?

Akaxon (tanbeh ohangida). Telefondasiz, inim! Og'izga qarabroq, a! Bo'пти, keyin gaplasharmiz. Rahbar Rahbarovich. Tushundim, akaxon, tushundim. Rahmat, rahmat. U go'shakni joyiga qo'yar-qo'yamas, Kotiba otilib stol boshiga keladi.

Kotiba. Rahbar Rahbarovich! Rostmi shu gap? Rahbar Rahbarovich. Rost, rost. Mana, o'zlari salom aytyaptilar, shaxsan! Akaxoningiz! Akaxonimiz deganim!

Dramatik matnlarda nutqiy vaziyat, sharoit va kasbiy faoliyatga doir muloqot shakllari ham bir-biridan farq qiladi. Mazkur matnlarda rahbar va uning kotibasi o'rtasidagi muloqot aks etgan. Ularning jinsi farq qilsa-da, nutqlarida yaqinlik bor. Oddiy insonlarning o'zaro muloqotdan ularning yoshi, jinsi va ijtimoiy ahvolini bilib olish mumkin. Biroq rasmiy doirada bu biroz boshqacharoq yuz beradi:

Rahbar Rahbarovich. Jumaga hali ikki kun bor! Lekin xosxonani yasatib, issiq-issiq qahvalarni hozirlayverasiz (Havoni huzur bilan hidlay-hidlay). Oh, oh, buncha xushbo'y! Akaxonning hidlarimi deyman?

Kotiba (nozlanib). Adashdingiz! Bu boshqasi... O'zimmiki. E, boring-e, men nima demoqchiman-u, bu kishi bo'lsa!..

Rahbar Rahbarovich. Xo'sh-xo'sh, qani?

Kotiba. Chindan ham eshitganingiz yo'qmi? Boshqa joyga ko'charmishmiz-ku! (Erkin A'zam. Farrosh kampirning tushi, 6-b.).

Ilk nashrlarda pragmalingvistikaning obyektini aniqlashda bir tomonlama yondashuv ustuvor bo'lib, ularda til birliklarining ta'sir ko'rsatish imkoniyatlari oldingi o'rinda turgan edi. G.Solganik lisoniy vositalar tanlovini pragmatik hodisa ekanligini qayd etadi [6;78-b.]. Shuningdek, V.L.Nayer nutqiy tuzilmaning pragmatik xususiyatini "so'zlovchining ongli ravishda, maqsadli ta'sir ko'rsatish istagi" deb izohlaydi [3;112-b.].

Kotiba. Uff! Men qayoqdan bilay! Shu yerni tanlashibdi-da! Eshik ochilib, Hisobchi xonimning boshi ko'rinadi.

Hisobchi. Mumkinmi, Rahbar Rahbarovich?

Kotiba (o'girilib ham qaramay). Bandlar, bandlar! Qattiq!

Hisobchi (jahl bilan). E, o't bu yoqqa! (Bostirib kiradi). Uning vajohatini ko'rib, Kotiba tisarila-tisarila chiqa boshlaydi.

Kotiba. Voy, voy! (Chetga qarab pichirlaydi) Naxalka!

Ayrim dramalarda turli soha vakillarining muloqoti ham ifoda qilinadi. Masalan, mazkur dramada rahbardan tashqari kotiba va hisobchi o'rtasidagi suhbatda ham muayyan o'ziga xosliklar mavjud. Aniq raqamlar bilan ishlaydigan soha vakillari ham tabiatan qo'rsroq bo'ladi, shuning uchun ular dangal va cho'rtkesar muomalada bo'ladi.

Hisobchi (andak xijolatomez). Yangi eri bilan Malayziyaga ketarmikan yo qolarmikan – shunisini bilmoqchi edim-da.

Rahbar Rahbarovich (ermakka). Ketsa nima bo'ladi? (Suhbatdoshi gap topolmaganini ko'rib) Qol-sa-chi? Xo'sh?

Hisobchi (nochor iljayib). Qiziq-da, Rahbar Rahbarovich. Behayo, sotqin! To'g'rimi?

Rahbar Rahbarovich. Ketsa – bir kuni qaytib kelar. Yurtini sog'inib. Yoki yanada yoshroq bittasini topib, Koreyami, Singapur gami juftak urib qolar, nima dedingiz?

Hisobchi. *Esiz shuncha pul, shuncha mol-dunyo! Xushovoz emishlar!*

Rahbar Rahbarovich. *Pul deganday, anovi vaysaqi kampir masalasi nima bo'ldi? O'zi garangligi yetmagandek, odamning quloq-miyasini yevordi-ya! Nahotki... (Erkin A'zam Farrosh kampirning tushi, 6-b.).*

Tadqiqotchi V.Xolmatovaning pragmatika tushunchasiga doir qarashlari, tahlil va talqinlari e'tiborga loyiq. Darhaqiqat, tilning jamiyatda bajaradigan muhim vazifalaridan biri – muloqot vositasi rolini o'tashdir. Pragmatik bilim, o'z navbatida, inson faoliyati davomida to'plangan tajriba natijasidir, axborot almashinuvi jarayonida ushbu bilim lisoniy voqelanadi va shu yo'sinda ongda saqlanadi.

Badiiy asar tili, birinchi navbatda, shu tilning estetik ko'lamdorligini ta'minlovchi vositalarga boyligi bilan xarakterlanadi. Bundan tashqari, badiiy til umumxalq tilining tarixiy taraqqiyoti jarayonida rivojlangan, sayqallanib, ma'lum shaklga kelgan ko'rinishidir. Shu sababdan badiiy tilda umumxalq tilining boshqa ko'rinishlaridan farqlab turuvchi xususiyatlari ham mavjud bo'lib, xususan, xalq og'zaki tilidan farqlanib, ayni paytda, xalq tili bilan uzviy bog'langandir. Har qanday xalq tili va badiiy asar tili shu xalqning dunyoqarashi, psixologiyasi va tarixiy taraqqiyotini o'zida aks ettiradi. Shunday ekan, xalq tili bilan badiiy asar tili o'rtasida muayyan bog'liqlik mavjud.

Lingvosotsiopsixologiya sohasi vakillari pragmatikani ikki yo'nalishda, ya'ni matn – muallif va matn – adresat munosabatlarida tavsiflashni ma'qul ko'radilar. Natijada axborotni uzatuvchi hamda axborotni qabul qiluvchi pragmatikalari farqlanmoqda. Ulardan birinchisi “statik” xarakterga ega, chunki matn faqat birgina talqinga, ya'ni, muallif talqiniga ega, adresat talqini esa, aksincha, dinamik xarakterdadir, zero, “matnni qabul qiluvchilar soniga qarab, talqinlar ham davomsiz bo'lishi kutilgan hol” [1;224-b.]. Muallifning e'tirof etishicha, matn sathida bu masala muhim bo'lmasdan, balki ularning faollashuvi o'zaro bog'liqlikda kechadi.

Bo'lim boshlig'i. *Mana! (Tantanavor o'qimoqqa tushadi). “Sevimli farzandlarimiz Aqidaxon va Martinbekning visol oqshomi munosabati bilan... “Do'mbirobod” to'yxonasiga lutfan oshga taklif etamiz”. Jamoa bilan! Yashavor! Ketdikmi? Soat ham o'n bir bo'lib qoldi. Yetib borgunimizcha...*

Bosh mutaxassis. *Martinbek?! Sevimli farzandlari negr-pegrmikan?*

Bo'lim boshlig'i. *Negrm, balomi, nima farqi bor sizga? Oshi qora bo'lmasa bo'ldi-da!*

Bosh mutaxassis. *Men qarshiman.*

Bo'lim boshlig'i. *Oshgami, negrgami?*

Bosh mutaxassis. *Qizlarimizning mana shunday har turlisiga tegib ketaverishiga! Bu yoqda o'zimiz turib!*

Muloqot inson tafakkuri faoliyatining mahsuli bo'lib, bu jarayonda nutq egalari tomonidan turli maqsadlarga yo'naltirilgan rang-barang nutqiy tuzilmalar (nutqiy aktlar) hosil qilinadi. Nutqiy akt jamiyat a'zolari tomonidan qabul qilinib, nutq xulqi qoidalariga muvofiq tarzda amalga oshiriladigan, muayyan maqsadga yo'naltirilgan nutqiy harakat hisoblanadi. Nutqiy akt nazariyasi ilk bor ingliz filosofi J.Ostin tomonidan ilgari surildi. Nutqiy akt nazariyasi asoschilari J.Ostin, J.Serl, J.Rosslarning qarashlariga ko'ra, muayyan mazmunni ifoda etuvchi, tilning qonun-qoidalariga asoslangan holda bayon etilgan elementar nutqiy harakat nutqiy akt hisoblanadi. Xususan, J.Ostin nutqiy aktda quyidagilar amalga oshishini qayd etadi: “umume'tirof etilgan til kodiga mansub aniq tovushlarni talaffuz etish, ushbu tilga mansub so'zlardan grammatik qoidalar asosida jumla tuzish, jumlaning mazmun, referensiya va boshqalar bilan ta'minlash, nutqiy qo'llanishlarni hosil qilib, voqelik bilan muvofiqlashtirish, nutqiy qo'llanishlarni illokutiv aktga aylantiruvchi muayyan maqsadga yo'naltirish, kerak bo'lgan natijaga erishish, adresat ongiga yoki xulqiga ta'sir ko'rsatish, yangi nutqiy vaziyatni yaratishdan iborat” [5;55–59-b.].

Muovin buva. *Rahmat... Tajriba degani nima – keksalarning ko'nglini ovlash uchun o'ylab topilgan bir cho'pchak-da! Sizga maslahatim: unaqa cho'pchaklarga emas (mansab kursisiga ishora qilib), manovinga tayansangiz adashmaysiz (Bir zum tin olib). Ustoz deysizmi, shogirdmi, xullas, bizga endi javob bersangiz, uka...*

Rahbar Rahbarovich. *Mayli, mayli. Marhamat. Yana qonbosimmi? Uyg'a borib, kennoyimizning oldilarida, bemalol damni olavering. Huv, o'zingiz aytgandek, ish – o'rmonga qochadigan bo'ri emas...*

Muovin buva (o'grayibroq). *Yo'q, inim, men butunlay ketmoqchiman!*

T.V.Jerebiloning qayd etishicha, nutqiy akt psixofizik jarayon bo'lib, so'zlovchi (adresant) va tinglovchi (adresat) o'rtasidagi nutqiy aloqani aks ettiradi va quyidagi komponentlardan tashkil topadi: 1) so'zlash (yozish); 2) idrok etish; 3) nutq (matn)ni tushunish [2;376-b.].

M.Hakimovning fikricha, “nutqiy akt tushunchasi odamlar o'rtasidagi aloqa aralashuv jarayonida sodir etiluvchi o'zaro ma'no aktlari munosabatining bayonidir”. Ta'riflardan ma'lum bo'ladiki, nutqiy akt

nutqiy muloqot doirasida amal qiladi, soʻzlovchi va tinglovchidan iborat nutq ishtirokchilari, nutqiy vaziyat, til egalarining nutq obyekti haqidagi umumiy bilimlari, nutq ishtirokchilarining til bilimi va koʻnikmalari bilan bogʻliq holda shakllanadi [8;94-b.]. M.Hakimov nutqiy aktda umumiy holda quyidagi komponentlar ishtirok etishini qayd etadi: soʻzlovchi, tinglovchi, nutq obyekti – faktik material hamda nutqiy vaziyat. M. Qurbonova nutqiy aktning amal qilishi uchun zarur boʻlgan komponentlar qatoriga nutq ishtirokchilarining umumiy til bilimi va til koʻnikmasini ham kiritish lozimligini taʼkidlaydi.

Nolisoniy axborotni qabul qilishning sezilarli darajada noerkinligi va gʻayriixtiyoriyligidan (gʻayri-shuuriy) uning retsipyenti (bu ham sezilarli ongsiz darajada) murojaatning lisoniy mazmunidan koʻra koʻproq nolisoniy mazmuniga ishonishga moyildir.

Rahbar Rahbarovich. *Bagʻdodda-ku hamisha tinchlik, bilamiz. Sizlarda-chi, akaxon, sizlarda nima yangilik? Boya gazetda koʻzim tushgandek boʻldi, anovi sovuq tagʻin koʻtarilib ketibdimi?*

Akaxon (ovozi). *Qaysi sovuqni aytyapsiz?*

Rahbar Rahbarovich. *Sovuq kammidi, akaxon! Haligi, agentlikka oʻtgani-chi? Koʻzlari moʻltirab, doim yigʻlamsiraganga oʻxshab turadigan. Oʻrniga kim ekan – bilsak boʻladimi?*

Akaxon. *Ha-a, Shoberdiyevmi? E, shuning tashvishi sizni bizga qoptimi? Yana bir sovuqʻi topilar, qoʻyavering. Bunaqa masalalar qaerda hal boʻlishini bilasiz-ku, inim! Qabulxona eshigi shitob ochilib, Kotiba bosh suqadi.*

Bunday paralingvistik vositalar, dastlab, 1644-yili Angliyada D.Bulverning “Nutq va muloqot qiluvchi imo-ishora harakatlarini ifodalovchi qoʻlning tabiiy tili va xronologiyasi” nomli asarida tadqiq qilingan.

Boshning oʻzi ham muloqot jarayonida fikrlarni suhbatdoshga soʻzlersiz yetkazib berish vazifasini bajara oladi. Ayniqsa, drammatik asarlarda qahramonlar tomoshabinga voqeani faqat soʻzlar vositasida emas, butun tana harakatlari orqali ham ifodalab beradilar. Tomoshabinga, asosan, holat orqali koʻrsatib berish koʻproq taʼsir qiladi. Jumladan, dramalar ham faqat oʻquvchilar emas, aktyor, rejissyor va tomoshabinlarga moʻljallab yoziladigan asar boʻlgani uchun uning matnida ham tana harakati orqali muloqot qilish asosiy masala hisoblanadi. Baʼzan bir paytning oʻzida ham noverbal, ham verbal vositadan bir paytda foydalanish holatlari ham kuzatiladi:

Qodir. – *(Uftortib...).* – *Tushunsang-chi, aytdimu borolmayman... Ol. Mana bu pulni ol. Pulga halol yoki harom deb yozib qoʻymaydilar-ku.*

Shabnam. – *(Hafsalasizlik bilan xuddi oʻziga oʻzi gapirgandek... Bir nuqtaga tikilib). Menga sizni pulingiz emas, oʻzingiz keraksiz. Nega uyga borolmaysiz? Nega?*

Qodir. – *(Oʻrnidan turib ketadi). Yana nega deysan-a!. Axir kechadan beri qulogʻingga tanbur chertayapmanmi, ilojim yoʻq. Ishimni tashlab ketolmayman, Shabnam.*

Shabnam. – *(Keskin qarab, kinoyali). Axir ish hamma joyda ham koʻp. Uyingizda ham ish yetarli.*

Qodir. – *(Gʻijinib). Nima qilaman qishloqda. Men bu yerda topayotgan pulimni u yerda hech kim bermaydi.*

Mazkur dramada Qodir va Shabnam oʻrtasidagi muloqot oʻzbek millatiga mansub boʻlgan erkak va ayolning oʻzaro fikr almashishini ifoda qiladi. Qodirning gaplaridan uning ayol kishini ojiza sifatida avaylashi koʻzga tashlanadi. Ularning er-xotinlik munosabatlari ham suhbat jarayonida anglashilib turadi:

Shabnam. – *Men oʻshanda siz bilan dunyoni narigi burchagiga qush koʻnmas, it oʻtmas, azobu uqubatxonasiga boʻlsa ham, ergashib ketishga rozi edim. Axir men sizni sevaman.*

Qodir. – *(Bosh chayqab). Bas. Bas qil... Qishloqqa qaytaman, Shabnam, faqat vaqti kelganda qaytaman.*

Shabnam. – *(Titrab-qaltirab yana oʻrindiqqa oʻtirib oladi...).* *Bizning aybimiz nima? Orzularimiz shumidi? Siz bilan qishloq hayotini oʻzgartiramiz, u yerda ham yaxshi yashash mumkinligini odamlarga isbotlay olamiz, deb oʻylagandik. Rejalarimiz bor edi (Qoʻchqor Norqobil. Quyoshni sen uygʻotasan. 2-b.)*

Mazkur misollarda ayol va erkak jinsiga mansub personajlar nutqi noverbal vositalar yordamida ham ifoda etilmoqda. Masalan, Shabnamning *(Hafsalasizlik bilan xuddi oʻziga oʻzi gapirgandek... Bir nuqtaga tikilib). Menga sizni pulingiz emas, oʻzingiz keraksiz. Nega uyga borolmaysiz? Nega?* deya fikr ifodalashida ham nutq orqali ham holat, imo-ishora orqali bayon qilinmoqda. Nutqiy xoslanishda ayollarga xos nutqda milliy mentalitet ham sezilib turadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarda yaratilgan dramatik asarlarning til xususiyatlari oʻrganilganda jamiyat aʼzolarining tasavvuri, tafakkuriga sharoit qanday taʼsir qilgani ularning oʻzaro muloqotida namoyon boʻladi. Dramalarda erkak-ayol, rahbar-kotiba, er-xotin, hamkasblarning muloqoti, orqali kommunikantlar nutqining ijtimoiy xoslanishi, sotsiolingvistik xususiyatlari lisoniy vosi-

talari asosida ifodalangan. Dramatik asarlarning sotsiopragmatik aspekti ham o'rganilishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Дридзе Т.М. Язык и социальная психология. М., "Высшая школа", 1980, 224 с.
- (2). Жеребило Т.В. Словарь лингвистических терминов. Назрань, "Пилигрим", 2005, 376 с.
- (3). Наер В.Л. Стилистика в терминах теории вербальной коммуникации (стилистические аспекты вербальной коммуникации). М., МПГУ, 2008, с. 112.
- (4). Нормуродов Р. Социоллингвистика. Термиз, 2008, 17-бет.
- (5). Остин Дж.Л. Слово как действие. Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 17. Теория речевых актов. М., 1986, с. 55 – 59.
- (6). Солганик Г.Я., Милых М.К., Вомперский В.П. Стилистика газетных жанров. М., 1981, с. 78.
- (7). Филин Ф. Очерки по теории языкознания. М., «Наука», 1982, с.131.
- (8). Ҳақимов М. Ўзбек тилида матнинг прагматик талқини. Филол. фан. д-ри ... дис., Т., 2011, 94-бет.
- (9). Safarov Sh., Toirova G. Nutqning sotsiopragmatik tahlili asoslari. Samarqand, 2011, 100-bet.

Tuxtaxodjayeva Nargiza Akmalovna (Toshkent Xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar (nodavlat) universiteti dotsenti, PhD; nargiza5123@mail.ru), Hojiyeva Zarina Baxtiyarovna (PhD); hzarinab@gmail.com)

UNIVERSAL LINGVOKULTUREMALARNI TARJIMA QILISH MUAMMOLARI

Annotatsiya. Mazkur maqola zamonaviy tilshunoslikning yangi yo'nalishlaridan biri bo'lgan lingvomadaniyatshunoslik hamda tarjima nazariyasi uyg'unligida yozilgan bo'lib, unda universal lingvokulturemalarning tarjima muammolari yoritilgan. Xususan, ingliz va o'zbek tillaridagi badiiy matnlarda namoyon bo'lgan frazeologik birlik va stilistik vositalar orqali aks etgan lingvokulturemalarni tarjima usullari qiyosiy tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: leksik birliklar, lingvokulturema, frazeologik birliklar, stilistik vositalar, obrazli vositalar, tarjima usullari.

Tuxtaxodjaeva Nargiza Akmalovna (Ташкентский Международный университет технологий и управления финансами (негосударственный), доцент, PhD; nargiza5123@mail.ru), Ходжиева Зарина Бахтияровна З.В. (PhD); hzarinab@gmail.com)

ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА УНИВЕРСАЛЬНЫХ ЛИНГВОКУЛЬТУР

Аннотация. Данная статья написана в рамках лингвистики и теории перевода, которые являются новыми направлениями современной лингвистики. В статье освещаются проблемы перевода универсальных лингвокультурем, в частности, сопоставительно анализируются способы перевода лингвокультурем, выраженных посредством стилистических средств и фразеологизмов, представленных в английских и узбекских художественных текстах.

Ключевые слова: лексические единицы, лингвокультурема, фразеологизмы, стилистические средства, образные средства, способы перевода.

PROBLEMS OF TRANSLATING UNIVERSAL LINGUOCULTUREMES

Annotation. This article is written in a combination of translation theory and linguacultural studies that is one of the new directions of modern linguistics. It mainly covers the problems of translating universal linguaculturemes. In particular, the methods of translation of linguaculturemes, expressed through stylistic means and phraseological units manifested in English and Uzbek literary texts, are comparatively analyzed.

Key words: lexical units, linguacultureme, phraseological units, stylistic devices, figurative tools, translation methods.

Taqrizchi O'zbekiston Xalqaro Islom akademiyasi dotsenti PhD Muminova D.A.

Kirish (Introduction). Leksik sathning murakkab tarkib va semantikali birligi bo'lmish frazeologizmlarni adekvat o'girish tarjima amaliyotining murakkab va mas'uliyatli masalalaridandir. Negaki, frazeologizmlar badiiy-tasviriy vositalar sifatida fikrning oddiy, betaraf bayonidan ko'ra ko'proq turli-tuman uslubiy vazifalarni ifoda etishda ishtirok etadiki, ularning ushbu vazifalarini hisobga olgan holda tarjimada muvofiq talqin etish badiiy asarning obrazli hamda hissiy-tasviriy qiymatini qayta yaratish yo'lidagi jonbozlikdir [8;183-b.].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Ma'lumki, barcha tillarda frazeologik birliklar (FB) mavjud. Frazeologik birliklar o'zining ifodaga boyligi va fikrni obrazli ifodalashga xoslanganligi bilan boshqa til birliklaridan farq qiladi va nutqning ta'sirchan va bo'yoqdor voqealanishini ta'min-

laydi. Frazeologizm va uning lisoniy-nutqiy xususiyatlari Sh.Balli, V.V.Vinogradov, N.N.Amosova, A.V. Kunin, Sh.Rahmatullayev, M.Abdurahimov, A.Mamatov, B.Yo'ldoshev, Sh.Abdullayev, G.Ergasheva kabi tilshunoslar tomonidan o'rganilgan. Masalan, A.Mamatov frazeologik birliklarning tuzilishiga ko'ra so'z birikmasiga yoki gapga tengligi umumlashgan ma'no anglatishi, leksik elementlari qisman yoki to'liq ko'chma ma'noga ega bo'lgan turg'un leksik-semantik birliklar ekanligini ta'kidlaydi [7;267-b.].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tarjima nazariyasi va amaliyotida frazeologik birliklarning tarjimasini muhim ahamiyat kasb etadi. So'zlar har doim ham ifodalanishi lozim bo'lgan tushunchalarni, masalan, milliy-madaniy koloritni to'liq yoritib berolmaydi. Bunday hollarda hayotiy kuzatishlar asosida vujudga kelgan, fikrni obrazli voqealantirishga xoslangan lisoniy vositalar – frazeologik birliklardan keng foydalaniladi.

Frazeologik birliklar tarjimasini muammolari ancha vaqtdan beri tilshunoslarning diqqat markazida bo'lib kelgan (L.S.Barxudarov, Y.I.Retsker, A.V.Fedorov, V.N.Komissarov, V.V.Vinogradov, G'.Salomov, Q.Musayev, N.Komilov, N.Otajonov, S.Shukrullayeva va b.). Shunday tadqiqotlarning birida frazeologizmlarda xalqning boy tarixiy tajribasi va donishmandligi muhurlangan bo'lishi, ularda xalqning mehnat-faoliyati, madaniyati hamda turmush tarziga xos barcha tasavvurlar aks etishi, maqol, matal, idiomatik iboralar badiiy asarlarda milliy koloritni tasvirlashda muhim omil hisoblanishi ta'kidlanadi [21;136-b.].

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Frazeologik birliklarni ham lingvokulturemalar tarkibiga kiritish mumkin. Chunki lingvokulturemalarning o'ziga xos xususiyatlari, asosan, FBlar orqali yorqin namoyon bo'ladi. Ma'lumki, frazeologik birliklarni tarjima qilish usullari, asosan, to'rtta: ekvivalent vositasi orqali tarjima, muqobili orqali tarjima, kalkalash orqali tarjima va tasviriy tarjima usuli.

Frazeologizmlar yaratilishi har bir millatga xos olamning lisoniy manzarasi bilan bog'liq bo'lgani uchun unda millat madaniyatining o'ziga xos jihatlari namoyon bo'ladi. J.Grinvudning "Juldur kiyimli bola" asaridan olingan quyidagi lavhada keltirilgan ingliz madaniyatiga xos xususiyatning *Lord bless every happy couple* iborasi misolida ko'rib o'tsak.

Qiyoslang: *When the rum was brought the strange young man filled a glass. "Well," said he "Lord blesses every happy couple, I say. May you live long and die happy, both on yer"* [3;75-p.] – *Men romni olib kelgach, mehmon uni stakanlarga quydi, otam va o'gay onamning sog'lig'i uchun, ularga baxt tilab, icha boshladi* [3].

Ushbu jumladagi *Lord bless* iborasi frazeologik lug'atda *Budum bog!*, *Бог мой!*, *Боже мой!* (*Xudo shohid! Yo rabbim! Yo Ollohim!*) deb tavsiflangan. *Lord bless every happy couple* jumlasining so'zma-so'z tarjimasini o'zbek tilida *Ey Xudo, barcha baxtli juftlarni yorlaqagin!* shaklida bo'ladi. Mazkur jumlaning diqqatga sazovor nuqtasi *happy couple – baxtli juft iborasi* bo'lib, ingliz tilida *a couple that have just got married or will soon get married* [6;797-p.], ya'ni, endigina turmush qurgan yoki turmush qurish bo'sag'asida turgan juftlikka nisbatan ishlatiladi.

O'zbek tili me'yorlariga ko'ra, *juft* so'zi alohida rafiq yoki rafiqaga nisbatan *Juftingni qanoting ostiga olib, ucha ket lochin!* (Oybek. Qutlug' qon [12;292-p.] tarzida qo'llanilsa-da, *baxtli juft* degan ibora mavjud emas. O'zbek xalqi, odatda, turmush qurayotganlarni *ikki yosh* yoki *baxtiyor yoshlar* deb ataydi. Tarjimon ham ushbu lavhani kontekstdan kelib chiqib, kelin-kuyov yosh bo'lmaganliklarini inobatga olgan holda, uni *otam va o'gay onamning sog'lig'i uchun, ularga baxt tilab, icha boshladi* deb, frazeologik birliklarning tasviriy usuli orqali talqin etgan.

Mazkur misolning yana bir e'tiborli tomoni shuki, aslyatdagi lavhaning keyingi jumlasida *die happy* so'z birikmasi ishlatilgan, ammo ayni so'z birikmasi ingliz tili frazeologik lug'atida yo'q bo'lsa ham, ingliz tilining izohli lug'atida *die young/happy/poor* [6;446-p.] *yosh/baxtli/faqir o'lmoq* shakli berilgan. Mazkur *die happy* so'z birikmasi ingliz xalqining ruhiy dunyosi, diniy tasavvuri, madaniyatiga oid bo'lib, *happiness* lingvokulturemasining o'ziga xos jihatlari namoyon etadi. Bu holat tarjimada batamom tushib qolgan. Chunki o'zbek lingvomadaniyatida *baxtli o'lmoq* degan tushunchaning o'zi yo'q.

Inson baxtni yuksak ma'naviy ruh orqali his qilgan ekan, muayyan onlarda yuzaga keluvchi xursandchilik, quvonch belgilari ham *baxt* lingvokulturemasini ifodalab keladi. Masalan, Mark Tvenning "*Tom So'z yerning boshidan kechirganlari*" nomli asaridagi lavhani olsak: *To which Tom responded with jeers, and started off in high feather*, [18;32-p.] – *Tom esa uni masxara qilib kularkan, o'zining g'alaba qozonishidan xursand bo'lib, uyiga qarab jo'nadi* [18].

Lug'atlarda *high feather* frazeologik birligining *kayfiyati chog'* ma'nosini anglatishi qayd etilgan. Mazkur holatda Tom sho'x, to'polonchi bola bo'lganligi uchun unga o'z yo'lida uchragan bashang kiyingan bolani mazax qilish, mushtlashish huzur bag'ishlaydiki, o'sha damda Tom o'zini cheksiz baxtiyor his qilishi *high feather* iborasi bilan aks ettirilgan. Tarjimada esa qo'shimcha ma'no bilan *o'zining g'alaba qozoni-*

shidan xursand bo'lib tarzida tasviriy usul orqali talqin etilgan. Negaki, o'zbek tilida *high feather* iborasi-ning muqobili yo'q. Ko'rinadiki, ingliz tilida mazkur *high feather* frazeologik birligi orqali *happiness* lingvokulturemasining o'ziga xos tomoni ifodalangan.

Bir tilda muayyan tushunchani ifoda etadigan frazeologizmning o'zga tilda muqobili bo'lmasligi mumkin, bu, tabiiy hol. Bunday birliklarni tarjima qilishda ko'proq kalka, ya'ni so'zma-so'z tarjima usuliga murojaat qilinadi. Natijada tarjima tilida hosil qilingan birikma iboraviy shakl kasb etib, tabiiy jaranglasa, nazarda tutilgan ma'no va uslubiy vazifa aks etgan bo'ladi. Shu o'rinda, V.Kollinzning "Oq kiyingan ayol" romani tarjimasidan olingan parchani tahlil qilamiz.

Qiyoslang: *Enough for me, that here I am with the mighty merchant's note in my hand, as large as life, as hot as fore, and as happy as a king!* [1] – Baquvvat savdogarning hayotdek qimmatli, otashdek haroratli shartnomasi bilan mana shu yerda o'zimni **qirollardek baxtiyor** sezib turibman, menga mana shuning o'zi kifoya! [1].

Asliyatdagi *as happy as a king!* iborasi ingliz tili FBning lug'atida o'ta baxtiyor, yettinchi osmonda deb izohlanadi. Ushbu ibora ingliz xalqiga xos milliy-madaniy jihatlar, bu xalqning ko'hna tarixi zamirida yuzaga kelgan bo'lib, uning lingvomadaniyatida ham aks etmoqda. Ya'ni inglizlar dunyoqarashida baxtga erishish *muvaffaqiyat, mavqe, shon-shuhrat, qirollardek hayot* kabi tushunchalar bilan hamohang. Shu bois *as happy as a king* frazeologizmi *happiness* lingvokulturemasining ifodalanishida o'ziga xos as-sotsiativlikni ta'minlaydi. Tarjima tilida esa ushbu iborani tarjimon kalkalash orqali *qirollardek baxtiyor* deb talqin etib, mazmuniy uslubi va pragmatik vazifasini qayta yaratgan.

Frazeologizmlarning ma'nosi kontekst ichida oydinlashadi. Shuning uchun muayyan iboraning ma'nosini ochish uchun uni kontekst ichida olib qarash lozim. Aksariyat hollarda tarjimon har bir ma'qol, matal yoki idiomaga, asarda tasvirlanayotgan voqealar mazmuni, obyekt, milliy muhit va uslub xususiyatdan kelib chiqib, o'z tilidan muqobil yoki monand birikmalar topib qo'yadi. V.Kollinz "Oq kiyingan ayol" romanidan olingan yana bir lavhada mustaqil hayot bo'sag'asida turgan yosh qiz Laura Ferliga uning advokati janob Gilmore tomonidan bildirilgan ezgu istaklar quyidagicha tarjima qilingan. Qiyoslang: *If I do come again, I hope I shall find you better", I said; "better and happier. God bless you, my dear!* [1] – Mabodo, yana kelib qolgudek bo'lsam, chehrangizdagi tabassum, dilingizni ravshanroq, o'zingizni baxtiyorroq ko'rarkan, degan umiddaman, – dedim. – Sizga **yaratganning o'zi baxt ato qilsin, azizim!** [1]

Ingliz tili FB lug'atida *God bless you* frazeologizmiga *боже мой!, господу помилуй!* (*e Xudo!, Parvardigor o'z panohingda saqla!*) singari ma'nolarni bildirishi qayd etilgan. Tarjima esa kontekstdan kelib chiqqan holda *yaratganning o'zi baxt ato qilsin* deb muqobil usul orqali amalga oshirilgan. Negaki, o'zbek xalqi baxtni Alloh tomonidan berilgan in'om deb biladi, tarjimon ham o'zbek xalqining ruhiyatiga, tafakkuriga monand tarzda yuqoridagi iboraga murojaat qilib, adekvat tarjimaga erishgan.

Quyida o'zbek tilidan qilingan badiiy tarjimada baxt lingvokulturemasini aks ettiruvchi frazeologik birliklarning ingliz tilida berilishini ko'rib o'tamiz. Xususan, "Lison ut-tayr" Alisher Navoiyda baxt so'zining badiiy uslubga xos sinonimlari bilan ifodalangan iboralarga murojaat etilgan: *Izzatli xumoy o'z uzrini shunday boshladi: Ey sarson-sargashtlar rahnamosi! Menga iqbol shunchalik kulib boqqanki, hatto men o'z soyam bilan kishilarga sharaf taxti ato eta olaman* [10;325-b.]. – *Phoenix began his apology this way: 'O leader of all roaming birds! I'm so happy in the world, since I can bestow people glorious thrones with my shadow* [9;43-b.].

Ushbu parchada qo'llangan *iqboli kulib boqqan* frazeologik frazeologizmida *baxtga erishish, tolemand bo'lish* ma'nolari mavjud. *Iqbol* so'zi *baxt* so'zining sinonimlaridan biri bo'lib, *baxtli taqdir, porloq kelajak* singari ma'nolarni anglatadi. Tarjimada bu ibora tasviriy usul orqali *I'm so happy in the world* tarzida o'girilganki, bunda asliyatdagi obrazlilik hamda hissiy ta'sirchanlik biroz xiralashgan. Bizningcha, mazkur parcha ingliz lingvomadaniyatiga mos ravishda *Phoenix began his apology this way: O leader of all roaming birds! Fortune smiles upon me, since I can bestow people glorious thrones with my shadow* shaklida ekvivalent usulidan foydalanib o'girilganda asliyat mazmuniga mos, adekvat tarjima yuzaga kelgan bo'lardi. Zero, FB lug'atida ham *fortune smiles upon me* frazeologizmning *kimgadir baxt kulib boqishi, omad yor bo'lishi* (судьба улыбается, удача сопутствует кому-л.) ma'nosi keltirilgan.

Frazeologizmlarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri ularning semantik jihatdan bir-biri bilan birika olishidir. Bu xususda tadqiqotlarda shunday deyiladi: "Aksariyat so'z va ma'nolarining boshqa so'zlar bilan birikishi til tizimining o'z ichki, semantik munosabatlari bilan chegaralangan. Bu leksik ma'nolar faqat qat'iy chegaralangan tushunchalar va ularning lisoniy ifodalari doirasi bilan bog'liqlikda ro'yobga chiqishi mumkin. Bunday cheklanishlar mazkur tilga xos so'z ma'nolari aloqalari qonuniyatlari tufayli yuzaga keladi. Masalan, *братъ* (*olmoq*) so'zi *egallamoq, o'z ta'sirini o'tkazmoq* ma'nolarini ifodalaydi. His-tuyg'u-

larga nisbatan ishlatilganda barcha sezgi va kayfiyatlar ifodasi bilan erkin birika olmaydi. Ammo *српак берет, тоска берет, досада берет, зло берет, зависть берет* deyiladi. Ammo *радость берет, удовольствие берет* deb bo'lmaydi. Shu tariqa, братъ fe'lining sezgi va kayfiyat ifodalari bilan birikish doirasi frazeologik nuqtayi nazardan ancha chegaralangan. O'zbek tilida ham baxt lingvokulturemasini ifodalovchi, o'zaro semantik jihatdan birika oladigan yoki birika olmaydigan frazeologizmlar mavjud. Masalan, *ochilmoq* fe'li baxt lingvokulturemasi sinonimlari ichida faqat baxt so'zi bilan birikadi: *baxti ochilmoq*. Biroq *omadi ochilib, saodati ochilib, yoki iqboli ochilib* deb bo'lmaydi, *balki omadi kelib, saodat topib, iqboli chopib* tarzida qo'llanilishi mumkin. Shunday ekan, "Lison ut-tayr" dan olingan navbatdagi lavhada *baxt* lingvokulturemasining periferik ifodalaridan bo'lgan *zavq tarkibli zavqqa to'lmoq* iborasi qo'llangan. Qiyoslang: *Shayx yuvinib, egniga xirqa kiydi, buni ko'rgan kishilar zavqqa to'ldilar* [10] – *The Shaikh washed himself and put on the customary Muslim clothes. Those who saw it were filled with happiness.*

Ushbu misolda ham *zavq* leksemasi *to'lmoq* fe'li bilan birikib kelgan. Tarjimada esa *zavq* so'zi ma'nosi *delight* so'zi o'rniga *happiness* leksemasi bilan berilgan va *fill with happiness* shaklida kalkalash usuli bilan o'girilgan. Natijada asliyatga mos, hissiy ta'sirchanlikka ega tarjima yuzaga kelgan. Ko'rinadiki, *happiness* lingvokulturemasining sinonimik qatoridan *delight* tushunchasi ham o'rin olgan.

Tadqiqot davomida shunday holatlar ham uchradiki, unda asliyatda frazeologizm qo'llanmagan bo'lsa-da, tarjimon asar tilining ta'sir quvvatini oshirish, fikrni yanada mukammal ifodalash hamda jozibadorligini ta'minlash maqsadida frazeologik birliklarga murojaat etgan. Masalan, E.Xemingueyning "Chol va dengiz" hikoyasidan keltirilgan parchani tahlil qilib ko'raylik: – *No, the old man said. – You're with a lucky boat. Stay with them* [4;12 p.]. – *Yo'q, – dedi chol, – sen baxti chopgan qayiqda ov qilyapsan. O'shanda qolganing ma'qul.*

Baliq ovida omadi yurishmay qolgani bois baliqchi Santyago shogirdi – bolakayga endi ota-onasi buyurgan qayiqda ovga chiqishini ma'qullab turgan nutqiy parchada *lucky (omadli)* so'zi qo'llanilgan. Tarjimon esa baxti chopmoq frazeologizmidan foydalangan holda, muallif maqsadini to'liq anglab, zarur mazmuni aks ettira olgan.

Tarjima nazariyasining muhim va murakkab masalalaridan yana biri bu obrazli stilistik vositalar tarjimasidir. Mazkur muammo ham bir qator xorijiy va o'zbek tilshunoslari (I.V.Galperin, A.D.Shveyser, V.N.Komiscarov, G.V.Chernov, N.A.Bojenkova, T.A.Kazakova, N.V.Skladchikov, G'.Salomov, Q.Musaev, N.Otajonov, S.Shukrullayeva, D.Ashurova, N.Isamuxamedova) tomonidan tadqiq qilingan.

Ma'lumki, tarjima amaliyoti turli uslubdagi matnlar bilan bog'liq bo'lib, muallif tasvirlagan hayajonli holatlar, his-tuyg'ularni tarjimada bera olish ma'lum murakkabliklarga ega. Tarjimon asliyatdagi emotsional-ekspressivlikni qayta yaratish uchun stilistik vositalarga ham murojaat etadi. Tilshunoslarning fikricha, obrazli stilistik vositalar tarjimasini o'rganishda, asosan, badiiy asarlarda obrazlilikni tarjima tiliga adekvat holatda o'girish hamda original asardagi stilistik ta'sirni asliyatdagidek talqin etishga e'tibor qaratish zarur. Asar originalidagi obrazlilikni o'zida aks ettirgan stilistik vositalar, odatda, turli tillardagi stilistik tizimning milliy xususiyatga egaligi tufayli tarjimon uchun katta qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Zamonaviy tilshunoslikda stilistika fanini lingvokulturologiya, kognitiv lingvistika kabi yo'nalishlar uyg'unligida ko'rish mumkin. Buni D.U.Ashurova quyidagicha izohlaydi: "Stilistika bilan lingvokulturologiyani bir butunlikda o'zaro bog'liq holda o'rganish lingvokulturologiyada o'ziga xos stilistik yo'nalishning vujudga kelishini ta'minlaydi. Shuningdek, stilistik vositalarga lingvokulturologik jihatdan yondashuv ularni madaniy konseptlarni ifodalovchi asosiy omil sifatida o'rganishga imkon beradi" [20;205-b.]. Shuning uchun ham stilistik figuralar yuqori bo'yoqdorlik hamda milliy-madaniy xususiyatlarga ega lisoniy vositalar hisoblanadi. Lingvokulturemalardagi obrazlilikning so'z, frazeologizm, maqol va matallardan tashqari stilistik vositalarda ham aks etishi ularning olamning lisoniy manzarasining yaxlitligini ta'minlashda asosiy omillardan ekanligini ko'rsatadi. Demak, lingvokulturemalarning badiiy matnda stilistik vositalar bilan ham voqealanishi ularning o'ziga xos milliy-madaniy xususiyatlarini namoyon etishiga olib keladi.

Mazkur tadqiqotda *happiness*/baxt lingvokulturemalarining badiiy tarjimada stilistik vositalar orqali ifodalanishi tadqiq qilinarkan ekan, unda metafora, epitet, o'xshatish, giperbola (mubolag'a), oksyumoron kabilardan keng foydalanilganiga guvoh bo'ldik. Tabiiyki, ushbu stilistik vositalar har ikki tilda ham *happiness*/baxt lingvokulturemalarining milliy-madaniy jihatlarini ifodalab kelgan. Hissiy ta'sirchan lisoniy birliklar o'z uslubiy vazifalariga ko'ra, asosan, og'zaki nutqqa xos vositalar bo'lib, bu tarjimon zimmasiga na faqat uslubiy bo'yoqni, ya'ni, og'zaki nutqqa tegishli xususiyatlarni, shuningdek, hissiy ta'sirchan ifodani ham qayta yaratish vazifasini yuklaydi. Badiiy nutqda qo'llangan hissiy ta'sirchan lisoniy vositalar tizimi

asarga umumiy estetik ruh bag'ishlagani holda muallif g'oyaviy-badiiy maqsadini ham ro'yobga chiqaradi [8;151-b.] .

Misollar tahlili shuni ko'rsatdiki, aksariyat hollarda metafora qo'llangan. Adabiyotlardan yaxshi ma'lumki, nutqqa obrazlilik, emotsiya berish maqsadida narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib, so'zlar va iboralarning ko'chma ma'noda ishlatilishidir . Mark Tvenning "Tom Soyerning boshidan kechirganlari" asaridan olingan ushbu parchani tahlil qilsak, asar qahramonlari Tom va Geklarning xazina qidirib tuzgan rejalari va o'sha rejalari asosida astoydil qilgan harakatlariga oid farazlari quyidagicha talqin etilgan:

*Went away feeling that they had **not trifled with fortune**, but had fulfilled all the requirements that belong to the business of treasure hunting* [18;187-b.] – *Ular nazarlarida **baxt bilan hazilkashlik qilmay**, xazinani axtarib topish yo'lidagi bor shartlarning hammasini halol kuch bilan bajarganliklarini o'ylab borar edilar* [8].

Asliyatdagi *not trifled with fortune* metaforasi *baxt kelganda undan to'g'ri foydalanib qolish kerakligi, uni qo'ldan boy bermaslik lozimligi* ma'nosida qo'llangan. Ingliz tilining izohli lug'atidagi tavsifga ko'ra, *trifled with* so'zi *to treat without the necessary seriousness or respect (nojiddiy munosabatda bo'lmoq)* ma'nosini anglatadi: *The boss is not a person to be trifled with (Boss bilan hazillashib bo'lmaydi)*. Bu yerda metaforaning personifikatsiya (jonlantirish) turi ishlatilgan bo'lib, tarjimada ham mazkur usul saqlangan hamda baxt bilan hazilkashlik qilmay tarzida o'girilgan. Kalkalash usuli bilan qilingan bunday tarjima muvaffaqiyatli chiqqan va bu o'zbek tili nuqtayi nazaridan ham g'aliz emas, aksincha, tarjima tilini boyitgan. Qolaversa, o'quvchiga asliyat tili va uslubi haqida ma'lumot bergan.

Tarjimalarda baxt lingvokulturemasini ifodalovchi shunday kontekstlar uchradiki, ularda stilistik vositalar konvergentsiyasi namoyon bo'lgan. Jumladan, Shukur Qurbonning "Hayotda mo'jiza bo'ladi goho..." she'rida shuni kuzatish mumkin [14;36-b]. Qiyoslang:

Hayotda mo'jiza bo'ladi goho, Sometimes miracle appears in life,

Gadolik shohlikka do'nadi goho. Poverty turns into wealth, I heard.

Xazonlar doim ham oyoqqa tushmas, Leaves not always fall on the feet.

Baxt qushidek boshga qo'nadi goho. They sit on a head like a bluebird.

She'rida inson hayotida kutilmagan hodisalar yuz berishi, ya'ni, boylik har doim ham gadolikdan ustun bo'lavermasligi, hayot mushkulotlarida yashagan inson vaqti kelib, rohat-farog'atga erishishi majoziy ma'noda, oyoq ostidagi xazonlar payti kelib baxt qushiga aylanib qolishi mumkinligi badiiy-estetik vositalar yordamida *Xazonlar doim ham oyoqqa tushmas, Baxt qushidek boshga qo'nadi goho tarzida ifoda etilgan*. Ushbu misrada bir vaqtning o'zida ham metafora – *baxt qushi*, ham o'xshatish – *xazonlar baxt qushidek* qo'nadi ishlatilgan. Zero, obrazli stilistik troplarning bunday ketma-ketlikda qo'llanishi badiiy kontekstning hissiy ta'sirchanligini ta'minlagan. O'zbek xalqi tafakkurida *baxt qushi, baxti humoyun* kabi mifologik obrazlar mavjud. Baxt qush bo'lganligi uchun bir yerda muqim turmasligi, nogahon boshga qo'nganda uni ushlab qolish (*omad kelganda undan unumli foydalana bilish*) kerakligi o'zbek millatining konseptual olam tasviridan o'rin olgan. *Baxt qushi boshga qo'ndi – baxti, omadi keldi: ...boshimizga qo'ngan bu baxti humoyunni uchirib yubormaslik uchun hali ancha harakat qilishimiz kerak* (K.Yashin. Hamza [11; 178-b.]).

Tarjimon o'zbek tiliga baxt qushining o'rnida ingliz tilida bluebird leksemasidan foydalanib, *Leaves not always fall on the feet, They sit on a head like a bluebird* ko'rinishda kalkalash yo'li bilan tarjima qilgan. Ya'ni so'zma-so'z *Xazonlar doim ham oyoqqa tushmas, Ular ko'k qushdek boshga qo'nadi* degan ma'no kelib chiqadi. Tarjima tilida metafora qo'llanmagan, faqat o'xshatish tropi saqlangan. Ayni paytda, baxt qushining o'rnida *bluebird* (Shimoliy Amerikada yashovchi kichik ko'k qushcha)ning ishlatilishi o'zbek tilidagi shakli bilan uyg'unlik hosil qilmoqda. Chunki *bluebird* – Amerika va Yevropa xalqlari tasavvuridagi quvnoqlik, baxtiyorlik, tinchlik hamda yangilanish ramzini anglatuvchi mifologik obrazdir. Demak, ushbu misolda happiness/baxt lingvokulturemalarining ingliz va o'zbek xalqlari tafakkur yo'nalishida "baxt" tushunchasiga nisbatan mutanosiblikni ko'rish mumkin.

Farida Afro'zning "Tasbeh" nomli uchligidan olingan navbatdagi misolda ham baxt tushunchasining milliy-madaniy qirralari o'ziga xos ifodasini topgan, bunda jonlantirish stilistik vositasidan unumli foydalanilgan (baxtga odamga xos tishlash sifat yuklangan). Qiyoslang:

Oltmish yoshga to'ldi bu ayol,

Hamon go'zal, hamon hurliqo,

Qulog'ini tishlab qo'ygan baxt.

This woman turned sixty,

Still beautiful, still amazing,

Happiness married to her

Uchlikda o'zbek ayolining timsoli aks etgan bo'lib, uning yoshi ulg'aysa-da, hamon chiroyi, latofati yo'qolmaganligi tasvirlangan. Ayolning bunday go'zal ko'rinishiga sabab qilib baxtning qulog'ini tishlab qo'rganligi metaforik ifodalangan. *Qulog'ini tishlab qo'ymoq* tushunchasi faqat o'zbek lingvomadaniyatida mavjud bo'lib, ikki oila kattalari kelishgan holda, farzandlari voyaga yetganda turmush qurishlarini rejalashtirsa, qizni band qilib qo'yish maqsadida qulog'idan o'g'il bolaga tishlatib qo'yilgan. Ushbu misradagi qulog'ini tishlab qo'rgan baxt metaforasi orqali baxt ayolning ajralmas yo'ldoshi ekanligi gavdalantirilgan. Agar mazkur stilistik vosita ingliz tiliga *happiness bit her ears* shaklida so'zma-so'z o'girilsa, tushunarsiz, g'aliz tarjima yuzaga kelar hamda zarur mazmun yuzaga chiqmas edi. Tarjimon ayni stilistik vositaning ma'nosidan kelib chiqib, *Happiness married (baxtga turmushga chiqdi yoki baxt unga uylandi)* tarzida talqin etgan, stilistik vositani tushirib qoldirgan. Natijada badiiy-stilistik jihatdan mos, asliyat milliy bo'yog'i ham aks etgan adekvat tarjima hosil bo'lgan.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib aytganda, ingliz va o'zbek xalqlarining turmush tarzi, hayotiy tajribalari, ijtimoiy holati, diniy qarashlari zamirida vujudga kelgan frazeologizmlar o'ziga xos jihatlariga ega bo'lib, *happiness/baxt* lingvokulturemalarining har ikki tildagi milliy-madaniy xususiyatlarini tarjimada ko'rsatib berish muhim. Bunday birliklarni tarjima qilishda ekvivalent usulidan tashqari muqobil, kalkalash, tasviriy usullaridan ham foydalanilgan. Shuningdek, *happiness/baxt* lingvokulturemalarini ifodalovchi frazeologik birliklar ma'naviy ruh, milliy-madaniy kolorit hamda ingliz va o'zbek xalqlariga xos taomillarni ko'rsatish bilan birga bu xalqlarning dunyoni lisoniy idrok etish tarzi originalligini ham namoyon etadi. Stilistik figuralar lingvokulturemalarining boshqa tilga o'girishda muhim bo'lib, asliyat tilidagi umuminsoniy va madaniy unsurlar bevosita stilistik vositalarda mujassamlashgan bo'ladi. Shuning uchun tarjimon asliyatdagi obrazlilikni tarjima tilida aks ettirishda, asliyat va tarjima o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlashda bu vositalardan mahorat bilan foydalanishi zarur. Tahlilga tortilgan misollarda esa stilistik vositalar saqlangan, almashtirilgan, saqlanmagan o'rinlar mavjud. O'z navbatida, mazkur tarjima usullari stilistik vositalarning hissiy-ta'sirchanlik va majoziy ma'nolarini har doim ham to'liq yoritma olmasligi kuzatildi. Shunday bo'lsa ham, stilistik vositalar *happiness/baxt* lingvokulturemalari tabiatiga xos milliy koloritni aks ettira olishi ma'lum bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

- (1). Collins W. The Woman in White. <http://www.gutenberg.net>.
- (2). Dreiser Th. Sister Carrie. M., Higher School Publishing House, 1968, 594 p.
- (3). Greenwood J. The True History of a Little Ragamuffin. M., Литературы на иностранных языках, 1958, 303 p.
- (4). Hemingway E. The Old Man and Sea. M., "Исторический", 1971, p. 12.
- (5). Longman Dictionary of Contemporary English. Harlow, Pearson Edu, 2009, p. 1786.
- (6). Longman: Dictionary of English Language and Culture. Harlow, Pearson Edu, 2005, p. 1481.
- (7). Mamatov A.E. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari. Toshkent, "Fan", 1991, 267-bet.
- (8). Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent, "Fan", 2005, 352-bet.
- (9). Navoi A. (translation from Uzbek by Gary D., Kambarov N., Makhmudkhodjaev T.). The Language of the Birds. Tashkent, CAFE, 2003, p. 43.
- (10). Navoiy A. Lison ut-tayr (nasriy bayoni bilan). Toshkent, Matbaa ijodiy uyi, 2005, 325-bet.
- (11). O'zbek tilining izohli lug'ati. 1-jild, Toshkent, O'zME, 2006, 178-bet.
- (12). O'zbek tilining izohli lug'ati. 5-jild, T., O'zME, 2006, 64-bet.
- (13). Obidov A. A miracle is on the way. She'rlar. Toshkent, "Zarqalam", 2005, 36-bet.
- (14). Salomov G'. Tarjima nazariyasi asoslari. T., "O'qituvchi", 1983, 118-bet.
- (15). Sheldon S. If Tomorrow comes. <http://www.gutenberg.net>.
- (16). Shomaqsudov A. O'zbek tili stilistikasi. T., "O'qituvchi", 1983, 236-bet.
- (17). Twain M. The adventures of Tom Sawyer. The adventures of Huckleberry Finn. M., Foreign Languages Publishing house, 1960, 592 p.
- (18). Xolbekova B. Muhabbat muhri. She'rlar va tarjimalar. Toshkent, O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2011, 58-bet.
- (19). Ашурова Д.У. Стилистика и лингвокультурология. Тил ва миллий маданият. Самарканд Давлат Чет тиллар институтининг 10 йиллигига бағишланган халқаро илмий-назарий конференция. Самарканд, 2004, 204 – 206-betlar.
- (20). Файзуллаева Р.К. проблеме передачи национального колорита в художественном переводе. Дисс. ...канд. филол. наук, Ташкент, 1972, с. 136.
- (21). Хожиева З.Б. Проблема языковой картины мира в современной лингвистике //Вестник Московско-го университета. Серия 22. Теория перевода. 2014, №.1, с. 189–195.

(22). Хожиёва З.Б. Когнитивная метафора в художественном тексте. NovaInfo. Ru. 2019, №.102, с. 40 – 41.

(23). Хожиёва З.Б. Фразеологические средства выражения национально-культурной картины мира в художественном тексте. Архивариус. 2020, №. 5 (50), с. 36–39.

(24). Хожиёва З.Б. Лингвокультурный анализ художественного текста. Academic research in educational sciences. 2021, т. 2, №. 5, с. 420 – 427.

**Abduvaxobova Dilnoza Nurmaxamatovna (Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot texnologiyalari universiteti, Chet tillar kefedrasi dotsenti; abduvahabova0504@mail.ru)
BADIY TARJIMANING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

Annotatsiya. Ushbu maqolada badiiy tarjimaning umumleksikologik muammolari va ularning yechimlari borasida fikr yuritilgan. Badiiy asarni tarjima qilish jarayonida, tarjimondan nafaqat uning chet tilini va tarjima usullarni bilishi talab etiladi, balki matnning lingvistik xususiyatlarini chuqur tushuna bilishi, turli adabiy janrlarni farqlay olishi hamda o‘zga til vakillari madaniyati, tarixi, dini haqidagi tasavvurga ega bo‘lishi, asar muallifi, asar yaratilish tarixi va tanqidchilar fikri bilan tanish bo‘lishi lozim.

Kalit so‘zlar: badiiy matn, tarjima nazariyasi, tarjima amaliyoti, adabiy janr, adekvat tarjima, konsepsiya.

ОСОБЕННОСТИ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ПЕРЕВОДА

Аннотация. В данной статье рассматриваются общие лексикологические проблемы художественного перевода и пути их решения. В процессе перевода художественного произведения от переводчика требуется не только знание его иностранного языка и методов перевода, но и умение глубоко понимать языковые особенности текста, различать разные литературные жанры, а чтобы иметь представление о культуре, истории и религии представителей иностранного языка, произведения необходимо знать автора, историю создания произведения и мнения критиков.

Ключевые слова: художественный текст, теория перевода, переводческая практика, литературный жанр, адекватный перевод, концепция.

FEATURES OF LITERARY TRANSLATION

Annotation. This article discusses general lexicological problems of literary translation and ways to solve them. In the process of translating a work of art, the translator is required not only to know its foreign language and translation methods, but also to be able to deeply understand the linguistic features of the text, to be able to distinguish between different literary genres and in order to have an idea of the culture, history and religion of representatives of a foreign language, the work must be known the author, the history of the creation of the work and the opinions of critics.

Key words: literary text, translation theory, translation practice, literary genre, adequate translation, concept.

Kirish. So‘nggi yillarda badiiy tarjima xalqlar o‘rtasida ma‘rifat tarqatish vositasi hisoblanib, u orqali o‘zga xalqlar bilan madaniy muloqot davom etmoqda. Badiiy tarjima bir tilda yaratilgan badiiy matnni boshqa tilga asliy matnidagi badiiy bo‘yoqdorlikni saqlab qolgan holda, olib o‘tish jarayoni nazarda tutiladi. Matn turlari ichida badiiy matn o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Shakl va mazmun uyg‘unligi bilan bunday matnda ta‘sirchanlik birinchi o‘ringa chiqadi. Badiiy matn yaratish jarayonida muallif o‘zining barcha ijodiy, aqliy til imkoniyatlarini safarbar qiladi, badiiy matn tuzilishida ham uning o‘ziga xos individual uslubi alohida ahamiyatga ega. Mukammal yaratilgan badiiy matnning boshqa matn turlaridan farq qiladigan eng muhim belgilari ifodalash usulining o‘ziga xosligi, aniq maqsad va g‘oyani ifodalash uchun yaratilganligi, ma‘naviy, estetik, didaktik ta‘sirning qo‘shilishidir [1;15–16-b.]. Bundan ko‘rinib turibdiki, badiiy matnda tilning lug‘at boyligidan samarali foydalanish badiiy matnning leksik-semantik xususiyatlarini anglatadi. Badiiy uslubdagi matnning boshqa uslubdan farqli xususiyalaridan biri, unda muallif so‘z qo‘llash borasida cheklovlarga uchramasligidadir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Tarjimashunoslik sohasida ulkan o‘zgarishlar kuzatilsa-da, lekin M.Xolbekov o‘zining “Tarjima nazariyasi haqida o‘ylar” [4;45-b.] degan maqolasida ta‘kidlaganidek: “Tarjima nazariyasining asosiy muammolari atrofida hali ham bahs-munozaralar tingani yo‘q”. Bu fikr badiiy tarjimaga nisbatan ham o‘rinli, ya‘ni yangi adabiy asarlar tarjimalarining sifatiga tanqidiy qarash lozimdir. Badiiy tarjimaga oid nazariy ishlar ham ko‘plab chop etilmoqda, shunga qaramay: “Nazarimda, so‘nggi yillarda tarjima nazariyasi amaliyotdan uzoqlashib borayotgandek, tarjima tanqidi esa orqada qolayotgandek ko‘rinadi. ...Ularda, asosan, zamonaviy tarjimashunoslikning dolzarb masalalari sof nazariy planda tadqiq qilinganini kuzatamiz. ...Ularda badiiy tarjima amaliyoti va tanqidiga oid fikrlar kamdan kam

muhokama qilinganini kuzatamiz” [5;58–59-b.]. Badiiy tarjima borasida nazariya va amaliyotni tutash nuqtalarini aniq belgilab, ularni izchil tanqidiy tadqiq etish hozirgi zamon tarjimashunoslik fanining dolzarb masalalaridan biridir.

Badiiy asarni tarjima qilish jarayonida, tarjimondan nafaqat uning chet tilini va tarjima usullarni bilishi talab etiladi, balki matnning lingvistik xususiyatlarini chuqur tushuna bilishi: 1) turli adabiy janrlarni farqlay olishi; 2) hamda o'zga til vakillari madaniyati, tarixi, dini haqidagi tasavvurga ega bo'lishi; 3) asar muallifi, asar yaratilish tarixi va tanqidchilar fikri bilan tanish bo'lishi lozim deb o'ylaymiz. Shunda tarjimon asarning eng nozik bo'lgan hissiyot olamini kitobxonlarga to'g'ri yetkazib boradi va tarjima qilingan matn asliyatdek yangraydi.

Turli adabiy janrlarga mansub matnlarni o'z ichiga oluvchi badiiy tarjima o'ziga xos lingvistik va adabiy xususiyatlarga egadir. Shuningdek, by adabiy janrlar yillar davomida mukammallashib, turli millat vakillari asarlarida o'ziga xos shakli va an'analarga ega bo'lib, milliy maqomini egalladi. X.Ismoilov fikrlariga ko'ra: "Mazkur holat badiiy tarjima oldiga yana bir qator muammolarni ko'ndalang qilib qo'yadi. Turli tillar o'rtasidagi lingvistik farq natijasida she'riy asar tarjimasida o'ziga xos milliy vazn, qofiya, uslub va boshqa masalalar bilan birga, janr muammosi ham vujudga keladi. Avvaliga kitobxoniga notanish bo'lgan ma'lum bir she'riy shakl boshqa millat vakiliga tushunarli bo'lmaydi. ...Unda ma'lum bir xalqning minglab yillar davomida vujudga kelgan badiiy an'anasi, psixologiyasi ifodalangan bo'ladi. Shu jihatdan janr masalasi milliylik va uslub bilan uzviy ravishda bog'liq bo'ladi" [2;87-b.].

Tahlil va natijalar. Bizningcha, U.Shekspirning sonetlarini o'zbek va rus tiliga mohirona o'girilganligi ham shunday o'xshash she'riy an'analarning o'zaro tutashuvi deb o'ylaymiz.

1-jadval

U.Shekspir, S.Marshak va Jamol Kamol tarjimalarining tahlilii o'rganilishi

U. Shekspir, Shall I Compare Thee To A Summer's Day? (Sonnet 18)	S.Marshak tarjimasi	Jamol Kamol tarjimasi
<p>Shall I compare thee to a summer's day? Thou art more lovely and more temperate. Rough winds do shake the darling buds of May, And summer's lease hath all too short a date. Sometime too hot the eye of heaven shines, And often is his gold complexion dimmed; And every fair from fair sometime declines, By chance, or nature's changing course, untrimmed; But thy eternal summer shall not fade, Nor lose possession of that fair thou ow'st, Nor shall death brag thou wand'rest in his shade, When in eternal lines to Time thou grow'st. So long as men can breathe, or eyes can see, So long lives this, and this gives life to thee.</p>	<p>Сравню ли с летним днем твои черты? Но ты милей, умеренней и краше. Ломает буря майские цветы, И так недолговечно лето наше! То нам слепит глаза небесный глаз, То светлый лик скрывает непогода. Ласкает, нежит и терзает нас Своей случайной прихотью природа. А у тебя не убывает день, Не увядает солнечное лето. И смертная тебя не скроет тень, – Ты будешь вечно жить в строках поэта. Среди живых ты будешь до тех пор, Доколе дышит грудь и видит взор</p>	<p>Seni yoz kuniga etaymi qiyos? Bir ajib go'zalsan, sokina, dilbar. Shamol yulqib otar chechaklarni, bas, Yozimiz qisqadir, hademay o'tar. Goho ko'kda quyosh qamashtirar ko'z, Goho bulutlardan osmon ham xira, Bir zumda xuftondir, bir lahza kunduz, Xullaski, tabiat tinchimas sira. Ammo sening yozing o'zgacha, bo'lak, Quyoshing charaqlab sochadi yog'du. O'lim soya sololmas, malak, Sho'irning she'rida hayotsan mangu. To tanda jon bo'lur, to ko'zlarda nur, Yasharsan tiriklar ichra bir umr...</p>

Sonetda so'z takrorlanishlari, ritorik savol, tabiat va borliqni ifodalovchi metaforalarning qo'llanilishi abadiy go'zalikni va ko'tarinki kayfiyatni in'om qiladi. S.Marshak va J.Kamol tarjimalarida shu kayfiyat ham o'zga tilga ko'chgan.

Bu borada yana bir masala shuki, janr turiga mos bo'lgan adekvat tarjimada mazmun va shaklni saqlab qolish o'ta muhimligi bilan izohlanadi. Sh.Safarov "Ma'no va tarjima muammosi" (2017) ilmiy maqolasida semantikaga oid muammolardan biri bo'lgan mazmun va ma'no masalasiga qaratilgan shunday fikrni ilgari suradi: "Tarjima, aslini olganda, mazmunni o'g'irishdan iborat va mazmun-ma'noning har xil talqini tarjima nazariyasidagi nomutanosiblikka sabab tug'diradi. Semantik nazariyalarning har xil bo'lishi yagona bir obyekt – ma'no hodisasi tadqiqida turli yondashuvlar tanlanishiga turtki bermoqda". ...ma'no va mazmun tushunchalarini farqlash yo'lidan boraylik-da, tarjimon vazifasi mazmunni o'g'irishdan iborat ekanligi haqidagi qaydga rozi bo'laylik [3;38–39-b.]. Darhaqiqat, mazmun uyg'unligi tushunchasi tarjima tafakkurini rivojlantirishda oldinga qadamdir. Uning qoidalariga ko'ra qilingan tarjimalar yanada mazmunli bo'lib, o'quvchilarni jalb qildi. Ammo kontentning o'zaro muvofiqligi konsepsiyasini nazariy jihatdan mukammal deb hisoblash mumkin emas. Agar asl nusxaning mazmuni berilgan bo'lsa, uning ifodaliligi, uslubiy o'ziga xosligi milliy kaloriti tarjima tilida aks ettirilmagan bo'lsa, albatta, uni mukammal tarjima deb bo'lmaydi.

Badiiy tarjima amaliyotida quyidagi masalalarga duch keladi: 1) tarjimonlarning tajribasi, malakasi va e'tiqodi bir-biridan sezilarli darajada farq qilishidan kelib chiqadigan farqlar; 2) tarjimonlar tomonidan tarjima tamoyillarini turlicha talqin qilish natijasida yuzaga kelgan farqlar; 3) tarjimonlar uslubining muallif uslubiga ta'siri natijasida tabiiy ravishda yuzaga keladigan farqlar. Ushbu sabablar natijasida bir-biridan farq qiladigan turli xil tarjimalar olinadi. Tarjima amaliyotidagi bunday farqlarning sababi har bir tarjimonning badiiy tarjimada muallif uslubini o'ziga xos uslub bilan tiklashga intilishidir. Agar tarjimada muallif uslubi noto'g'ri berilgan bo'lsa, unda asl nusxaga mos ravishda bunday tarjimaga ishonib bo'lmaydi. Unda tarjimon beixtiyor o'zini muallif o'rniga qo'yadi. Bu tarjimonning ikki tilni mukammal bilishi, hayotiy tajriba, badiiy qobiliyat, yozuv uslubini to'liq egallashi va tarjimada uni tiklay olishi naqadar zarurligini yaqqol ko'rsatib turibdi. Badiiy matnni tarjima qilishda tarjimonning vazifasi – matnning asosiy g'oyasini o'z ichiga olgan va muallif bizga yetkazmoqchi bo'lgan matnning barcha hissiy ranglarini yetkazishdir. Bundan kelib chiqadiki, badiiy matnni tarjima qilish har doim uning tarkibidagi barcha stilistik vositalarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Xulosa sifatida qayd etishimiz mumkinki, tarjima jarayonida eng katta muammo va murakkablik xalqlarning milliy madaniyatlari o'rtasidagi farqlarni ajratishdir. Muayyan madaniyatga mansub kishilar dunyoqarashidan kelib chiqib, muayyan narsa va hodisalarga qaraydilar. Ekvivalent bo'lib ko'rinadigan so'zlar, aslida, ekvivalent bo'lmasligi mumkin.

Demak, badiiy asarlarni tarjima qilish qobiliyati nafaqat chet tili va tarjima usullarini bilish, balki matnning lingvistik va ekstralingvistik xususiyatlarini teran ang'lay olish, turli adabiy janrlar, boshqa xalqlarning madaniyati, tarixi, dini haqida tushuncha va ma'lumotlarga ega bo'lishi, asar muallifi asar yaratishda tanqidchilarning fikrini yaxshi bilishi kepak. Shundagina tarjimalar ham muallifning hissiyot olamini to'laqonli namoyish qila oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Odilova G., Mahmudova U. O'zbek tarjimonlari va badiiy tarjimalar. T., "Yangi asr avlodi", 2012, 116-bet.
- (2). Ismoilov X. Badiiy tarjima va adabiy aloqalar <http://library.ziyonet.uz/ru/book/download/31131> (Murojaat sanasi: 21.10.2020).
- (3). Safarov Sh. Ma'no va tarjima muammosi. "Xorijiy filologiya", 4-son, 2017, 5–17-betlar.
- (4). Xolbekov M. Tarjima nazariyasi haqida o'ylar. "Xorijiy filologiya", 3-son, 2019, 5–8-betlar; URL: http://samxorfil.uz/images/source/magazine_issues.2019/3-2019.pdf (Murojaat sanasi 24.01.2020).
- (5). Xolbekov M. O'zbekistonda tarjima va tarjimashunoslik. "Xorijiy filologiya", 3-son, 2016, 16–42-betlar; URL:<http://samxorfil.uz/images/source/pdf/2016/3/Xolbekov.M.pdf> (Murojaat sanasi 24.01.2020).

Zaripova Aziza Shaxobiddinovna (SamDCHTI tayanch doktoranti; Zaripovaziza23@gmail.com) O'QITISH STRATEGIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA GEOGRAFIYA SOHASIGA OID TERMINLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'qitish strategiyalarini rivojlantirishda geografiya sohasiga oid terminlardan foydalanish ahamiyati yoritilgan. Geografik hodisalarning turli jihatlari va xususiyatlari, ularning o'zaro bog'liqligi, mintaqaviy tushunchalar va terminlarni aks ettirish konseptual va terminologik tizimlarni – umumiy asosiy tushuncha bilan o'zaro bog'liq bo'lgan tushunchalar va tegishli terminlarni

shakllantiradi. Shu sababli geografiya yo'nalishi talabalariga ingliz tili terminlarini o'rgatishning ahamiyati beqiyosdir.

Kalit so'zlar: o'qitish strategiyalari, kompetentlik, kompetensiya, geografiya sohasiga oid terminlar, shaxsiy va mavzuni aks ettirish kompetensiyalari, jamiyat, jamoa, oila, do'stlar, sheriklar, ijtimoiy harakatchanlik bilan ijtimoiy o'zaro munosabat kompetensiyalari, muloqot kompetensiyalari, kognitiv faoliyat kompetensiyasi, faoliyat kompetensiyalari, axborot texnologiyalari kompetensiyalari.

ВАЖНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ГЕОГРАФИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ ПРИ РАЗРАБОТКЕ СТРАТЕГИИ ОБУЧЕНИЯ

Аннотация. В статье подчеркивается важность использования терминов, связанных с географией, при разработке стратегий обучения. Различные аспекты и особенности географических явлений, их взаимосвязь, отражение региональных понятий и терминов образуют понятийно-терминологические системы – понятия и соответствующие термины, взаимосвязанные с общим базовым понятием. Поэтому важность преподавания английских терминов студентам-географам несравненна.

Ключевые слова: стратегии обучения, компетентность, термины, относящиеся к географии, личностные и тематические рефлексивные компетенции, сообщество, команда, семья, друзья, партнеры, компетенции социального взаимодействия с социальной мобильностью, коммуникативные компетенции, компетенции познавательной деятельности, деятельностные компетенции, информационные технологии. компетенции.

THE IMPORTANCE OF USING GEOGRAPHICAL TERMS IN THE DEVELOPMENT OF TEACHING STRATEGIES (IN THE EXAMPLE OF ENGLISH LANGUAGE)

Annotation. This article highlights the importance of using terms related to geography in the development of teaching strategies. Different aspects and features of geographical phenomena, their interrelationship, reflection of regional concepts and terms form conceptual and terminological systems – concepts and relevant terms interrelated with the general basic concept. Therefore, the importance of teaching English terms to geography students is incomparable.

Key words: teaching strategies, competence, terms related to geography, personal and topic reflection competences, community, team, family, friends, partners, social interaction competences with social mobility, communication competences, cognitive activity competency, activity competencies, information technology competencies.

Kirish. So'nggi yillardagi pedagogik adabiyotlarda "kompetentlik" tushunchasining keng qo'llanilishi, kompetensiyaga asoslangan yondashuvning "bilim" yondashuviga muqobil sifatida qaralishi, ta'lim-tarbiya maqsadlarini cheklab qo'yganligi bilan bog'liq, degan fikrni ilgari surdi. Ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish jarayonida fanda "kompetentlik" tushunchasi tor va keng ma'noda ko'rib chiqildi. Keng ma'noda "kompetentlik – bu shaxsning ma'lum darajadagi ruhiy rivojlanishini nazarda tutuvchi va shaxsning jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishini ta'minlovchi yetuklik darajasi. Tor ma'noda kompetensiya – bu faoliyat xususiyatidir" deb ta'kidlaydi S.N.Ulasevich. Elkonin esa "kompetentlik – bu shaxsning faoliyatdagi ishtirokining o'zagi", bunday inkluzivlik insonning u yoki bu faoliyatga munosabatisiz mavjud bo'lmaydi, deydi. Shunday qilib, ta'lim kompetensiyasi – bu ta'lim oluvchining ta'lim faoliyatini samarali amalga oshirishga va unda ijodiy o'zini namoyon qilishga imkon beradigan nazariy-amaliy tayyorgarligi va qobiliyatining birligi bo'lgan, amalga oshirilgan integratsiyali shaxsiy ta'limdir deb yuqoridagi fikrlarni S.N.Ulasevich umumlashtiradi [6;31-b.].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Samarali va qiziqarli o'quv jarayonlarini tashkil qilish hozirgi kungacha har dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Mamlakatimizda xorijiy tilni o'qitish masalalari G.X.Bakiyeva, L.T.Ahmedova, J.J.Jalolov, T.K.Sattorov, M.Djusupov, D.Djumanova, D.U.Xoshimovalar, ingliz tilini o'qitish metodikasi bo'yicha F.M.Rashidova, F.Sh.Alimov, M.Gulyamova, F.Ikromxonova, B.G.Kulmatov, I.M.Tuxtasinov, M.A.Nazarova, T.Madrahimov X.Mamatqulov, K.Riskulovalar ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishgan. Bundan tashqari, samarali o'qitish texnologiyalaridan foydalanishning bir qancha nazariyalari va amaliyoti masalalari, ularni qo'llashning metodik va didaktik asoslari, shuningdek, yangicha onlayn ta'lim jarayonini yurtimizda qo'llash masalalari yurtimiz tadqiqotchi olimlari A.Abduqodirov, N.Muslimov, U.Begimqulov, A.Hayitov, M.Lutfillayev, N.Taylaqov; MDH olimlari Y.Polat, A.Andreev, N.Naydenova, G.Levkin, I.Varganova, N.Valyushina, R.Pimonov, N.Gavrilov, I.Zadorojnyaya, S.Berejnaya, M.A.Malsheva, S.Bogdanova va xorij olimlari A.Amadco, I.Allen, J.Seaman, D.Keegan, H.Kappel, B.Lehmann, J.Loeper, B.Holmberg, M.Douglas, P.Taylorlar tomonidan o'rganib chiqilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Sohaviy ingliz tilini o'rgatishda, kasbiy yo'naltirilgan matnlar bilan ishlash bosqichlariga quyidagi topshiriqlarni tavsiya etish maqsadga muvofiqdir. Nofilologik ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitishda fanlararo aloqa chet tili mashg'ulotlarda bevosita kasbga, sohaga oid autentik materiallardan samarali foydalanish natijasida talabalarning mutaxassislikka oid bilimlarining boyib borishga va sohaga doir eng so'nggi yangiliklardan xabardor bo'lishga olib keladi. Bizningcha, ingliz tilini mutaxassislik fanlari bilan integratsiyalashtirib o'rgatishda chet tillarning, xususan, ingliz tilining mavzulari mutaxassislik fani mavzulari bilan parallel ravishda taqqoslab mutaxassisning kasbiy ehtiyojlaridan kelib chiqib saralanishi muhim, ayniqsa, so'z boyligining oshirilishi va terminalogiyaning alohida o'rnini hisobga olganda.

Tahlil va natijalar.I.A.Zimnyaya o'z tadqiqotida kompetensiyalarning uchta guruhini aniqlaydi va nazariy jihatdan asoslaydi, bu guruhlar o'zlari ixtisoslashgan vakolatlarga ega. Rus psixologiyasida uchta guruhga ajratishning nazariy asosi shaxsning aloqa, bilim, mehnat subyekti ekan. B.G.Ananiev inson jamiyatga, boshqa odamlarga, o'ziga, mehnatga bo'lgan munosabatlar tizimida o'zini namoyon qiladi deydi, V.N.Myasishchev inson kompetensiyasi akmeologik rivojlanish vektoriga ega. Y.V.Kuzmina, A.K.Mar-kov, A.A.Derkachlar esa professionallik, eng avval, kompetensiyani rivojlantirishni nazarda tutadi degan fikrlarni beradi [4;40-b.].

		Kompetensiyalarning uchta guruhi	
№	Guruhlar	Kompetensiyalar turlari	
1.	Shaxs sifatida, hayot subyekti sifatida o'ziga boshqa shaxs sifatida, hayot subyekti sifatida o'ziga tegishli kompetensiyalar	Salomatlikni saqlash kompetensiyalari	Sog'lom turmush tarzi normalarini bilish va ularga rioya qilish, chekish, alkogolizm, giyohvandlik xavfini bilish; shaxsiy gigiyena qoidalarini bilish va ularga rioya qilish; insonning jismoniy madaniyati, turmush tarzini tanlash erkinligi va mas'uliyati
		Dunyodagi semantik yo'nalish kompetensiyalari	Borliq, hayot qadriyatlari; fan madaniyati qadriyatlari (rasm, adabiyot, san'at, musiqa); ishlab chiqarish; sivilizatsiyalar tarixi; o'z mamlakati, dini
		Fuqarolik kompetensiyalari	Fuqaroning huquq va majburiyatlarini bilish va ularga rioya qilish; erkinlik va mas'uliyat, o'ziga ishonch, qadr-qimmat, fuqarolik burchi; davlat ramzlari (gerb, bayroq, madhiya) va ular bilan faxrlanishni bilish
		O'z-o'zini takomillashtirish, o'z-o'zini tartibga solish, o'z-o'zini rivojlantirish, shaxsiy va mavzuni aks ettirish kompetensiyalari	Hayotning mazmuni; kasbiy rivojlanish, til va nutqni rivojlantirish, ona tili madaniyatini o'zlashtirish, chet tilini o'zlashtirish
2.	Jamiyat, jamoa, oila, do'stlar, sheriklar, nizolar va ularni hal qilish, hamkorlik, bag'rikenglik, boshqa odamlarni hurmat qilish va qabul qilish (irqi, millati, dini, maqomi, roli, jinsi), ijtimoiy harakatchanlik bilan ijtimoiy o'zaro munosabat kompetensiyalari	Jamiyat, jamoa, oila, do'stlar, sheriklar, nizolar va ularni hal qilish, hamkorlik, bag'rikenglik, boshqa odamlarni hurmat qilish va qabul qilish (irqi, millati, dini, maqomi, roli, jinsi), ijtimoiy harakatchanlik bilan ijtimoiy o'zaro munosabat kompetensiyalari	Og'zaki, yozma, dialog, monolog, matnni yaratish va idrok etish; urf-odatlar, marosimlar, odob-axloq qoidalarini bilish va ularga rioya qilish; madaniyatlararo muloqot; ish yozishmalar; ish yuritish, chet tilidagi muloqot, kommunikativ vazifalar, qabul qiluvchiga ta'sir darajalari
3.	Inson faoliyati bilan bog'liq barcha turlari va odamlar bilan munosabati bilan namoyon kompetensiyalar bo'ladigan kompetensiyalar	Kognitiv faoliyat kompetensiyasi	Kognitiv muammolarni qo'yish va hal qilish; nostandard yechimlar, muammoli vaziyatlar – ularni yaratish va hal qilish; ishlab chiqarish va reproduktiv bilish, tadqiqot, intellektual faoliyat
		Faoliyat kompetensiyalari	O'yin, o'qitish, mehnat; vositalar va usullar, bashorat qilish, tadqiqot faoliyati, turli tadbirlarga yo'naltirish
		Axborot texnologiyalari kompetensiyalari	Qayta ishlashni qabul qilish, axborotni chiqarish; axborotni o'zgartirish (o'qish, qayd qilish), ommaviy axborot vositalari, multimedia texnologiyalari, kompyuter savodxonligi; elektron, Internet texnologiyasiga ega bo'lish

I.A.Zimnyaya aytishicha, kompetensiyalar a) kompetensiyani ko'rsatishga tayyorlik (ya'ni motivatsion jihat); b) kompetensiya mazmuni (ya'ni kognitiv jihat) haqidagi bilimlarga ega bo'lish; d) turli xil standart va nostandart vaziyatlarda (ya'ni, xulq-atvor jihatida) kompetensiyani namoyon etish tajribasi; e) kompetensiya mazmuni va uni qo'llash obyektiga munosabat (qiymat-semantik jihat); e) kompetensiyaning namoyon bo'lish jarayonini hissiy-irodaviy tartibga solish kabilarga ham bo'linadi [4;40-b.].

Jadval yoki diagramma ma'lumotlarini qiyosiy tahlil qilish usuli. Geografiya sohasiga oid terminlarni geografik sharoitlarga, antropotonim, etnotoponim, ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligiga, savdo-transport va dinga, aholi punktlari hamda fazoga oid guruhlashtiramiz. Har bir terminlar guruhlarini tizimlashtirishda quyidagilarning 2 xil guruhi bo'yicha qiyosiy tahlil qilish imkoniyatiga ega

Tayanch, mantiqiy sxemalarni, nuqtalarni tuzish usuli. Reja, diagramma, eslatmalar katta miqdordagi ma'lumot bilan asosiy narsani ikkinchi darajadan ajratishga, matnning semantik skeletini ta'kidlashga va individual tizimlarning o'zaro bog'liqligini o'rnatishga yordam beradi. Bularning barchasi talabalarning bilimlarini tizimlashtirishga yordam beradi. Ko'plab matnlarini osongina mantiqiy qo'llab-quvvatlash sxemalariga aylantirish mumkin. Geografik sharoitlarga oid matnning relyefni aks ettiruvchi (oronimik), ob-havo va iqlim, suvlar (gidronimik), tuproqlar va tuproqlar, o'simliklar (fitotoponimlar)ga hamda hayvonot dunyosi (zootoponimlar)ga oid sxemalashtirishdan iborat.

Jadvallarni tuzish usuli. Ushbu ish shakli talabalarga ma'lumotni to'g'ri tanlash va qisqacha bayon qilishni o'rgatadi. Jadvallar mustaqil ravishda terminlar bo'yicha tuzilishi tavsiya etiladi. Antropotonimlar guruhini ikkita asosiy kichik toifasi patronomik va memorial mavjud. Terminlarning turli guruhlarini orasida etnonimik geografik nomlar alohida o'rin egallaydi. Ular qadimgi qabilalarning nomlarini bugungi kungacha saqlab kelgan tirik guvohlar, xalqlar va boshqa etnik birliklar. Ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligiga oid yetminlar guruhini ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligiga ajratiladi. Ishlab chiqarish terminlari ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning o'zgarishi va ishlab chiqarish tartibi tarixiy taraqqiyotning muayyan bosqichlaridan iborat. Qishloq xo'jaligi (agroonimik) terminlar yer uchastkalarining turli xususiyatlarini aks ettiradi: usul bo'yicha dalani ekish uchun tayyorlash va qayta ishlash, foydalanish maqsadlariga ko'ra, darajasiga ko'ra, tuproq unumdorligining, olish usuliga ko'ra, uchastkalarining konfiguratsiyasiga ko'ra, metrologiya va yer egaligining chegaraviy belgilariga tizimlashtiriladi. Tijorat tabiatining toponimiyasi bo'yicha savdo-transportga oid terminlar hamda dinga oid terminlar esa diniy terminlarni shakllantiradi. Aholi punktlari va ularning tarkibiy qismlariga oid terminlar respublika, viloyat, tuman (shahar) va geografik obyekt turi bo'yicha aniqlanadi. Geografik nomlarning butun guruhi, ularning kelib chiqishi, geografik obyektlarning fazoviy joylashishuviga oid terminlar fazoviy terminlar hisoblanadi.

Fan-texnikaning jadal rivojlanishi, ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlari yangi obyektlar, hodisalar va jarayonlarni ifodalash uchun maxsus so'zlarning paydo bo'lishiga yordam beradi. Paydo bo'lgan maxsus so'zlar insonning kundalik hayotining ajralmas qismiga aylandi va mutaxassislar dunyosining ixtisoslashgan rasmining bir qismidir. Shubhasiz, terminologiya tilning eng dinamik va mobil leksik tizimidir, shuning uchun bu sohada tadqiqotlar ko'pincha tarixiy jihatdan yo'naltirilgan bo'lib, terminologiya tegishli fanlarning rivojlanishi va davrning umumiy fikrlash uslubiga qarab vaqt o'tishi bilan va o'zgaradi.

Matn qismlarining savollariga javob berish usuli. O'zbekistonning geografik obyektlariga oid terminlardan OTMlarining geografik ta'lim yo'nalishi, professional ta'lim va umumiy o'rta ta'limning "Geografiya va iqtisodiyot" fanlarini hamda xorijiy tillarni o'qitishda foydalanish mumkin. Mamlakatimizdagi geografik obyektlar nomlarining kelib chiqishi, izohi va ularni shakllantiruvchi geografik terminlar bo'yicha ma'lumotlar bazasi terminlar natijasida shakllantiriladi. Ya'ni, O'zbekiston toponimlarining tabiiy geografik xususiyatlari, joylar nomlarining shakllanishida tabiiy geografik terminlarning roli aniqlanadi. Geografik lingvistika ilmiy yo'nalishi asoslanadi, uning obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalari aniqlanadi. Geografik nomlarni hosil qilgan topoterminalarning indikatorlik, abstraktilik, negativlik, tarqoq va zich tarqalish qonuniyatlari aniqlanadi. Har bir geografik obyektning nomiga izoh yoziladi.

Sharh bilan o'qish usuli. Tabiiy obyektlar daryolar, ko'llar, muzliklar, tekisliklar, tog'lar, tog' tizmalari, g'orlar, cho'llar, vodiylar, daralar, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, yonbag'irlar, foydali qazilmalar konlariga ajratiladi. Ma'muriy-hududiy birliklar viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullardan iborat. Aholi punktlari va ularning tarkibiy qismlari mahallalar, shohko'chalar, ko'chalar, maydonlar, bog'lar, xiyobonlarga oid terminlardan iborat bo'ladi. Ma'muriy-hududiy birliklari o'z navbatida viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullarni respublika, viloyat, tuman (shahar) va geografik obyekt turi bo'yicha aniqlanadi.

Modellashtirish usuli. O'rganilayotgan toponimlarning sinflari va tizimlarini grafik chizmalar, diagrammalardan foydalaniladi. Mazkur modellashtirishda barcha turdagi modellarini yaratish o'quv dasturida

ko'zda tutilgan doiradan tashqarida qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanishni ta'minlaydi. Har bir bilim sohasining terminologiyasi kasbiy bilimlarning konseptual bog'lanishlariga asoslanadi. Terminologiya sistematik terminlar majmuyi sifatida, shu tariqa, muayyan bilim sohasi tushunchalari tizimini cheklaydi va og'zaki tarzda tuzatadi. Shuningdek, toponimlar nima degan savolga berilgan javob tahliliga e'tibor qaratiladi. Bu terminologik birlik ko'pincha hayotimizda paydo bo'ladi, lekin biz uning to'g'ri ishlatilishidan xabardor bo'lmasligimiz mumkin. Geografik obyektlarga oid toponimlarning turli sinflar juda ko'p [12].

Ijodiy xarakterdagi savollarni tuzish usuli. Geografik obyektlar ikkita guruhga bo'linadi: tabiiy va texnogen bo'yicha ishlab chiqiladi. Tabiiy geografik obyektlarga tog'lar, tekisliklar, dengizlar va daryolar kiradi. Texnogen geografik obyektlarga shaharlar, ko'priklar, zavodlar, kanallar kiradi. Sohaviy terminlar bilan ishlash o'quv jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lib, ta'lim oluvchilar ta'limining barcha bosqichlarida uzluksiz amalga oshirilishi lozim. Bu mutaxassis tili, boshqa kasbiy va kommunikativ kompetensiyani shakllantirish uchun asos bo'lgan terminologik ishlardir.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining geografik nomlar bo'yicha ekspertlar guruhi tomonidan nomli geografik xususiyatlari bir necha toifaga guruhlangan bo'lishi mumkinligi aniqlangan. Eng aniq toifalar quyidagilar:

- a) tabiiy manzara obyektlar;
- b) joylar va tumanlar;
- d) mamlakatning ma'muriy/siyosiy bo'linmalari;
- e) ma'muriy hududlar (bog'lar, qo'riqxonalar, o'rmonlar);
- f) transport yo'llari (ko'chalar, avtomobil yo'llari, temir yo'llar);
- g) boshqa inshootlar (binolar, to'g'onlar, yodgorliklar) [2].

Xorijiy mamlakatlarning zamonaviy iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi matnlarini bir nechta asosiy sohaviy guruhlarga tuzilishi mumkin: iqtisodiy-geografik obyektlarni tavsiflash uchun qo'llaniladigan matnlar ("mintaqa", "mamlakat", "davlat", "qaram hudud", "davlat hududi", "hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizim", "iqtisodiy rayon" va boshqalar); iqtisodiy-geografik munosabatlarni tahlil qilishda qo'llaniladigan matnlar ("hududiy tashkil etish", "joylashtirish", "aholini joylashtirish", "xalqaro geografik mehnat taqsimoti"); iqtisodiy-geografik jarayonlarni aks ettiruvchi matnlar ("ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish jarayoni", "joylashish jarayoni", "urbanizatsiya jarayoni", "iqtisodiy integratsiya jarayonlari" va boshqalar).

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, mamlakatshunoslikning iqtisodiy-geografik matnlarini nafaqat geografiyada, balki boshqa fanlarda ham qo'llaniladigan umumiy ilmiy matnlarga bo'lish mumkin va bu matnlarga oid terminlarni klassifikatsiyalarga bo'lib o'rganish ancha samaraliroq bo'ladi ("hududiy mehnat taqsimoti", "tabiiy sharoit", "aholi", "savodxonlik" va boshqalar):

- umumiy geografik matnlar ("hudud", "tabiiy resurs salohiyati", "geografik muhit", "geografik joylashuv" va boshqalar.);
- iqtisodiy-geografik matnlar ("jamiyatni hududiy tashkil etish", "iqtisodiy-geografik rayonlashtirish", "jamiyat va iqtisodiyotni hududiy tashkil etish");
- mintaqaviy tadqiqotlar matnlari ("kapital", "davlat hududi", "mamlakat turi", "chegaralar", "dunyoing siyosiy xaritasi" va boshqalar).

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Географический справочник. Электронный ресурс: <http://www.rui-tur.ru>. Дата обращения: 13.10.2021.
- (2). Географический объект. Электронный ресурс. Географический объект–Википедия (wikipedia.org). Дата обращения: 13.10.2021.
- (3). Города и столицы. Энциклопедический справочник. Электронный ресурс: <http://www.bibliotekar.ru/encGoroda>. Дата обращения: 13.10.2021.
- (4). Зимняя И.А. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании. Труды методологического семинара «Россия в Болонском процессе: проблемы, задачи, перспективы». М., 2004, 40 с.
- (5). Каталог ресурсов Интернета о природе и защите окружающей среды. Электронный ресурс: <http://www.priroda.ru/list>. Дата обращения: 13.10.2021.
- (6). Kozlova G.A., Denisova V.V. Structure and peculiarities of geographic terminology. Russian linguistic bulletin/№ 2 (6) 2016, p. 13–14.
- (7). Уласевич С.Н. Место предмета «Английский язык» в учебном плане начальной, средней и старшей школы. Рекомендации, М., «Релод», 2012, 31 с.

(8). Парначев В.П., Вылцан И.А., Танзыбаев М.Г., Рудой А.Н., Котельникова И.В. Словарь геологических терминов и понятий. Правительственная информация по странам мира. Электронный ресурс: <http://dir.yahoo.com/Government/countries>. Дата обращения: 13.10.2021.

(9). Сафарова Н., Имомов М. География фанларининг тараккиёт тенденциялари ва инновациялари. УМК. Тошкент, 2017, 147 бет.

(10). Словарь геологических терминов on-line. Электронный ресурс: <http://dic.academic.ru/contents.nsf/geolog>. Дата обращения: 13.10.2021.

(11). Словарь географических терминов. Электронный ресурс: http://www.glossary.ru/cgi-bin/gl_paph.cgi?R4uu4Prgtlyg!Hlsr9. Дата обращения: 13.10.2021.

(12). Что такое топонимы? Значение, происхождение, примеры. Электронный ресурс: <https://www.syl.ru/article/369486/chto-takoe-toponimy-znachenie-proishojdenie-primeryi>. Дата обращения: 17.11.2021.

(13). Чудеса природы: справочник. Электронный ресурс: <http://nature.worldstreasure.com/>. Дата обращения: 13.10.2021.

**Kamalova Dilfuza Enuarovna (O‘zbekiston davlat Konservatoriyasi Nukus filiali direktori o‘rinbosari; PhD)
YOZUVCHI ABDIMURAT OTAJANOV ASARLARINING KOMPOZITSION
XUSUSIYATLARI**

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada yozuvchi Abdimurat Otajanov asarlari tahlilga tortilgan hamda asar kompozitsiyasi xususiyatlari ochib berilgan. Shuningdek, yozuvchi asarlarining lirizm va qahramonlar xarakteridagi ichki kechinmalarini nisbatan bosim ekanligi va o‘ziga xos uslubga ekanligi ko‘rsatilgan.*

***Kalit so‘zlar:** asar kompozitsiyasi, uslub, qahramon xakteri, tasvirlash usuli, mahorat, ichki kechinma.*

Камалова Дильфуза Энуаровна (заместитель директора Нукусского филиала Государственной консерватории Узбекистана, PhD)

**КОМПОЗИЦИОННЫЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ПИСАТЕЛЯ АБДИМУРАТА
АТАДЖАНОВА**

***Аннотация.** В данной статье были проанализированы произведения писателя Абдимурата Атаджанова и выявлены особенности композиции произведений. Также было показано, что произведения писателя отличаются относительным вниманием к лирике и внутренним переживаниям персонажей и отличаются особым стилем.*

***Ключевые слова:** композиция произведения, стиль, характер героя, метод описания, мастерство, психологизм.*

Kamalova Dilfuza Enuarovna (Deputy Director of the Nukus branch of the Uzbek State Conservatory, doctor of philosophy (PhD) on philological sciences)

**COMPOSITIONAL FEATURES OF THE WORKS OF THE WRITER ABDIMURAT
ATAJANOV**

***Annotation.** In this article, the works of the writer Abdimurat Atajanov were analyzed and the features of the composition of the work were revealed. It was also shown that the writer's works are distinguished by their relative attention to the lyrics and inner feelings of the characters and have a special style.*

***Key words:** composition of the work, style, character of the hero, method of description, skill, psychology.*

Kirish (Introduction). Adabiyot hayotdagi voqea va hodisalarni adabiy va badiiylashtirib yoritishda o‘ziga xos va o‘ziga yarasha muammolari bor sohalardan hisoblanadi. Adabiyot dunyosida har bir ijodkor, ya’ni yozuvchini o‘ziga xos uslubi orqali ajratish mumkin. Qoraqalpoq adabiyotida o‘zining ancha salmoqli asarlari va uslubi bilan keng jamoatchilikka tanilgan yozuvchilardan biri Abdimurat Otajanov edi. Uning «Yomon sayohat», «O‘mr ochig‘i», «Terak boshida tunagan tun», «Bir cho‘lmak moy», «Rahmdillik», «Ezdalik farzni o‘tash usuli», «Birgalikda kulaylik», «Qaysi bola qo‘rqanini bo‘yniga oladi», «Quyun», «Ruhiy azob», «Oy mo‘ralaydi», «Qamayman emas, qolmayman deb ayt» va boshqa-da asarlari kitobsevarlarning eng sevimli asariga aylangan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Adabiyot asarlarining kompozitsion xususiyatlari masalasiga oid ilmiy tadqiqot ishlari E.M.Meletinskiy, M.A.Petrovskiy, M.M.Baxtin, V.V.Vinogradov, G.N.Pospelov, L.Timofeev, V.E.Xalizev, B.Eyxenbaum, M.I.Bent, I.Avrants, A.V.Barkina, T.Sh.Said-Battalova va boshqa-da xorij tadqiqotchilarining maxsus tadqiqot obyektiga aylangan. O‘zbek adabiyotshunosligida ham M.Qo‘shjonov, S.Mamajonov, I.Sultonov, N.Hotamov va B.Sarimsoqov, U. Normatov, D.Quronov, T.Muxtorov, Z.Usmonova, A.Toshpo‘latov, L.Jalilova va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida har tomonlama o‘rganilgan. Qoraqalpoq adabiyotshunosligida esa M.Nurmuhammedov, K.

Mambetov, S.Bahadirova, Q.Jarimbetov, Q.Orazimbetov va boshqa tadqiqotchilar mavzu bo'yicha ba'zi bir qarashlarini bildirib o'tgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Mazkur ilmiy ishni o'rganishda tarixiy, qiyo-siy-tipologik, mantiqiy-eksperimental va an'anaviy tahlil usullari qo'llanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). A.Otajanov Qoraqalpog'istonning Nukus tumanidagi "To'lis" qishlog'ida dunyoga kelgan. Mehnat yo'lini 1957-yilning Xo'jayli tumanidagi "Ivanjap" qishlo-g'idagi M.Gorkiy nomidagi (hozirgi 17-sonli) yetti yillik maktabda o'qituvchi bo'lib ishlashdan boshladi. 1959–1964-yillarda Qoraqalpoq davlat Pedagogika institutining qoraqalpoq tili va adabiyoti, tarix fakulteti-da tahsil oladi. Yosh qalam egasi 1964-yilning sentabr oyidan boshlab Qoraqalpog'istondagi birdan-bir bolalar va yosh-o'spirinlar nashri hisoblangan "Jetkinshek" gazetasiga ishga kiradi. 1972-yilning yanvar oyidan boshlab esa uning nasrchilik sohasidagi mahorati va katta tajribasini hisobga olib, uni "Amudaryo" adabiy jurnalining nasrchilik bo'limiga boshliq etib tayinlaydi. U nasrchilik sohasida, ayniqsa, bolalar va yosh-o'spirinlar hayotiga oid ko'plab asarlar yaratadi, uning mana shu sohadagi tajribasini yuqori baholab, uni 1975-yilning sentabr oyidan boshlab "Jetkinshek" gazetasiga muharrir etib tayinlaydi. 1982–1985-yil-larda Toshkent oliy partiya maktabining sirtqi bo'limida tahsil oldi. Uning aksariyat ijodiy asarlari o'zbek, qozoq, turkman, rus, tatar, avar, boshqurt, no'g'oy tillariga tarjima qilingan.

Yozuvchining ijod sohasidagi mehnatlari yuqori baholanib, u 1982-yili "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi" unvoni bilan taqdirlanadi.

A.Otajanov asarlarida lirizm va qahramonlar xarakteridagi ichki kechinmalarning kuchli ekanligi ya'ni liriko-psixologik usulning bosim kelishi, yozuvchining o'ziga xos uslubi ekanligini ko'rsatadi. Masa-lan, "Odam ko'nglining ..." deb nomlangan hikoyasida bir-birini sevib qo'shilgan ikki yoshning oilasining buzilib ketish voqealari, ularning kechinmalari, ya'ni voqealarni asar boshida berishi orqali tasvirlagan. Chiroyli, yosh kelinchak betanish umr yo'ldoshiga o'zining yoshlik vaqtidagi boshidan kechirgan kunlarini esga tushirish shaklida aytib beradi. Uzoq shaharda oliy ta'lim muassasasida ta'lim olayotgan talaba yigit o'z sevganiga qo'shiladi, u turmush o'rtog'ini onasi bilan qoldirib, o'zi o'qishga ketadi. Yosh kelinchak uyda bekor qolganni ma'qul ko'rmay, ximiya laboratoriyasiga ishga kiradi, topgan xarajatlarini turmush o'rtog'iga jo'natib turadi. Turmush o'rtog'i esa borgan sari sekin-asta undan uzoqlasha beradi. Voqealar shunday davom etib, oilada o'g'il farzand tug'iladi. Bolaning otasini ko'ngili esa shunda ham yaqinlash-maydi. Talabaning so'nggi kelishi hikoyada uning xulq-atvorini, ichki sezimlarini to'liq ochib beradi. Yo-zuvchi tomonidan talaba otaning insoniyligining yo'qligi, pastkashligi, o'z farzandiga ham e'tibor bermay, o'z oilasiga yaqinlashmay, boshqa ayolga bog'lanib qolishi quyidagicha tasvirlash orqali beriladi: "...Erim bu safari yuzi kuygan insondek, yurtga ko'rinishga uyaladigan o'g'ridek kirib keldi. Bozor qilishning o'rni-ga ikki qo'lini burniga tiqib, faqat o'zi. Yoki onasiga, yoki farzandiga bir narsa ham olib kelmagan. Nur yog'ilgan uyni qora bulut bosdi, ko'nglini qora bosdi, eson-omonlik so'rashgandan so'ng, gaplarimiz bir-biriga qarama-qarshi. Biri osmondan kelsa, ikkinchisi yerge qaray pastga tortadi". Asarning xulosasi bu kompozitsiyaga mahoratlik bilan uyg'unlashib turganligi ko'zga tashlanadi.

«Qamayman emas, qolmayman deb ayt» asarida muallim obrazi, uning o'quvchilar bilan xushmu-omalaligi, ularni o'z farzandidek ko'rishi, hamisha birga bo'lishi masalalari mahoratlik bilan tasvirlana-di.

A.Otajanov asarlarini tahlil qilib o'rganar ekanmiz, unda har xil kasb egalari, jamiyatning har xil so-halaridagi insonlarning xatti-harakatlari, har xil obrazlarda yoritilganining guvohi bo'lamiz. Masalan, kam-bag'al, badavlat, dehqon, yosh yoki qariya, xullas, hayotning barcha jabhalarini qamrab oladi. Yozuvchi asar qahramon obrazini ochib berishda bir xillikdan qochishga urinadi. Uning xohlagan asarini olib qara-maylik, ularda hayot haqiqatligi aniq aks ettirilganini guvohi bo'lamiz. Shu bilan birga, inson taqdirida yuz berayotgan har xil holatlar, keskin burilishlar, insonlarning xayol surishlari va ularning ichki sezimlari, kes-kin konfliktlik holatlari mahoratlik bilan gavdalanadi. A.Otajanovning ijodini davrlarga solishtirish or-qali ham o'rganimizda, ya'ni, mustaqillikkacha bo'lgan davrda ham ijod sohasida serqirra ijod qilganini ko'rish mumkin. Ya'ni, o'sha davrlarda ham ijtimoiy hayotdagi haqiqatni qo'rqmasdan o'z ijodida aks etti-rishi uslubi haqiqiy yozuvchi uslubini eslatadi. F.Dostoevskiy ijodini tadqiq qilgan V.Kirpotinning ta'kid-lashicha, yozuvchi «o'zganing ruhiy dunyasini to'g'ridan to'g'ri ko'ra olish qobiliyatini egallagan edi» [7]. Chunki tadqiqotchilarning fikricha, badiiy so'z yaratgan personajlarning barchasi va har biri o'z ichki qara-ma-qarshiligi bilan yasaganligidan ko'z o'ngimizdagi o'ziga xos bir dunyo sifatida gavdalanadi. Shunday ekan, A.Otajanov asarlari ishtirokchilarini o'ziga xos xarakterini ochilishida monolog, dialog va portretler-ning mahoratlik bilan qo'llangani adabiyotda katta ahamiyatga ega.

Umuman olganda, A.Otajanov hayotni yaxshi biladigan, teran fikrli yozuvchi. U o‘z asarlarida voqealarni haqiqatni, ko‘pni ko‘rgan tajribali inson sifatida badiiy izohlaydi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, qoraqalpaq nasrchiligida salmoqli o‘ringa ega A.Otajanov asarlarida hayot haqiqatligini ishonchli va mahorat bilan tasvirlash asosiy o‘rin egallaydi. Aksariyat hollarda yozuvchi o‘z asarlarida haqiqiy hayotda yuz berayotgan voqea-hodisalarni asos qilib oladi, asarlarda psixologizm orqali qahramonning ichki kechinmalarini yuzaga chiqaradi. Albatta, bunday xususiyatlar asar kompozitsion qurilishida ham aniq ko‘zga tashlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Камалова Д.Э. Баспасөзде новелланың жанрлық өзгешелигі. Материалы республиканское научно-практической конференции. Нукус, “Наука”, 2019, с. 18 – 21.

(2). Камалова Д.Э. Роль художественной детали в каракалпакских новеллах. Донецкие чтения 2021: Образование, наука, инновации, культура и образы современности: Материалы VI Международной научной конференции. Донецк, изд-во “ДонНУ”, 2021, с. 139 –142.

(3). Камалова Д. Shoir Tolibay Qabulov she‘rlariga yozilgan musiqalar. Journal of Research and Innovation. 2023, т. 1, №. 7, р. 53–58.

(4). Камалова Д.Е. Значение творчества писателя Марата Таумуратова в каракалпакской литературе Theoretical & Applied Science. 2021, №. 5, с. 45–50.

(5). Камалова, Д.Э. Роль художественной детали в композиции произведения (на примере каракалпакской литературы). Донецкие чтения, 2022: образование, наука, инновации, культура и вызовы современности: Материалы VII Международной научной конференции. Донецк. Изд-во Дон.НУ, 2022, р. 194–197.http://science.donpu.ru/wp-content/uploads/2022/10/dch_2022- том-4-f филологические науки- часть-2.pdf

(6). Kamalova D.E. Theoretical and practical study of the genre of novella in karakalpak literature. International Scientific Journal Theoretical and Applied Science. Philadelphia. 2020, № 03 (83).

(7). Кирпотин В. Ф. М.Достоевский. М., 1947, с. 63.

(8). Марзияев Ж.К. Роль и место публицистических жанров в современной каракалпакской печати. Вестник Челябинского государственного университета. Челябинск, № 6 (260), 2012, с. 88–92.

(9). Marziyayev J.K. Use of information genres in the print of Karakalpakstan. Science and Education in Karakalpakstan. Нукус, 2022, № 3/2 (27), р. 205–208.<https://karsu.uz/wp-content/uploads/2023/01/2022-3-2-%D1%81%D0% B0% D0%BD%D1%8B.pdf>

(10). Марзияев Ж.К. Қорақалпоқ публицистикасиға бир назар. “Ўзбек тили ва адабиёти”, Тошкент, 2009, 5-сон, 66–69-бетлар.

Bo‘ronova Mekkamtoş Xoliqulovna (Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti “Xorijiy til va adabiyoti quyi kurslar” kafedrası o‘qituvchisi; E-mail: mexkamtoşhb@gmail.com),

Gulnora Xolmurodova Sattorovna (Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti “Xorijiy til va adabiyoti yuqori kurslar” kafedrası o‘qituvchisi; E-mail: gulnoraxolmurodova5@gmail.com)

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA “YAXSHILIK VA YOMONLIK” MAVZUSIGA OID BO‘LGAN MAQOLLARNING O‘XSHASH HAMDA FARQLI JIHATLARI

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi yaxshilik hamda yomonlik mavzusiga oid maqollarning o‘xshash va farqli tomonlari misollar vositasida ochib berilgan. Yaxshilik va yomonlik mavzusiga oid ingliz va o‘zbek maqollarining hammasida yaxshilik eng ulug‘ ezigulik sifatida baholangan bo‘lsa, yomonlik insoniyatning yomon, illatli jihatlari sifatida e‘tirof etilgan.*

***Kalit so‘zlar:** maqol, yaxshilik, yomonlik, semantik tahlil, badiiy tasvur, poetik ko‘chimlar, munosabat.*

Боронова Меккамтош Халикуловна (Денауский институт предпринимательства и педагогики, преподаватель кафедры иностранного языка и литературы младших курсов;

E-mail: mexkamtoşhb@gmail.com),

Гулнора Холмуродова Сатторовна (Денауский институт предпринимательства и педагогики, преподаватель кафедры иностранных языков и литературы высших курсов;

E-mail: gulnoraxolmurodova5@gmail.com)

СХОДСТВА И РАЗЛИЧИЯ ПОСЛОВИЙ НА ТЕМУ «ДОБРО И ЗЛО» В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

***Аннотация.** В данной статье на примерах освещены сходства и различия многих пословиц на тему добра и зла в узбекском и английском языках. Во всех английских и узбекских пословицах на*

тему добра и зла добро оценивается как величайшее благое дело, тогда как зло представляет собой темные и злые намерения человечества.

Ключевые слова: пословица, хорошо, плохо, смысловый анализ, художественный образ, поэтические движения, мироощущение.

Boronova Mekkamtash Khalikulovna (Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy, Teacher of the Department of Foreign Language and Literature Lower Courses; E-mail: mexkamtoshb@gmail.com).

Gulnora Kholmurodova Sattorovna (Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy, Teacher of the Department of Foreign Language and Literature Higher Courses; E-mail: gulnorakhmurodova5@gmail.com)

SIMILARITIES AND DIFFERENCES OF POSITIONS ON THE TOPIC “GOOD AND EVIL” IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES

Annotation. In this article, the similarities and differences of many proverbs on the topic of good and evil in Uzbek and English are highlighted through examples. In all the English and Uzbek proverbs on the subject of good and evil, goodness is evaluated as the greatest good deed, while evil represents the dark and evil intentions of humanity.

Key words: proverb, good, bad, semantic analysis, artistic image, poetic movements, attitude.

Kirish. Ma'lumki, insoniyat hayotida azal-azaldan bir-briga zid bo'lgan ikki tomon o'zaro kurashib kelgan. Xuddi shunday ziddiyatli tushunchalardan biri sifatida yaxshilik va yomonlik tushunchalarini keltirishimiz mumkin. Qadimiy dinlardan hisoblanuvchi Zardushtiylik dinida ham olam ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi doimiy kurashdan iborat ekanligi Ahuramazda va Ahriman o'rtasidagi abadiy kurash misolida ko'rsatib berilgan. Har bir xalqning ma'naviy qadriyatlarida alohida ahamiyat kasb etuvchi maqollarda ham yaxshilik va yomonlik tushunchalarining mohiyatini tushuntirishga ustuvorlik beriladi. Ushbu ikki ixtilofli tushunchalarning maqollarda ko'p uchrashi tabiiy holat hisoblanadi. Zero, maqollar har bir xalqning urf-odatlarini, an'analarini, ichki his-tuyg'ularini ifodalab berishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi. O'zbek va ingliz tillarida yaxshilik va yomonlikning o'zaro kurashini ifodalaydigan maqollarni tilshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etish ushbu ikki xalqning mazkur tushunchalarga nisbatan munosabatini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Ingliz va o'zbek tillaridagi yaxshilik va yomonlik tushunchalarini ifoda etuvchi maqollarni tadqiq etish bilan bir qancha mahalliy va xorijiy olimlar shug'ullanganlar. Jumladan, mahalliy olimlardan K.M.Karomatova va H.S.Karomatovlarning “Proverbs. Maqollar. Пословицы” nomli kitoblari ushbu sohaga oid bo'lgan asosiy manbalardan biri bo'lib xizmat qilib kelmoqda [9]. Rossiyalik mashhur tilshunoslardan biri hisoblangan V.A.Maslovaning “Лингвокультуроология”, “Введение в лингвокультуроологию” nomli asarlarida esa ingliz tilidagi yaxshilik va yomonlik bilan bog'liq bo'lgan maqollar lingvistik nuqtai nazardan o'rganilgan [5].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ingliz va o'zbek tillaridagi yaxshilik va yomonlik bilan bog'liq bo'lgan maqollarning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish uchun ilmiy tadqiqotning taqqoslash, analiz, sintez kabi usullaridan samarali foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Ingliz va o'zbek tillaridagi maqollarning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishda K.M.Karomatova va H.S.Karomatovlarning yuqorida nomi zikr etilgan kitobidan misollar keltiramiz:

Inglizcha maqol: *A bad excuse is better than none.* O'zbekcha variant: *Yaxshi so'z bilan ilon inidan chiqar, yomon so'z bilan musulmon dinidan chiqar.*

Ushbu maqolning ingliz tilidagi shaklini o'zbek tiliga tarjima qilganda, kech bo'lsa ham, inson o'zining aybini tan olishi va kechirim so'rashi lozimligi kelib chiqadi [2;98 b.]. Ushbu maqolning semantik tahlilini amalga oshirganda, o'zbek va ingliz tillarida ayni ma'noga ega ekanligi oydinlashadi.

Hozirgi kunga kelib, maqollar xalq og'zaki ijodining noyob durdonalari sifatida avloddan avlodga o'tib kelayotgan xazina sifatida e'tirof etiladi. Aynan maqollarda bir so'z yoki atamaning turli-tuman ma'nolarga ega ekanligini, so'z san'atining kamyob ko'rinishlarini anglash mumkin. Shu nuqtayi nazardan, maqollar azal-azaldan tarixiy, adabiy asarlarda, insonlar o'rtasidagi o'zaro nutqiy munosabatlarda doimiy ravishda ishlatilib keladi [1;14-b.].

Yaxshi so'z bilan ilon inidan chiqar,

Yomon so'z bilan musulmon dinidan chiqar.

Ushbu maqol vositasida xalqimizga xos bo'lgan shirinso'zlik fazilati ulug'lanadi. Mazkur maqolda ishlatilgan “ilon” timsoli har qancha xatarli bo'lmasin, yaxshi so'z vositasida zararsiz jonzodga aylanishi mumkinligiga ishora qilinadi [9;311-b.]. Demak, har qanday yomon xulqli, badjahl insonni go'zal odobning

eng asosiy belgilaridan biri hisoblangan shirin soʻz vositasida insofga chaqirish mumkinligi ushbu maqol vositasida koʻrsatib beriladi. Ushbu maqolda ifodalangan shirinsoʻzlik fazilati ingliz va oʻzbek tilidagi maqollarda bir xil maʼno-mazmun kasb etishini koʻrishimiz mumkin. Demak, aytish mumkinki, ikki xalq oʻzining maqollari vositasida jamiyat aʼzolarini doimo shirinsuxanlikka chorlab kelgan.

Xuddi shunday mazmunga ega boʻlgan maqollar qatoriga ushbu maqollarni ham kiritishimiz mumkin:

Ingliz tilida: A bad beginning makes a bad ending

Oʻzbek tilida: Yomonchilik boʻlganda, qor ustiga muz yogʻar.

Ingliz tilida: A good beginning makes a good ending.

Oʻzbek tilida: Yaxshi yil bahoridan, yomon kun esa tongidan maʼlum. [3;19-b.]

Yuqorida zikr qilingan maqollar oʻzbek va ingliz tillaridagi yaxshilik va yomonlikning mazmun-mohiyatini oʻzida aks ettiruvchi eng ommabop maqollar qatoriga kiradi.

Ishning qanday natija bilan yakuniga yetishi uning muqaddimasi bilan chambarchas bogʻliq ekanligi ham ikki xalq maqollarida oʻz aksini topgan. Zero, inson boshlagan bror-bir ishning qanday xotimalanishi uning boshlanish nuqtasidagi kayfiyat bilan oʻzaro aloqador ekanligi hech birimizga sir emas. Shu nuqtayi nazardan ham, ishni yaxshi kayfiyat bilan boshlash uning yakuni ham yaxshi boʻlishiga, yomon kayfiyat yoki niyat bilan boshlash esa oʻsha ishning yomonlik bilan yakuniga yetishiga sabab boʻluvchi asosiy omillardan hisoblanadi. Bunga misol sifatida ushbu maqolni keltirish mumkin:

Ingliz tilida: In every beginning think of the end.

Oʻzbek tilida: Yaxshi joyda yotsang, yaxshi tush koʻrasan,

Yomon joyga yotsang, yomon tush koʻrasan.

Mazkur maqollar vositasida ham koʻrishimiz mumkinki, ikki tildagi maqollar maʼno-mazmun jihatidan bir xillik xususiyatiga egadir.

Ikki tildagi chuqur maʼnaviy mazmun-mohiyatga ega boʻlgan maqollardan yana biri sifatida quyidagi maqolni keltirishimiz mumkin:

Ingliz tilida: "Every cloud has a silver lining"

Oʻzbek tilida: "Har yaxshida bir "ammo", Har yomonda esa bir "lekin" bor.

Koʻchma maʼnoda ifodalangan bulutning kumush hoshiyasi yomgʻir yogʻib, elga rizq ulashishi, tabiatni musaffo qilishi va insonlar qalbidagi gʻuborni yuvib yuborishi bilan baholangan. Endi maqolning oʻzbekcha koʻrinishini koʻrib chiqamiz.

Maqolning oʻzbek tilidagi koʻrinishi "Har yaxshida bir "ammo", Har yomonda esa bir "lekin" bor", tarizda ifodalangan. Ushbu maqoldan kelib chiqadigan xulosa shundan iboratki, inson mutlaqo yaxshi yoki yomon boʻlishi mumkin emas. Har bir yomonning tarkibida bir yaxshi xususiyat yashiringan boʻladi. Shu oʻrinda yaxshi deb qaralgan narsa-hodisalarning tarkibida ham oʻziga yarasha yomon illatlar yashiringan boʻlishi mumkin. Ushbu maqolning umumiy mohiyati har qanday holatda ham yaxshilikning gʻalaba qozonishiga erishishdir. Bundan kelib chiqib, aytish mumkinki, ushbu maqolning ikki tildagi shakllari bir xil mazmunga egadir.

Bundan tashqari, aynan yaxshilik va yomonlik tushunchalari asosida ifodalanmagan boʻlsa-da, maʼno jihatidan ushbu mavzuga yaqin boʻlgan bir qancha maqollarni keltirish mumkin: [6;121 b.].

Ingliz tilida: After rain comes sunshine.

Oʻzbek tilidagi tarjimasi: Yomgʻirdan keyin quyosh chiqadi.

Oʻzbek tilidagi ekvivalenti: Oyning oʻn beshi qorongʻu, oʻn beshi esa yorugʻ boʻladi.

Ingliz tilida: The evening crowns the day.

Oʻzbek tilidagi tarjimasi: Oqshom kunduzning toji.

Oʻzbek tilidagi ekvivalenti: Har kechaning – kunduzi, har kunduzning kechasi bor [4;23-b.].

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa oʻrnida shuni aytish mumkinki, ingliz va oʻzbek tillaridagi yaxshilik va yomonlik tushunchalarini ifodalovchi maqollarning koʻpchiligida mazmun jihatidan bir xillik xususiyatlari mavjuddir. Ikki tilda keltirilgan ushbu mavzuga doir maqollarining aksariyatida yaxshilik eng buyuk ezgu ish sifatida baholangan boʻlsa, yomonlik insoniyatni tanazzulga olib boradigan illat sifatida eʼtirof etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati (References):

- (1). Arora S. The Perception of Proverbiality. 1984, 244 p.
- (2). Honeck R. A proverb in mind: the cognitive science of proverbial wit and wisdom. USA, Lawrence Erlbaum, 1997, 277 p.

- (3). Karamatova K.M., Karamatov H.S. Proverbs. Maqollar. Пословицы. Т., “Mehnat”, 2000.
 (4). Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. Toshkent, “Mumtoz so‘z”, 2010.
 (5). Маслова В.А. Лингвокультурология. Москва, “Академия”, 2001.
 (6). Маслова В.А. Введение в лингвокультурологию (учебное пособие). Москва, 1997.

Boboqulova Iroda Sulaymonovna (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti o‘qituvchisi)

O‘ZBEK TILI: XALQ MADANIYATIDA KINOYA TARIXI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tili va uning xalq madaniyatidagi kinoyaga o‘ziga xos munosabati o‘rganiladi. O‘zbek tili tarixi turli davr va sivilizatsiyalarga xos an‘ana va ta’sirlarga boy bo‘lib, uning xususiyatlari, hatto kinoya qo‘llanishida ham namoyon bo‘ladi. Maqolada kinoyaning o‘zbek xalq madaniyatida tutgan o‘rni, vazifalari va qo‘llanish xususiyatlari ko‘riladi. O‘zbek madaniyatidagi kinoyani aks ettiruvchi badiiy asarlar, folklor materiallari va boshqa manbalar tahliliga asoslangan.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili, kinoya, xalq madaniyati, an‘analar, adabiyot.

УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫК: ИСТОРИЯ ИРОНИИ В НАРОДНОЙ КУЛЬТУРЕ

Аннотация. В данной статье исследуется узбекский язык и его специфическое отношение к иронии в народной культуре. История узбекского языка богата традициями и влияниями, характерными для разных эпох и цивилизаций, и ее особенности проявляются даже в использовании иронии. В статье рассматриваются роль, функции и особенности применения киноа(иронии) в узбекской народной культуре. Она основана на анализе художественных произведений, фольклорных материалов и других источников, отражающих иронию в узбекской культуре.

Ключевые слова: узбекский язык, ирония, народная культура, традиции, литература.

UZBEK LANGUAGE: A HISTORY OF IRONY IN FOLK CULTURE

Annotation. This article will study the Uzbek language and its specific attitude to irony in folk culture. The history of the Uzbek language is rich in traditions and influences typical of different eras and civilizations, and its features are manifested even in the use of irony. The article will see the role, tasks and features of application of cinema in Uzbek folk culture. Based on the analysis of works of art, folklore materials and other sources that reflect the irony in Uzbek culture.

Key words: Uzbek language, irony, folk culture, traditions, literature.

Taqirizchi Hulkar Turdiyeva, (PhD) dotsent

Kirish (Introduction). O‘zbek tili tarixiy va madaniy merosga boy. Bu tilning o‘ziga xos xususiyatlari borki, ulardan biri xalq madaniyatida kinoyaning qo‘llanishidir. Ironiya o‘zbek tilining ajralmas qismi bo‘lib, unda so‘zlashuvchilarning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Ushbu maqolada biz o‘zbek tili tarixiga nazar tashlab, kinoyaning xalq madaniyatidagi turli jabhalariga qanday kirib borishini bilib olamiz.

Ironiya o‘zbek madaniyatida muhim o‘rin tutib, o‘zbek xalqiga xos hazil, topqirlik, zukkolik kabi xususiyatlarni o‘zida mujassam etgan. Kinodan foydalanish kundalik hayotda o‘zini namoyon qilishning o‘ziga xos shakli va odamlar o‘rtasidagi muloqot vositasiga aylandi. O‘zbek tilida xalq tafakkuri va xarakterini ifodalovchi istehzoli iboralar, maqol va matallar ko‘p va ularning ba’zi turlari mavjud.

Klassik istehzo: qadimgi yunon komediyasida ironiyaning kelib chiqishi va klassik va o‘rta asr ritoriklari bu atamani belgilash usuliga ishora qiladi. Romantik istehzo: badiiy adabiyotning o‘zini-o‘zi anglaydigan va tanqidiy shakli. Kosmik ironiya: mutlaq va nisbiy, umumiy va individual o‘rtasidagi qarama-qarshilik, uni Gegel «dunyoning umumiy [ironiyasi]» iborasi bilan ifodalagan. Og‘zaki istehzo: bayonotning aytilgan va mo‘ljallangan ma‘nosi o‘rtasidagi ziddiyat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Dramatik ironiya va fojiali istehzo: aktyor va kuzatuvchi o‘rtasidagi ongning nomutanosibligi: so‘zlar va harakatlar tinglovchi yoki tomoshabin tushunadigan ahamiyatga ega bo‘lsa, lekin ma‘ruzachi yoki qahramon tushunmaydi. Bu, ko‘pincha, muallifning tinglovchilarga ma‘lum bo‘lgan haqiqatning ba’zi qismini bilmaganligi sababli qahramonni noto‘g‘ri gapirishga yoki harakat qilishga majbur qilganda qo‘llaniladi. Fojiali istehzoda tomoshabin, hatto qahramon xato qilayotganini ham biladi.

Og‘zaki istehzo–so‘zlovchi ishlatayotgan ma‘no go‘yoki ifodalangan ma‘nodan keskin farq qiladigan gap. Istehzoli bayonot, odatda, bitta munosabat yoki baholashning aniq ifodasini o‘z ichiga oladi, lekin umumiy nutq holatida ma‘ruzachi juda boshqacha, ko‘pincha, qarama-qarshi munosabat yoki baholashni niyat qilganligini ko‘rsatadi. Og‘zaki istehzo situatsion ironiya va dramatik istehzodan qasddan yasalganligi bilan ajralib turadi. Misol uchun, agar biror kishi: “Men xafa emasman!” Lekin xafa emasligini da’vo

qilmoqchi bo'lgan holda, uning ovozi orqali xafa bo'lgan emotsional holatni ochib beradi, bu og'zaki namoyon bo'lishiga ko'ra, og'zaki istehzo bo'lmaydi (ammo vaziyatli istehzo bo'ladi).

Ammo agar o'sha ma'ruzachi xuddi shu so'zlarni aytsa va o'zini emasligini da'vo qilib, xafa bo'lganligini bildirmoqchi bo'lsa, bu gap og'zaki kinoya bo'ladi. Bu farq og'zaki istehzoning muhim jihatini ko'rsatadi – ma'ruzachilar so'zlarning o'zida mavjud bo'lgan takliflarga ataylab zid bo'lgan nazarda tutilgan takliflarni bildiradilar. Biroq og'zaki istehzoning misollari borki, ular nimani anglatishini teskarisini aytishga, tayanmaydilar va istehzoning barcha an'anaviy mezonlari mavjud bo'lgan va nutq istehzoli bo'lmagan holatlar mavjud.

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbek adabiyotida ironiya ham muhim o'rin tutadi. Hikoyaning satirik va ayblovchi tomonlarini ta'kidlash uchun ishlatiladi. Asli, o'zbek bo'lgan ko'plab yozuvchi va shoirlar o'z asarlarida istehzodan foydalanib, jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni, siyosiy vaziyatlarni, qarama-qarshiliklarni tasvirlab berishgan. Kinoyada so'z yoki ifoda nutqda asl ma'nosiga teskari, hatto uni rad etuvchi mazmun kasb etadi. Kinoya uslubiy vosita sifatida majoziy so'zlar orqali piching va istehzoni ifodalaydi. Komiklikning bir turi bo'lgan kinoyada kulgililik, jiddiylik niqobi ostiga yashirinib, o'zida so'zlovchidagi ustunlik yoxud gumonsirash tuyg'usini aks ettiradi. Kinoya xalq og'zaki ijodida ham, yozma adabiyot namunalari ham keng qo'llanadi. Masalan, Alisher Navoiyning «Lison ut-tayr», Gulxaniyning «Zarbulmasal», Abdulla Qahhorning «Mayiz yemagan xotin» va boshqa asarlarda kinoya jonli va konkret badiiylik yaratishga xizmat qilgan.

O'zbek tilida kinoyaning qo'llanishiga ko'plab misollar keltirish mumkin. «Tushgan tishxiz drama-turg» degan mashhur maqol ana shunday misollardan biri bo'lib, so'zma-so'z tarjimai «Qalamsiz yozuvchi» deb tarjima qilinadi. Bu kinoyali ibora yozishning ahamiyati va san'atiga urg'u beradi. Yana bir boshqa misollarda yovuz odamga nisbatan: «Ha, siz mehribon odamsiz» va ahmoq odamga qarab: «Siz aqlli narsa so'rash uchun kelgandirsiz?» javob beradigan odamning takabburlikiga nisbatan esa: «Biz sizning oldingizda qayerda bo'lamiz, shahzodam?» kabilar orqali ironimik so'z boyliklarini kuzatishimiz mumkin.

Tahlil va natijalar. Abdulla Qahhorning «Mayiz yemagan xotin» hikoyasida «Men sizga aytsam, mulla Norqo'zi, gap paranjida emas. Nikolay zamonida islovtodagi xotinlar bosh yalang emas edi-ku! Endi siz har narsa deysizu, bunchalik emas, ko'zingizga shunday ko'rinadi. Mana, men sizga aytib beray: umrimda xotin-xalajga suyuqlik qilgan odam emas edim, bahorda qishloqqa ketayotib yo'lda bir xotinga hamroh bo'ldim. It olib ketayotgan ekan. Orqamga qaramay bir qochdim... Shariat xotinni qattiq tutish kerak deydiyu, ammo xotinni qancha qattiq tutsangiz, shuncha g'aflatda qolishingizni poylaydi». Bunda yozuvchi «buning ham og'zi sizning og'zingizday shalaq»,¹ deb gap otgan odamga nisbatan kinoyali tarzda qo'llagan.

O'zbek tilida istehzo, topqirlik, hazil-mutoyiba ifodalash uchun ishlatiladi. Muloqotning bunday uslubi o'zbek xalqiga o'z nuqtayi nazarini zukko va zukko mulohazalar orqali ifodalash imkonini beradi, bu esa suhbat va nutqlarini yanada jonli va qiziqarli qiladi.

Ironiya o'zbek adabiyotining og'zaki va yozma shakllarida keng tarqalgan. U xalq ertaklari, latifalar, latifalar va boshqa adabiy asarlarda qo'llaniladi. U, ko'pincha, ijtimoiy hodisalarni, kundalik vaziyatlarni yoki odamlar o'rtasidagi munosabatlarni masxara qilish uchun ishlatiladi.

O'zbek tili tarixini o'rganish xalq madaniyatiga chuqur kirib borgan o'ziga xos xususiyat – ironiyani ochib beradi. Bu xususiyat tilni boyitib, uni yanada jonli va ifodali qildi. O'rganish davomida istehzo o'zbek jamiyati hayotining turli jabhalariga, kundalik muloqotdan tortib, siyosat va ijtimoiy masalalargacha kirib borayotgani qayd etildi. Kinoiy ohanglar tufayli ko'plab kundalik vaziyatlar va ijtimoiy hodisalar unchalik jiddiy emas, bu odamlarga ularni tanqid qilish va kulgili tomonni topish imkonini beradi.

Xulosa va takliflar. Shuni alohida ta'kidlash joizki, o'zbek tilidagi kinoya nafaqat ko'ngilochar rol o'ynaydi, balki ijtimoiy muloqot vazifasini ham bajaradi. Bu odamlarga umumiy til topishga yordam beradi, vaziyatni yumshatadi va yanada ishonchli muloqot muhitini yaratadi.

Demak, kinoya o'zbek xalqi xalq madaniyatining ajralmas qismi bo'lib, o'zbek tiliga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Uning tarixi va qo'llanilishini o'rganish bizga ushbu tilning o'ziga xosligi va boyligini yaxshiroq tushunishga, shuningdek, kinoyaning tarixiy va madaniy kontekstni shakllantirishdagi ahamiyatini tushunishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Abdulla Qahhor. Mayiz yemagan xotin. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/abdulla-qahhor-1907-1968/abdulla-qahhor-mayiz-yemagan-xotin-hikoya>.

(2). <https://ief-usfeu.ru/uz/ironiya-primery-ironii-bulgakov-i-harms-kak-velikie-ironiki/>.

(3). <https://www.dissercat.com/content/sredstva-reprezentatsii-ironii-v-khudozhestvennom-tekste-na-materiale-russkogo-i-angliiskogo>

**Kurbonova Nargiza Samadovna (Xalqaro Innovatsion universitet
“Filologiya va tillarni o‘qitish” kafedrasida o‘qituvchisi)
VIRTUAL PLATFORMALAR YORDAMIDA TARJIMAGA O‘RGATISH MASALALARI**

***Annotatsiya.** Hozirgi davrda aksar tilni o‘rgatuvchi oliy ta’lim muassasalarida og‘zaki tarjimaga o‘rgatish bo‘yicha kurslarda virtual platforma bilan ishlash imkoniyatlari chegaralangan. O‘qituvchilar bu kabi ulkan ma’lumot resursidan foydalanish katta imkoniyatlar yaratishi haqida unchalik yaxshi tasavvuraga emaslar. Shu asosda ushbu imkoniyat og‘zaki tarjimonlarni o‘qitishda talabalarga professional kompetensiyani egallashga ko‘maklashuvchi metodlarni o‘quv jarayoniga samaraliroq tatbiq etishga ko‘maklashadi.*

***Kalit so‘zlar:** tarjimaga o‘rgatish metodikasi, og‘zaki tarjima, yozma tarjima, raqamli ta’lim, virtual platformalar, ta’limga innovatsion yondashuv.*

**Курбонова Наргиза Самадовна (преподаватель кафедры “Филология и преподавание языков”
Международного инновационного университета)**

ВОПРОСЫ ОБУЧЕНИЯ ПЕРЕВОДУ С ПОМОЩЬЮ ВИРТУАЛЬНЫХ ПЛАТФОРМ

***Аннотация.** В настоящее время возможности работы с виртуальной платформой на курсах по преподаванию устного перевода в большинстве языковых учебных заведений ограничены. Учителя не очень хорошо представляют себе огромные возможности использования такого огромного информационного ресурса. Исходя из этого, данная возможность поможет более эффективно применять в образовательном процессе при подготовке переводчиков методы, помогающие студентам приобрести профессиональную компетентность.*

***Ключевые слова:** методика преподавания перевода, устный перевод, письменный перевод, цифровое образование, виртуальные платформы, инновационный подход к образованию.*

**Kurbonova Nargiza Samadovna (Teacher of the "Philology and Language Teaching" department of the
International Innovation University)**

ISSUES OF TRAINING IN TRANSLATION WITH THE HELP OF VIRTUAL PLATFORMS

***Annotation.** At the present time, the possibilities of working with the virtual platform are limited in the courses on teaching oral translation in most language teaching institutions. Teachers do not have a very good idea of the great possibilities of using such a huge information resource. Based on this, this opportunity will help to more effectively apply the methods that help students to acquire professional competence to the educational process in the training of interpreters.*

***Key words:** translation teaching methodology, oral translation, written translation, digital education, virtual platforms, innovative approach to education.*

***Kirish.** Talabalar tarjima uchun murakkablik darajasi bir xil bo‘lgan matn olishlari bilan bir qatorda, amalga oshirilgan tarjimalarni tahlili uchun proekt tuzishlari talab qilinadi va, albatta, AKTdan foydalanish sharti bilan ishchi guruh tarjimonlarga, muharrirlarga, tahrirchilarga, proekt rahbarlariga va soha bo‘yicha mutaxassislariga bo‘linadi. Tarjimonlik fakultetlarida tarjimonlar faoliyatini AKT yordamchi vositalari orqali tashkil qilish, avtomatlashtirish borasida talabalarining ko‘nikma va mahoratlarini shakllantirish muhim vazifalardan biri bo‘lib, turli topshiriqlar orqali tarjimonlarni professional ko‘nikmalarini shakllantirish vazifalari bilan bir qatorda turadi.*

***Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O‘zbekistonda talabalar faktologik bilimlarni o‘qishning ilk yillarida olishadi, tarjima jarayonida yordamchi metodlar, strategiyalar va yordamchi vositalar haqida bilimlarni esa keyingi yillarda. Ba’zi tadqiqotchilarning fikricha AKTlardan foydalanish ko‘nikmasi tarjimon uchun juda muhim. Masalan, D.K.Kiralining fikricha, yaqin yillarda tarjimonlik sohasida tadqiqotchilik ko‘nikmalari, terminologik bazalar bilan ishlash mahorati, elektron ma’lumot resurslarining samarali ishlatilishi ko‘nikmalari birinchi talab darajasiga ko‘tariladi [1]. T.Boylning fikriga qaraganda, butun dunyoda tarjimonlarni tayyorlash amaliyotida keng foydalaniladigan faqatgina matn tarjimasi orqali tarjimonlikka o‘rgatish metodikasini samarasizdir [2]. Aynan shu bois tadqiqotchi butun e’tiborni talabalar kundalik tarjima muammolarini hal qilishga yo‘naltirilgan va ularda bu muammolar hal qilish ko‘nikmasini shakllantiruvchi mashqlar tizimi ishlab chiqilishiga qaratadi. Bunday mashqlar sirasiga katta hajmdagi matn tarjimasi, tarjimalarni muddatda bajarish sharti, maxsus sohalarda bo‘yicha yaratilgan matnlarni to‘g‘ri sharhlash va izohlash kabilar kiradi.*

Tadqiqot metodologiyasi. E'tiborimizni veb-texnologiyalar asosida tarjimonlarni tayyorlashga qaratib. Albatta, shu o'rinda, hozirgi kunda aksar tarjimonlik fakultetlarida ommalashib borayotgan o'qitishning kombinatsiya qilingan shakli (blended learning, yoki b-learning), ya'ni darslarni ham odatiy shakli, ham elektron vositalar yordamida tashkil qilish metodikalarini qo'llash, amaliyotga tatbiq etilmoqda. Bu kabi tashkil qilingan darslar ikkilama metodikaning ham afzalliklarini qamrab oladi. Amalda kombinatsiya qilingan o'qitish turi an'naviy darsning kamchiliklarini to'ldirib boradi. Kombinatsiyalangan shakl o'qituvchining yangi rolini aniqlab, talaba bilan uzviy aloqa bog'lashga yordam beradi. Bu o'rinda talabalarga ham o'qituvchi, ham guruhdoshlari bilan yaqin aloqada ishlash imkoniyati tug'iladi, auditoriyada berilayotgan ma'lumotni yaxshi qabul qilib, ma'lumotni audiovizual tarzda qabul qilin, o'qituvchi kinestetik va mekognitiv metodlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ta'lim sohasida taklif qilinayotgan multimedia ma'lumotlari matnlar va gipersilka qilingan ma'lumotlar, audiovideomateriallar shaklida bo'ladi. Talabalar bir vaqtning o'zida tarjima jarayonida malaka oshirilayotgan matn va shunga yaqin mavzular bo'yicha kerkli ma'lumotlar olish va topshiriqlar ketma-ketligini o'zlarida tashlash imkoniyatlariga ega bo'ladi. Internet orqali materiallarni bir vaqtda uzatish imkoniyati ham mavjud.

Tahlil va natijalar. Yuqorida ta'kidlanganidek, kursning maqsadlari aniq shakllantirilishi talab qilindi, chunki bu, o'z navbatida, aniq metodika va mashqlarning ishlab chiqilgan tizimi mavjudligini talab qiladi. Hozir biz ko'rib chiqmoqchi bo'lgan mashqlar tizimi ona tili o'zbek tili bo'lgan talabalar uchun mo'ljallangan. Talabalar uch yil davomida ingliz tilini o'rganib kelmoqdalar va ingliz tiliga umumiy tematikaga oid matnlarni tarjima qilish ko'nikmasiga ega. Bundan tashqari, yana bir maqsad – talabalarda mustaqil o'qishga tayyorlash.

Qoidaga, asosan, talabalar bir xil murakkablikdagi internetdan yoki o'qituvchining o'z amaliyotidan olingan matnni olishadi. Bu kabi matnlarning tuzishi va sifatiga e'tibor bermoq lozim (oldindan turli grammatik, stilistik va leksik xatoliklari yo'qligini tekshirish kerak), shuningdek, tanlangan tematikaga oidligini va qiyinlik darajasi pedagogik masalalar talabiga javob berishini nazorat qilish darkor.

Talabalarga yordamchi material sifatida tematikaga oid ikki tilli matnlar berilishi, mavzu bo'yicha fon bilimlar, tavsifiya qilinadigan adabiyotlar ro'yxati, glossariy va tegishli veb-saytlar ro'yxati berilishi kerak. Yordamchi material bilan bir talabalar matn tarjimasi oldindan tarjima muammolarini hal qilishga o'rgatadigan mashqlar tizimi bilan ishlashlari lozim. Tarjimon oldida turgan vazifalarni hal qilish bo'yicha quyidagi mashqlar va metodikalarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) lingvistika sohasida bilimlarni chuqurlashtirish;
- 2) madaniy bilimlarni chuqurlashtirish;
- 3) tadqiqot ko'nikmalarini, xususan, texnika sohasidagi ko'nikmalarni yaxshilash;
- 4) tarjimonlik metodlari va strategiyalarni o'rgatish;
- 5) professional tarjimonlik faoliyatida talab qilinadigan, ya'ni, qisqa muddatda tarjimani amalga oshirish, qattiq hayajon, ruhiy zarba vaziyatlarida ishlash, mijozlar bilan ishchi munosabatlarda bo'lish (kengaytirilgan mijozlar bazasini yaratish, buyurtmachi bilan ish borasida xat almashish, buyurtmaning muddatiga, hajmiga va murakkabligiga qarab narx belgilash);
- 6) amalga oshirilgan tarjimaning sifat adarajasini tekshirish;
- 7) guruhda ishlash, tarjimonlik proektlarini boshqarish;
- 8) terminologik bazalarni boshqaruvchi bazalar bilan ishlash;
- 9) talabalarda mustaqil o'qish ko'nikmasini shakllantirish.

Keyingi navbatda tadqiqot ishimizda Moodle tizimida talabalarni og'zaki tarjimaga o'rgatishda qanday dinamik muhit hosil qilish imkoniyatlari mavjudligini ko'rib chiqamiz. Moodle – o'quv kurslarini boshqaruvchi dastur bo'lib, uni biz aksar hollarda masofadan turib o'qitish deb nomlaymiz. Moodle – erkin veb-iloza bo'lib (GNU GPL litsenziyasiga, asosan, tarqatiladi) onlayn o'qitish uchun saytlar tuzishga imkoniyat beradi. Biz Moodlening SCORM (Shareable Content Object Reference Model) kitob, dars va topshiriq kabi vositalarni tahlili qilmaymiz, chunki bu vositalar faqatgina bazaga yangi materiallarni kiritishni ko'zda tutadi. Biz Moodle ning nafaqat faktologik, balki amaliy bilim berishga ko'maklashuvchi vositalarida to'xtalib o'tamiz. Moodlening har bir programmasini ko'rib chiqqandan so'ng, ular orqali qanday vazifa o'z yechimini topishi aytib o'tamiz.

Moodlening birinchi vositasi bu savolnomalar (questionnaires, yoki quizzes). Bu vosita o'qituvchiga savollarni tuzish va yoyilgan yoki qisqa javoblar olish imkoniyatini beradi. Bu yo'l orqali talabalarning o'zlashtirgan ma'lumotni o'zlashtirish darajasini bilib olish mumkin. Savolnomalardan talabaning til bilimlarini teksharishda ham foydalanish mumkin. Masalan, "qisqa javob" nastroykasi orqali berilgan matn tarjimasining xatolarini aniqlash mumkin. Matn bo'laklariga bo'linib, alohida vazifalar shaklida ham be-

rilishi mumkin (translation memory). Xatolrani ham kategoriyalarga bo'lish mumkin: grammatik xato, lingvistik xato, madaniy xato va h.k. Talabalarga berilgan topshiriqni bajarish yo'llari aniq ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Topshiriqni stilistik yoki grammatik aspektlardan kelib chiqqan holda, qiyinlik darajasini oshirish mumkin.

Bu holda talabalarga masala yechimini topish uchun bir necha urinishlar berish mumkin. Bu mustaqil o'qish uchun qo'l keladi. mashqning to'g'ri bajarilganligini baholash bilan bir qatorda, dastur har bir xatoga avtomatik tarzda sharh beradi. Xatolarning xarakteriga qarab, ushbu xatolarni bartaraf qilishga o'rgatuvchi mashqlar taklif qilinadi. Mashqlarning yana bir turi aniq olingan matnining tarjimalari variantlarini tanlash. Faoliyatning bu turi talabalarda tanqidiy tahlili ko'nikmalarini shakllantirib materialning yaxshi o'zlashtirishga yordam beradi.

Topshiriq nastroykalarini o'zgartirish orqali mashqlar uchun vaqt chegaralarini o'rnatish mumkin. Vaqtni chegaralash talabalarda og'zaki tarjima jarayonida mushkul vaziyatlardan chiqish ko'nikmalarini shakllantiradi. Mashqlarning bu turi 1), 2), 5), 6), 9) raqamli masalalar yechimini topishga yordam beradi.

Moodle daturining yana bir foydali vositasi bu chatdir (ingl. chatter). Chat – real vaqtda kopyuter orqali ma'lumot almashish imkoniyani beruvchi vositadir. Chatning xarakterli tomoni aynan real vaqtda muloqotning amalga oshirilishidir. Aksar hollarda, chat virtual platforma sifatida qo'llanilib, yozishmalarning kompyuter xotirasida saqlanishi bu vositadan boshqacha tarzda fodalanishining ham imkonini beradi.

Masalan, tarjimonlar guruhi (5 kishidan ortiq bo'lmagan guruh), proekt ustida ishlash jarayonida chatdan foydalanishlari mumkin. Guruhning har bir a'zosi variantini taklif qilish bilan bir qatorda, aynan shu variantni nima sababdan tanlaganini tushuntirib, izohlab boradi, maxsus terminologiya bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar manbayini ko'rsatadi. Bu vaziyatda talabalar o'zi taklif qilayotgan variantlari ustida yaxshiroq ishlab tarjima jarayoni qanday amalga oshishi haqida ma'lumotga ega bo'lib boradilar. Shu bilan bir qatorda o'qituvchi ham jarayonning borishini nazorat qiladi. Bu degan boshqa talabalar kabi o'qituvchi real vaqtda jarayonining nazoratini olib boradi degani emas, balki o'qituvchi slog-fayllar orqali yozishmaning tarixini ko'rib chiqadi. Yozishmalar o'qib chiqilishini va baholanishini talabalarga oldindan aytish lozim.

Albatta, o'qituvchi ham real vaqtda talabalarining yozishma-tahlillarida qatnashishi mumkin. Bu holda o'qituvchi talabalarga u yoki bu masalalar bo'yicha maslahatlar berish imkoniga ega. Talabalarining o'zaro fikr almashishini ta'minlab, ularga tarjima jarayonining ketishi va bosqichlari haqida ma'lumot beruvchi ushbu mashqlar 3), 4) va 9) raqamli vazifalarning samarali yechimini ta'minlaydi.

Moodle daturining yana bir vositasi bu viki (ingl. wiki). Viki – foydalanuvchilar mustaqil ravishda instrumentlar orqali o'zgartirishlar kiritiladigan veb-saytdir. Matnni formatlash va matnga turli rasmlarni joylashtirish viki-razmetka orqali amalga oshiriladi. "Viki" atamasi veb-saytni tasvirlash uchun birinchi bo'lib, 1995-yilda WikiWikiWeb viki-sistemasini ishlab chiqqan Uord Kanningem tomonidan qo'llanilgan. Bu kabi veb-saytlarning o'ziga xosligi shundaki, o'zgartirish kiritilganidan so'ng ham oldingi versiyani oraga qaytarish mumkin. Vikidan foydalanib, qu'yidagi ko'rinishdagi mashqlarni bajarish mumkin: tarjimonlarni ikki guruhga bo'lib, bir xil proekt ishlab chiqishlarini talab qilish mumkin. Viki vositasini chat bilan birga qo'llash orqali proekt ustida ishlash jarayonida talabalarining real vaddagi muloqotini ta'minlash mumkin. Viki-saytga matn tarjimasini kiritilsa chat vositasida "aqliy hujum" qay tarzda amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin. Proekt ustida ish yakunlaganidan so'ng, guruhlar bir-birlarining ishlarini ko'rib chiqishlari va tarjima jarayonini boshidan oxirigacha qanday kechganini, qanday o'zgartirishlar amalga oshirilganini kuzatish mumkin.

Vikiga yangicha yondashuvning yana bir turi yu elektron portfoliodir (e-portfolio). Hozirgi vaqtda portfolio resur sifatida ko'p hollarda ishlatilmoqda. Talabalar bilimni baholashning qulay turi va mustaqil ta'lim olishga yo'naltirilgan vosita sifatida portfolio mutaxassislar tayyorlashda keng qo'llanila boshladi. Ma'lum sohada talabaning o'sish dinamikasini ko'rsatib beruvchi bu elektron resurs qo'yidagi vazifalarning qanday bajarilganligiga qarab talabaning muvafaqqiyatlarini ko'rsatib beradi. Vikining afzallik tomoni yana shundaki talabalar hech qanday qiynchiliksiz turli hajmdagi ma'lumotlarni (nafaqat matn balki audiovideo ma'lumotlarni, rasmlarni, videofayllarni va h.k.) joylashtirish imkoniyatiga egadirlar. Talabaning o'qish jarayoniga oid bo'lgan materiallar haqida gap ketmoqda. Bu materiallarga nisbatan turli sharhlar keltirish imkoniyati baholash jarayonini yengillashtiradi.

Bu kabi portfolioning afzallik tomonlari yana shundaki, talabaning o'ziga ishonchi ortib, tarjimonlik kasbini egallashga bo'lgan asosi oshadi. O'qituvchi esa talaba bilimni va o'zlashtirish darajasini baholash yengillashtiradi.

Yuqoridagi mashqlar 3), 4), 6) va 9) raqamli vazifalarning samarali yechimini ta'minlaydi.

Moodle tizimining yana bir vositasi forumdir. Veb-forum – veb-ilovalarning guruhi bo‘lib, veb-sayt ishtirokchilarining erkin kirishlariga qulaydir. Forumdan elektron pochta kabi o‘qitish maqsadlarida foydalanish mumkin. O‘qituvchining roli bu yerda forumni moderatsiyasidir, shu yo‘l orqali talabalarni muhkama va o‘zaro aloqaga yo‘naltiradi. Veb-forum Internet tarmog‘ida talabalar va o‘qituvchi o‘rtasidagi muvoqotni ta‘minlab o‘zaro guruhda ishlash ko‘nikmasini yaratadi [3].

Xulosa. O‘qituvchi forumda matn joylashtirib, tarjima uchun muammo tug‘diradigan joylarini oldindan belgilaydi yoki noto‘g‘ri tarjima variantini joylashtiradi. Bu vaziyatda talabalar o‘zaro muvoqot vositasida berilgan variantlardagi xato va kamchiliklarni to‘g‘irlash ustida ish olib boradilar. Topshiriqning yana bir varianti talabalar bir-birlarining tarjima variantlarini tahlil qiladilar va xatolarini aniqlashadi. Bu mashq xuddi chat vositasi yordamida tashkil qilingan mashqlarga o‘xshaydi, biroq bu yerda tarjimaga nisbatan amalga oshirilgan tahlililar va munosabatlar real vaqtda emas, balki talabalar xohlagan vaqtda qoldirishlari mumkin. Forum talabadan hozirning o‘zida javobni talab qilmasdan unga o‘ylashga imkoniyat beradi. Yuqoridagi mashqlar 1), 2), 3), 6) va 9) raqamli vazifalarning samarali yechimini ta‘minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Boyle T. Design principles for authoring dynamic, reusable learning objects. Australasian Journal of Educational Technology. 2003, Mar 17, 19(1).
- (2). Wang P., Qiao S. Emerging applications of blockchain technology on a virtual platform for English teaching and learning. Wireless Communications and Mobile Computing. 2020 Dec 7, 2020.
- (3). Система перевода текста WebView Руководство пользователя. С.-Петербург, фирма “ПРОМТ”, 1998.
- (4). Чадина, И.С. К вопросу о методике подготовки переводчиков на современном этапе. Текст непосредственный. “Молодой ученый”, 2016, № 3 (107), с. 1106–1108; URL: <https://moluch.ru/archive/107/25765/>
- (5). Шиба А.В. Интерактивные технологии обучения в процессе подготовки будущих переводчиков. Текст непосредственный. “Молодой ученый”, 2013, № 9 (56), с. 427–430; URL: <https://moluch.ru/archive/56/7757/>

Rajabova Zamira Ravshanbekovna (Urganch davlat universiteti “Pedagogika va psixologiya” ta‘lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi)

O‘G‘IL VA QIZ BOLALARNING PSIXIK JARAYONLARIDAGI FARQLAR: DIQQAT VA XOTIRA

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘g‘il va qiz bolalarning psixik jarayonlari tuzilishi hamda ularning diqqat va xotirasidagi tafovutlar va ular yuzasidan qilingan bir qancha ilmiy izlanishlar yoritib o‘tilgan. Shuningdek, diqqatning xususiyatlari va xotiraning turlari hamda ularning qaysi biri o‘g‘il va qiz bolalarda nisbatan kuchli rivojlanganligi haqidagi fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: diqqat, xususiyat, xotira, qobiliyat, gender, imkoniyat, fikr, psixika.

Раджабова Замира Равшанбековна (студентка 3 курса по специальности «Педагогика и психологии» УрГУ)

РАЗЛИЧИЯ В ПСИХИЧЕСКИХ ПРОЦЕССАХ МАЛЬЧИКОВ И ДЕВОЧЕК: ВНИМАНИЕ И ПАМЯТЬ

Аннотация. В данной статье описана структура психических процессов мальчиков и девочек, различия их внимания и памяти, а также ряд научных исследований по ним. Также выделены особенности внимания и типов памяти и какие из них относительно сильнее у мальчиков и девочек.

Ключевые слова: внимание, специфика, память, способность, пол, возможность, мысль, психика.

Rajabova Zamira Ravshanbekovna (Urgench State University, 3rd year student of the specialty “Pedagogy and Psychology”)

DIFFERENCES IN THE MENTAL PROCESSES OF BOYS AND GIRLS: ATTENTION AND MEMORY

Annotation. This article describes the structure of the mental processes of boys and girls and the differences in their attention and memory, as well as a number of scientific studies on them. The characteristics of attention and memory types are also highlighted, and which of them are relatively stronger in boys and girls.

Key words: attention, specificity, memory, ability, gender, opportunity, thought, psyche.

Kirish. Mamlakatimizda bugungi kunda amalga oshirilayotgan barcha jabhadagi islohotlar pirovardida jamiyatning ijtimoiy hayoti va faoliyatining barcha jabhalarida gender munosabatlarni, ya‘ni, barcha

uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlash, ayniqsa, ayollarni tazyiq va zo'rvonliklardan himoya qilish masalalari bo'yicha zaruriy huquqiy asoslar yaratildi. Gender farqlar va tenglik asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni esa jamiyat taraqqiyotiga muhim hissa qo'shib, o'quvchi shaxsining madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik jihatdan barqaror rivojlanishi uchun zarur tarkibiy qism sifatida maydonga chiqadi. Mazkur maqsadni amalga oshirish jarayonida mavjud o'quv dasturlarini yangi pedagogik texnologiya va zamonaviy usullarni qo'llagan holda takomillashtirish eng birinchi vazifa hisoblanadi. Takomillashtirilgan o'quv dasturlarida o'g'il va qiz bolalar tengligi, qolaversa, barcha fanlar bo'yicha o'quv materiallarining gender tenglik va farqlar asosida belgilab berilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, O'zbekistonda xotin-qizlar huquqlarini ta'minlash va himoya qilishning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish maqsadida 2019-yil sentabr oyida "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi hamda "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi. O'zbekistonda Gender tenglik bo'yicha komissiya 2019-yildan boshlab ish yuritib keladi.

O'g'il va qiz bolalarning tenglikni rag'batlantirish va unga erishish uchun ommaviy axborot vositalari faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ijtimoiy va siyosiy faol xotin-qizlar imidjini aks ettiruvchi, xotin-qizlar va erkaklar uchun yaratilgan imkoniyatlarni yorituvchi radioeshittirishlar va teleko'rsatuvlar soni ko'paydi. Gender strategiyasining asosiy maqsadi – irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'iy nazar, xotin-qizlar va erkaklarning haqiqiy tengligini ta'minlashdan iborat. Gender tenglik psixologiya sohasining eng dolzarb masalalaridan bittasidir. Gender nazariyasining vujudga kelishida bugungi kunda ijtimoiy-madaniy rivojlanishning muqobil nazariyasiga aylangan feminizm hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Gender tengligi va jinsiy tenglik, aniqrog'i, erkaklar va ayollar o'rtasidagi tenglik – bu oilada va jamiyatda erkaklar va ayollar o'rtasida teng huquqlarga erishishni nazarda tutadigan tushuncha va boshqa qonuniy munosabatlar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Psixik jarayonlar tashqi olamni ongda aks ettirish, unga javoban reaksiyalarni berish bilan bog'liq jarayonlarning barchasini o'z ichiga oladi. "Psixik jarayonlar ongning o'zida paydo bo'lib, ongning o'zida tugallanadi", degan fikrni Sechenov mutlaqo noto'g'ri fikr deb hisoblagan edi.¹ Psixik hodisa hali yuzaga kelmagan natijadan ham darak beradi. Psixik jarayonlar signal yoki boshqaruv funksiyasini bajarib, sharoitga moslashtirishga yoki javob reaksiyasini berishga xizmat qiladi. Mazkur jarayon, ma'lumki, o'ziga emas, balki miyaning mohiyati, uning tegishli bo'lmalari funksiyasi sifatida olam haqidagi axborotlarning qayoqqa ketishi, qayerda saqlanishi va qayta ishlanishini ko'rastuvchi javob reaksiyasining boshqaruvchisidir.

Psixik jarayonlar, o'z navbatida, o'zbek olimlaridan X.Saidivaliyeva, Z.Ismailova, R.Ismaylova, K.Saydivaliyeva, G.Tuychieva tomonidan gender tenglikka erishishda tahliliy usul va vositalardan foydalanib, bilish jarayonlari, emotsional jarayonlar, shaxsning irodaviy holatlari va shaxsning individual xususiyatlari deb nomlangan bo'limlarga bo'lib o'rganganlar.² Biz hozir bilish jarayonlari hisoblanmish diqqat va xotiraning psixologik xususiyatlari, o'g'il va qiz bolalarda mazkur jarayonlarning o'xshashlik va tafovutlarini solishtirib chiqamiz.

Diqqat va xotiraning gender xususiyatlari quyidagicha talqin qilinadi. Diqqat – bu ma'lum bir obyektning idrok etishning tanlangan yo'nalishini ifodalovchi kognitiv aqliy jarayon. Diqqat insonning obyektga munosabatida o'z ifodasini topadi. Diqqat orqasida doimo insonning qiziqishlari va ehtiyojlari, munosabati va yo'nalishi, uning butun shaxsiyati turadi. Bu, birinchi navbatda, obyektga bo'lgan munosabatning o'zgarishiga sabab bo'ladi. Muayyan obyektga diqqatni jalb qilish sabablari uning predmetga nisbatan olingan xususiyatlari va sifatleri bilan ko'rsatiladi.

Xotira – bu kiruvchi ma'lumotlarni eslab qolish, saqlash va keyinchalik, takrorlashi bo'lgan kognitiv aqliy jarayon. Bu tanadagi tashqi yoki ichki ta'sirlarga javoban markaziy asab tizimidagi iz hodisalari bilan belgilanadigan ruhiy aks ettirish shaklidir. Murakkab aqliy jarayon bo'lib, xotira shaxsiy tajribani to'plash, saqlash va doimiy ravishda ishlatish, nazariy bilimlarni, amaliy ko'nikmalar va qobiliyatlarni mustahkamlash imkonini beradi.

Diqqatdagi gender farqlari haqidagi birinchi ma'lumotlar G.Gaymans tomonidan taqdim etilgan. Uning ta'kidlashicha, ayollarning diqqati yomonroq, ya'ni, ular bir vaqtning o'zida gaplasha olmaydi va biron-bir ishni bajara olmaydi. To'g'ri, bu yerda sabab boshqacha bo'lishi mumkin – diqqatni taqsimlay ol-

¹<https://cyberleninka.ru/article/n/harakteristiki-svoystv-vnimaniya-u-malchikov-i-devochek-v-mladshem-podrostko-vom-vozhraze>

² Сайдивалиева Х. Гендер тенгликка эришишда тахлилий усул ва воситаларнинг аҳамияти. Марказий Осиёда гендер, жамият ва оила халқаро илмий журнали, 1 (2), 2022, 68-бет.

maslikda emas, balki suhbatda haddan tashqari hissiy ishtirok etish tufayli uni tarqatishni istamaslik. U, shuningdek, ayollar nozik kuzatishni namoyish etishi haqida xabar beradi, lekin faqat ularni qiziqtirgan narsada va ayollar bir vaqtning o'zida taqdim etilganda materiallarni yanada qattiqroq tanlashadi. Ammo ikkinchisi ham diqqat yetishmasligini emas, balki uning boshqa tashkil etilishini ko'rsatishi mumkin.

I.A.Sergeeva o'rta maktab yoshida qizlarning ixtiyoriy diqqatning ustunligini aniqladi. M.S.Egorova va N.F.Shlyaxta tomonidan o'tkazilgan tajribalar o'n to'rt yoshdan o'n besh yoshgacha bo'lgan o'smirlarda diqqatning o'ziga xosligini ko'rsatdi: qizlar tezlikka, o'g'il bolalar esa ishning aniqligiga (diqqatning hajmi, barqarorligi va taqsimlanishi bo'yicha) diqqat qaratadilar. Shunga o'xshash natijalar kattalar subyektlarida (M.K.Bosyi, L.N.Fomenko) olingan. Shu bilan birga, ayollar selektivlik, barqarorlik va diqqatni jamlashda ustunlikka ega ekanligi aniqlandi. V.P.Bagrunov ko'rsatkichlarning o'zgaruvchanligi haqidagi gipotezani tekshirish uchun diqqatni o'rgandi. U erkaklar uchun yangi stimullar bilan ishlashda va ayollar uchun tanish, naqshli narsalar bilan ishlashda afzalliklarni topdi. Uning hamkasblari dyadlarda (bir jinsli va aralash jinsli) notanish odamlarning muloqotini o'rganishdi. Ma'lum bo'lishicha, ayollar muloqot paytida sherigining xulq-atvoriga ko'proq diqqat berishadi, uning fikrlari va his-tuyg'ulari haqida ko'proq o'ylashadi va sherik ularga diqqat berish uchun (so'zlar, qarashlar va yaqinroq masofalar yordamida) muloqotni tashkil etishga harakat qiladilar. Ma'lum bo'lishicha, ayollar, ko'pincha, o'zlarining sheriklari nimani o'ylashlari va his qilishlari haqida taxmin qilishadi va bu fikr va his-tuyg'ularni to'g'riroq taxmin qilishadi.

Xotiradagi gender farqlari diqqatga qaraganda yaxshiroq o'rganilgan. G.Gaymans ayollarning xotirasi yaxshiroq ekanligiga dalil beradi, lekin faqat ularning qiziqishini uyg'otadigan narsaga bog'liq, shuning uchun ular matematik va grammatik qoidalarni, tarixiy sanalarni va hokazolarni eslab qolishda muammolarga duch kelishlari mumkin. Bundan tashqari, ayollar qo'shnilik uyushmalari o'xshashlik uyushmalari ustidan hukmronlik qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Gender farqlari bo'yicha zamonaviy tadqiqotlarda xotira, birinchidan, asosiy jarayon sifatida turli materiallar (raqamlar, obyektlar, so'zlar, yuzlar, ijtimoiy vaziyatlar) bilan laboratoriya tajribalarida, ikkinchidan, axborotni tashkil qilish usuli, unga qiziqish sifatida o'rganiladi. Subyektlar tomonidan yodlash uchun qanday ma'lumotlar tanlanadi (o'zlari yoki boshqalar haqida), uchinchidan, subyektning umumiy xususiyatlarida tarkibiy o'zgaruvchi sifatida.

N.M.Gnedova va S.M.Elinovalar qarama-qarshi jinsdagi bolaning ishtirokidagi o'quv materiali bir jinsdagi bolaning ishtirokiga qaraganda yaxshiroq natijalarga olib kelishini ko'rsatdi.

Y.I.Petrov 18–26 yoshda erkaklarda xotira rivojlanish darajasi ayollarnikiga qaraganda yuqori ekanligini, 27–33 va 41–46 yoshda ayollar erkaklarnikidan oldinda turishini aniqladi.

